

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

AI-XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

«MILLIY G`OYA, MA`NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA`LIMI»

KAFEDRASI



«Huquqshunoslik. O`zbekiston Konstitutsiyasi»  
fani bo`yicha

**MA`RUZALAR MATINI**

Urganch – 2015

Ushbu ma'ruza matn Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasining 2015 yil 27 avgustdagi majlisida va Tarix fakultetining ilmiy kengashida muhokama qilindi va uning № 1 raqamli bayonnomasi bilan tasdiqlandi.

Tuzuvchilar: S.Quryozov.

Taqrizchilar: yu.f.n. Ya.Ollamov, t.f.n. U.Sharipov

# M U N D A R I J A

|                                                                                                                                                       |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 1. Davlat va huquq nazariyasi asoslari.....                                                                                                           | 4   |
| 2. Ma`muriy huquq asoslari.....                                                                                                                       | 15  |
| 3. Moliya va tadbirkorlik huquqi asoslari.....                                                                                                        | 20  |
| 4. Fuqarolik huquqi asoslari.....                                                                                                                     | 29  |
| 5. Mehnat huquqi asoslari.....                                                                                                                        | 38  |
| 6. Oila huquqi asoslari.....                                                                                                                          | 45  |
| 7. Ekologiya va qishloq xo`jaligi huquqi asoslari.....                                                                                                | 52  |
| 8. Jinoyat huquqi asoslari.....                                                                                                                       | 55  |
| 9. Xalqaro huquq asoslari.....                                                                                                                        | 60  |
| 10. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o`rganish o`quv kursining, maqsad-vazifalari va uslubi.....                                            | 66  |
| 11. Konstitutsiya tushunchasi va mohiyati. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va uning asosiy prinsiplari.....              | 69  |
| 12. O`zbekistonda inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari.....                                                             | 76  |
| 13. O`zbekistonda jamiyat va shaxs munosabatlarining Konstitutsiyaviy asoslari.....                                                                   | 81  |
| 14. Davlat tuzilishi va ma`muriy-hududiy bo`linish.....                                                                                               | 88  |
| 15. Saylov tizimi va saylov huquqi tushunchasi.....                                                                                                   | 95  |
| 16. O`zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimiyatning amalga oshirilishi va Konstitutsiyaviy asoslari.....                                   | 104 |
| 17. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy maqom.....                                                                               | 111 |
| 18. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarining huquqiy maqomi..... | 117 |
| 19. Sud hokimiyatining tashkil etilishi va O`zbekiston Respublikasi Prokuraturas.....                                                                 | 123 |
| 20. Adabiyotlar ro`yhati.....                                                                                                                         | 131 |

## **Huquqshunoslik. O`zbekiston Konstitutsiyasi fanidan o`quv materiallari (ma`ruza matnlari)**

**1-Mavzu: Davlat va huquq nazariyasi asoslari. 2 soat.**

**Reja:**

- 1. Davlatning kelib chiqishi va unga doir nazariyalar, davlatning belgilari.**
- 2. Davlatning funksiyalari, shakllari va mohiyati.**
- 3. Huquq va uning belgilari**
- 4. Huquqning kelib chiqishiga doir nazariyalar**
- 5. Huquqning funksiyalari, huquq normalari va huquq tizimi.**

### **1. Davlatning kelib chiqishi, uning belgilari.**

Insoniyat davlat paydo bo`lguniga qadar o`z taraqqiyotida uzoq yo`lni bosib o`tgan. Davlat ham, huquq ham bo`lmagan ibtidoiy jamiyat bir biridan asosan ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi bilan farq qiladigan yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiya kabi uch bosqichni o`tgan. Mehnat qurollarining rivojlanishi va takomillashishi, yirik ijtimoiy mehnat taqsimoti (ziroatchilikning chorvachilikdan, hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralishi, savdoning alohida iqqisodiy sohaga aylanishi) natijasida mehnat unumdorligi oshib, ortiqcha mahsulot hosil bo`lgan, bu esa xususiy mulkchilikka va jamiyatning mulkiy jihatdan tabaqalashuviga olib kelgan. Ana shu tufayli asosiy mashg`uloti xususiy mulkchilik munosabatlarini va mulkdorlar manfaatini muhofaza qilishdan iborat bo`lgan kishilarning maxsus guruhlarini yuzaga kelgan.

Shunday qilib, ibtidoiy jamiyatda oqsoqollar, urug` va qabila boshliqlari hamda din rahnamolariga tegishli bo`lgan ijtimoiy hokimiyat asta sekin davlat hokimiyatiga aylangan. Agar davlat paydo bo`lgunicha mavjud bo`lgan jamiyatda ijtimoiy hokimiyatni saqlashning asosiy vositasi oliy ruhoniylarning shaxsiy obro`i bo`lgan bo`lsa, davlat hokimiyatining mohiyatini majburlash tashkil eta boshlagan. Insonning jamiyatdagi mavqei tubdan o`zgargan. Agar ibtidoiy jamiyatda insonning mavqei alohida shaxsning oilaga, urug`ga yoki qabilaga mansubligi bilan belgilangan bo`lsa, davlatga ega jamiyatda insonning mavqei uning mulkiy holati va davlat hokimiyati sohiblariga qarab belgilangan.

Davlat jamiyat rivojining muayyan bosqichida yuzaga kelgan. U o`zining shakllanishi va rivojlanishida uzoq va murakkab yo`lni bosib o`tgan. Jamiyat rivojining dastlabki bosqichlarida davlat yetarlicha rivojlanmagan siyosiy hodisa bo`jan. Bunday davlat, eng avvalo, majburlashga asoslangan.

Demokratiya sharoitida davlat sivilizatsiya talablariga mos tarzda rivojlanadi. U iqqisodiy va ma`naviy omillar asosida hokimiyatning mamlakatda tartibotni ta`minlaydigan bir butun

tashkilotiga aylanadi. Davlat o'zining asosiy vazifasini — xalq hokimiyatchiligi, iqtisodiy erkinlik, mustaqil shaxs erkinligini ta'minlash vazifasini ado etadi.

Davlat va huquqning kelib chiqishi to'g'risidagi masala ko'p asrlar davomida ko'plab mutafakkir faylasuflar, yuristlar, tarixchilarni o'ylantirib kelgan. Davlat va huquqning kelib chiqishi haqida turli xil nazariyalar mavjud. Shulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

**1. Teologik nazariya** vakillari davlatning xudo tomonidan yaratilganligini uqtiradilar, «butun hokimiyat xudoniki» degan qoidani ilgari suradilar. Bu nazariya qadimda paydo bo'lgan va o'rta asrlarda keng tarqalgan. Ushbu nazariya teokratik, ya'ni davlat boshlig'i ayni paytda uning diniy rahnamosi bo'ladigan davlat qaror topgan davrdagi jarayonlarni aks ettiradi.

**2. Patriarxal nazariya** tarafdorlari davlat kattalashib ketgan oiladan bevosita kelib chiqqan, monarx hokimiyati esa go'yo oilaning barcha a'zolariga rahbarlik qiladigan otadan meros bo'lib o'tgan deb hisoblaydilar. Ushbu nazariya Yunonistonda (qadimgi Gretsiyada) paydo bo'lgan va Arastu (Aristotel) asarlarida asoslab berilgan, XVII asrda ingliz olimi Filmerning «Patriarx» asarida rivojlantirilgan. Muallif Injilga asoslanib, Odam atoning hokimiyatni xudodan olib, o'zining katta o'g'li — patriarxga, u esa o'zining avlodlari bo'lgan qirollarga berganligini isbotlashga uringan.

**3. Shartnoma nazariyasi** XVII-XVIII asrlarda yoyilgan. Gollandiyada ushbu nazariyani Grotsiy va Spinoza, Angliyada — Lokk va Gobbs, Frantsiyada — Russo Rossiyada A. N. Radishchev rivojlantirgan. Ularning fikricha, hokimiyat xalqqa tegishli bo'lib, xalq uni monarxga bergan. Agar monarx hokimiyatni suiiste'mol qilsa, xalq qo'zg'olon ko'tarishga va monarxni taxtdan ag'darishga haqli bo'ladi.

Shartnoma nazariyasiga ko'ra, davlat — ongli ijod mahsuli, odamlar kelishuvi natijasi. Davlat — o'zaro kelshuv asosida va ongli tarzda birlashgan kishilar tashkiloti bo'lib, ana shu shartnoma asosida ular o'zlarining erkinliklari va hokimiyatining bir qismini davlatga beradilar.

**4. Zo'rlik nazariyasi** (Gumplovich, Kautskiy)ga ko'ra, davlatning kelib chiqishi asosida zo'rlik harakati, bir xalqning boshqa xalqni bosib olishi yotadi. Davlat g'olibning hokimiyatani mustahkamlash uchun tuziladi.

**5. Irrigatsiya nazariyasiga** ko'ra, davlatlarning kelib chiqishi, ularning ilk shakllari Sharqda ulkan irrigatsiya inshootlarini qurish va ulardan foydalanish bilan bog'liq. Ushbu nazariya nemis olimi Vitfgogelning «Sharq istibdodi asarida ifodalab berilgan.

**6. Sinfiy nazariya** namoyandalari (K. Marks, F. Engels, V. I. Lenin) fikricha, davlat iqqisodiy sabablar — ijtimoiy mehnat taqsimoti, qo'shimcha mahsulot va xususiy mulkning paydo bo'lishi, jamiyatning qarama qarshi iqtisodiy manfaatlarga ega sinflarga ajralishi tufayli kelib chiqqan. Ushbu jarayonlarning ob'ektiv natijasi o'laroq davlat o'zining maxsus boshqarish va bostirish vositalari bilan ana shu sinflarning kurashini bostirib turadi. Bunda davlat hukmron sinf manfaatlarini himoya qiladi. V. I. Lenin davlatni sinflarni kelishtirish organi emas, balki sinfiy hukmronlik organi, bir sinfning boshqa sinfni bostirish quroli, bir sinfning boshqa sinf ustidan hukmronligini ta'minlash mashinasi, deb hisoblagan.

**Davlat tushunchasi va uning belgilari.** «Davlat» keng ma'noli tushunchadir. Davlatning mohiyatini tushunishda uch asosiy nazariy yondashuv mavjud: *ijtimoiy*, *sinfiy* va *siyosiy huquqiy*.

Birinchi yondashuvga ko'ra, davlat — umumiy muammolar va ishlarni hal etish vositasi, u hukmdorlar va xalqning o'zaro munosabatini tartibga soladi. Ikkinchi yondashuvning mohiyati shundaki, davlat sinflarning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan va sinfiy kurash bir sinfning boshqasini bostirish quroli bo'lib xizmat qiladi. Uchinchi yondashuvning asosi quyidagicha: davlat jamiyatning va davlatdagi o'zining hayotini tashkil etuvchi huquq manbaidir.

Albatta, uchala yondashuvda ham muayyan asos bor.

**Davlat** — suverenitetga, boshqaruvning hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning maxsus apparatiga ega bo'lgan, shuningdek, huquq normalari (qoidalari)ni yaratishga qodir bo'lgan ommaviy hokimiyatning siyosiy hududiy tashkiloti.

**Davlat** — butun mamlakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo'lgan, barcha uchun majburiy qonunlar chiqaradigan va suverenitetga ega bo'lgan yagona siyosiy tashkilot.

**Davlat** — jamiyat siyosiy tizimining odamlar, guruh, sinf va tashkilotlarning hamkorlikdagi faoliyatini va o'zaro munosabatini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va nazorat qiluvchi asosiy institut.

**Davlatning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:**

1) *o'ziga xos ommaviy hokimiyat* — *davlat hokimiyatining mavjudligi*, ya'ni hokimiyat va boshqaruv apparatining borligi;

2) *aholining hududlar bo'yicha uyushganligi*. Bu fuqarolarning davlat chegaralari doirasida, muayyan ma'muriy hududiy birliklarda yashashini bildiradi;

3) *suverenitet*, ya'ni ichki va tashqi siyosatni o'tkazishda mustaqil bo'lish;

4) *huquqiy ijodkorligi*, ya'ni davlat hududida yashovchi barcha kishilar rioya etadigan qonunlarni chiqarishga qodirlik;

5) *aholidan* davlat apparatini saqlash hamda aholining kam ta'minlangan qismiga yordam berishga sarflanadigan *solisqlarni to'plash*;

6) *umumiy funktsiyalarpi (vazifalar)ni bajarish*, ya'ni hududni qo'riqlash, jinoyatchilikka qarshi kurash, umumiy farovonlik maqsadlarini amalga oshirish.

**2. Davlatning funksiyalari, shakllari va mohiyati.**

**Davlatning funksiyalari** davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlaridir. **Davlat funksiyalarining asosiy belgilari:**

1) *mazmuni* — davlat faoliyati bir xil jihatlarining yig'indisi;

2) *miqyosi* — funksiyalar davlatni bir butun sifatida qamrab oladi;

3) *xususiyati* — kompleks, majmuaviy;

4) *maqsadi* — insonning ijtimoiy himoyalanganligi, tashqi xavfsizlik va h.k.

Davlatning funksiyalari ichki va tashqi funksiyalarga bo'linadi.

**Davlatnit ichki funksiyalari mamlakat ichki hayotini boshqarishga qaratilgan faoliyatining asosiy yo'nalishlaridir.**

*Ichki funksiyaga quyidagilar kiradi;*

1) *regulyativ* (tartibga solish, boshqarish);

2) *qo'riqlash* (saqlash, muhofaza qilish).

a) *Regulyativ funktsiya* davlatning iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi o'rnini belgilaydi.

b) *Qo'riqlash funktsiyasi* davlatning huquq bilan mustahkamlangan va tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarni ta'minlash va himoya qilishga qaratilgan quyidagi faoliyatini taqozo etadi:

- a) fuqarolar huquq va erkinliklarini muhofaza qilish;
- b) tabiatni muhofaza qilish;
- v) barcha shakllardagi mulklarni himoya qilish;
- g) huquqni muhofaza qilish.

***Tashqi funksiyalar — davlatning xalqaro maydondagi faoliyatining asosiy yo`nalishlari.***

1. *Xalqaro hamkorlik*: tashqi siyosiy faoliyat; tashqi iqqisodiy faoliyat.

2. *Mudofaa va milliy xavfsizlikni ta'minlash*.

**Davlat shakli deganda**, davlatning tuzilishi va boshqaruv usulini belgilaydigan tashqi xususiyatlari tushuniladi. Davlat shakli quyidagi uch elementni o`zida ifodalaydi:

- davlat boshqaruvi shakli;
- davlat tuzilishi shakli;
- siyosiy rejim.

**Boshqaruv shakli** deganda, oliy davlat hokimiyati, uning idoralari, aholi bilan o`zaro munosabati, aholining ushbu idoralarni shakllantirishda ishtirok etish darajasi tushuniladi.

Boshqaruv shakliga ko`ra davlatlar monarxiya va respublikaga bo`linadi.

«**Monarxiya**» so`zi yunonchada «yakka hokimlik» ma`nosini bildiradi. Monarxiya oliy hokimiyat yakka hokim — davlat boshlig`ining qo`lida bo`lgan va bu hokimiyat meros qilib beriladigan davlat boshqaruvi shaklidir.

*Monarxiyaning asosiy belgilari* quyidagilardan iborat:

- 1) monarx davlatni shaxsiylashtiradi, tashqi va ichki siyosatda davlat boshlig`i sifatida maydonga chiqadi;
- 2) monarx davlatni yakka o`zi boshqaradi;
- 3) monarx hokimiyati muqaddas deb e`lon qilinadi;
- 4) monarx o`z faoliyatida rasman mustaqildir;
- 5) hokimiyatni o`rnatish, qabul qilish (legitimashtirish)ning alohida tartibi mavjud;
- 6) muddatsiz, umrbod boshqaruv;
- 7) monarx o`z boshqaruvining natijasi uchun yuridik jihatdan javobgar emas.

Monarxiya *mutlaq* va *cheklangan* (yoki *parlamentar*) shakllarda bo`ladi.

Davlat hokimiyatini boshqa biron bir idora bilan cheklanmagan monarx (qirol, podsho, imperator) amalga oshirsa (masalan, Saudiya Arabistonida), bunday monarxiya *mutlaq monarxiya* deyiladi.

Agar monarxning hokimiyati konstitutsiya asosida amal qiladigan biron bir vakolatli idora bilan cheklangan bo`lsa, bunday monarxiya *cheklangan, konstitutsiyaviy, parlament* shaklidagi monarxiya bo`ladi (masalan, Buyuk Britaniya, Daniya, Norvegiya, Shvetsiya).

«Respublika» soʻzi yunonchada «umumiy ish» maʼnosini bildiradi. Respublika davlat boshqaruvining hokimiyat oliy idoralari muayyan muddatga saylanadigan shaklidir.

*Respublikaning asosiy belgilari* quyidagilardan iborat:

- 1) hokimiyat oliy idoralarining saylab qoʻyilishi;
- 2) hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi;
- 3) hokimiyat oliy organlarining oʻz qarorlarini saylangan muddati davomida qabul qilishi;
- 4) qonunlarning bajarilishini nazorat qiluvchi organ boʻlgan sudlar obroʻining ortishi;
- 5) fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok eta olishi.

Respublikalar *prezidentlik* respublikasi va *parlamentar* respublikalarga boʻlinadi.

*Prezidentlik respublikasida* davlatni xalq saylaydigan va juda keng vakolatlarga ega boʻlgan Prezident boshqaradi. U davlatning ham, hukumatning ham boshligʻidir. Bunday respublikada hukumatni prezident tuzadi. Prezidentlik respublikasining misoli sifatida AQSHni keltirish mumkin.

*Parlamentar respublikada* davlat boshligʻi saylanuvchi mansabdor shaxs boʻlib, nisbatan torroq vakolatlarga ega. Bunda prezidentni parlament saylaydi. U rasman davlat boshligʻi hisoblanib, asosan vakillik funksiyalarini bajaradi. Uning hukumatni tuzish va mamlakatni boshqarganda tutgan oʻrni nomigagina ahamiyatga ega boʻladi. U hukumatni boshqarmaydi (hukumatni bosh vazir boshqaradi). Ammo hukumat uni tarqatib yuborishi mumkin boʻlgan parlament oldida javobgardir. Parlamentar respublikaga Avstriya, Italiya, Germaniya misol boʻladi.

Respublika shaklidagi boshqaruvning yana bir koʻrinishi **aralash** boshqaruvdir. Bunday boshqaruvda prezidentlik va parlamentar respublikalar elementlari aralashib ketgan boʻladi, Masalan, Fransiyada prezidentni xalq saylaydi. U juda katta vakolatlarga ega boʻladi, ammo hukumatni boshqarmaydi.

**Davlatning tuzilishi shakli** uning maʼmuriy hududiy tashkil etilishidir.

Davlat tuzilishi boʻyicha barcha davlatlar quyidagi turlarga boʻlinadi:

- unitar
- federativ
- konfederativ.

**Unitar davlat** — bu oddiy, yaxlit davlat. Bunday davlat viloyat, oblast, okrug, voevodstvo, rayon, tuman deb turlicha nomlanadigan maʼmuriy hududiy birliklarga boʻlinadi. Bunday davlatda bitta parlament, bitta hukumat, bitta prezident boʻladi. Unitar davlat odatda bir millatli boʻladi.

*Unitar davlat belgilari* quyidagilardan iborat:

- 1) butun mamlakat miqyosida bir xil boʻlgan vakillik, ijroiya va sud organlari boʻladi;
- 2) bitta konstitutsiya;
- 3) yagona qonunchilik tizimi;
- 4) yagona fuqarolik;
- 5) yagona pul birligi;



- 6) barcha ma'muriy hududiy birliklar uchun umumiy bo'lgan soliq va kredit siyosati;
- 7) unitar davlatlar tarkibiy qismlari suverenitetga ega emas (ya'ni tom ma'nodagi davlatlar emas);
- 8) yagona armiya mavjudligi.

**Federativ davlat** — murakkab, ittifoqdosh davlat. Odatda u bir qancha davlatlarning birlashuvidan hosil bo'ladi. Birlashganidan keyin bu davlatlar federatsiya a'zolari yoki sub'ektlari bo'lib qoladilar. Ular turlicha atalishi (shtatlar, o'lkalar, respublikalar) va o'z ma'muriy hududiy bo'linmalariga ega bo'lishi mumkin.

Federatsiyada hokimiyat idoralarining ikki tizimi amal qiladi: federal darajada va federatsiya sub'ektlari darajasida. Federal darajada ham, federatsiya sub'ektlari darajasida ham prezident, parlament, hukumat bo'lishi mumkin.

*Federativ davlat belgilari:*

- 1) federatsiya hududi uning sub'ektlari hududidan tashkil topadi;
- 2) oliy qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati federal davlat organlariga tegishli bo'ladi;
- 3) federatsiya sub'ektlari va federatsiyaning o'zi o'rtasidagi vakolatlar ittifoq konstitutsiyasi bilan ajratiladi;
- 4) federatsiya sub'ektlari o'z konstitutsiyasi, o'zlarining oliy qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlariga ega;
- 5) federatsiyaning oliy qonun chiqaruvchi (vakillik) idorasi ikki palatali tuzilishga ega (federatsiya a'zolarining manfaatlarini ifoda etuvchi qo'shimcha palata mavjud).

Federatsiya hududiy va milliy turlarga bo'linadi.

Jahonda 20 tadan ko'proq federatsiya bor. Federatsiya va ular sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlar har doim ham uyg'un emas. Tez tez buning aksi ham bo'ladir. Milliy hududiy printsiplarga bo'yicha tuzilgan federatsiyalardan bo'lgan Sovet Ittifoqi, Chexoslovakiya, Yugoslaviya tarqalib ketdi.

Hozir amal qilayotgan federatsiyalarning misoli sifatida Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya Federativ Respublikasi, Braziliya, Rossiya Federatsiyasi, Hindistonni keltirish mumkin.

**Konfederatsiya** — o'z suvereniteti va mustaqilligini saqlab qolgan holda u yoki bu maqsadga erishish uchun birlashgan davlatlar ittifoqi. Konfederatsiyada yagona hudud, yagona fuqarolik bo'lmaydi. Har bir davlat xalqaro huquqning teng huquqli sub'ekti bo'ladi.

*Konfederatsiya belgilari* quyidagilardan iborat:

- 1) mustaqil davlatlarning muayyan maqsadlarga erishish uchun birlashgan ekanligi;
- 2) konfederatsiya — mustahkam bo'lmagan tuzilma;
- 3) yagona hududning yo'qligi (konfederatsiya uning a'zolari bo'lgan davlatlar hududidan tashkil topadi);
- 4) yagona fuqarolikning bo'lmasligi;
- 5) konfederatsiya sub'ektlari undan erkin chiqish huquqiga egadirlar;

6) konfederatsiya sub'ektlari ittifoq hokimiyati qonun hujjatlarini e'tirof etmaslik yoki qo'llamaslik huquqiga egadirlar;

7) konfederatsiya vakolatiga uncha ko'p bo'lmagan (urush va tinchlik, xalqaro siyosat va h. k.) masalalarni hal etish kiradi;

8) konfederatsiya budjeti uning a'zolarining ixtiyoriy badallaridan tashkil topadi.

Konfederatsiyaning misoli sifatida 1848 yilgacha bo'lgan Shveysariyani, hozir esa Yevropaning 15 ta davlatini birlashtirgan Yevropa Ittifoqini keltirish mumkin.

**Siyosiy rejim** davlat hokimiyatini amalga oshirish usul va yo'llarining majmui bo'lib, mamlakatdagi siyosiy vaziyatni, ya'ni jamiyatdagi siyosiy erkinlik darajasini va shaxsning huquqiy holatini bildiradi.

**Demokratiya** (yunoncha «xalq hokimiyati») — inson siyosiy va fuqarolik huquqlarining kengligini, fuqarolarning davlat hokimiyati idoralarini tuzishda va ularning faoliyatida faol ishtirok etishini, xalq irodasini demokratik hokimiyatning yagona manbai deb bilish anglatadi. Xalq hokimiyatchiligi ikki shaklga ega: vakillik demokratiyasi va bevosita demokratiya.

**Vakillik demokratiyasi** xalqning o'z hokimiyatini vakillik idoralari, ya'ni demokratik hokimiyatning va mahalliy o'zini o'zi boshqarish idoralarining saylab qo'yiladigan organlari orqali amalga oshirilishini bildiradi.

**Bevosita demokratiya** xalqning demokratik hokimiyat masalalarini hal etishda umumxalq ovoz berishi (referendum) yo'li bilan to'g'ridan to'g'ri ishtirok etishidir.

#### **Demokratik rejim belgilari:**

- 1) shaxsning iqtisodiy sohada erkinligi;
- 2) inson va fuqaro huquqlari va erkinliklarining e'lon qilinishi va kafolatlanishi;
- 3) barcha shakllardagi va tom ma'nodagi demokratiya;
- 4) hokimiyat vakolatlarining bo'linishi;
- 5) ijtimoiy hayotda fikrlar xilma xilligi (plyuralizm), ijtimoiy birlashmalarning ko'pligi;
- 6) qonun ustunligi.

**Aksildemokratik rejimga** xos xususiyat shundaki, bunday rejimda davlat idoralari hokimiyatni amalga oshirish chog'ida demokratik printsiplar va qoidalarga rioya etmaydilar, ularni doimo yoki tez-tez buzadilar. Bunday siyosiy rejimda fuqarolarning huquq va erkinliklari poymol etiladi, qo'pol ravishda buziladi, muxolifat bartaraf etiladi (ba'zan juda shafqatsizlik bilan), ba'zida esa parlament singari demokratik institutlar yo'q qilinadi.

*Aksildemokratik rejim belgilari* quyidagilardan iborat:

- 1) davlatning huquqdan ustunligi;
- 2) davlatning jamiyat hayoti barcha sohalarini nazorat qilishi;
- 3) davlatning shaxs manfaatlariga befarqligi;
- 4) jamoat tashkilotlarining davlatlashtirilishi;
- 5) ijtimoiy hayotning butunlay harbiylashtirilishi;
- 6) kam sonli millatlar manfaatlariga e'tibor berilmasligi.

Aksildemokratik rejimlar ichida fashistik va totalitar rejimlarni ko'rsatish mumkin.

**Fashistik rejimda** har qanday muxolifat yo'q qilinadi, biron irqning hukmronligi e'lon qilinadi, boshqa hududlarni bosib olish uchun yo'l ochiladi. 1933—1945 yillardagi fashistlar Germaniyasi va o'sha davrdagi fashistlar Italiyasi fashistik rejimli davlatlarga misol bo'la oladi.

**Totalitar rejim** bir partiyaning hukmronligi, huquq va erkinliklarning poymol etilishi, ko'pincha esa ularning yoppasiga buzilishi, o'zgacha fikrlashga qarshi kurash, saylovchilarning saylovda muqobil deputatlarni saylash imkoniyatining bo'lmasligiga asoslangan boshqaruvi deb ta'riflanadi. Totalitar davlat misoli sifatida sobiq Sovet Ittifoqini keltirish mumkin. Siyosiy rejim davlat shaklining insonning jamiyatdagi mavqeini belgilovchi eng muhim elementidir.

### 3. Huquq va uning belgilari

**Huquq** — davlat tomonidan o'rnatilgan yoki ma'qullangan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy xulq atvor qoidalarining tizimi.

«Huquq» iborasi ikki ma'noda qo'llaniladi.

**Ob'ektiv huquq** — umummajburiy xulq atvor qoidalarining yig'indisi. Bu normalar u yoki bu insonning, sub'ektning irodasi hamda xohish istagidan qat'i nazar mavjud bo'ladi.

**Sub'ektiv huquq** — muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsga tegshli bo'lgan huquq. Masalan, fuqaro Alievning ma'lum narsaga, aytaylik, avtomobilga nisbatan mulk huquqi.

Huquq davlat bilan chambarchas bog'langan. Davlatsiz huquq bo'lishi mumkin emas, chunki aynan davlat huquqni keltirib chiqaradi va huquqiy normalarning amalga oshirilishini kafolatlaydi, huquqni muhofaza qiladi.

O'z navbatida, davlat ham huquqsiz mavjud bo'lishi mumkin emas. Aks holda, u ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi vositadan mahrum bo'ladi.

Huquqning asosiy belgilari quyidagilardir:

- 1) davlat yo'li bilan o'rnatilishi;
- 2) barcha uchun majburiyligi;
- 3) huquq normalarining qonunlar va boshqa muayyan manbalarda ifodalanishi;
- 4) sub'ektiv huquqlar orqali harakat qilish;
- 5) davlat tomonidan ta'minlanganligi.

Huquq adolatdan ajralmasdir. Rim huquqida huquqning halol yashash, o'zgalarni xafa qilmaslik, har kimga kerakligini berish kabi qoidalari yozib qo'yilgan edi. Huquq ezgulik va adolatlilik san'atidir. Huquqda adolat mezonini ifodalanadi.

### 4. Huquqning kelib chiqishiga doir nazariyalar

Davlat kabi huquqning kelib chiqishi to'g'risida ham turli nazariyalar mavjud.

**1. Tabiiy huquq nazariyasi** — huquq nazariyalarining eng qadimiylaridan biri. Uning vakillari huquqning o'zida adolatning mutlaq, o'zgarmas ibtidosini mujassam etganligidan kelib chiqadilar. Huquq tabiatan mavjud, uni hech kim o'ylab topmagan, u xuddi insonning o'zi kabi

tabiiydir. Ushbu nazariya tarafdorlari tabiiy huquqni yuridik normalarning yig'indisi ko'rinishidagi huquqqa qarshi qo'yadilar. Tabiiy huquq — davlat intilishi zarur bo'lgan uziga xos ideal.

**2. Huquqning tarixny nazariyasi** vakillari huquq tarixan paydo bo'lgan va rivojlanadi deb hisoblaydilar. Yerga ekilgan urug' kabi u xalqning ongida o'sib boradi va adolat, qonunlar shaklida namoyon bo'ladi. Huquq tabiatdan kelib chiqmaydi. U yoki bu xalqning tarixiy hayoti huquqni qanday ko'rinishga keltirsa, u shunday bo'lib qoladi.

**3. Huquqning psixologik nazariyasida** huquqning kelib chiqishi va rivojlanishi shaxs yoki shaxslar guruhining psixologiyasi bilan izohlanadi. Huquq psixologik yo'nalishlar, turli kechinmalar, hissiyotlar va instinktlarning mahsuli, deb qaraladi.

**4. Huquqning sinfiy (marksistik) nazariyasi** huquqning sinfiy mohiyatiga urg'u beradi. Bunda huquq hukmron sinf irodasining qonun darajasiga ko'tarilganligi sifatida talqin etiladi. Bu iroda mazkur sinf hayotining moddiy sharoitlaridan kelib chiqib belgilanadi.

## **5. Huquqning funksiyalari, huquq normalari va huquq tizimi.**

Huquq jamiyat hayotida muayyan funksiyalarni bajaradi. Huquqning funksiyasi deganda, ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etish, ularni tartibga solishning asosiy yo'nalishlari tushuniladi. Huquqning asosiy funksiyalari quyidagilar: tartibga soluvchi, qo'riqlovchi va tarbiyaviy.

*Tartibga solish* funksiyasi — tegishli ijtimoiy aloqalar hamda munosabatlarni va u yoki bu sub'ekt faol xulq atvorining mezonini mustahkamlash va rivojlantirishdan iborat.

*Qo'riqlash* funksiyasi — huquqiy muhofaza va yuridik javobgarlik choralarini belgilash, ularni qo'llash va javobgarlikni o'tash tartibini o'rnatishdan iborat.

*Tarbiyaviy* funksiya — turmushda nimalarni qilish mumkin, nimalar esa ta'qiqlanadi, u yoki bu vaziyatda qanday harakat qilish lozimligini belgilashdan iborat. Bunda huquq ishontirish metodiga tayanadi, zarur bo'lganda majburlash metodini, hatto jazolashni ham nazarda tutadi.

**Huquq normalari.** «Norma» so'zi lotinchadan tarjima qilinganda «qoida», «namuna» ma'nosini anglatadi.

Huquq normasi — davlat tomonidan belgilanadigan, kafolatlanadigan va muhofaza qilinadigan barcha uchun majburiy xulq atvor qoidasi.

Huquq normasi umumiy xulq atvor qoidasi sifatida:

1) hayotiy munosabatlardagi tipik, takrorlanib turadigan narsalarni umumlashtirish zarurati natijasida shakllanadi;

2) shaxsi aniqlanmagan va ko'p marta qo'llashga mo'ljallangan bo'ladi;

3) hamisha qandaydir umumiy belgilarga ega bo'lgan shaxslar (harbiy xizmatchilar, vrachlar va sh.k.)ga qaratilgan bo'ladi.

Huquq normasi davlat bilan uzviy aloqadordir. Huquq normasi:

- davlatning (xalqning) irodasini aks ettiradi;

- davlat tomonidan normativ hujjatlarda shakllantiriladi; davlat tomonidan muhofaza qilinadi, zarur bo'lgan hollarda davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlanadi;

- jamiyat va davlat nuqtai nazaridan eng muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi.

Huquq normasining asosiy vazifasi — ijtimoiy muposabatlarni tartibga solish. Huquq normasi umummajburiy xususiyatga ega, U huquq tizimidagi birlamchi hujayradir

Huquq alohida normalar, xulq atvor qoidalaridan tashkil topgan. Ular birgalikda u yoki bu mamlakatning huquqiy tizimini tashkil etadi.

Huquq normasi, tuzilishiga ko'ra, uch tarkibiy qism: gipoteza, dispozitsiya va sanktsiyadan tashkil topgan.

**Gipoteza** — huquq normasining tarkibiy qismi bo'lib, unda norma amal qila boshlaydigan, bajariladigan sharoit bayon etiladi. Pensiya haqidagi qonunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida erkaklarga umumiy mehnat staji 25 yil bo'lganidan so'ng 60 yoshdan, ayollarga esa 20 yillik staj bilan 55 yoshdan boshlab sotsial ta'minot bo'limlari tomonidan pensiya to'lanadi.

**Dispozitsiya** — huquq normasining shunday tarkibiy qismiki, unda xulq atvor qoidalarining o'zi ifodalanadi, huquq sub'ektlarining huquq va majburiyatlari belgilab beriladi. Masalan, Jinoyat kodeksining 223 moddasida belgilangan tartibni buzib chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish yoxud chegaradan o'tish uchun javobgarlik belgilangan. Bu huquq normasining dispozitsiyasi — hukumatning ruxsatisiz yoki qalbaki hujjatlardan foydalanib, yoinki buning uchun belgilangan chegara punkti orqali o'tmay, davlat chegarasidan noqonuniy o'tishning ta'qiqlanganligidir.

Dispozitsiya — shu xulq atvor qoidasining o'zi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq, ota-onalar o'z farzandlarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

**Sanktsiya** — huquq normasini bajarmaganlik uchun davlat organlari qo'llaydigan majburlor chorasi. Sanktsiyaning turlari hayfsan, jarima, ozodlikdan mahrum etish va boshqalar bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, huquq normasi quyidagilarni belgilab beradi:

1) kim, nimani va qachon qilishi kerakligini (gipoteza);

2) huquqiy normaning ma'no mazmunini (dispozitsiya);

3) huquq normasi bajarilmasligining oqibatlari qandayligini (sanktsiya). Ta'kidlash kerakki, barcha huquq normalari ham uchala tarkibiy qismga ega emas. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari faqat gipoteza va dispozitsiyaga ega. Sanktsiyalar esa Konstitutsiya normalarini aniqlashtiruvchi qonunlar, kodekslar va shu kabilarda ifodalangan.

Huquqiy normalarni ular mazmunidagi qoidalarining xarakteriga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin: vakolat beruvchi, majburiyat yuklovchi, ta'qiqlovchi, imperativ (buyruq beruvchi) va dispozitiv (to'ldiruvchi).

**Vakolat beruvchi vormalar** — ruxsat mazmunidagi normalar bo'lib, nimalarni qilish mumkinligini belgilaydi.

**Majburiyat yuklovchi normalar** — nimalarni qilish zarurligini belgilovchi normalar.

**Ta'qiqlovchi normalar** — nima qilish mumkin emasligini belgilovchi normalar.

**Imperativ (buyruq beruvchi) normalarda** qoida qat'iy talab shaklida aks ettirilib, undan biron bir tarzda chetga chiqish mumkin emas (masalan, soliq qonunchiligi normalari).

**Huquq** — ichki yaxlitligi va o'zaro muvofiqligi bilan ajralib turadigan muayyan tizim. Lekin, boshqa tizimlar kabi, huquq ham huquq tarmoqlaridan iborat kichik tizimlarga bo'linadi. Davlatning yuridik normalari yig'indisi uning huquqini tashkil etadi. Huquqiy normalar turli tuman

bo'lib, ular o'zaro mustahkam bog'langan, muvofiqlashgan va yaxlit huquq tizimini tashkil etadi. Huquq **tizimi** turli tuman, lekin o'zaro mustahkam aloqada bo'lgan yuridik normalar yig'indisidir.

Huquq tizimi katta tarkibiy qismlar bo'lmish **huquq tarmoqlariga** bo'linadi. Davlatdagi ijtimoiy munosabatlarning xilma xilligi tarmoklarga bo'lishning asosini tashkil etadi. Aynan shu *munosabatlar huquqiy boshtsaruvnshg predmetini* tashkil etadi. Ijtimoiy munosabatlarning har bir ma'lum turi (oilal, mehnat munosabatlari va h.k.) tegishli huquqiy normalar bilan tartibga solinadi. Bu normalar huquqiy tartibga solish predmetiga ko'ra (ya'ni ijtimoiy munosabatlarning ma'lum turiga ko'ra) huquq tarmoqlariga bo'lingan.

**Huquq tarmog'i** jamiyat hayotining ma'lum sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi o'zaro bog'liq yuridik normalar yig'indisidir.

Har bir tarmoqning huquqiy tartibga solish predmeti o'z xususiyatlariga ega. Bu esa ushbu munosabatlardagi huquqiy tartibga solishning o'ziga xos jihatini belgilaydi. Huquqiy tartibga solish usuli, huquq tizimini tarmoklarga bo'lishning qo'shmicha asosidir.

O'zbekiston huquq tizimi huquqning quyidagi asosiy tarmoqlarini o'z ichiga oladi:

- 1) konstitutsiyaviy huquq;
- 2) ma'muriy huquq;
- 3) fuqarolik huquqi;
- 4) jinoyat huquqi;
- 5) yer huquqi;
- 6) agrar huquq;
- 7) mehnat huquqi;
- 8) ijtimoiy ta'minot huquqi;
- 9) ekologik huquq;
- 10) moliyaviy huquq;
- 11) fuqarolik protsessual huquq;
- 12) jinoyat protsessual huquq;
- 13) xo'jalik protsessual huquq.

**Huquq instituti** huquq tarmog'i tarkibidagi ma'lum munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar yig'indisidir. Huquq tarmog'i huquq institutlaridan tashkil topgan. Masalan, konstitutsiyaviy huquq inson va fuqaroning huquqlari va erkinliklari, prezidentlik, hukumat kabi institutlarni o'z ichiga oladi. Fuqarolik huquqi esa mulk huquqi, majburiyat huquqi, mualliflik huquqi, meros huquqi kabi institutlarni qamrab oladi.

## 2-Mavzu: Ma'muriy huquq asoslari. 2 soat.

### Reja:

1. Ma'muriy huquq tushunchasi va ma'muriy huquqiy normalar.
2. Ma'muriy huquqiy munosabatlar va ularning turlari.
3. Ma'muriy huquqbuzarlik tushunchasi.
4. Ma'muriy jazo va uning turlari
5. Ma'muriy qonunchilik

### 1. Ma'muriy huquq tushunchasi va ma'muriy huquqiy normalar.

Ma'muriy huquq — konstitutsiyaviy, fuqarolik va jinoyat huquqlari bilan bir qatorda — huquqning asosiy tarmoqlariga kiradi.

«Ma'muriyat» so'zi lotin tilida boshqarish ma'nosini bildiradi. Shu bois ma'muriy huquq ko'pincha boshqaruv huquqi yoki boshqarishga oid huquq deb ta'riflanadi.

Huquq tarmoqlari bir birlaridan, avvalo, huquqiy boshqaruv predmeti va usuli bilan farq qiladi. Ma'muriy huquq O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining mustaqil tarmog'i sifatida ijtimoiy munosabatlarning maxsus guruhini targ'ibga solishga xizmat qiladi. Ushbu munosabatlarning asosiy xususiyati shundaki, ular davlat boshqaruvi sohasida, ya'ni O'zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyatning tashkil etilishi va amal qilishi munosabati bilan yuzaga keladi, rivojlanadi va to'xtatiladi. O'z xususiyatiga ko'ra xilma xil bo'lgan bunday munosabatlar **ma'muriy huquqning predmetini** tashkil qiladi.

Ushbu ijtimoiy munosabatlar davlat boshqaruvi faoliyati bilan bevosita bog'langan, shu bois umumlashtirilgan holda boshqaruv munosabatlari deb ataladi.

Ma'muriy huquq — ijro etuvchi hokimiyatning tashkil qilinishi va amal qilishi jarayonida, kengroq ma'noda, davlat boshqaruvi faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar majmui. Masalan, «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonunda ifodalangan ma'muriy huquq normalari hukumatning shakllanishi va tashkil etilishi tartibini, vakolatlari, qaysi tashkilotga hisobdor ekanligi va mas'uliyatini, davlatning boshqa organlari bilan o'zaro munosabatini belgilab beradi.

Ma'muriy huquq o'z predmeti doirasida, birinchi navbatda, ijro etuvchi hokimiyat sub'ektlariniyag tashkil etilishi va faoliyatini ularning konstitutsiyaviy vazifalariga, shuningdek, tartibga solinadigan boshqaruv munosabatlarining barcha ishtirokchilari xulq atvoriga to'la mos keladigan muayyan huquqiy rejimni yaratadi. Ma'muriy huquqning **regulyativ** (tartibga soluvchi) funksiyasi ana shundan iborat. Shu bilan birga, ma'muriy huquq yana bir muhim funksiyani, ya'ni boshqaruv munosabatlarini tartibga soladigan huquqiy rejimga rioya etilishini ham, taraflarining qonuniy huquq va manfaatlari himoya qilinishini ham ta'minlovchi **huquqni muhofaza qilish (yurisdiktsiya)** funksiyasini bajaradi.

Ma'muriy huquqiy boshqaruv bu o'rinda, birinchi navbatda, *kuzatish, nazorat qiliish, kontrol* yordamida amalga oshiriladi. Albatta, huquqiy tartibga xavf tug'ilgan yoki ayrim fuqarolar

huquqbuzarlik sodir etgan hollarda ijro etuvchi hokimiyat organlari aybdor shaxslarga nisbatan tegishli *ma'mu riy majburlov choralarini* qo'llaydilar.

Ijro etuvchi hokimiyat organlarining asosiy vazifalari jamoat tartibini muhofaza qilish va jamoat xavfsizligini ta'minlashdan, shuningdek, inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklariga, jamiyat va davlat manfaatlariga jinoiy hamda boshqa turdagi g'ayriqonuniy tajovuzlarning oldini olish va ularni to'xtatib qolishdan iborat.

Ma'muriy huquq — huquqning inson xulq atvorini tartibga soladigan tarmog'i bo'lib, har qanday boshqa tarmoq singari, muayyan tartibga solingan yuridik normalardan iborat. Masalan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks normalarida mayda bezorilik uchun javobgarlik ko'rsatilgan bo'lib, shu orqati fuqarolarning qonunga mos xulq atvorlari belgilab berilgan. Ma'muriy huquqiy normalar turli sub'ektlarning — nafaqat fuqarolar va mansabdor shaxslarning xulq atvorini, balki boshqaruv organlarining ham — faoliyat tartibini belgilab beradi.

Mamuriy huquqiy normalarni davlat o'rnatadi. Ular odamlarning har bir normada ifodalangan lozim tarzdagi o'dob modeliga mos keladigan xatti harakatlarini yo'naltirishga xizmat qiladigan oddiygina xulq atvor qoidalari emas, balki hokimiyat ko'rsatmalaridir.

Ma'muriy huquqiy normalar bevosita davlat boshqaruvi sohasida faoliyat ko'rsatuvchi hamda u yoki bu hajmdagi vazifalarni bajaruvchi (masalan, viloyat hokimligi) yoxud o'z harakatlari bilan ushbu soha manfaatlariga daxl qiluvchi (masalan, jamoat birlashmalari, fuqarolar) barcha shaxslar va tashkilotlar rioya etishi shart bo'lgan, ya'ni huquqiy davlat manfaatlariga mos keluvchi xatti harakatning u yoki bu variantini belgilab beradi. Lozim tarzdagi xulq atvor qaysi harakatlarni sodir etish mumkin (ruxsat etiladigan xatgi harakatlar), qaysilaridan o'zni tiyish kerak (ta'qiqlar), qaysilarini bajarish zarur (ko'rsatmalar) ekanligini ko'rsatishni taqozo etadi. Inson xulq atvoriga boshqaruv ta'sirini ko'rsatishning mohiyati ana shunda namoyon bo'ladi.

## **2. Ma'muriy huquqiy munosabatlar va ularning turlari.**

**Ma'muriy huquqiy munosabat** deganda, ma'muriy huquqiy norma bilan tartibga solingan, taraflar ma'muriy huquqiy normalar vositasida o'rnatilgan hamda kafolatlangan o'zaro majburiyatlar va huquqlar egasi bo'lib maydonga chiqadigan boshqaruv sohasidagi ijtimoiy munosabatlar tushuniladi.

Ma'muriy huquqiy munosabatlar turli mezonlar bo'yicha tasniflanadi. Ularga, avvalo, ijro etuvchi hokimiyat sub'ektlarining u yoki bu ob'ektga boshqaruv yoki tartibga solish xususiyatiga ega bo'lgan ta'sir ko'rsatishidan iborat yuridik imkoniyati kiradi.

*Yuridik xususiyatiga ko'ra*, ma'muriy huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari vertikal gorizontal huquqiy munosabatlarga ajratiladi.

Vertikal huquqiy munosabatlar ma'muriy huquqiy boshqaruvning hamda sub'ekt va ob'ekt o'rtasida yuzaga keladigan davlat boshqaruv faoliyati uchun xos bo'lgan subordinatsiya aloqalarining mohiyatini eng ko'p darajada aks ettiradi. Odatda hokimiyat munosabatlari deb ataladigan munosabatlar aynan shu munosabatlardir.

Gorizontal huquqiy munosabatlar deganda, taraflar amalda va yuridik jihatdan teng huquqli bo'ladigan munosabatlar tushuniladi. Binobarin, ularda bir tarafning boshqa taraf uchun bajarilishi majburiy bo'lgan yuridik hokimiyat ko'rsatmalari bo'lmaydi.

*Ishtirokchilaning tarkibiga ko'ra*, huquqiy munosabatlar apparat ichkarisidagi va tashqarisidagi munosabatlarga bo'linadi. Birinchi holda mavjud bo'lishi shart bo'lgan (majburiy) sub'ekt (ma'muriy hokimiyat egasi, apparat bo'g'ini) apparatning boshqa bo'g'inlari (organlar, xizmatchilar va boshqalar) bilan munosabatga kirishadi. Ushbu huquqiy munosabatlar ijro etuvchi



hokimiyat organlari tizimini, organlar va xizmatchilarning vakolatlarini, ularning o'zaro munosabatlarini, apparat ichidagi ishlar shakli va usullarini belgilovchi ma'muriy huquqiy normalarga asoslanadd. Ikkinchi holda, majburiy sub'ekt fuqarolar, davlatga qarashli bo'lmagan tashkilotlar, davlat korxonalari va muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

### 3. Ma'muriy huquqbuzarlik tushunchasi.

Ma'muriy javobgarlikni qo'llash uchun asos bo'lib ma'muriy huquqbuzarlik xizmat qiladi. Ma'muriy huquqbuzarlik deganda, qonun hujjatlariga binoan, ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi, g'ayriqonuniy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizli orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi. Ma'muriy huquqbuzarliklar jinoyatlardan ushbu xavf darajasi bilangina farq qiladi.

Ma'muriy huquqbuzarlikning asosiy belgilari quyidagilardir:

- 1) jamiyatga qarshi xususiyati;
- 2) g'ayriqonuniyligi;
- 3) aybliligi;
- 4) qilmishning jazoga loyqligi.

Ma'muriy huquqbuzarlik tarkibini normativ huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan va mavjudligi ma'muriy javobgarlikka olib kelishi mumkin bo'lgan belgilar (elementlar) majmui tashkil qiladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik tarkibining belgilari (elementlari) quyidagilardan iborat:

- 1) ob'ekt;
- 2) ob'ektiv tomon;
- 3) sub'ekt;
- 4) sub'ektiv tomon.

Ma'muriy huquqbuzarlikning *ob'ektini* qonun normalari bilan tartibga solingan va ma'muriy javobgarlik choralari bilan muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabatlar tashkil qiladi. *Ob'ektiv tomon* ma'muriy huquq bilan taqiqlangan harakat yoki harakatsizlikdan iborat.

Ma'muriy huquqbuzarlikning *sub'ektlari* sifatida jismoniy shaxslar hamda mansabdor shaxslar tan olinadi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda umumiy shaklda ma'muriy javobgarlikka ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytida 16 yoshga to'lgan va muomala layoqatiga ega bo'lgan shaxslar tortilishi belgilab qo'yilgan.

Ma'muriy huquqbuzarlikning *sub'ektiv tomoni* sub'ektning g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlikka va uning oqibatlariga ruhiy munosabatvdan iborat. U qasd yoki ehtiyotsizlik shaklida ifodalanishi mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarlik tarkibi mavjud bo'lgandagina uni sodir etgan shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Bunday yuridik mezonlar jinoyat va ma'muriy qonunlarda belgilangan. Masalan, qonunda qanday hollarda davlat mulkini mayda talon taroj qilish ma'muriy huquqbuzarlik, qanday hollarda esa jinoyat bo'lishi ko'rsatilgan. Muayyan jinoyatlarning sub'ekti deb 14 yoshga to'lgan shaxslar

tan olinadi, ma'muriy huquqbuzarlik sub'ektlari esa faqat 16 yoshga to'lgan shaxslar bo'lishi mumkin; transport vositalarini boshqaruvchi shaxslarning jabrlanuvchining yengil shikastlanishiga olib kelgan yo'llarda harakatlanish qoidalarini buzishi — ma'muriy huquqbuzarlik deb, jabrlanuvchining o'limiga yoki og'ir shikastlanishiga olib kelgan ayni o'sha harakatlar esa — jinoyat deb hisoblanadi.

#### 4. Ma'muriy jazo va uning turlari

Ma'muriy jazo ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi bo'lib, quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:

— ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsni qonunga rioya etish va huquq tartibotni hurmat qilish ruhida tarbiyalash;

— uning yangi huquqbuzarliklar sodir etishining oldini olish;

— boshqa shaxslarning huquqbuzarliklar sodir etishining oldini olish. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 23-moddasida ma'muriy jazoning quyidagi turlari belgalab qo'yilgan:

1) jarima;

2) ma'muriy **huquqbuzarlik sodir** etish quroli yoki bevosita predmeti bo'lgan narsani pul evaziga olib qo'yish;

3) ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish quroli yoki bevosita predmeti bo'lgan narsani musodara qilish;

4) shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositasini boshqarish huquqi, ov qilish huquqidan) mahrum etish;

5) ma'muriy qamoq.

*Jarima* ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishda aybdor shaxsga belgilanadigan va davlat foydasiga olinadigan pul undirish (MJK 25-moddasi). U deyarli barcha ma'muriy huquqbuzarliklar uchun nazarda tutilgan va keng tarqalgan jazo chorasidir. Fuqarolarga belgilanadigan jarimaning eng ko'p miqdori O'zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan eng kam ish haqining 5 baravaridan, mansabdor shaxslarga esa — 10 baravaridan ortiq bo'lishi mumkin emas.

**Haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish** — ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni majburiy tarzda tortib olib, uni keyinchalik sotib yuborish hamda sotishdan tushgan pulni ashyoning sobiq egasiga tortib olingan ashyoni sotish xarajatlarini chegi rib tashlangan holda topshirishdan iborat (MJK 26-moddasi).

**Musodara qilish** — ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni haqini to'lamasdan majburiy tarzda davlat mulkiga o'tkazishdan iborat (MJK 27-moddasi).

**Maxsus huquqdan mahrum qilish** — muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositalarini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan) mahrum qilish chorasi bo'lib, tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi tomonidan (uch yilgacha bo'lgan muddatga) qo'llaniladi. Asosiy tirikchilik manbai ovchilik bo'lgan shaxslarga nisbatan ov qilish huquqidan mahrum qilish chorasi qo'llanilishi mumkin emas.

**Ma'muriy qamoq** kamdan kam hollarda ma'muriy huquqbuzarlikning ayrim turlari uchun 3 sutkadan 15 sutkagacha bo'lgan muddatga qo'llaniladi. Ushbu jazoni tuman (shahar) sudi (sudyasi) qo'llaydi. Ma'muriy qamoq homilador ayollarga, 3 yoshgacha bo'lgan bolalari bor

ayollarga, 14 yoshgacha bo'lgan bolalarini yakka o'zi tarbiyalayotgan shaxslarga, 18 yoshga to'lmagan shaxslarga, I va II guruh nogironlariga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

Ma'muriy jazo — huquqbuzarlik sodir etilgan kundan boshlab, davom etayotgan huquqbuzarliklar uchun esa — huquqbuzarlik aniqlangan kundan boshlab 2 oydan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin (MJK 36-modda).

Basharti ma'muriy jazoga tortilgan shaxs shu jazoni o'tash muddati tugagan kundan boshlab 1 yil mobaynida ma'muriy huquqbuzarlik sodir etmagan bo'lsa, mazkur shaxs ma'muriy jazoga tortilmagan, deb hisoblanadi (MJK 37-modda).

Ma'muriy jazoni qo'llash huquqiga buning uchun vakolatli bo'lgan bir qator organlar va mansabdor shaxslar ega. Ularning to'liq ro'yxati ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda berilgan. Ularga tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalari; xo'jalik sudining sudyalari; ma'muriy komissiyalar; tuman (shahar) voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar; ichki ishlar organlari va boshqa davlat inspeksiyasi organlari (mansablor shaxslari), soliq, bojxona, davlat sanitariya nazorati organlari kiradi.

## **5. Ma'muriy qonunchilik**

Ma'muriy qonunchilikni o'rganish chog'ida ma'muriy huquqbuzarliklarni tartibga soluvchi asosiy normativ hujjat O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 1 aprelda kuchga kirgan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi ekanligini yodda tutish zarur. Hozirgi vaqtda ushbu kodeks deyarli har yili unga kiritilayotgan qo'shimcha va o'zgartishlar tufayli ancha o'zgardi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning umumiy qoidalarida ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs huquqbuzarlik sodir etilgan vaqq va joyda amal qiladigan qonunlar asosida javobgarlikka tortilishi belgilab qo'yilgan.

Ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yumshatuvchi yoki bekor qiluvchi hujjatlar orqaga qaytish kuchiga ega, ya'ni ular ushbu hujjatlar chiqquncha sodir etilgan huquqbuzarliklarga ham taalluqlidir. Ma'muriy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik belgilaydigan va uni kuchaytiradigan hujjatlar esa orqaga qaytish kuchiga ega emas.

Ma'muriy javobgarlikka ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan paytda 16 yoshga to'lgan shaxslar tortiladilar.

### **3-Mavzu. Moliya va tadbirkorlik huquqi asoslari. 2-soat.**

#### **Reja:**

- 1. O'zbekiston Respublikasida moliya tizimining konstitutsiyaviy asoslari**
- 2. O'zbekiston Respublikasida pul tizimining konstitutsiyaviy asoslari**
- 3. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimining konstitutsiyaviy asoslari**
- 4. O'zbekiston Respublikasida bank tizimining konstitutsiyaviy asoslari**
- 5. O'zbekiston Respublikasining bank tizimi tushunchasi**

#### **1. O'zbekiston Respublikasida moliya tiziminng konstitutsiyaviy asoslari**

Konstitutsiyaning 122-moddasida "O'zbekiston Respublikasi o'z moliya va pul-kredit tizimiga ega" deb belgilab qo'yilgan. Moliya tushunchasi juda keng tushuncha bo'lib, o'z mohiyatiga ko'ra iqtisodiy kategoriyalardan biri bo'lib hisoblanadi.

“Moliya” – lotincha ibora bo'lib, pul to'lovlari degan ma'noni bildiradi. Lekin moliyani pul to'lovlari deb tushuntirish yetarli emas, balki bu ibora uning tashqi ko'rinishini ifoda qilib, ichki mazmunini ifoda qilmaydi. Ana shunday to'lovlar bir tomondan budjetga, sug'urta organlariga, soliqlar, yig'imlar, to'lovlar o'tkazish, ikkinchi tomondan esa davlat budjeti va fondlar hisobida mablag'lar berish, bank orkali amalga oshiriladigan pul to'lovlari holida pul harakatini ifoda qilar ekan, bu harakatlarda ijtimoiy munosabatlar aks etadi. Iqtisodiyotni rivojlantirish pul mablag'larini talab qiladi.

Moliya tizimi yordamida davlat o'ziga kerakli bo'lgan pul mablag'ini yig'ib oladi – pul fondini tashkil qiladi va bu to'plangan pul mablag'i fondini qayta taqsimlaydi. Har bir davlat o'zining mustaqil moliyasiga ega bulmog'i kerak.

O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqilligiga erishdi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi boshqa mustaqil davlatlar qatori faqat siyosiy mustaqillikka erishib qolmasdan, iqtisodiy mustaqillikka ham erishmoqda, ya'ni o'zining moliyasiga va o'zining milliy daromadiga egadir. O'zbekiston Respublikasining moliyasi mamlakatimiz iqtisodiy tizimining muhim va ajralmas qismi, uning tarkibiy elementidir. Mamlakatimiz iqtisodining rivojlanishi, uning moliyasini yuksalish yo'nalishlarini belgilab beradi va mustahkamlab borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodimizning taraqqiyotini yakunlovchi ko'rsatkichlardan biri milliy daromaddir.

Milliy daromadning o'sishiga mamlakatimiz sanoati, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarning uzluksiz taraqqiyoti sababchi bo'ladi. Moliyani mustahkamlash murakkab vazifalardan biri, bu vazifani bajarmasdan turib, mamlakatimizni himoya qilish, xo'jalik va madaniy rivojlanishini ta'minlash va bozor iqtisodi sharoitiga yirik qadam qo'yish mumkin emas.

Pul resurslarini hosil etish, ularni jamlash, taqsimlash va jamlash yuzasidan paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar moliya deyiladi.

Moliya pul munosabatlari bo'lsada, u ishlab chiqarishga bog'liq. Pul mablag'larini topish, ularning taqsimlanishi va qaysi maqsadlarda hamda qanday usullar bilan ishlatilishi moliya tizimini tashkil etadi. Agar moliyaning obyekti pul mablag'lari bo'lsa, uning subyektlari ya'ni ishtirokchilari: firma, jamoat tashkilotlari, davlat idoralari, har xil muassasalar, turli oilalar va ayrim shaxslar bo'ladi. Ularning hammasi pul kirimi va chiqimiga ro'para bo'ladilar, shu bilan moliyaviy munosabatlarga kirishadilar. Moliyaning mazmuni uni bajaradigan vazifalarida ifoda etiladi.

Moliya quyidagi vazifalarni bajaradi:

1) Taqsimlash vazifasi – har xil yaratiladigan milliy mahsulot va jamg'arilgan milliy boylik pul shaklida taqsimlanadi, turli moliya fondlariga aylantiriladi.

2) Rag'batlantirish vazifasi – moliya vositasida iqtisodiy faollik qo'llab-quvvatlanadi. Buning uchun soliqlardan imtiyoz beriladi. Soliqlar kamaytirilsa, firmaning xarajati qisqarib, uning foydasi ko'payadi. Bu esa foydani ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun sarflash imkonini beradi. Davlat tomonidan korxona va tashkilotlarga moliyaviy ko'mak berish ham ular ishini rag'batlantiradi.

3) Iqtisodiy axborot vazifasi – moliyada iqtisodiy faoliyatning yakuni jamlanadi va bu moliyaviy ko'rsatkichlar shaklini oladi. Bu foyda miqdori, rentabellik, korxonaning likvidligi, uning pul mablag'lari va qarzining miqdori kabilardir. Shularga qarab korxonaning moliyaviy holatiga baho beriladi.

Moliya o'z vazifalarini moliyaviy vositalar, chunonchi, soliqlar, har xil to'lovlar, subsidiyalar, pul fondlari vositasida bajaradi. Jami moliya vositalari moliya mexanizmi deb yuritiladi. O'zbekistonda Moliya bir qancha bo'g'ing'lardan iborat bo'lib, yagona moliya tizimini tashkil qiladi. Bu tizimga quyidagilar kiradi:

1) O'zbekiston davlat budjeti – buni tarkibiga Respublika budjeti, Korakalpog'iston Respublika budjeti va mahalliy budjetlar kiradi.

2) Budjetdan tashqari fondlar: ijtimoiy sug'urta fondi, pensiya fondi, aholi bandlik xizmati fondlari kiradi va budjetdan tashqari maqsadga yo'naltirilgan jamgarmalari. Masalan: Bobur nomidagi jamg'arma, Xalqaro Amir Temur hayriya jamg'armasi, bu jamgarmalarning asosiy vazifasi Temur va Temuriylar davri tarixi hamda madaniyatini chuqurroq o'rganish, uni keng xalq ommasi, ayniqsa yoshlar o'rtasida faol targ'ib qilish.

3) Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlarning moliyasi.

4) Mulkiy va shaxsiy sug'urta.

5) Davlat krediti va bank krediti – bular hammasi yig'ilib moliya tushunchasini beradi. Bu bo'g'inlar moliya tizimini tashkil qilishi bilan birga, ham bir bo'g'in o'ziga xos xususiyati bilan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga o'z ta'sirin ko'rsatadi.

O'zbekiston Davlat budjeti – moliya tizimi ichida markaziy o'rinni egallaydi. Davlat budjetiga kelib tushadigan mablag'ni katta qismini korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan kelib tushadigan daromadlar tashkil qiladi. Undan keyin esa fuqarolardan olinadigan soliqlar hisobiga budjet daromadlari tashkil topadi. Davlat budjetining eng ko'p qismi O'zbekiston aholisini ijtimoiy himoya qilish, kam ta'minlangan oilalarga yordam berishga sarflanadi.

Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlarning moliyasi – moddiy ishlab chiqarish bilan bevosita bog'lik bo'lib, natijada milliy daromad hosil bo'ladi. Bunga korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar, jamoa xo'jaliklari, kooperativ va jamoat tashkilotlari moliyasi kiradi. O'zbekiston Respublikasi bozor sharoiti munosabatlariga kirib borishida bo'larning moliyasi asosiy moliya bo'g'inlaridan bo'lib hisoblanadi. Korxona va tashkilotlarda hosil bo'lgan moliyaviy resurslar esa davlat budjetining asosiy daromadlar manbai bo'lib hisoblanadi.

Mulkiy va shaxsiy sug`urta – asosan yuridik va jismoniy shaxslarning badal pullari hisobiga sug`urta fondi tashkil qilinadi. Sug`urta fondining asosiy vazifasi tabiiy ofat va boshqa baxtsiz xodisalar natijasida kelib chiqqan zararni qoplashdan iboratdir. O`zbekiston Respublikasida Sug`urta ishlari O`zbekiston Respublikasining "Sug`urta to`g`risida"gi 1993 yil 6 may qonuni asosida amalga oshiriladi.

Shu qonunga asosan sug`urta – inson faoliyatining turli sohalarida sodir bo`ladigan tabiiy ofatlar, favqulodda hodisa va boshqa voqealar natijasida yetkazilgan zarar, hamda talofatlarni jismoniy va yuridik shaxslar to`lagan sug`urta badallari (sug`urta pullari) dan hosil qilingan pul fondlari hisobidan to`liq yoki qisman qoplash yo`li bilan jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlar sug`urtalanishini ta'minlashga doir munosabatlar demakdir.

Davlat krediti va bank krediti – bozor sharoitida juda katta ahamiyatga egadir. Davlat krediti orqali davlat aholining vaqtincha foydalanmay turgan pul mablag`idan xalk xo`jaligini kreditlashda foydalanadi. Davlat kreditida aholi, ya'ni fuqaro o`z xohishi bilan pul mablag`ini davlat ixtiyoriga berib qo`yadi. Masalan omonatga pul qo`yishi, davlat zayomlarini sotib olishi misol bo`la oladi.

Bank krediti ikki xil, ya'ni qisqa muddatli va uzoq muddatli bo`ladi. Davlat banklarida korxona, tashkilot hamda fuqarolarning pullari saqlanadi. Bu saqlanishga berilgan pullarni banklar muhtoj korxona, tashkilot va fuqarolar uchun qarzga, ya'ni kreditga qisqa yoki uzoq muddatga berishi mumkin. Qarzga berish hisobiga bank qarzga olingan summadan foiz hisobida daromad oladi. Davlat krediti va bank krediti ham o`z navbatida moliya tizimining ko`zga ko`ringan bo`g`inini tashkil qiladi.

## **2. O`zbekiston Respublikasida pul tizimining konstitutsiyaviy asoslari**

O`zbekiston Respublikasida pul tizimi – O`zbekiston Respublikasida pul muomalasini tartibga solish, O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 122-moddasida hamda O`zbekiston Prezidentining 1994 -yil 16 - iyunda e`lon qilingan "O`zbekiston Respublikasining milliy valutasini muomilaga kiritish to`g`risida"gi farmoni hamda O`zbekiston Vazirlar Mahkamasi va O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan chiqarilgan normativ-huquqiy aktlar asosida tartibga solinadi.

O`zbekiston Respublikasi hududida pul siyosatini amalga oshirishda O`zbekiston Respublikasi bankining roli juda ham kattadir. Pul tizimi hamda pul muomalasini tashkil etish O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan olib boriladi.

O`zbekiston Respublikasining rasmiy pul birligi - so`mdir. Bir so`m yuz tiyindan iborat. So`m O`zbekiston Respublikasida yagona, cheklanmagan va qonuniy to`lov vositasi bo`lib hisoblanadi. 1 iyuldan boshlab O`zbekiston Respublikasining Milliy valutasini - "so`m" O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qiymati 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 va 1996 yildan boshlab 200 so`m, 2000 yildan 500 so`m, 2001- yildan 1000 so`m bo`lgan bank qog`oz (banknotlar) va 1, 3, 5, 10, 20, 50 tiyin bo`lgan metal tangalar hamda naqd pul muomalaga chiqarildi.

Markaziy bank O`zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to`lov vositasi sifatida banknotlar va tangalar ko`rinishidagi pul belgilarini muomalaga chiqarishda mutloq huquqqa ega, ularni qalbakilashtirish va noqonuniy tarzda tayyorlash qonuniy hujjatlarga muvofiq javobgarlikka tortishga sabab bo`ladi. Muomalada bo`lgan banknotlar va tangalar Markaziy bankning qat'iy majburiyatlari hisoblanadi va uning jami aktivlari bilan ta'minlanadi. Shuning bilan birga Markaziy bank yo`q qilib yuborilgan, qalbaki, yasama va qonuniy kuchini yo`qotgan banknotlar va tangalarning o`rnini qoplamaydi.

Markaziy bank banknotlar va tangalarning namunalarini, shuningdek ularning dizaynini Oliy Majlisning Kengashi bilan kelishgan holda tasdiqlaydi. Banknotlar va tangalarning dizayni

Markaziy bankning mulki hisoblanadi. Markaziy bank yangi namunalardagi banknot va tangalar muomalaga chiqarilishi to'g'risidagi axborotni, shuningdek ularni tavsifini ommaviy axborot vositalarida e'lon qiladi.

Pul – shunday maxsus tovar, u boshqa hamma tovarlar uchun umumiy ekvivalent vazifasini bajaradi. Hamma tovarlar singari pul ham, qiymat ham iste'mol qiymatga ega. Shu ma'noda u boshqa oddiy tovarlardan farq qilmaydi.

Pul bozor iqtisodiyotining muhim omilini tashkil qiladi. Hozirgi iqtisodiy hayot, xususan, bozor iqtisodiyoti pul bilan tirik. Pul bo'lmagan joyda bozor iqtisodiyoti bo'lishi mumkin emas. Bozor iqtisodiyoti tovarlar va tovarlashgan xizmatlarni ishlab chiqarishdan boshlab, to iste'moligacha bo'lgan harakatdan iboratki, bu pul vositasida amalga oshadi. Ishlab chiqarish resurslari bozorda pulga xarid qilinib, tovarlar yaratiladi va pul daromadlariga ayirboshlanib iste'molga o'tadi. Tovarlarni iste'mol yoki investitsiya (ishlab chiqarish) uchun sarf etiladimi, baribir pul yordamida harakatga keladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomalasini uyushtirish, pullarni ayirboshlash, ularni saqlash, taqsimlash, bo'sh pulni berish, ya'ni uni sotish, pul vositasida moliyani tashkil etish kabi iqtisodiy aloqalar yanada kuchayib, murakkablashib boradi. Pul shaklidagi mablag'lar bozor orqali resurslarga aylanadi va ular ishtirokida tovarlar yaratiladi hamda sotilib yana pul olinadi.

O'zbek so'mini joriy qilish zaruriyati. Sobiq Ittifoq parchalanib ketganidan so'ng MDHdagi yangi mamlakatlar yagona pul birligini saqlab qolishga aslo hojat kolmadi. Ayni paytda mustaqil davlatlar alohida moliyaviy siyosat yurgiza boshlandi.

Bunday sharoitda:

1) Rubl zonasidagi respublikalarda moliya sohasida yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni oldindan bilish mushkul bo'lib koldi;

2) Naqd pulsiz mablag' harakati, o'tkazish yuli bilan to'lovlar ancha cheklanadi;

3) Mintakalararo foiz me'yorlari o'rtasidagi farq kuchaydi;

4) Pulni qadrsizlanishi alohida respublikalar, shu jumladan, O'zbekiston xukumatini nazoratidan chiqa boshladi.

5) Rossiya Markaziy banki tomonidan MDH mamlakatlarini naqd pul va kreditlar berishning muntazamligiga rioya qilinmagani mablag' yetishmasligi va iqtisodiy faoliyatda beqarorlikka olib keladi.

6) Turli respublikalarda pulni har xil darajada qadrsizlanishi mintaqada iste'mol mollarini kamaytirib yubordi.

7) Hukumatlar o'rtasida ishonch va hamjihatlik yo'qligi, shuningdek, ko'pincha unchalik muhim bo'lmagan masalalar bo'yicha xatti-harakatlar ahvolni battar ogirlashtirdi.

So'mni joriy qilishda O'zbekiston o'zi tanlagan yo'ldan bordi. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1) avvalo, u boshqa mamlakatlar tajribasiga o'xshamaydi.

2) Halol ishlab tanilgan pulni hammasi almashtiradigan bo'ldi.

3) Yangi va eski pul nisbati 1:1. Boshqa davlatlarda esa bu turlicha bo'ldi: 1:100, 1:50, 1:10 va hokazo.

"Birga bir" nisbat iqtisodiy jihatdan eng arzon ruhiy psixologik jihatdan eng qulaydir.

### 3. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimining konstitutsiyaviy asoslari

Sobiq ittifoq hukumatini tugatilishi bilan O'zbekiston Respublikasining davlat va iqtisodiy holati tubdan o'zgardi. O'zbekiston Mustaqil suveren davlat bo'ldi. Bu davlatchilikning muhim atributi bo'lgan - budjetning o'zgarishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan budjetlar ikkiga bo'linadi:

- davlat budjeti,
- mahalliy budjet.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122-moddasiga binoan O'zbekiston davlat budjeti respublika budjetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan va mahalliy budjetlardan iborat. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksiga binoan davlat mulki respublika mulki va ma'muriy - hududiy tuzilmalar mulkidan (munitsipal mulkdan) iborat. Tegishli budjetning vositalari va boshqa davlat mol-mulki, agar ular davlat korxonasi va muassasasiga birkitilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining davlat xazinasini, viloyat xazinasini tashkil qiladi. Respublika mulki respublika budjetiga tushadigan soliqlar, yigimlar va boshqa majburiy to'lovlardan, shuningdek qonunlar nazarda tutilgan asoslarga muvofiq boshqa tushumlar hisobidan tashkil etiladi.

Munitsipal mulk - davlat hokimiyati mahalliy organlarining mol - mulki, mahalliy budjet mablag'lari, shuningdek uy - joy fondi va kommunal xo'jalik korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, xalq ta'limi, madaniyat, sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek boshqa mol-mulkdan iborat. Munitsipal mulk mahalliy budjetga tushadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlardan, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga muvofiq boshqa tushumlar hisobidan tashkil etiladi.

Shunday qilib, davlat budjeti respublika budjeti, respublika tarkibiga kiruvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va viloyatlar budjetidan tashkil topadi.

Mahalliy budjet esa, tuman, shahar, qishloq va boshqa ma'muriy-hududiy tuzilmalar pog'onasida tashkil topadi.

Budjetning qanday pog'onada tashkil topishidan qat'iy nazar, budjetni uch ma'noda tushunish mumkin:

- a) iqtisodiy ma'noda;
- b) moddiy ma'noda;
- v) huquqiy ma'noda.

Iqtisodiy ma'noda budjet - budjet fondlarini turli pog'onada tashkil etish, taqsimlash va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy (pul) munosabatlari tizimini anglatadi.

Moddiy ma'noda budjet - davlat yoki mahalliy hokimiyat organlari funksiyalarini ta'minlash maqsadida u yoki bu pog'onada tashkil qilinuvchi markazlashgan pul fondini anglatadi. Hujjatlar, u yoki bu tadbirlarni budjet hisobidan moliyalashtirish, budjet mablag'lari hisobidan organlar va muassasalarni ta'minlash, daromad manbaini budjet hisobiga o'tkazish to'g'risida so'z yuritganimizda, budjetning aynan shu jihati nazarda tutiladi.

Huquqiy ma'noda budjet - tegishli davlat hokimiyatining vakillik organi tomonidan tasdiqlangan, tegishli hududning markazlashgan pul fondini tashkil etish, taqsimlash va foydalanishning moliyaviy rejasi bo'lib hisoblanadi.

Qonun bilan o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan budjet - davlatning asosiy moliyaviy -rejali akti yoki mahalliy pog'ona dagi moliyaviy - rejali akt sifatida namoyon bo'ladi.



Asosiy moliyaviy reja sifatida budjet quyidagi xususiyatlarga ega:

a) budjet universal moliyaviy reja hisoblanib, o`z ko`rsatkichlari bilan ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning barcha sohalarini qamrab oladi. Bu universallik xususiyati boshqa moliyaviy rejalarda uchramaydi, chunki ular juda tor doirada harakat qiladi.

b) boshqa moliyaviy rejalarga nisbatan budjet - yo`naltiruvchi xususiyatiga ega. Yo`naltirish - budjet ko`rsatkichi bilan boshqa moliyaviy rejalarda ko`rsatkichining o`zaro bog`likligi orqali amalga oshiriladi. Korxonalarning moliyaviy rejalarda budjetga tulanadigan majburiy to`lovlar xajmi va budjetdan ajratiladigan mablag`lar ko`rsatiladi.

Davlat budjet tashkilotlari o`z faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun kerak bo`lgan barcha mablag`larni tegishli budjetning (bo`ysunuviga karab) xarajatlar qismidan oladilar.

Yuqorida ko`rib chiqilgan barcha aspektlar budjet tushunchasini to`ldirib turadi. Budjet bu - davlat hokimiyati organlari funksiyalarini ta'minlash maqsadida pul mablag`larini tashkil etish va xarajat qilish shaklidir. Bu tushunchadan ko`rinib turibdiki:

birinchidan, budjet – pul mablag`larini tashkil etish va xarajat qilish shakli bo`lib hisoblansa,

ikkinchidan, budjet – davlat hokimiyati organlarining funksiyalarini ta'minlaydi.

Demak, budjet – davlat hokimiyati vakillik organi tomonidan tasdiqlanadigan markazlashgan pul fondlarining tashkil topishi, taqsimlanishi va foydalanishining asosiy moliyaviy rejasi bo`lib, davlatning barcha vazifalari va funksiyalarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlat budjeti har yili tasdiqlanadi va u 1- yanvardan 31- dekabrqa qadar harakatda bo`ladi.

Davlatning iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanishida budjetdan foydalanish natijasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar maxsus guruh normalarini keltirib chiqaradi, hamda moliya huquqining bo`limi bo`lgan - budjet huquqini tashkil qiladi.

Budjet huquqi o`z tarkibiga bir necha moliyaviy institutlarni oladi. Budjet huquqi normalari moliyaviy tizimning ajralmas qismi bo`lib, budjetning tashkil topishi, taksimlanishi va undan foydalanilishi jarayonida yuzaga keluvchi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Shuning uchun ham budjet huquqi - respublika hududida davlat va mahalliy budjetlarni tashkil etish, taqsimlash va foydalanish natijasida yuzaga keluvchi ijtimoiy (moliyaviy) munosabatlarni tartibga soluvchi moliyaviy - huquqiy normalar yig`indisidan iborat.

Budjet huquqining predmetini - budjet fondlarini tashkil etish, taqsimlash va foydalanish natijasida yuzaga keluvchi munosabatlar tashkil qiladi. Bu munosabatlar quyidagilardan iborat:

a) respublikada budjet tuzilishi va budjet tizimini o`rnatish;

b) budjet tizimi daromadlar va xarajatlarining strukturasini o`rnatish va ularni turli pog`onadagi budjetlar o`rtasida taqsimlash;

v) budjet vakolat doirasini chegaralash (ya'ni davlat va uning subyektlari o`rtasida);

g) budjet jarayonini tashkil etish bilan, ya'ni budjetlarni tuzish, ko`rib chiqish, tasdiqlash va ijro etishning tartibini joriy etish, shuningdek tegishli budjetlarning ijro etilishi to`g`risidagi hisobotlarni ko`rib chiqish va tasdiqlash,

d) budjet ijrosini nazorat qilishni tashkil etish bilan bog`liq bo`lgan munosabatlar .

Yuqorida ko`rsatib o`tilgan budjet munosabatlarining ham bir guruhi o`zida aniq bo`lgan munosabatlar yig`indisini qamrab oladi, ular o`zaro bog`liqdir. Masalan, budjet tizimi daromadlar va xarajatlarning strukturasini o`rnatish bo`yicha yuzaga keladigan munosabatlar mazkur tizimni

o`rnatish bo`yicha yuzaga keladigan munosabatlarsiz amalga oshirilishi mumkin emas, o`z navbatida bu ikkala guruh munosabatlari budjet tizimini o`rnatish bo`yicha davlat organlari kompetensiyasini belgilashsiz amalga oshirilishi mumkin emas.

Budjet huquqi me'yorlari bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar guruhlari - budjet huquqiy munosabatlari bo`lib hisoblanadi. Bu munosabatlar boshqa huquqiy munosabatlardan farq qilgan holda, o`ziga xos xususiyatlarga ega.

Bu munosabatlar budjet faoliyati jarayonida yuzaga keladi, ya'ni budjetni tashkil etish, taqsimlash va foydalanish faoliyatida yuzaga keladi. Budjet munosabatlarining boshqa bir xususiyati shundan iboratki, boshqa huquqiy munosabatlar subyektlaridan farq qilgan holda, ularning subyektlar doirasida juda tordir.

#### **4. O`zbekiston Respublikasida bank tizimining konstitutsiyaviy asoslari**

Mustaqil davlat iqtisodiyotini yetarli kredit resurslar bilan ta'minlay oladigan, turli mulk va tashkiliy-huquqiy shaklda paydo bo`lgan korxonalar xo`jalik faoliyati jarayonida hisob-kitoblarni uzluksiz amalga oshirishni ta'minlaydigan, mustaqillikning birinchi yillarida O`zbekiston Respublikasi birinchi navbatda rivojlanishini talab qilgan iqtisod sohalariga investitsiyalarni jalb etish imkoniyatini yaratadigan, tashqi savdo munosabatlarini liberalizatsiyalangan sharoitlarda korxonalarning tashqi faoliyatiga xizmat ko`rsata oladigan bank tizimini butunlay boshidan tashkil qilish zarur edi.

Bank tizimidagi islohotlar davlat mustaqilligiga erishilgandan keyin olib boriladigan iqtisodiy islohotlarni ajralmas qismi edi.

Xalqaro standartlar talablariga javob beradigan bank tizimini tashkil etish moliya sohasini islohotlash maqsadlaridan biri edi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o`zining "O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chukurlashtirish yo`lida" asarida "Markaziy bank tomonidan boshqariladigan va o`z ichiga mustaqil va xususiy banklarni kiritadigan bank tizimini shakllantirishni, O`zbekiston Respublikasi hududida chet davlatlar yirik banklarining bo`limlari va vakolatxonalarini ochilishi uchun yaxshi sharoitlarni yaratib berishni" bozorga o`tishni birinchi bosqichining asosiy tadbirlaridan deb ta'kidlaydi.

Bank tizimini islohotlash O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki rahbarligi ostida amalga oshirilmoqda. 1992 - yilning sentabr oyida sobik Sovet Ittifoqi Davlat bankining O`zbekistondagi respublika bo`limi to`la O`zbekistonda bank tizimini tashkil etadigan va boshqaradigan O`zbekiston Markaziy bankiga aylantirildi.

Mustaqillikka erishilgan paytdan boshlab hozirgi davrgacha bank islohotlarini ikki bosqichini ajratsa bo`ladi. Birinchi bosqichda zamonaviy bank tizimining asoslari yaratiladi: kerakli me'yoriy hujjatlar qabul qilinadi, institutsion islohotlar o`tkaziladi, bank nazorati tashkil qilinadi, yangi tashkil qilingan banklar moddiy-texnik ta'minlandi.

Bank sohasi islohotlarida 1991 - yil 15- fevralda qabul qilingan O`zbekiston Respublikai "Banklar va bank faoliyati to`g`risida"gi Qonuni muhim rol o`ynadi. U Markaziy bankka ijro organlaridan mustaqillik berdi, respublikada tijorat banklarni tashkil qilish va ularga faoliyat ko`rsatish uchun huquqiy asos yaratdi.

1994- yil 1 - iyuldan boshlab respublika o`z valutasiga o`tishi ham bank islohotlari uchun muhim ahamiyatga ega bo`ldi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov o`zining "O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida" nomli asarida 1994 - yil 1 - iyuldan boshlab O`zbekiston hududida muomalaga milliy valutasini – so`mni yagona to`lov vositasi sifatida kiritishi chindan revolyutsion qadam bo`ldi deb yozadi.

Milliy valutani kiritilishi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qo'l ostida o'tkaziladigan juda ko'p tadbirlarni o'tkazishni talab qildi.

Bank tashkilotlari tomonidan mulkiy va huquqiy-tashkiliy shaklidan kat'iy nazar O'zbekiston hududida ro'yxatga olingan hamma yuridik shaxslarning hisob varaqlaridagi mablag'lari, butunlay asosiy va aylanma fondlar va boshqa moddiy boyliklari, kreditor va debitor qarzdorliklari, respublika va mahalliy budjet qoldiqlarining qiymati qayta hisoblangan.

1995 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida ikki pog'onali bank tizimi shakllanadi. Bank tizimini yuqori pog'ona sini egallagan Markaziy bank bank tizimiga rahbarlik qiladi, bank xizmatlari sohasidagi qoidalarni o'rnatadi, tijorat banklarini nazorat qiladi.

Bank tizimining ikkinchi pog'onasini turli tijorat banklar tashkil qiladi. Bu – universal, ya'ni bank operatsiyalarini hamma turlarini bajaradigan, va ixtisoslashgan, ya'ni iqtisodni aniq tarmoqlariga xizmat ko'rsatadigan yoki bank operatsiyalarini ba'zi bir turlarini bajaradigan banklar filiallarga ega bo'lgan va filiallari yo'q banklar; O'zbekiston banklari, qo'shma banklar va chet el banklarining sho'ba banklari va hokazo banklardir.

Markaziy bank o'zi ham kardinal o'zgardi. Uning huquqiy maqomi, maqsadlari va vazifalari o'zgardi. Agar Sovet Ittifoqi davrida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rejaviy, iqtisodda ikkinchi darajali element hisoblangan bo'lsa, mustaqillikka erishilgandan so'ng iqtisodiy islohotlarda Markaziy bank asosiy o'rinni egalladi.

Islohotlarga davlat tomonidan rahbarlik qilish tamoyili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taklif qilingan va jamiyatda islohotlarni o'tkazish paytida qo'llanadigan beshta tamoyildan biridir. Shu tamoyildan kelib chiqib, Markaziy bank moliya sohasida o'tkazilayotgan islohotlarga rahbarlik qiladi, boshqa sohalarda o'tkazilayotgan islohotlarda faol qatnashadi. Islohotlarni o'tkazish paytida o'z ma'muriy vakolatlari qatorida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bozor instrumentlaridan ham foydalanadi. Bu uning ochiq bozordagi operatsiyalari(masalan, davlat qimmatli qog'ozlarini oldi-sotdi operatsiyalari), qayta moliyalash foizlari (bu foizlar tijorat banklar olgan kreditlari uchun to'lanadigan foizlardir), tijorat banklari uchun o'rnatilgan majburiy rezerv talablari (tijorat banklar uchinchi shaxslardan qabul qilingan mablag'larini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan foizda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'tkazish Majburiyatlari)ning miqdorini tartibga solish bo'yicha choralardir.

Tashqi aloqalar rivojlanishi va dunyo iqtisodiga har tomonlama integratsiyalashga yo'naltirilgan davlat siyosatini amalga oshiradigan valuta operatsiyalarini va xalqaro hisob-kitoblarni birdan ko'payib ketishiga olib keldi. "Markaziy bank to'g'risida"gi Qonunning 40-moddasi va "Valutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonun me'yorlariga binoan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valutani tartibga soluvchi va valuta nazoratining asosiy organi hisoblanadi va tashqi aloqalarni tartibga solish bo'yicha faoliyatini yanada faollashtirdi.

Markaziy bankni tuzilmasi ham ancha o'zgardi. Valutani tartibga solish, bank nazoratini amalga oshirish, qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha tuzilmalar tashkil qildi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha choralar doimo amalga oshirilmoqda.

Agar bank islohotlarining birinchi bosqichini miqdoriy islohotlar bosqichi deb ataydigan bo'lsak, 1995-1996 - yillarda boshlangan islohotlarning ikkinchi bosqichida asosiy e'tibor islohotlarning sifatiga ajratilgan.

Bank islohotlarining ikkinchi bosqichi ikkita bank qonunlari "Markaziy bank to'g'risida"gi Qonun va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunning yangi taxririda qabul qilinishi bilan boshlandi. Bu ikki qonun bank faoliyatini huquqiy tartibga solish bo'yicha dunyo tajribasini o'rganib chiqilgandan so'ng xalqaro moliyaviy tashkilotlarning yetakchi mutaxassisleri ishtirokida qabul qilingan.

Bank islohotlarining ikkinchi bosqichi tadbirlari asosan bank xizmatlarining sifatini xalqaro standartlarga oshirish dunyo to'lov munosabatlariga integratsiya qilishga imkoniyat yaratib beradigan to'lov tizimiga o'tish, bank sohasiga chet el investitsiyalarini jalb etishga yo'naltirilgan. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida, valuta bozorida faoliyatlari rivojlanmoqda, banklar bank operatsiyalarini yangi turlarini - lizing, faktoring, seyflar va maxsus xonalarni ijaraga berish kabi operatsiyalarni o'zlashtirmoqdalar.

Yetakchi dunyo banklarining O'zbekiston iqtisodiyotiga bo'lgan qiziqishlari oshmoqda. Ulardan bir kanchasi O'zbekistonda o'z vakolatxonalari va sho'ba banklarini ochdilar. O'zbekiston hududida qo'shma banklar tashkil qilinmoqda.

Bank tizimini axborot, ilmiy va xodimlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor berilmoda. Bank tizimida yuqori rahbariyat uchun mutaxassislarni tayyorlash uchun Bank-moliya akademiyasi tashkil qilindi.

## **5. O'zbekiston Respublikasining bank tizimi**

Faqat tijorat banklari bilan bir qatorda bank tizimiga rahbarlik qilish funksiyasini bajaradigan bosh davlat (markaziy, milliy) banklar paydo bo'lgandan so'ng bank tizimi to'g'risida gapirsa bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi – O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan banklar yig'ini va ular o'rtasidagi munosabatlar asoslaridir. Bizning respublikamiz hududida o'ttizdan ortiq banklar mijozlarga xizmat ko'rsatadi.

Bank tizimi tushunchasi o'z ichiga miqdoriy ko'rsatkichlardan tashqari banklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni amalga oshirish tartibini kiritadi. Bank tizimi – bank tashkilotlarining oddiy yig'ini emas bu, shuningdek ular o'rtasidagi bog'liqlik, qaramliklardir. Yangi tashkil qilinayotgan banklar faoliyat ko'rsatayotgan banklar bilan yaqin bog'lanadilar. Bitta bankning muammosi boshqa banklarga ta'sir qiladi, agar muammo bir necha banklarda bo'lsa, bu butun bank tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bank tizimi davlat xo'jaligini kerakli pul mablag'lar bilan ta'minlaydigan davlat iqtisodiyotini qon tomirlari tizimidir.

Ko'p davlatlar singari, O'zbekiston Respublikasi bank tizimi ikki pog'onalidir. Birinchi pog'onani O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va uning hududiy Bosh boshqarmalari tashkil qiladi. Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi bosh davlat banki hisoblanadi va bank tizimini yadrosini tashkil qiladi.

Ikkinchi pog'onani mijozlarga bank xizmati ko'rsatadigan hamma tijorat banklar tashkil qiladi. Jismoniy va yuridik shaxslar tijorat banklarga mijozlardir. Tijorat banklarining mijozlarining ko'pi davlat va nodavlat xo'jalik yurituvchi subyektlardir. Bu xo'jalik yurituvchi subyektlar tijorat banklarda o'z pul mablag'larini saqlaydilar, ular orqali hisob-kitoblarni amalga oshiradilar, bankning boshqa xizmatlaridan foydalanadilar. Bank xizmati pullik asosda taqdim etiladi. Bank xizmati uchun to'lovlar bank va mijoz o'rtasida imzolangan fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida belgilanadi.

Yana shuni aytib o'tish kerakki, bank tizimi o'z ichiga qator texnik va tashkiliy ko'rsatkichlarni ham kiritadi. Hamma banklar yagona bank aloqasi orqali bir-birlari bilan bog'langanlar. Bitta bankni xizmat uchun tanlagan mijoz nafaqat O'zbekiston banklari, balki butun dunyo banklari mijozlari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishlari mumkin.

Bundan tashqari bank tizimidagi etika talablari, bank xodimlarining xulqi, muomalasi va fikrlashi, bank xodimlarining boshqa sohalarga qaraganda malakali bo'lishi talab etiladi.

#### **4-Mavzu: Fuqarolik huquqi asoslari. 2 soat.**

##### **Reja:**

- 1. Fuqarolik huquqi tushunchasi**
- 2. Fuqaroviy huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari**
- 3. Mulk huquqi**
- 4. Fuqaroviy huquqiy majburiyat tushunchasi**
- 5. Ishonchnoma va uni berish tartibi**
- 6. Fuqaroviy huquqiy javobgarlikshshg umumiy tavsifi**
- 7. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunlari**

##### **1. Fuqarolik huquqi tushunchasi**

**Fuqarolik huquqi** O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, yuridik shaxslar ishtirokidagi mulkiy va shaxsiy nomulkiy hamda tovar pul munosabatlarini tartibga solib turuvchi normalar yig'indisidan iborat alohida huquq sohasi bo'lib, ularning yuridik tengligi, mulkiy mustaqilligi hamda iroda erkinligiga tayanadi.

Fuqarolik huquqi mulkchilik munosabatlarini, iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining shartnomaviy aloqalarini (oldi sotdi, pudrat, sug'urta va h.k.) shuningdek, yetkazilgan zararni qoplash bilan bog'liq intellektual mulk, merosga oid munosabatlarni tartibga soladi.

Huquqning har qanday sohasi kabi, fuqarolik huquqining eng muhim normalari O'zbekistonning Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan. Chunonchi, har bir davlatda iqtisodiy munosabatlar negizini moddiy ne'matlarga egalik huquqi tashkil etadi.

O'zbekiston Konstitutsiyasida tadbirkorlik hamda qonun tomonidan ta'qiqlanmagan boshqa turdagi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish, davlat hokimiyati organlari yoki mansabdor shaxslarning noqonuniy harakatlari (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan zararining davlat tomonidan qoplanishini talab etish huquqi kabi qoidalar mustahkamlangan.

Fuqarolik huquqi bir qancha huquqiy institutlar (mulk huquqi, majburiyat huquqi, shaxsiy nomulkiy huquqpar, ijod faoliyati natijalariga bo'ltan huquq, meros huquqi)dan iborat tizimni aks ettiradi.

Fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlar uning predmetini tashkil etadi.

Fuqarolik huquqining metodi fuqarolik huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi taraflarning tengligi, ushbu huquq sohasidagi normalarning ko'pchiligi dispozitiv ekanligi (ishtirokchilar uchun xulq atvor turini tanlashning mumkinligi) nizolarni sudda, xo'jalik sudida hal etish orqali tavsiflanadi.

Fuqarolik huquqining manbalari, ularning ahamiyati (yuridik kuchi)ga qarab, quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va boshqa qonunlar;

2) Qonun osti hujjatlar - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari, vazirlik va tashkilotlarning buyruq va yo'riqnomalari;

3) Ish muomalasi odatlari, mahalliy odat va an'analar.

Shunday bo'lsada, «fuqarolik huquqi manbalari» tushunchasi «fuqarolik qonunlari» tushunchasidan kengroqdir, zero fuqarolik huquqiga oid munosabatlar nafaqat qonunlar, balki qonun osti hujjatlari (masalan, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, idoraviy hujjatlar va boshqalar) bilan ham tartibga solinadi.

Fuqarolik huquqining eng muhim hujjati O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi hisoblanadi.

Amaldagi Fuqarolik kodeksi ikkita (umumiy va maxsus) qismdan iborat.

**Fuqarolik Kodeksining birinchi (umumiy) qismida** fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan hamda boshqa turdagi munosabatlar doirasida alohida ahamiyatga ega bo'lgan asosiy qoidalar o'z aksini topgan. Ularda fuqarolik qonunlarining asosiy tushuncha va printsiplari, fuqarolik huquqlarini himoyalash usullari, fuqarolik huquqi ob'ektlari, fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holati, mulkchilik huquqi hamda boshqa mulkiy huquqlarning yuzaga kelish asoslari hamda ularni amalga oshirish tartiblari, shartnoma asosidagi hamda boshqa turdagi majburiyatlarning asosiy qoidalari belgilangan.

**Kodeksning ikkinchi (maxsus) qismi** muayyan turdagi shartnomalar hamda shartnomadan tashqari majburiyatlar: oldi sotdi, ijara, pudrat, yuk tashish, qarz va kredit, zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar, mualliflik, ixtirochilik hamda boshqa alohida huquqlar, vorislik huquqi va xalqaro xususiy huquq normalarini o'z ichiga oladi.

Fuqarolik huquqiga oid munosabatlar, shuningdek, alohida qonunlar bilan ham tartibga solinadi. Masalan, «O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida»gi, «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida»gi, «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasida korxonalar to'g'risida»gi, «Garov to'g'risida»gi, «Auditorlik faoliyati to'g'risida», «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi, «Lizing to'g'risida»gi, «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi va boshqa qonunlar.

## **2. Fuqaroviy huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari**

**Fuqarolar** — fuqarolik huquqi **munosabatlarining** sub'ektlari. Fuqarolik huquqi mulkiy hamda unga chambarchas bog'liq bo'lgan shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Mazkur munosabatlarning ishtirokchilari (sub'ektlari)dan biri fuqaro (jismoniy shaxs) hisoblanadi.

Fuqarolarning fuqarolik huquqiga oid munosabatlarda ishtirok etishining eng dastlabki sharti ularning huquqiy layoqati, ya'ni fuqarolik huquqi hamda majburiyatlariga ega bo'lish qobiliyati hisoblanadi.

Huquqiy layoqat inson tug'ilishi bilanoq vujudga keladi, biroq ba'zi hollarda qonun hali tug'ilmagan inson huquqlarini ham himoyalaydi. Masalan, FKga binoan, jabrlanuvchining o'limi munosabati bilan zararining qoplanishini talab qilish huquqiga jabrlanuvchining o'limidan so'ng tug'ilgan farzandi ega bo'lishi mumkin.

Fuqarolik huquqiy layoqati shaxsning o'limi bilan tugatiladi. Shu bilan birga, shaxsdan uzoq muddat davomida xabar olinmagan hamda uning tirikligi haqida hech qanday ma'lumotlar bo'lmagan hollarda mazkur turdagi noaniqliklarni bartaraf qilish maqsadida qonunda nazarda tutilgan shartlar asosida shaxs bedarak yo'qolgan yoki vafot ettan deb e'lon qilinishi mumkin. Shaxsni vafot etgan deb e'lon qilish uning huquqiy layoqati tugatilishiga olib keladi.

Fuqaro o'z nomidan huquq va majburiyatlarni bajaradi. O'zganing nomidan huquq va majburiyatlarni bajarishga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolik qonunlariga binoan, fuqaro egalik qilishi mumkin bo'lgan huquq va majburiyatlar majmui fuqarolik huquqiy layoqatini tashkil etadi. Fuqarolar yashash joyini tanlash huquqiga egadirlar. Balog'at yoshiga yetmagan, 14 yoshga to'lmagan shaxslarning turar joyi ota-onalari yoki qonuniy vakillarining yashash joylari hisoblanadi.

Fuqarolar mulk huquqi asosida mol mulkka egalik qilish, uni meros sifatida olish yoki meros qilib qoldirish, ishbilarmonlik hamda qonunda ta'qiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanish, majburiyatlarda ishtirok etish, yuridik shaxslarni vujudga keltirish; fan, adabiyot va san'at asarlari, tadqiqotlar mualliflari hamda qonun bilan muhofaza qilinadigan intellektual faoliyat natijalaridan foydalanish, mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishga haqlidirlar.

Qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari, hech kimning huquqiy layoqatini cheklashga yo'l qo'yilmaydi. Shaxs fuqarolik huquqiy layoqatidan to'laligicha mahrum qilinishi mumkin emas.

Fuqarolik huquqining sub'ektlari huquqiy layoqatdan tashqari muomala layoqatiga ham egadirlar. Muomala layoqati deganda, fuqarolarning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish huquqi, o'ziga fuqarolik majburiyatlarini olish hamda ularni bajarish qobiliyati tushuniladi. Muomala layoqati ana shunisi bilan huquqiy layoqatdan ajralib turadi. Chunonchi unga ko'ra, fuqarolar o'z huquq va majburiyatlariga boshqa shaxslar, masalan ota-onalari orqali ega bo'ladilar.

Umumiy qoidaga ko'ra, fuqarolik muomala layoqati to'laligicha 18 yoshdan boshlab yuzaga keladi. Shuningdek, 18 yoshgacha turmush qurgan shaxslar ham to'liq ravishda muoamalaga layoqatli deb hisoblanadi. Bu ba'zi hollarda turmush qurish yoshining pasaytirilishidan kelib chiqadi.

FKga voyaga yetmaganlarning emansipatsiyasi, ya'ni ularni to'laligicha muomalaga layoqatli deb hisoblash to'g'risidagi norma ham kiritilgan. Bu quyidagi shartlar bo'lgan taqdirda amalga oshirilishi mumkin:

- 1) shaxsning 16 yoshga to'lganligi;
- 2) shaxs qonuniy vakillarning roziligi bo'lgan taqdirda, basharti voyaga yetmagan shaxs mehnat shartnomasi yoki ishbilarmonlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan bo'lsa.

Boshqa hollarda voyaga yetmaganlar qisman muoamalaga layoqatli deb topiladi. Ular o'z xatti harakatlari bilan har qanday emas, balki ba'zi huquq va majburiyatlarga ega bo'lish huquqiga egadirlar, ya'ni ularning muomala layoqati to'liq emas.

Voyaga yetmagan shaxslar yetkazgan zarar uchun ularning ota-onalari yoki homiylari yoxud ularni nazorat qiluvchi o'quv, tarbiya yoki davolash muassasalar javobgar bo'ladilar.

Bundan tashqari, to'liq muomala layoqatiga ega bo'lmagan fuqarolar toifasi ham mavjud. Bunday shaxslar ruhiy holati natijasida o'z harakatlarining ahamiyatini anglab yetmaydilar. Ularni sud muomalaga layoqatsiz deb topadi.

**Yuridik shaxslar.** Fuqarolik huquqiga oid munosabatlarning ishtirokchilari qatoriga nafaqat alohida fuqarolar (jismoniy shaxslar), balki yuridik shaxslar, ya'ni tashkilot va muassasalar ham kiradi.

Yuridik shaxslar turlicha bo'ladi. Ular Fuqarolik kodeksining birinchi qismida sanab o'tilgan. Qonun yuridik shaxslarni quyidagicha ta'riflaydi: **«O'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy**

**huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi».** Yuridik shaxslar mustaqil balans va smetaga ega bo'lishi kerak. Yuridik shaxslarning huquq va muomala layoqati, ular ro'yxatga olingan (tashkil etilgan) vaqtdan boshlanadi hamda u tugatilgan vaqtda nihoyasiga yetadi.

Yuridik shaxs (shuningdek, jismoniy shaxs ham) qonunda belgilangan muayyan turdagi faoliyat bilan faqat litsenziya asosida shug'ullanishi mumkin.

Yuridik shaxsning muomala layoqati uning o'z boshqaruv organlari (direktor, boshliq, rais, prezident, kengash, boshqaruv, umumiy majlis) orqali fuqarolik majburiyatlarini olishi bilan belgilanadi. Mazkur organlarning harakatlari yuridik shaxsning harakatlari sifatida tan olinadi, zero ular fuqarolik muomalasida to'laligicha yuridik shaxs manfaatlarini ifodalaydi.

Yuridik shaxs tarkibida alohida vakolatxona va filiallar tashkil etilishi mumkin, biroq ular mustaqil yuridik shaxs hisoblanmaydi. Ularning rahbarlari yuridik shaxs tomonidan tayinlanadi hamda uning ishonchnomasi asosida faoliyat ko'rsatadi. Vakolatxona va filiallar ularni tashkil etgan yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida aks ettirilishi kerak.

Yuridik shaxsning manzili davlat ro'yxatiga olingan joy hisoblanadi. Davlat ro'yxati ko'rsatkichlari, shuningdek, firmaning nomi yagona davlat reestriga kiritiladi.

Yuridik shaxsni davlat ro'yxatiga olish nafaqat unda huquq va muomala layoqatining yuzaga kelishi, balki uning faoliyati ustidan moliyaviy (soliqqa oid) nazoratni ta'minlash uchun ham zarurdir.

Yuridik shaxsni tashkil etish bo'yicha qonunda belgilangan tartib buzilganda yoki uning ta'sis hujjatlari qonunga nomuvofiqligi sababli, yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish rad etilishi mumkin. Yuridik shaxsni tashkil etish maqsadga nomuvofiqligi sababli uni ro'yxatdan o'tkazmaslikka yo'l qo'yilmaydi.

FKda yuridik shaxslar ikkita katta guruhga ajratiladi:

1) tijoratchi tashkilot — foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan tashkilotlar, masalan, xo'jalik shirkatlari va jamoalari, ishlab chiqarish kooperativlari, aksionerlik jamiyatlari, unitar korxonalar va boshqalar;

2) tijoratchi tashkilot bo'lmagan yuridik shaxslar — foyda olishni maqsad qilib olmagan tashkilotlar, masalan, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar va mulkdor moliyaviy ta'minlab turadigan muassasa shaklidagi, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan boshqa shakllardagi korxonalar va tashkilotlar.

Tijoratchi bo'lmagan tashkilot o'zining ustavida belgilangan maqsadlarga mos keladigan doiralarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin.

### **3. Mulk huquqi**

Mulk huquqi ayrim shaxslar yoki jamoaga tegishli moddiy boyliklarni, shuningdek, mulkchilikka oid iqtisodiy munosabatlarni qo'riqlash va tartibga solishga qaratilgan huquqiy normalar yig'indisidir. Mulk huquqi mol mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish kabi sub'ektiv huquqlardan iborat.

Fuqarolik kodeksiga binoan, mulk huquqining sub'ektlari fuqarolar va yuridik shaxslar hisoblanadi.



Mulkka nisbatan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni farqlash (ajratish) maqsadga muvofiqdir. Boshqa ashyoviy huquqlarga, masalan, mulkka nisbatan xo'jalik yuritish huquqi yoki mulkka nisbatan operativ boshqarish huquqi taalluqli.

Davlat va munitsipal mulkiga davlat va mahalliy organlarning mol mulki, shahar, viloyat va h.k.), korxona va tashkilotlarning mulki kiradi. Mazkur tashkilotlar ularga biriktirilgan mulkka ko'ra mulk huquqiga ega bo'lmaydi, aksincha, xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqiga ega bo'lib, ularning mazmuni mulk huquqiga yaqindir.

Mulkdor qonunga rioya qilgan hamda boshqa shaxslarning qonun bilan muhofaza qilinadigan huquq va manfaatlarini buzmagani holda o'z xohishiga ko'ra o'z mulkini boshqarish, undan foydalanish va uni tasarruf etish bilan bog'liq vakolatlarni amalga oshirishi mumkin.

Barcha sub'ektlar mulkka bo'lgan huquqining mazmuni odatda bir xildir. Cheklashlar faqat qonun bilan belgilanadi. Chunonchi, qonunda faqat davlat mulki va munitsipal mulkka kiradigan mol mulk turlari belgilanadi.

Shuni nazarda tutish kerakki, mulkdor nafaqat huquqlarga, balki majburiyatlarga ham ega. Chunonchi, ular quyidagilardan iborat:

- 1) o'ziga tegishli mol mulkni saqlash (mol mulkni saqlash majburiyati);
- 2) soliqlarni to'lash;
- 3) mol mulkning bexosdan nobud bo'lishi yoki ziyon yetkazilishi bo'yicha butun mas'uliyatni bo'yniga olish.

Mulk huquqi buzilgan hollarda fuqarolik qonuni barcha sub'ektlar uchun bir xil himoyalaniş choralarini nazarda tutadi. Himoyalaniş choralari turli tuman bo'lib, mulkdorning qaysi turdagi huquqiy vakolatlari (mol mulkka ega bo'lish, undan foydalanish, uni tasarruf etish huquqlari) buzilganligidan kelib chiqadi. Masalan, basharti buyum qonunga xilof ravishda kimgadir o'tib qolgan bo'lsa, u qonuniy tarzda buyumni boshqa shaxsdan talab qilib olishi mumkin (vindikatsion da'vo); basharti nobud bo'lgan yoki ziyon yetkazilgan bo'lsa, aybdor shaxsga uning narxini yoki uni ta'mirlash xarajatlarini qoplash majburiyati yuklatiladi.

Mulkdor uning huquqlarini buzish bilan bog'liq har qanday kamchiliklarni, agar ular egalik huquqidan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmasa (negator da'vo), bartaraf etishni talab qilishi mumkin.

#### **4. Fuqaroviy huquqiy majburiyat tushunchasi**

Mazkur huquqiy munosabatlarning mohiyati muayyan shaxslarni mulkiy maqsadni ko'zlaydigan va shu sababdan shaxsni boshqa shaxsning foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga yoki ma'lum harakatdan o'zini tiyishga majbur etishdan iborat (masalan, mol mulkni berish, pul to'lash, ishni bajarish va h.k.) Bunda boshqa shaxs qarzdordan o'z majburiyatini bajarishni talab etish huquqiga ega, degan xulosa chiqadi.

Majburiyat ishtirokchilari (tomonlar): qarzdor — boshqa shaxs foydasiga muayyan harakatlar (masalan, pul to'lash, ishni bajarish kabilar)ni amalga oshirishga majbur bo'lgan taraf; kreditor — yuqorida keltirilgan xatti harakatlarni bajarishni talab etish huquqiga ega bo'lgan taraf.

Majburiyatda taraflarning har biri ayni vaqtning o'zida ham kreditor, ham qarzdor bo'lishi mumkin (masalan, fuqaroning buyurtmasiga ko'ra uy joy qurish), biroq shunday majburiyatlar borki, bunda bir taraf doim kreditor, ikkinchisi esa qarzdor bo'lib, ularning o'rinlari hech qachon almashmaydi (masalan, biror bir shaxs boshqasiga qarzga pul bergan hollarda).

Majburiyatning predmetini majburiyat egasi bo'lgan shaxs (qarzdor)ning qarzni to'lash bilan bog'liq muayyan harakatlari tashkil qiladi. Majburiyatlar turli asoslarda yuzaga keladi:

- 1) ishtirokchilar orasida tuzilgan shartnomalar (ijara shartnomasi, pudrat shartnomasi) — eng ko'p uchraydigan asos;
- 2) amaldagi qonunda nazarda tutilgan hamda nazarda tutilmagan, biroq uning mazmuni hamda umumiy qoidalariga zid bo'lmagan bir taraflama kelishuvlar orqali;
- 3) ma'muriy hujjat — davlat boshqaruvi organlarining individual (normativ) hujjati (masalan, fuqaroga davlat yoki munitsipal uy joy berish haqida mahalliy ma'muriyat qarorini order bilan rasmiylashtirish) orqali;
- 4) intellektual ijodning turli ob'ektlarini, masalan, san'at asarlari va ishlab chiqarish namunalari yaratish yoki ulardan foydalanish vaqtida;
- 5) insonlar xohish irodasiga bog'liq bo'lmagan yuridik xatti harakat natijasida (xazina, topilma va h.k.) yoki favqulodda hodisa (yong'in, tabiiy ofat va h.k.).

Majburiyatlar quyidagi asoslar bo'yicha ham vujudga kelishi mumkin: shartnomalar (oldi sotdi, ayirboshlash, hadya, tashish, pudrat va boshqalar), bir taraflama bitimlar (mukofotni oshkora va'da qilish), ma'muriy hujjatlar (binoni ijaraga berish uchun order berish), zarar yetkazish, asossiz boylik orttirish, yuridik va jismoniy shaxslarning boshqa harakatlari, hodisalar (tabiiy ofatlar).

**Fuqarolik huquqiga oid shartnoma.** Ikki yoki undan ortiq shaxs (fuqarolar yoki yuridik shaxslar)ning fuqarolik huquq va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilish, ya'ni mol mulkni qaytarib berish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha kelishuvi shartnoma deb hisoblanadi.

«Shartnoma» tushunchasi bilan birga, «bitim» tushunchasi ham qo'llanadi. Fuqaro va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish yoki tugatishga qaratilgan xatti harakatlari bitim deyiladi. Bitimlar ikki taraflama yoki ko'p taraflama (shartnoma), shuningdek, bir taraflama bo'lishi mumkin (masalan, vasiyat). Shunday qilib, «bitim» «shartnoma»ga qaraganda kengroq tushuncha bo'lib, shartnoma bitimning bir turidir.

Taraflar qonun yoki boshqa huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan hamda nazarda tutilmagan holatlarga ko'ra shartnoma tuzishlari mumkin. Biroq bunda asosiy shartga rioya qilinishi kerak: shartnoma fuqarolik qonunlarining asosiy qoidalariga zid bo'lmazligi lozim.

Shartnoma taraflar o'rtasida to'liq va aniq munosabatlarni tayinlash, har bir tarafning manfaatlarini hisobga olishga imkon beruvchi muhim yuridik vositadir. Shartnoma fuqarolar ishtirokidagi munosabatlarda, ayniqsa, ularning tadbirkorlik faoliyati sohasida keng qo'llanadi.

Shartnoma tuzishga majburlashga yo'l qo'yilmaydi. Shartnoma tuzish qonunda yoki ixtiyoriy qabul qilingan majburiyatda ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno.

Tomonlar tuzgan shartnomaning tarkibida qonun hamda boshqa huquqiy hujjatlar bilan nazarda tutilgan turli shartnomalarning unsurlari bo'lishi mumkin (aralash shartnoma).

Shartnomalar og'zaki yoki yozma shaklda tuzilib, quyidagi turlarga bo'linadi: konsensual va real, haq baravariga va tekinga, asosiy va dastlabki.

Shartnoma, uning barcha muhim shartlari bo'yicha taraflar o'rtasida o'zaro kelishuvga erishilgan paytdagina to'liq tuzilgan deb tan olinadi. Shartnoma predmeti haqidagi shartlar qonun yoki boshqa huquqiy hujjatlarda yoki bu turdagi shartnomalar uchun zaruriy deb belgilangan hollardagina muhim deb tan olinadi. Shartnoma taraflari da'vosi bilan kelishuvga kelingan shartlar

shular jumlasidandir. Masalan, oldi sotdi shartnomasi uchun muhim shartlardan biri — narx, ijara shartnomasi uchun esa — muddat hisoblanadi.

## **5. Ishonchnoma va uni berish tartibi**

Fuqarolik huquq va majburiyatlarini amalga oshirish maqsadida vakillik institutini qo'llash bir qator sabablarga bog'liq. Ba'zi hollarda shaxs (fuqaro yoki yuridik shaxs) qonunda belgilangan cheklashlar (masalan, voyaga yetmaganligi) tufayli u yoki bu xatti harakatni amalga oshirish huquqiga ega bo'lmaydi.

Boshqa hollarda u yoki bu xatti harakatlarni sodir etish imkoniyatining bo'lmasligini ifodalovchi faktik holatlarga bog'liq bo'ladi. Masalan, shaxsning kasalligi, uzoq muddatli xizmat safarida bo'lganligi va hokazo. Barcha ko'rsatib o'tilgan hollarda vakillar mazkur shaxslar manfaatini ko'zlab huquqiy ahamiyatga ega xatti harakatlarni sodir etish huquqiga qonun (masalan, ota-onalar, homiylar, korxona rahbarlari va hokazo), ma'muriy hujjat (lavozimga tayinlash) yoxud shartnoma yoki ishonchnoma tufayli ega bo'ladilar.

Shunday qilib, ishonchnoma yozma vakolatnomadan iborat bo'lib, uni bir shaxs boshqa shaxsga uchinchi shaxs oldida vakillik qilish uchun beradi, unda vakilning alohida vakolatlari belgilab qo'yiladi.

Umumiy qoidaga asosan, tuzilgan ishonchnoma oddiy yozma shaklda bo'lishi nazarda tutiladi. Shu bilan birga, notarial shaklni talab etadigan bitim tuzish uchun ishonchnoma (masalan, ko'chmas mulkni sotish bo'yicha bitimlar)ni albatta notarius tasdiqdash shart. Bu qoida boshqa shaxsga mulkni ishonib topshirish uchun beriladigan ishonchnomalarga ham tegishli bo'lib, ular ham FKga binoan notarial tartibda tasdiqlanishi kerak.

FKga binoan, alohida shaklda rasmiylashtirilgan shartnomalar notarial tasdiqlangan shartnomaga tenglashtirilishi nazarda tutiladi. Masalan, harbiy xizmatchilarning ishonchnomalarini — harbiy qism komandiri, ozodlikdan mahrum etish joylarida bo'lgan mahkumlarning ishonchnomasini — mazkur muassasaning boshlig'i tasdiqlashi kerak.

Ishonchnomani uni bergan shaxs imzolaydi. Basharti, uni yuridik shaxs beradigan bo'lsa, mazkur tashkilot rahbari yoki ta'sis hujjatlari bo'yicha bunday vakolat berilgan shaxs shartnomani imzolaydi hamda unga mazkur tashkilot muhri bosiladi.

Davlat va munitsipal mulkka asoslangan, shuningdek, pul hamda boshqa mulkiy qimmatliklarni olish va berishga mo'ljallangan ishonchnomalarni mazkur tashkilotning bosh hisobchisi imzolashi kerak.

Ishonchnoma uchun eng muhim shart uning amal qilish muddati hisoblanadi. U uch yildan oshmasligi kerak. Mazkur norma imperativ bo'lib, mazkur ishonchnomani bergan shaxs uni o'zgartirmasligi kerak. Basharti ishonchnomada muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, u o'z kuchini bir yil davomida saqlab qoladi.

Tuzilgan sanasi ko'rsatilmagan ishonchnoma noqonuniy hisoblanadi.

Chel elda harakatlarni amalga oshirish uchun berilgan va notarial shaklda rasmiylashtirilgan ishonchnoma, amal qilish muddati ko'rsatilmagan taqdirda ham, to bekor qilinguniga qadar amal qiladi. Ishonchnoma bergan shaxs xohlagan vaqtda uni bekor qilishi, ishonchnoma berilgan shaxs esa, xohlagan vaqtda undan voz kechishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi FKda ishonchnomadan voz kechish hollarida vakil hamda uchinchi shaxs uchun ma'lum kafolatlar mavjud. Mazkur kafolatlar shundan iboratki, ishonchnomani qaytarib olayotgan shaxs bu haqda manfaatdor vakil hamda uchinchi shaxslarga xabar berishi kerak. Vakilga ishonchnomani darhol qaytarish majburiyati yuklanadi.

## 6. Fuqaroviy huquqiy javobgarlikning umumiy tavsifi

Basharti fuqarolik huquq va majburiyatlari buzilsa, ya'ni majburiyatlar bajarmaganligi bois, mol mulkka va kishi sog'lig'iga ziyon yetkazilsa, qonunbuzarga nisbatan fuqarolik huquqida nazarda tutilgan choralar ko'rilishi mumkin.

Fuqaroviy huquqiy javobgarlik — fuqarolik huquqlarini buzgan shaxslarga majburiy ta'sir etish chorasi bo'lib, u jabrlanuvchiga yetkazilgan mulkiy zararni qoplash bilan bog'liq majburiyatdan iborat bo'ladi.

Mazkur majburiyatning ikki turi mavjud:

1) fuqarolik huquqiga oid u yoki bu shartnomani bajarmaslik yoki undagi shartlarga rioya etmaslik sababli yuzaga keladi (masalan, to'lovni kechiktirish yoki tovarlarga haq to'lamaslik kabi shartnomaviy majburiyat);

2) fuqaroning hayoti, sog'lig'i yoki mol mulki yoxud davlat mol mulkita zarar yetkazish (masalan, yo'l transport hodisasi natijasida zarar yetkazish kabi shartnomadan tashqari majburiyat sababli yuzaga keladiganlar.

Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaganlik uchun fuqarolik huquqiga oid javobgarlik quyidagilardan iborat:

a) ziyonni qoplash: birinchidan, kreditorning buzilgan huquqi, buzilgan yoki yo'qotilgan mulkini (bu ham, o'z navbatida, real ziyonni tashkil etadi) tiklash bo'yicha xarajatlar; ikkinchidan, basharti huquqlari buzilmagan bo'lsada, kreditor olishi mumkin bo'lgan daromadni ololmaganlik (qo'ldan ketgan foyda).

b) neustoyka (jarima, penya) — shartnomada aniq ko'rsatilgan pul miqdoridan iborat bo'lib, uni qarzdor shartnomani bajarmaganlik yoki oxirigacha bajarmaganlik uchun kreditorga to'lashi kerak. Mazkur qarz qat'iy pul summasida yoki foizlarda ifodalanishi mumkin.

Shartnomadan tashqari majburiyatda, masalan, kishishshg hayoti, sog'lig'i yoki mol mulkiga ziyon yetkazilganda, fuqarolik huquqiga oid javobgarlik yetkazilgan zararni qoplash tarzida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, jabrlanuvchining sog'lig'iga zarar yetkazilishi bois yuzaga kelgan qo'shimcha xarajatlar (davolanish, qarov, baquvvat ovqatlanish va boshqalar) ham qoplanadi. Biroq mazkur xarajatlarning zarurligi qonunga muvofiq ravishda isbotlanishi shart.

Jismoniy va ma'naviy jabr ko'rgan fuqaro, mulkiy zararni qoplash bilan birga, ma'naviy zararining ham qoplanishini talab qilish huquqiga ega bo'lib, buni sud pul shaklida belgilaydi.

Fuqaroviy huquqiy majburiyatni tavsiflash bilan bir qatorda uni qo'llashning quyidagi tartibini aytib o'tish kerak. Chunonchi, huquqi buzilgan shaxs sud, xo'jalik sudiga zararining qoplanishi, neustoykani to'lash talabi bilan murojaat etishi mumkin. Umumiy da'vo muddati uch yilga teng bo'lib, shaxs majburiyatlarining buzilganligini bilgan yoki bilishi kerak bo'lgan vaqtdan boshlab hisoblanadi.

## 7. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunlari

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik munosabatlarini tartibga soluvchi qonun Fuqarolik kodeksi bo'lib, uning birinchi qismi 1995 yil 29 dekabrda, ikkinchi qismi 1996 yil 29 avgustda qabul qilingan. Fuqarolik kodeksining ikkala qismi 1997 yil 1 martda kuchga kirdi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi mulkiy va u bilan bog'liq nomulkiy munosabatlarni tartibga

soladi. Mazkur munosabatlar tomonlarning tengligi, xohish irodaning daxlsizligi va ishtirokchilarning mulkiy mustaqilligiga asoslangan.

Fuqarolik kodeksi quyidagi munosabatlarni tartibga soladi:

birinchidan, fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini belgilashga oid;

ikkinchidan, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning vujudga kelish asoslarini amalga oshirish tartibi bo'yicha;

uchinchidan, intellektual faoliyat natijalariga huquq belgilash bo'yicha;

to'rtinchidan, shartnomaviy va shartnomadan tashqari majburiyatlarni tartibga solish bo'yicha;

beshinchidan, mulkiy va ular bilan bog'liq boshqa shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solish bo'yicha va hokazo.

Fuqaro o'zining buzilgan va da'voli huquqlarini sudga murojaat etish orqali hal qilishi, buzilgan fuqarolik huquklarini bir qator usul va vositalar yordamida himoyalashi mumkin.

Mulkiy munosabatlarda ishtirok etish uchun fuqaro quyidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak, ya'ni unda huquqiy layoqat va muomala layoqati bo'lishi zarur.

## **5-Mavzu: Mehnat huquqi asoslari. 2 soat.**

### **Reja:**

- 1. Mehnat huquqi tushunchasi va mehnat huquqining manbalari**
- 2. Ish bilan ta'minlash va ishga joylashtirish**
- 3. Mehnat shartnomasi (kontrakt)**
- 4. Ish vaqti va dam olish vaqti**
- 5. Mehnat huquqida javobgarlik va davlat ijtimoiy sug'urtasi**
- 6. Mehnatni muhofaza qilish va mehnat nizolari**

### **1. Mehnat huquqi tushunchasi va mehnat huquqining manbalari**

Mehnati huquqi mehnat shartnomasi asosida vujudga keladigan hamda xodimlar va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni, shuningdek, mehnatdan foydalanish sohasi bilan chambarchas bog'liq boshqa munosabatlarni tartibga soladigan keng qamrovli va murakkab huquq sohasidir.

Mehnati munosabatlari deb xodim o'z mehnati qobiliyatiga ko'ra bajaradigan, ish beruvchi esa uning mehnatidan foydalanib, unga haq to'laydigan hamda mehnatning xavfsiz sharoitlarini ta'minlaydigan munosabatlarga aytiladi.

Mehnati munosabatlarning ishtirokchilari (sub'ektlari) o'z mehnati huquqlarini amalga oshiruvchi xodimlar va ularni ishga qabul qiluvchi ish beruvchilar (mul'kchilikning barcha tashkiliy huquqiy shaklidagi yuridik shaxslar)dir.

Har qanday mehnati insondan shaxsiy irodaviy faoliyatni talab qiladi va inson tomonidan shaxsan amalga oshiriladi, shu sababdan har qanday mehnatga layoqatli shaxs bir vaqtning o'zida huquqiy layoqatga va muomala layoqatiga ega bo'lishi mumkin.

Shu tufayli mehnati huquqida faqat bitta tushuncha bo'lishi mumkin, ya'ni mehnati munosabatlarning sub'ektlari bo'lib 16 yoshga to'lgan fuqarolar hisoblanadi, 15 yoshdan yoki 14 yoshga to'lgan shaxslar ota-onasidan birining yoki ular o'rnini bosuvchi shaxsning yozma roziligi bilan bolalarning sog'lig'i va kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan va ta'lim olish jarayonini izdan chiqarmaydigan yengil ishlarni o'qishdan bo'sh vaqtlarida bajarish uchun ishga qabul qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Mehnati kodeksiga ko'ra, mehnati munosabatlari shaxsni kamsitish ta'qiqlanadi.

Har qanday xo'jalik faoliyatini yurituvchi, ularga mehnati uchun haq to'lovchi va mehnatini muhofaza qiluvchi tashkilot (yuridik shaxs) ish beruvchi hisoblanadi. Mazkur tashkilotning yuridik shaxs sifatidagi huquqiy layoqati, davlat uni rasmiy ro'yxatga olgan vaqtdan boshlanadi (shu vaqtdan boshlab u ish beruvchi sifatida huquqiy layoqatga ega bo'ladi).

Mehnati o'id huquqiy munosabatlari mehnati huquqlari va yuridik majburiyatlar majmuidan iborat bo'lib, murakkab va uzoq davom etish xususiyatiga ega.

Xodimlar va ish beruvchilar o'zlarining mehnatga oid huquqiy munosabatlarini, ya'ni huquq va burchlarini mehnat shartnomasi amal qilgan vaqtgacha bajaradilar. Bunda mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida yuzaga keladigan mehnat munosabatlarini fuqaroviy huquqiy munosabatlarga taalluqli bo'lgan pudrat shartnomasidan, evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalaridan farqlash kerak.

Mehnat huquqining manbalarini mehnat va u bilan bevosita bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi xilma xil shakldagi normativ huquqiy hujjatlar (qonunlar, farmonlar, qarorlar va hokazo) tashkil etadi. Mehnat huquqining asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

— O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (u mehnat huquqining bosh manbai bo'lib, unda, jumladan 37-moddada mehnat huquqiy tartibga solishning eng asosiy prinsiplari belgilangan);

— O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 1 apreldan e'tiboran kuchga kirgan Mehnat kodeksi;

— O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisida qabul qilingan va mehnat huquqiga aloqador bo'lgan qonunlar;

— O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mehnat munosabatlarining eng muhim jihatlarini tartibga soladigan umummajburiy ahamiyatga ega bo'lgan farmonlari;

— O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mehnat huquqining muhim masalalari bo'yicha Konstitutsiya, qonunlar, Prezident farmonlarining ijrosini ta'minlashga qaratilgan qaror va farmoyishlari;

— O'zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat organlarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan mehnatga oid qarorlari.

## **2. Ish bilan ta'minlash va ishga joylashtirish**

Qonun fuqaroning mehnat qilish huquqini kafolatlaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi qonunining 6-moddasiga binoan, davlat quyidagilarni kafolatlaydi:

— ish bilan ta'minlash turini, shu jumladan turli mehnat rejimidagi ishni tanlash erkinligini;

— ishga qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etishdan va mehnat shartnomasini g'ayriqonuniy ravishda bekor qilishdan himoyalanihi;

— maqbul keladigan ishni tanlash va ishga joylashishga bepul yordam berishni;

— har kimga kasbga va ishga ega bo'lishda, mehnat qilish va ish bilan ta'minlanish shart sharoitlarida, mehnatga haq to'lashda, xizmat pog'onasidan yuqorilab borishda teng imkoniyatlar yaratishni;

— yangi kasbga (mugaxassislikka) bepul o'qitishni, mahalliy mehnat organlarida yoki ularning yo'llanmasi bilan boshqa o'quv yurtlarida stipendiya to'lab, malakasini oshirishni;

— boshqa joydagi ishga qabul qilinganda sarf qilingan moddiy xarajatlar uchun qonun hujjatlariga muvofiq kompensatsiya to'lashni;

— haq to'lanadigan jamoat ishlarida qatnashish uchun muddatli mehnat shartnomalari tuzish imkoniyatini.

### 3. Mehnat shartnomasi (kontrakt)

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ko'ra, har kim o'z qobiliyatiga ko'ra mehnat qilishi uchun ish beruvchi bilan mehnat shartnomasini tuzgan holda u yoki bu faoliyat turini erkin tanlash huquqiga ega ekanligi belgilangan. Mehnat shartnomasi, Mehnat kodeksiga asosan, xodim bilan ish beruvchi o'rtasida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo'yicha ishni ichki mehnat tartibiga bo'ysungan holda taraflar kelishuvi, shuningdek, mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar, shu jumladan jamoa shartnomalari va kelishuvlari bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish haqidagi kelishuvdir.

Mehnat shartnomasi (kontrakt)ning taraflarini bir tomondan xodim, ikkinchi tomondan esa ish beruvchi tashkil etadi.

Ularning xususiyatlari ko'p jihatdan xo'jalik faoliyati sohasiga hamda bir qator boshqa holatlarga bog'liq bo'ladi. Ish beruvchi, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan barcha tashkilotlar va 18 yoshga to'lgan ayrim shaxslardir.

Qonunda mehnat shartnomasining yozma shaklda tuzilishi belgilangan. Mehnat shartnomasini yozma ravishda tuzish zaruratini ishga qabul qilish tartibidan farqlash lozim.

Ishga qabul qilish ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Mehnat kodeksiga binoan, ishga qabul qilish tegishli rasmiylashtirilgan yoki rasmiylashtirilmaganidan qat'iy nazar, ish boshlangan kundan e'tiboran mehnat shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi.

Mehnat shartnomasining mazmunini taraflarning huquq va burchlarini belgilovchi shartlar tashkil qiladi. Bu shartlar taraflarning bevosita kelishuvi, shuningdek, mehnat to'g'risidagi qonunlar bilan belgilanadi.

Mehnat kodeksiga ko'ra, mehnat shartnomasi quyidagi muddatlarga tuziladi:

- 1) nomuayyan muddatga;
- 2) besh yildan ortiq bo'lmagan muayyan muddatga;
- 3) muayyan ishni bajarish muddatiga.

Ishga qabul qilishda taraflarning kelishuviga ko'ra xodimning topshirilayotgan ishga layoqatliligini tekshirib ko'rish maqsadida dastlabki sinov muddati belgilanadi. Dastlabki sinov muddati uch oydan ortib ketishi mumkin emas.

Dastlabki sinov muddati tugaguniga qadar har bir taraf ikkinchi tarafni uch kun oldin yozma ravishda ogohlantirib, mehnat shartnomasini bekor qilishga haqlidir.

Agar dastlabki sinov muddati tugab, xodim ishni davom ettirayotgan bo'lsa, u sinovdan o'tgan hisoblanadi.

Xodimning mehnat faoliyatini tasdiqlovchi asosiy hujjat mehnat daftarchasidir. Amaldagi Mehnat kodeksiga binoan, ish beruvchi korxonada besh kundan ortiq ishlagan barcha xodimlarga mehnat daftarchasini yuritishi shart (o'rindoshlik asosida ishlovchilar bundan mustasno). Mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari (sabablari) mehnat daftarchasiga yozilmaydi. Boshqa doimiy ishga o'tkazishga (xodimning mehnat vazifalarini o'zgartirishga), unga boshqa mutaxassislik, malaka, lavozimga oid ishni topshirishga faqat uning roziligi bilan yo'l qo'yilishi mumkin.

Ish beruvchining tashabbusi bilan vaqtincha boshqa ishga o'tkazishga ishlab chiqarish zarurati yoki bekor turib qolinishi munosabati bilan yo'l qo'yiladi.



Mehnat shartnomasining bekor qilinishi deganda, xodimni korxona, muassasa va tashkilotdagi mehnat vazifalaridan mehnat qonunlarida nazarda tutilgan asoslar va sabablarga ko'ra ozod qilish tushuniladi.

Mehnat kodeksining 97-moddasiga asosan, mehnat shartnomasi quyidagi asoslarga ko'ra bekor qilinishi mumkin:

1) taraflarnyugg kelshiuvida ko'ra (ushbu asosga binoan mehnat shartnomasining barcha turlari istalgan vaktida bekor qilinishi mumkin);

2) taraflardan birining tashabbusi bilan;

3) muddatning tugashi bilan;

4) taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra;

5) mehnat shartnomasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra;

6) yangi muddatga saylanmaganligi (tanlov bo'yicha o'tmaganligi) yoxud saylanishda (tanlovda) qatnashishni rad etganligi munosabati bilan.

Mehnat kodeksiga ko'ra, mehnat shartnomasini bekor qilish uchun yana bir asos bo'lishi mumkin. Chunonchi, dastlabki sinov natijasi qoniqarsiz bo'lsa (ishga qabul qilishda dastlabki sinov muddati belgilangan hollarda), ish beruvchi xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini xodimlarning korxonadagi vakillik organlarining roziligini olmasdan va ishdan bo'shatish nafaqasini to'lamasdan turib ham bekor qilishga haqli bo'ladi.

#### **4. Ish vaqti va dam olish vaqti**

Xodim ish tartibi yoki grafigiga yoxud mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq o'z mehnat vazifalarini bajarishi lozim bo'lgan vaqt ish vaqti hisoblanadi.

Lokal normativ hujjatlar va yakka tartibdagi mehnat shartnomalari ish vaqtini huquqiy tartibga solishda katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ish vaqtining eng ko'p muddati markazlashtirilgan tartibda belgilanadi va sutka davomidagi haftalik, kalendar hisobidagi vaqtning muddatlari xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga binoan lokal normativ hujjatlarda bayon etiladi.

Muddatlarga asoslangan holda ish vaqti uch turga bo'linadi: normal muddat, qisqartirilgan muddat va to'liqsiz ish muddati.

Ish vaqtining normal muddati haftasiga 40 soatdan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Ish vaqtining qisqartirilgan muddati quyidagilar uchun belgilanadi:

— o'n sakkiz yoshga to'lmagan xodimlar (16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan xodimlarga haftasiga 36 soatdan, 14 dan 16 yoshgacha bo'ltan shaxslarga esa haftasiga 24 soat dan oshmaydigan qilib belgilanadi).

— I va II guruh nogironi bo'lgan xodimlar (haftasiga 36 soatdan oshmaydigan qilib belgilanadi).

— noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo'lgan xodimlar;

— alohida tusga ega bo'lgan ishlardagi xodimlar.

— uch yoshga toʻlmagan bolalari bor hamda budget hisobidan moliyaviy taʼminlanadigan muassasalar va tashkilotlarda ishlayotgan ayollar (haftasiga 35 soatdan oshmaydigan qilib belgilanadi).

Dam olish vaqti xodim mehnat vazifalarini bajarishdan xoli boʻlgan va oʻz ixtiyoriga koʻra foydalanishi mumkin boʻlgan vaqtdir.

Dam olish vaqti quyidagi turlarga boʻlinadi:

1) xodimga ish kuni davomida dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan tanaffus (uning aniq muddati ichki mehnat tartibi qoidalarida, smena grafiklarida yoki xodim bilan ish beruvchi oʻrtasidagi kelishuvda belgilab qoʻyiladi; bu tanaffus ish vaqtiga kiritilmaydi);

2) ish tugashi bilan keyingi kuni (smenada) ish boshlanishi oʻrtasidash kundalik dam olish vaqti (uning muddati 12 soatdan kam boʻlishi mumkin emas);

3) dam olish kunlari (besh kunlik ish haftasida xodimlarga haftada ikki dam olish kuni, olti kunlik ish haftasida esa bir dam olish kuni beriladi; umumiy dam olish kuni — yakshanba);

4) bayram (ishlanmaydigan) kunlar. Oʻzbekiston Respublikasida quyidagi kunlar bayram kunlaridir:

— 1 yanvar — Yangi yil bayrami;

— 8 mart — Xalqaro Xotin qizlar kuni;

— 21 mart — Navroʻz bayrami;

— 9 may — Xotira va qadrlash kuni;

— 1 sentabr — Mustaqillik kuni;

— 1 oktabr — Oʻqituvchilar va murabbiylar kuni;

— 8 dekabr — Konstitutsiya kuni;

— Ramazon hayiti (Iyd al Fitr) diniy bayramining birinchi kuni;

— Qurbon hayit (Iyd al Adha) diniy bayramining birinchi kuni.

5) taʼtillar. Barcha xodimlarga dam olish va ish qobiliyatini tiklash uchun ish joyi va oʻrtacha ish haqi saqlangan holda yillik mehnat taʼtillari beriladi. Muddati olti kunlik ish haftasi hisobidan oʻn besh ish kunidan kam boʻlmagan muddat bilan yillik asosiy taʼtil beriladi. 18 yoshga toʻlmagan shaxslarga hamda ishlayotgan I va II guruh nogironlariga oʻttiz kalendar kundan iborat yillik uzaytirilgan asosiy taʼtil beriladi.

6) yillik qoʻshimcha taʼtillar:

— mehnat sharoiti noqulay va alohida tusga ega boʻlgan ishlarda band boʻlgan xodimlarga;

— ogʻir va noqulay tabiiy iqlim sharoitlarida ish bajarayotgan xodimlarga;

— mehnat toʻgʻrisidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda, mehnat shartnomasining shartlarida nazarda tutilgan va boshqa hollarda beriladi.

Xodimga oilaviy sharoitiga koʻra va boshqa uzrli sabablarga koʻra uning arizasiga binoan ish haqi saqlanmagan holda taʼtil berilishi mumkin.

## **5. Davlat ijtimoiy sugʻurtasi va mehnat huquqida javobgarlik**

Ijtimoiy sug`urta ish beruvchi va sug`urta qilingan xodimlarning ijtimoiy sug`urta mablag`lariga badal to`lashlaridan tashkil topadi.

Bu badal hisobidan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik va pensiya to`lanadigan, sug`urta qilingan xodimlar, tegishli hollarda esa, ularning oilalari ham davolash ijtimoiy sug`urtasi mablag`lari hisobidan vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari, homiladorlik va tug`ish nafaqalari, bola tug`ilganda beriladigan nafaqalar hamda yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo`qotganlik pensiyalari, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to`lovlar bilan ta`minlanadilar. Yoshga doir pensiya olish huquqiga bugungi kunda 60 yoshga to`lgan va umumiy ish staji 25 yil bo`lgan erkaklar hamda 55 yoshga to`lgan va umumiy ish staji 20 yil bo`lgan ayollar egadirlar. Har bir qo`shimcha ish yili uchun % miqdorida pensiya qo`shiladi. Pensiya sug`urta qilingan xodimlarning ayrim toifalariga pensiya yoshi kam bo`lganda, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, mehnat staji kam bo`lganda ham tayinlanadi.

Xodim (homilador ayol, 14 yoshga to`lmagan bolasi, 16 yoshga to`lmagan nogiron bolasi bor ayol yoki oilaning betob a`zosini parvarish qilish bilan band bo`lgan shaxs)ning iltimosiga qo`ra, ish beruvchi tibbiy xulosaga muvofiq ularga to`liqsiz ish kuni yoki to`liqsiz ish haftasi belgilashga majburdir. To`liqsiz ish vaqti tayinlangan xodimga ishlagan vaqti yoki ishlab chiqargan mahsulotiga mutanosib ravishda haq to`lanadi.

Yuridik javobgarlikning boshqa turlari bilan bir qatorda mehnat huquqiga **intizomiy va moddiy javobgarlik** xosdir.

Intizomiy javobgarlik — mehnatga oid qonunlar doirasida mehnat intizomini buzganlarga nisbatan qo`llaniladigan jazoning huquqiy shakllaridan biri.

Mehnat huquqida umumiy va maxsus intizomiy jazolar alohdda o`rin egallaydi.

Intizomiy jazolar mehnat haqidagi qonunlarda qat`iy belgilangan bo`lib, uzaytirilishi yoki o`zgartirilishiga yo`l qo`yilmaydi, ularni kengaytirib talqin etish mumkin emas.

Mehnat kodeksiga binoan, intizomiy jazolarning quyidagi turlari mavjud: hayfsan, o`rtacha oylik ish haqining 30 % dan ortiq bo`lmagan miqdorda jarima (ichki mehnat tartibi qoidalarida xodimga o`rtacha oylik ish haqining 50 % dan ortiq bo`lmagan miqdorda jarima solish hollari ham nazarda tutilishi mumkin), mehnat shartnomasini bekor qilish (MK 2 bob, 3 va 4 bandlar, 100 modda).

Maxsus intizomiy jazo ba`zi xodimlar (prokuratura xodimlari, sudyalari, davlat hokimiyati vakillik va boshqaruv organlaridagi lavozimga saylanadigan, tasdiqlanadigan yoki tayinlanadigan rahbar xodimlar va h.k.)ning o`ziga xos mehnat sharoitidan kelib chiqadi. Xalq xo`jaligining ba`zi tarmoqlarida xodimlarning ayrim toifalari uchun intizom to`g`risidagi ustav va nizomlar amal qiladi.

Intizomiy jazo qo`llanganda sodir etilgan nojo`ya xatti harakatning xususiyati, u sodir etilgan holning og`irligi, xodimning avvalgi ishi va fe`l atvori hisobga olinadi. Mehnat intizomining har bir buzilishida faqat bitta intizomiy jazo chorasi ko`rilishi mumkin. Intizomiy jazo nojo`ya xatti harakat ayon bo`lgan vaqtdan boshlab bir oy muddatdan kechiktirmay qo`llanilishi lozim. Huquqbuzardan yozma ravishda tushuntirish xati olish, xodimni buyruq (farmoyish) bilan tanishtirish va imzosini olish, yakka mehnat nizolarini hal qilish bo`yicha tegishli organlarga murojaat etish intizomiy jazoning asossiz qo`llanilishidan huquqiy kafolat hisoblanadi.

Intizomiy jazoga tortilgan xodim bir yillik muddat ichida takroran nojo`ya xatti harakat sodir etmagan va o`zini halol xodim sifatida ko`rsatgan bo`lsa, intizomiy jazo, mazkur intizomiy jazoni qo`llagan organ yoki mansabdor shaxsning tashabbusi, bevosita rahbari yoki mehnat jamoasining rasmiy iltimosiga ko`ra olib tashlanishi mumkin.

Intizomiy jazo amalda bo'lgan muddat davomida xodim rag'batlantirilmaydi. Xodim faqat quyidaga hollardagina moddiy javobgarlikka tortilishi mumkin: u qonunga xilof xatti harakat sodir etganda, bevosita zarar yetkazganda, xodimning aybi aniqlanganda, shuningdek, uning qilmishi va kelib chiqqan bevosita haqiqiy zarar o'rtasida uzviy bog'lanish bo'lganda. Bevosita haqiqiy zarar deganda, mol mulkni yo'q qilish, uning sifatini yomonlashtirish yoki qiymatini pasaytirish, uni qayta tiklashga xarajatlar qilish zaruratining yuzaga kelishi, sotib olish yoki ortiqcha to'lovlar to'lash tushuniladi.

## **6. Mehnatni muhofaza qilish va mehnat nizolari**

O'zbekiston Respublikasida mehnatni muhofaza qilish mehnat faoliyati jarayonida xodimlar hayoti va sog'lig'ining xavfsizligini ta'minlash tizimidan iboratdir. Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari Konstitutsiyaning tegishli moddalari, «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonun, Mehdad kodeksi va boshqa normativ hujjatlardan iborat.

Mehnat faoliyati jarayonida ishlab chiqarish jarohatlanishi va kasbiy kasalliklarga yo'l qo'ymaslik uchun xodimlarga xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlari yaratib berilishi kerak. Bu majburiyatlar korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning ma'muriyatiga yuklangan. Mehnat kodeksiga muvofiq, ish beruvchi barcha ishchi o'rinlarini texnik jihozlar bilan ta'minlashi va ularda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yagona (tarmoq, tarmoqlararo, sanitariya va boshqa) qoidalarga mos keladigan mehnat sharoitlarini yaratib berishi shart. Xodimlar mehnat faoliyati davomida mehnatni muhofaza qilishning tegishli shartlari bilan tanishish huquqiga egadirlar.

Ish beruvchining xodimlarni texnika xavfsizligi, ishlab chiqarish sanitariyasi, yong'in chiqishdan saqlanish va mehnatni muhofaza qilishning boshqa qoidalari haqida yo'l yo'riqlar berish majburiyati bu huquqqa tegishlidir.

Bundan tashqari, qonunda mehnatni muhofaza qilish sohasida xodimlar uchun kafolatlar belgilangan. Bu kafolatlar xodimlarni ishlab chiqarish yoki boshqa omillarning zararli ta'siridan yakka tartibda, shuningdek, jamoa bo'lib muhofaza qilish masalalariga tegishli bo'lib, ular Mehnat kodeksida mustahkamlangan. Masalan, ifloslanish bilan bog'liq ishlarda xodimlarga belgilangan normadagi sovun beriladi. Teriga zararli ta'sir ko'rsatuvchi moddalar bilan bog'liq ishlarda belgilangan normada yuvuvchi va zararsizlantiruvchi moddalar beriladi.

**Mehnat nizolari** deganda, mehnat shartlarini belgilash yoki o'zgartirish, mehnat qonunchiligini qo'llash borasida kelib chiqadigan kelishmovchiliklar tushuniladi. Mehnat nizolari yakka va jamoaga doir qismlarga bo'linadi. Yakka mehnat nizolari ish beruvchi va xodim o'rtasida mehnat to'g'risidagi qonunlar boshqa normativ hujjatlarning, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat shartlarining qo'llanishi yuzasidan kelib chiqadi (jumladan, ish haqini, mukofotlarni noto'g'ri hisoblash; ta'tilning davomiyligini noto'g'ri belgilash hokazo). Bunday nizolarni hal etish uchun mehnat jamoasi mehnat nizolari bo'yicha komissiya tuzadi. Bunday komissiya ko'plab mehnat nizolarining hal etilishida birinchi instansiya hisoblanadi.

Mehnat nizolari komissiyalarini ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organlari tenglik asosida tuzadilar. Komissiyaning qarori dalillar bilan isbotlangan hamda mehnat to'g'risidagi qonun va boshqa normativ hujjatlarga, mehnat shartnomasiga asoslangan bo'lishi kerak. Ish beruvchi ushbu qarorni bu qaror ustidan shikoyat qilish uchun belgilangan kunlik muddat o'tganidan keyin 3 kun ichida bajarishi kerak.

Basharti mehnat nizolari komissiyasi 10 kunlik muddat ichida mehnat nizosini ko'rib chiqmasa yoki hal etmasa, manfaatdor xodim ushbu nizoni ko'rishni tuman (shahar) sudiga o'tkazishni talab etishga haqli bo'ladi.

## **6-Mavzu: Oila huquqi asoslari. 2 soat.**

### **Reja:**

- 1. Oila, uning jamiyat va davlat hayotidagi ahamiyati**
- 2. Nikoh. Nikoh tuzish tartibi va shartlari. Nikohning tugatilishi.**
- 3. Er va xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari**
- 4. Ota-onalar hamda bolalarning huquq va majburiyatlari**
- 5. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlar**

### **1. Oila, uning jamiyat va davlat hayotidagi ahamiyati**

Oila jamiyat va davlat bilan o'zaro bog'liq bo'ladi va ular bilan bir zamonda rivojlanadi. U qator demografik, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa muhim funksiyalarni bajaradi. Shuning uchun jamiyat va davlat oilaning farovon bo'lishidan manfaatdor bo'ladi.

Oila yuridik tushuncha sifatida — shunchaki odamlarning o'zaro er xotin yoki qarindoshlik rishtalari bilan mustahkamlangan guruhi emas, balki qonunda belgilangan huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan shaxslar guruhidir. Binobarin, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar oila huquqi normalari bilan belgilangan bo'lib, ular oilaviy huquqiy munosabatlar deb ataladi.

Oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy qonuniy hujjatlar quyidagilardir:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Oila kodeksi va oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa normativ hujjatlar. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan.

Oila huquqi sohasidagi xalqaro shartnomalar va xalqaro huquq normalari ham oila qonunchiligining manbai bo'lib hisoblanadi.

Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasining oila qonunchiligida nazarda tutilgan huquqlari, erkinliklari, manfaatlari va, albatta, majburiyatlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- er xotinning (shaxsiy va mulkiy) huquqlari va majburiyatlari;
- Ota-onaning (shaxsiy va mulkiy) huquqlari va majburiyatlari;
- nikoh tuzishga teng huquqlar;
- voyaga yetmagan bolalarning (shaxsiy va mulkiy) huquq va majburiyatlari;
- Ota-onalar va bolalar, er-xotin va sobiq er-xotin, qarindoshlar va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari;
- nikohning tugatilishi asoslari;
- er xotinning umumiy mol mulkka egalik qilish, foydalanish, va uni tasarruf etish huquqlari;
- nikoh shartnomasini tuzishda er xotinning huquqlari va majburiyatlari;

— farzandlikka olish tartibi;

— bolaning huquqi va manfaatini himoya qilish bo'yicha ota-onaning huquq va majburiyatlari;

— Ota-onaning bolani tarbiyalash hamda unga ta'lim berishga doir huquq va majburiyatlari;

— Ota-onalik huquqidan mahrum qilish asoslari va tartibi;

— vasiylik va homiylikka murojaat etish huquqi.

Shunday qilib, oilaviy huquqiy munosabatlar deganda, fuqarolar o'rtasida bo'ladigan va oilaviy huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi.

Har qanday boshqa munosabatlarda bo'lganidek, oilaviy huquqiy munosabatlarda quyidagi uch element mavjud:

— sub'ekt;

— sub'ektiv huquq va majburiyatlar.

Oilaviy huquqiy munosabatlarning sub'ekti bo'lib er-xotin, ota-ona, bolalar, vasiylar va homiylar, boshqa qarindosh urug'lar hamda oila qonunchiligi sohasida u yoki bu munosabatlarni hal etishda ishtirok etuvchi yuridik shaxslar, fuqarolar uyushmasi, muassasalar, organlar, ijtimoiy birlashmalar hisoblanadi.

## **2. Nikoh. Nikoh tuzish tartibi va shartlari. Nikohning tugatilishi.**

Nikoh — erkak bilan ayolning teng huquqli, erkin va ixtiyoriy ittifoqi bo'lib, u fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida tuziladi va oila tuzish maqsadiga xizmat qiladi

Nikoh tuzish — shunchaki rasmiyatchilik emas. Davlatning nikohni qayd etishi yuridik faktdir. Aynan ro'yxatga olingan (qayd etilgan) nikoh yuridik nikoh deb hisoblanadi va faqat ugina er xotinlik huquqdari va majburiyatlarini yuzaga keltiradi, ro'yxatsiz (qaydsiz) nikoh haqiqiy emas. Diniy rasm rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas.

Erkak va ayolning haqiqatda birga yashashi («fuqarolik nikohi» deyiladi) natijasida ular o'rtasida huquqiy munosabatlar yuzaga kelmaydi, ular bir birlarining oldida yuridik huquq va majburiyatga ega bo'lmaydilar (masalan, birga yashovchi (ayol) o'zi bilan birga yashovchi (erkak)dan ta'minot olishga haqli bo'lmaydi).

Nikoh tuzish nikohlanuvchilarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlariga ariza berganlaridan keyin bir oy muddat o'tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi. Uzrli sabablar bo'lganda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish orqali bir oy o'tgunga qadar nikoh tuzishga ruxsat berilishi mumkin. Nikoh yoshi respublikamizda erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun 17 yosh etib belgilangan. Tegishli tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin. Shu bilan bog'liq quyidagi holatga e'tiborni qaratish lozim, ya'ni er xotinlar 18 va 17 yoshdan emas, balki nikoh tuzilgan vaqtdan boshlab to'liq huquqiy layoqatga ega hisoblanadi.

Nikoh tuzishni xoxlovchilarning yoshi qonunda cheklanmaydi. Ba'zida voyaga yetmaganlarning xohishi bo'lsa ham, nikohni tuzib bo'lmaydi. Quyidagi hollarda nikoh tuzilmaydi:

1) loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtasida (faqat FHDYO organlarida ro'yxatga olingan nikoh nazarda tutiladi. Haqiqatda birga yashash e'tiborga olinmaydi.

Nikoh tuzishga sud qarori bilan ajratilgan va haqiqiy emas deb topilgan nikohlar to'siq bo'lmaydi);

2) loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida;

3) nasl nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka ukalar bilan opa singillar o'rtasida, shuningdek, farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida.

Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan nikohlanuvchi shaxslarning roziligi bilan davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalari o'tkazadi.

Nikohlanuvchi shaxsni ko'rikdan o'tkazish natijalari shifokor siri hisoblanadi va u nikohdanuvchi shaxsga faqat ko'rikdan o'tgan shaxsning roziligi bilan bildirilishi mumkin. Basharti nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odam immuniteti taqchilligi virusi (OITS infeksiyasi) borligini boshqasidan yashirgan bo'lsa, ushbu shaxs nikohni haqiqiy emas deb topishni talab qilib sudga murojaat etishga haqli bo'ladi. Yuqoridagi kasalliklarga chalingan holatlar nikoh tuzishga monelik qiladi.

Nikohni faqat sud haqiqiy emas deb topishi mumkin.

Nikohning haqiqiy emas deb topilishi shu nikohda yoki uni haqiqiy emas deb topilgan kundan boshlab 300 kun ichida tug'ilgan bolalar huquqiga ta'sir qilmaydi. Bunday bolalar haqiqiy nikohda tug'ilgan bolalardek huquqqa ega bo'ladilar.

Turli hayotiy sabablarga ko'ra ba'zi nikohlar buziladi, er xotinlik munosabatlari to'xtaydi (sud tomonidan e'lon qilingan er xotindan birining o'limi tufayli nikohning tugatilishi).

Er xotin hayotligida nikoh faqat ajratish yo'li bilan buzilishi mumkin. Ajralishni sud yoki FXDYO organlari rasmiy tartibda amalga oishradi. Xotinning homiladorligi vaqtida va bola tug'ilganidan keyin bir yil mobaynida er xotinning rozilgisiz nikohdan ajratish to'g'risida ish qo'zg'atilishi mumkin emas.

Er xotinlar FHDYO organlaridan nikoh tugatilishi haqida guvohnoma olmaganlaricha yangi nikoh tuzishga haqlari bo'lmaydi.

### **3. Er va xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari**

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga binoan, er va xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari qonuniy va shartnomaviy tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida shunday deyilgan: «Er va xotinning nikoh davomida ortgiran mol mulklari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi» (23 modda).

Oila kodeksida shartnomaning bu turi batafsil tartibga solingan. Unda «nikoh shartnomasi» tushunchasi, uni tuzish shartlari va tartibi, mazmuni va ro'yxatga olish mexanizmi, shartnomani o'zgartirish va bekor qilish, uni to'la yoki qisman haqiqiy emas deb topish kabilar belgilangan.

Qonunga binoan, nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida hamda er xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq va majburiyatlarini belgilovchi kelishuv nikoh shartnomasi deb hisoblanadi. Er va xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari nikoh shartnomasining predmeti bo'la olmaydi. Masalan, shartnomada bir birini sevish majburiyatini mustahkamlash mumkin emas.

Nikoh shartnomasi nikoh FHDYO organlarida ro'yxatga olinganidan keyin, shuningdek, nikoh davrida ham faqat er va xotin o'rtasida tuzilishi mumkin (nikoh davlat ro'yxatiga olingunga qadar tuzilgan nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab kuchga kiradi). Nikoh shartnomasi yozma shaklda tuziladi va notarial tartibda tasdiqlanishi lozim. Er xotin nikoh shartnomasiga ko'ra, birgalikdagi umumiy mulkning qonunda belgilangan tartibini o'zgartirishi mumkin. Nikoh shartnomasi er xotinning kelishuvi bilan istalgan vaqtda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin (shartnomani bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi). Nikoh tugatilishi paytidan boshlab nikoh shartnomasining amal qilishi ham tugaydi (nikoh shartnomasida nikoh tugatilgandan keyingi davr uchun nazarda tutilgan majburiyatlar bundan mustasno). Qonunga binoan, sud nikoh shartnomasini to'la yoki qisman haqiqiy emas deb topishi mumkin.

Bundan tashqari, qonun nikoh shartnomasida er xotinning birgalikda yashash huquqlari, o'zaro ta'minot kabi huquq va majburiyatlari belgilanishiga yo'l qo'yadi.

Er xotinlar o'zaro boshqa xil shartnomalar tuzishga ham haqlidirlar (masalan, hadya etish, oldi sotdi).

O'zaro moddiy ta'minot er xotinlar bir birlarini moddiy ta'minlashga majbur ekanliklarini anglatadi. Agar bunday yordam berishdan bosh tortilsa yoki shartnomaviy kelishuv bo'lmasa, xotin (er) aliment olish uchun sudga murojaat qilish huquqidan foydalanshi mumkin. Bunday talab bilan sudga murojaat etish huquqiga homilador xotin yoki mehnatga layoqatsiz va muhtoj er (xotin) ega bo'ladi.

Muhtoj va mehnatga layoqatsiz er (xotin)ning xotin (er)idan ta'minot olish huquqi qonunda belgilangan hollarda nikoh tugatilganidan keyin ham tugatilmaydi. Er (xotin)ni ta'minlash uchun undiriladigan alimentning miqdori har doim pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanadi.

Nikohdan ajralgan er va xotinning umumiy mol mulkni bo'lish to'g'risidagi talablariga nisbatan uch yillik da'vo muddati qo'llaniladi. Er va xotinning har birining shaxsiy mulkiga quyidagilar kiritiladi:

- er va xotinning nikohga qadar o'ziga tegishli bo'lgan mol mulki;
- har birining nikoh davomida hadya, meros tariqasida yoki boshqa bepul bitimlar asosida olgan mol mulki;
- yakka tartibda foydalaniladigan buyumlar (kiyim kechak, poyafzal, kosmetika va h.k.), qimmatbaho buyumlar va zeb ziynatlardan tashqari;
- er xotin o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida nikoh davomida olingan va er xotinga tegishli bo'lgan mulk.

#### **4. Ota - onalar hamda bolalarning huquq va majburiyatlari**

Ota-ona va bolalarning o'zaro munosabatlari oilada alohida o'rin tutadi. Bular shaxsiy (nomulkiy) va mulkiy huquq va majburiyatlardir.

Shaxsiy huquqlar borasida bola ism, ota ismi va familiya olish huquqiga egadir.

Bolaga ism — ota-onaning kelishuviga binoan, ota ismi — otasining ismiga ko'ra beriladi. Bolaning familiyasi ota-onaning familiyasiga qarab belgilanadi.

Agar bola o'zaro nikohda bo'lmagan shaxslardan tug'ilgan va otatik qonuniy tartibda belgilanmagan bo'lsa, otalik ixtiyoriy ravishda sud tomonidan belgilanadi (bolaning ota-onasi birgalikda yoki faqat otasining o'zi FHDYO organlariga ariza bilan murojaat qilsa). O'zaro nikohda bo'lmagan ota-onadan tug'ilgan bola ota-onasi qonuniy nikohda bo'lgan bolalarniki kabi huquq va



majburiyatlarga ega. Qonun otalik (onalik)ni da'vo qilishga ham yo'l qo'yadi, lekin bu faqat sud tartibida bo'lishi mumkin.

O'zaro nikohda bo'lmagan ota-onadan bola tug'ilgan taqdirda, bola ota-onasining birgalikdagi yoki otasining shaxsiy arizasiga ko'ra, otalik sud tartibida belgilanishi mumkin.

Bola 18 yoshga to'lmagan (voyaga etmagan) shaxsdir. U nafaqat shaxsiy, balki mulkiy huquqqa ham ega, unga hadya etilgan yoki meros qilib berilgan, buyumlarga egalik qilish huquqiga, o'z ota-onasidan ta'minot olish huquqiga egadir, ammo bola ota-onasining mulkiga egalik qilish huquqiga ega emas va, o'z navbatida, ota-ona ham bolaning mulkiga egalik qilishga haqli emas.

Ota-ona voyaga yetmagan farzandlarining qonuniy vakili hisoblanadi, chunki ular o'z huquq va majburiyatlarini mustaqil himoya qila olmaydilar.

Ota-ona nafaqat teng huquqlidir, balki bolalarni moddiy jihatdan ta'minlash, jismonan, ruhan va axloqan sog'lom qilib tarbiyalash, ularni mustaqil hayotga tayyorlash borasida bir xil majburiyatga ham egadirlar. Ota-onaning huquqi bolaning manfaatiga xizmat qilishni kerak. Bola o'z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega.

Afsuski, ba'zida ota-onalar o'z majburiyatlarini bajarishdan bosh tortadilar, ota-ona huquqini suiiste'mol qiladilar, bolalar bilan shafqatsiz munosabatda bo'ladilar, ularni tahqirleydilar, surunkali ichkilikboz yoki giyohvand bo'ladilar. Bunday hollarda ota-onalar sud qaroriga asosan ota-onalik huquqidan mahrum etiladilar.

Ota-ona huquqidan mahrum qilishga doir ishlar prokuror hamda vasiylik va homiylik organi ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishda bolaning ta'minoti uchun ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onadan (ularning biridan) aliment undirish masalasini hal qiladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-ona qaysi bolaga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa, shu bolaga nisbatan bo'lgan qarindoshlik faktiga asoslangan barcha huquqlardan, shu jumladan undan ta'minot olish, shuningdek, bolaning fuqarolar uchun qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va nafaqalar olish huquqidan mahrum bo'ladi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish ota-onani o'z bolasini ta'minlash majburiyatidan ozod qilmaydi. Qonun ota-onalik huquqini tiklashga ham yo'l qo'yadi, lekin bu faqat sud tartibida amalga oshiriladi.

Farzandlikka olish — yuridik harakat. Chunki ota-ona bilan farzand o'rtasida qanday huquqiy munosabatlar bo'lsa, farzandlikka oluvchilar va farzandli olinayotganlar o'rtasida ham shunday munosabatlar o'rnatiladi. Farzandlikka olingan bolalar barcha shaxsiy va mulkiy huquqlarda farzandlikka oluvchining bolalariga tenglashtiriladi. Farzandlikka olishga faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatan va ular manfaatidan kelib chiqqan holda yo'l qo'yiladi.

Qonun farzandlikka olinayotgan bolasning salomatligi holatiga qarab farzandlikka olish imkoniyatini cheklashni nazarda tutmaydi.

Farzandlikka olishda bola va farzandlikka oluvchi (farzandlikka oluvchining qarindoshlari) o'rtasidagi munosabatlar homiylikka o'xshab ma'lum muddatga emas, balki bir umrga o'rnatiladi. Farzandlikka olish faqat sud tartibida bekor qilinishi yoki haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Farzandlikka olish — o'ta jiddiy va ixtiyoriy huquqiy harakat. U faqat farzandlikka oluvchining iltimosiga binoan, yozma ariza berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Arizaga tavsifnoma, qisqa tarjimai hol, sog'lig'i haqida ma'lumotnoma hamda vasiylik va homiylik organlari talab qilgan boshqa hujjatlar ilova qilinadi.

Quyidagilar farzandlikka oluvchi bo'lolmaydilar:

- voyaga yetmagan fuqarolar;
- ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;
- qonun bilan belgilangan tartibda (sud qarori bilan) muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilganlar;
- asab kasalliklari yoki narkologiya muassasalarida ro`yxatda turuvchilar;
- O`zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 169-moddasining 1 qismida ko`rsatilgan asoslar bo`yicha farzandlikka olganligi bekor qilingan sobiq farzandlikka oluvchilar;
- qasddan sodir etgan jinoyatlari uchun jazoga hukm qilinganlar.

Agar bola 10 yoshga to`lgan bo`lsa, farzandlikka olish uchun bolaning roziligi talab qilinadi. Farzandlikka olish uchun bolaning roziligini vasiylik va homiylik organi aniqlaydi.

Farzandlikka oluvchilar farzandlikka olinayotgan bolaning tug`ilishi qayd etilgan daftarga uning ota-onasi deb yozilishi kerak.

Farzandlikka oluvchi bolaning familiyasi, otasining ismi va ismini o`zgartirish uchun, agar u 10 yoshga to`lgan bo`lsa, bolaning roziligi talab qilinadi.

Farzandlikka olish, albatta, farzandlikka olish qarori chiqqan joydagi FHDYO organlaridan ro`yxatga o`tkazilishi shart.

Farzandlikka olishni sir saqlash qonun bilan himoya qilinadi.

Vasiylik va homiylik ota-onasining qaramog`idan mahrum bo`lgan bolalarga ta`minot berish, ularni tarbiyalash va ta`lim berish, shuningdek, bunday bolalarning shaxsiy hamda mulkiy huquq va majburiyatlarini himoya qilish uchun belgilanadi. Vasiylik 14 yoshgacha bo`lgan bolalarga belgilanadi. Homiylik 14 yoshdan 18 yoshgacha bo`lgan voyaga yetmaganlarga nisbatan belgilanadi. Vasiylik va homiylik organlari joylardagi o`zini o`zi boshqarish organlaridir.

Vasiy va homiy tayinlanishidan manfaatdor shaxslar sudga murojaat qilishlari mumkin.

Quyidagi shaxslar vasiy va homiy etib tayinlanishlari mumkin emas:

- voyaga yetmagan fuqarolar;
- voyaga yetgan, ammo qonunda belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilganlar;
- ota-onalik huquqidan mahrum qilinganlar yoki ushbu huquqlari cheklanganlar;
- qasddan sodir etgan jinoyatlari uchun ilgari jazoga hukm qilinganlar. Fuqarolar ularning roziligi bilangina vasiy va homiy etib tayinlanishi mumkin.

Vasiy va homiylar o`z qaramog`idagi voyaga yetmagan shaxslar bilan birga yashashi shart. Agar tarbiyasiga hamda huquq va manfaatlarining himoya qilinishiga salbiy ta`sir qilmasa, vasiylik va homiylik organining roziligi bilan 16 yoshga to`lgan homiylikdagi bolaning alohida yashashiga yo`l qo`yiladi.

## **5. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo`lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlar**

O`zbekiston fuqarolarining chet el fuqarolari bilan nikohdari O`zbekistonda umumiy asoslarda tuziladi. Buning uchun O`zbekiston Respublikasi bilan fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar

bo'yicha huquqiy yordam berish kelishuvga imzo chekkan mamlakatlarning fuqarolari nikoh tuzishga huquqiy layoqati borligini tasdiqlovchi hujjatni (albatta, bu hujjatni o'sha chet el davlatining tegishli organi bergan bo'lishi kerak) taqdim etishlari kerak.

O'zbekiston fuqarolari va O'zbekiston hududidan tashqarida yashovchilar o'rtasidagi nikoh O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarida yo konsullik muassasalarida tuziladi.

O'zbekiston fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi hamda O'zbekiston hududidagi chet el fuqarolari o'rtasidagi nikoh O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan tugatiladi. O'zbekiston hududidan tashqarida tugatilgan nikoh nikohni tugatish haqidagi qarorni qabul qiluvchi organlarning vakolati tegishli chet davlatning qonunchiligiga rioya etilgan holda rasmiylashtirilgan bo'lsagina haqiqiy deb tan olinadi.

Er xotinning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlari, ota-ona va bolaning huquq va majburiyatlari, voyaga yetmagan bolalar va oilaning boshqa a'zolarining aliment majburiyatlari, ular birgalida yashayotgan davlat hududida amalda bo'lgan qonunlarda belgilanadi.

Bola tug'ilishiga ko'ra qaysi davlatning fuqarosi bo'lsa, o'sha davlatning qonunlari otalikni belgilaydi. Farzandlikka olish hamda farzandlikka olishni bekor qilish farzandlikka olinayotgan bola fuqarosi bo'lgan davlatning qonunlariga binoan amalga oshiriladi.

Xorijiy davlat oila huquqining normalari O'zbekiston Respublikasining huquq tizimi asoslariga zid keluvchi hollarda qo'llanilmaydi. Bu hollarda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari qo'llaniladi.

## 7-Mavzu: Ekologiya va qishloq xo'jaligi huquqi asoslari. 2 soat.

### Reja:

1. Ekologiya huquqi, uning predmeti va ob'ektlari
2. Ekologik tizim tushunchasi
3. Ekologik javobgarlik tushunchasi
4. Atrof muhitni xalqaro huquqiy muhofaza qilish

### 1. Ekologiya huquqi, uning predmeti va ob'ektlari

Ekologiya huquqi O'zbekiston huquq tizimining yaxlit tarmog'i hamda hozirgi va kelajak avlod manfaatlari yo'lida jamiyat, tabiat va insonning o'zaro ta'siri sohasidagi ijtimoiy (ekologik) munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga soluvchi fan.

«Ekologiya» so'zi (grekcha «eko» — uy, turar joy hamda «logos» — ta'limot) inson yashaydigan uy, joy to'g'risidagi ta'limotni bildiradi. «Ekologiya» so'zini birinchi bo'lib nemis olimi Ernest Gekkel 1866 yilda ilmiy muomalaga kiritgan va ushbu termin uzoq vaqt tor doirada, ya'ni biologiya fanida qo'llanib kelgan, XX asrning ikkinchi yarmidagina boshqa mamlakatlarda ham ommalashgan. Umumiy ekologiya tarkibida uning eng muhim qismi bo'lmish jamiyatning uni o'rab turgan tabiiy muhit bilan o'zaro ta'siri haqidagi ta'limot — ijtimoiy ekologiya ajralib chiqqan.

Ijtimoiy ekologiya tarkibiy qismini jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar majmui bo'lgan huquqiy ekologiya tashkil etadi.

Ekologik munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalarni o'z ichiga olgan normativ huquqiy hujjatlar ekologik huquq manbalari sifatida tan olinadi. Ekologiya huquqi manbalariga qonunlar, farmonlar, qarorlar va farmoyishlar, vazirlik va idoralarning normativ hujjatlari kiradi.

«Atrof tabiiy muhit» tushunchasi «tabiat» va «insonni o'rab turgan muhit» tushunchalaridan tashkil topgan. Amaldagi (milliy va xalqaro) qonunlarda «tabiiy muhit» moddiy dunyo tadrijiy rivojlanishining oqibati va tabiiy ekologik tizimlardan tashkil topgan ob'ektiv voqelik sifatida tushuniladi. Tor ma'noda bu — inson yashaydigan, kam tegilgan va insonning xo'jalik faoliyati bilan amalda o'zgarimagan tabiiy yashash muhiti. Insonni o'rab turgan muhit deganda, tabiiy muhitning inson faoliyati jarayonida o'zgartirilgan qismi tushuniladi.

### 2. Ekologik tizim tushunchasi

Ijtimoiy munosabatlarni ekologik huquqiy tartibga solishning xususiyatlari har biriga ayrim umumiy belgilar xos bo'lgan maxsus ekologik tizimlarning mavjudligi bilan bog'liq. Ekosistemaning tarkibiy qismlarini *tabiiy ravishda kelib chiqqan ob'ektlar* tashkil etadi.

Har qanday ekosistemaga *yopiqlik*, ya'ni mustaqil, o'zga ta'sir yordamisiz amal qilish xos (masalan, yaylovlarda, bahor va yozda o'tlar o'z o'zidan o'sib chiqadi, haydaladigan yerlarni esa inson aralashuvi, ya'ni ekish, yer haydash, parvarishlash, begona o'tlarga qarshi kurash bo'lmasa, begona o't bosib ketadi).

*Barcha ekosistemalar bir biri bilan bog'liq.* Ushbu o'zaro aloqadorlikni unutish salbiy oqibatlarga olib keladi. Masalan, begona o'tlarga qarshi kimyoviy vositalar bilan kurash — tuproqdagi va boshqa faunaning halokatiga, o'rmondagi daraxtlarni kesib tashlash — daryo va ko'llar sathining kamayishiga olib keladi.

Xar bir ekosistema *biomahsuldorligi bilan ajralib turadi*: tuproq — mahsuldorligi bilan; fauna — mavjudotlarning ko'payishi bilan; daraxtlar — mevalari, urug'lari bilan va h.k.

Ekologiyaga oid qonunlar tabiiy muhit, ya'ni ekosistemalarning o'zaro bog'liq tizimi ekanligini va shu bois yaxlit va muayyan tartibga solingan bo'lishi kerakligini inobatga olish zarur. Hozircha bunga erishilgani yo'q va ekologik huquq normalari ko'plab huquq manbalarida, jumladan qonunchilikning boshqa tarmoqlariga kiradigan manbalarda joylashgan.

Shunday qilib, *tabiiy ob'ekt* — atrof tabiiy muhitning amaldagi qonunlar bilan muhofaza etiladigan, tabiiy kelib chiqish alomatlariga ega bo'lgan, ekologik, iqtisodiy, madaniy va sog'lomlashtirish funksiyalarini bajarishga hamda insonni o'rab turgan muhitning sifatini ta'minlashga qodir bo'lgan tarkibiy qismi.

### **3. Ekologik javobgarlik tushunchasi**

Ekologiya sohasidagi javobgarlik davlat, jamiyat va insonning jamiyat oldidagi, hozir yashayotgan va kelgusi avlod oldidagi, muayyan inson va tabiatdan foydalanuvchi shaxs oldidagi javobgarligidir. Ekologik huquqiy javobgarlik esa — umumhuquqiy javobgarlikning turlaridan biri. U sodir etilgan ekologik huquqbuzarlik uchun huquqning buzilgan normasida belgilangan sanksiyaga muvofiq noxush oqibatlarga duchor bo'lish majburiyatini bildiradi.

**Ekologik javobgarlik tabiiy muhitga zarar yetkazishning oldini olish va zarar yetkazilgan taqdirda uni qoplash borasidagi munosabatlarni ifodalovchi normalardan iborat iqtisodiy huquqiy kompleksdir.**

Ekologik javobgarlik uchta funksiyani bajaradi: 1) rag'batlantirish, 2) qoplash, 3) preventiv (oldini olish).

*Rag'batlantirish funksiyasi* ekologik muhofaza qilishga majbur etuvchi iqtisodiy va huquqiy rag'batlar mavjudligida namoyon bo'ladi; *qoplash funksiyasi* tabiiy muhitga yetkazilgan yo'qotishlarni natura yoki pul shaklida qoplashga qaratilgan; *preventiv funksiyasi* esa jazo choralarini qo'llash va zararni undirish orqali ekologik munosabat ishtirokchilarining xulq atvoriga majburan ta'sir ko'rsatadi.

Ekologik javobgarlik iqtisodiy va huquqiy shaklda namoyon bo'ladi.

*Iqtisodiy shakl* huquqqa mos faoliyatga asoslanadi va atrof muhitni ifloslantiruvchi shaxsni chiqitlarni kamaytirishga iqtisodiy usullar, avvalo, moddiy manfaatdorlik bilan qiziqitirish orqali tartibga solinadi. U jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatning «ifloslantiruvchi to'laydi» degan umumiy printsiptan kelib chiqadi.

*Huquqiy javobgarlik* huquqqa xilof qilmishlar natijasida yuzaga keladi hamda ma'muriy huquqiy usullar bilan tartibga solinadi. Umuman olganda, ushbu shakllar ekologik huquqiy javobgarlik institutini tashkil etadi va mustahkamlaydi.

Ekologik iqtisodiy javobgarlik, huquqbuzarlik holati bo'yicha kelib chiqadigan huquqiy javobgarlikdan farqli ravishda, zarar yetkazish holati bo'yicha yuzaga keladi.

*Ekologik huquqbuzarlik* O'zbekistonda o'rnatilgan ekologik huquqiy tartibga tajovuz qiluvchi hamda tabiiy muhitga zarar yetkazuvchi yoki shunday zarar yetkazishning real xavfini

yaratuvchi, aybli, g'ayriqonuniy qilmish (harakat yoki harakatsizlik)dir. Uning tarkibiga huquqbuzarlikning sub'ekt(lar)i, sub'ektiv tomoni, ob'ekti, ob'ektiv tomoni, oqibatlarini hamda qonun buzilishi bilan yuz bergan natija o'rtasidagi sababiy aloqadorlik kiradi.

*Ekologik jinoyat* O'zbekistonda o'rnatilgan ekologik huquqiy tartibga, jamiyatning ekologik xavfsizligiga tajovuz qiluvchi hamda atrof tabiiy muhitga va inson salomatligiga zarar yetkazuvchi aybli ijtimoiy xavfli qilmishdir. "Ekologik jinoyat" tushunchasining mazmunini tashkil etuvchi asosiy jihatlar ekologik huquqiy tartib hamda atrof tabiiy muhit va inson salomatligiga hamda uni genofondiga yetkaziladigan ekologik zarardir.

*Ekologik huquqiy tartib* — tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan qonunlarning ekologik talablarini amalga oshirish bo'yicha ekologik huquqbuzarliklar tizimi, boshqacha aytganda, bu ekologik huquqiy normalar amal qilishining natijasidir.

Ekologik huquqiy tartibning tarkibiy qismini *ekologik xavfsizlik* tashkil etadi. Ekologik xavfsizlik insonning hayoti uchun muhim bo'lgan ekologik manfaatlari, avvalo, uning toza, sog'lom yashashi uchun qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqidan kelib chiquvchi himoyalanganlik holatidir.

Ekologik jinoyatlar tufayli yetkaziladigan zarar iqtisodiy va ekologik shakllarda namoyon bo'lishi mumkin.

***Iqtisodiy zarar*** tabiatdan foydalanuvchilarga, ularning mulki va daromadlariga yetkaziladi.

***Ekologik zarar*** atrof tabiiy muhit, uning ayrim tabiiy ob'ektlari, umuman, tabiiy ekologik tizimning ifloslanishi, nooqilona foydalanilishi, kamayishi va buzilishida namoyon bo'ladi.

Ekologik jinoyatdan jinoiy javobgarlikka olib kelmaydigan *ma'muriy huquqbuzarlikni* farqlash lozim. Ekologik huquqbuzarlikda jinoyat tarkibiga xos alomatlar bo'lmaydi. Ekologik huquqbuzarliklarga nisbatan qonunda quyidagi ta'sir choralari nazarda tutilgan: ogohlantirish, jarima, huquqbuzarlikni sodir etish qurollari va vositalarini olib qo'yish, g'ayriqonuniy tarzda topilgan mahsulotni musodara etish, fuqaroni muayyan faoliyat bilan shug'ullanishdan iborat maxsus huquqidan mahrum etish.

Ekologik huquqbuzarliklar uchun qo'llaniladigan ma'muriy javobgarlikning keng tarqalgan turlaridan biri jarima. Jarimadan ko'zlangan maqsad — tarbiyalash, ogohlantirishdir. U yetkazilgan zararni qoplash chorasini emas, shu bois jarima miqdori yetkazilgan zarardan ortiq bo'lishi yoki, aksincha, undan kam bo'lishi yoxud hech qanday zarar bo'lmagan taqdirda ham tayinlanishi mumkin. Jarima to'lash aybdorni yetkazgan zararini qoplash majburiyatidan xalos etmaydi.

#### **4. Atrof muhitni xalqaro huquqiy muhofaza qilish**

Yerning tabiati yagona, uning qonunlari esa umumiydir. Tabiat davlat va ma'muriy chegaralarni bilmaydi. Olamshumul iqtisodiy vazifalarni bajarish uchun butun dunyo jamoatchiligining kuchini birlashtirishdan iborat ob'ektiv zaruratni anglash butun sayyoramiz miqyosida ekologik inqiroz xavfi kuchayib borgan sari asta sekin yuzaga keldi.

Atrof muhitni xalqaro huquqiy muhofaza qilish — davlatlararo hamkorlikning funksiyalaridan biri. Mavjud xalqaro ekologik qonunchilik asosida yangi huquqiy tuzilma — xalqaro ekologiya huquqi shakllandi. Bu umum e'tirof etgan printsiplar va xalqaro huquq normalari asosida xalqaro ekologik resurslardan oqilona foydalanish, ularni saqlab qolish hamda insonning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini himoya qilish borasidagi davlatlararo ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalarining majmuidir.

Atrof muhitni muhofaza qilishning xalqaro huquqiy prinsiplari xalqaro jamoatchilik a'zolari bo'lgan davlatlar va xalqaro tashkilotlarning birgalikdagi harakatlari natijasida ishlab chiqilgan. Ular BMT Bosh Assambleyasining alohida qarorlarida, Atrof muhit bo'yicha BMT Stokgolm konferentsiyasining, Yevropada Xavfsizlik bo'yicha kengashning Yakuniy hujjatlarida (Xelsinki, 1975 y.), Butun jahon tabiat xartiyasining qarorlarida, BMT Atrof muhit va taraqqiyot bo'yicha xalqaro konferentsiyasining qarorlarida (Rio de Janeyro, 1992 y.) va boshqa hujjatlarda bayon etilgan. Ushbu prinsiplar umumlashtirilgan holda quyidagicha ifodalanadi:

- 1) inson ekologik huquqlarining ustunligi;
- 2) davlatning o'z hududidagi tabiiy resurslarga nisbatan suvereniteti;
- 3) bir davlat ekologik farovonligiga boshqasining ekologik zarari hisobidan erishishga yo'l qo'yib bo'lmaslik;
- 4) barcha darajalarda ekologik nazoratni amalga oshirish;
- 5) xalqaro ekologik axborot bilan erkin almashish;
- 6) davlatlarning favqulodda holatlarda bir birlariga yordam berishi;
- 7) ekologik huquqiy nizolarni tinch yo'llar bilan hal etish.

Davlatlar atrof tabiiy muhitni ifloslantirishdan ko'rilgan zararni qoplash hamda ekologik zararning salbiy oqibatlari uchun xalqaro javobgarlik choralarini ishlab chiqish maqsadida hamkorlikni rivojlantirish majburiyatini oladilar.

## **8-Mavzu: Jinoyat huquqi asoslari. 2 soat.**

### **Reja:**

- 1. Jinoyat huquqi tushunchasi**
- 2. Jinoyat tushunchasi va jinoyatning tarkibi**
- 3. Jinoyatda ishtirokchilik**
- 4. Bir qancha jinoyat sodir etish**
- 5. Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar**
- 6. Jinoyat huquqida jazo**

### **1. Jinoyat huquqi tushunchasi**

*Jinoyat huquqi* — qilmishning ijtimoiy xavfli va jinoyat ekanligini aniqlovchi, uni sodir etganlik uchun jazo turi va miqdorini belgilovchi huquqiy normalar majmuidan iborat mustaqil huquq tarmog'i.

*Jinoyat huquqining vazifalari* shaxs, uning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, mulk, tabiiy muhit, tinchlik va insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan muhofaza qilishdan; jinoyatlarning oldini olishdan; fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashdan iborat.

Jinoyat huquqining yagona manbaini O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 22 sentabrda qabul qilingan va 1995 yil 1 aprelda amalga kiritilgan Jinoyat kodeksi tashkil qiladi.

*Jinoyat kodeksi* O'zbekiston Respublikasining barcha jinoyat qonunlari majmuidan iborat bo'lib, unda ichki umumiyligi va o'zaro aloqadorligi bilan ajralib turadigan, jinoyat huquqining printsiplari va umumiy qoidalarini belgilab beradigan hamda qaysi ijtimoiy xavfli qilmish jinoyat deb hisoblanishi, ushbu jinoyatlarni sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarga qaysi jazo turi va boshqa jinoiy huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

### **2. Jinoyat tushunchasi va jinoyatning tarkibi**

*Jinoyat* sodir etilishi jinoyat kodeksida jazo qo'llash tahdidi bilan ta'qiqlangan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik). Jinoyat qonunida jinoyatlarning to'rtta belgisi ajratilgan:

- 1) ijtimoiy xavf;
- 2) g'ayriqonuniylik;
- 3) ayblilik;
- 4) jazoga loyqlik.



Jinoyatlar o'z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra to'rt toifaga bo'linadi:

- 1) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar;
- 2) uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar;
- 3) og'ir jinoyatlar;
- 4) o'ta og'ir jinoyatlar.

Jinoyat sodir etgunga qadar 16 yoshga to'lgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi. 13 yoshdan boshlab aybni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirganlik uchun, shuningdek, 14 yoshdan boshlab JK 17-moddasining 3 qismida nazarda tutilgan ayrim jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortish belgilangan bo'lib, bular umumiy qoidadan istisno hisoblanadi. Ularga quyidagilar kiradi: qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasining 1 qismi); kuchli ruhiy hayajonlanish holida qasddan odam o'ldirish (JK 98-moddasi); qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JK 104-moddasi); qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish (JK 105-moddasi); kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast etkazish (JK 106-moddasi) va ba'zi bir boshqa jinoyatlar kiradi.

Ayrim hollarda JK Umumiy qismi moddalarining tuzilishiga ko'ra jinoiy javobgarlik ancha kattaroq yoshda boshlanishi ham mumkin, masalan, harbiy jinoyat uchun jinoiy javobgarlik 18 yoshdan boshlanadi.

Jinoiy javobgarlik jinoyat sodir etgan shaxs bilan davlat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi jinoiy huquqiy munosabatlar doirasida amalga oshiriladi. Jinoiy huquqiy munosabatlar jinoyat sodir etilgan paytdan boshlab yuzaga keladi.

*Jinoyatning tarkibi* — jinoyat qonuni bilan belgilangan hamda muayyan ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat sifatida ifodalaydigan ob'ektiv va sub'ektiv belgilar yigindisi. «Jinoyat tarkibi» tushunchasini jinoyat huquqida jinoyat tarkibining elementlari deb nomlanadigan to'rt guruh alomatlar yig'indisi tashkil qiladi. Bular jinoyat ob'ekti, jinoyatning ob'ektiv tomoni, jinoyat sub'ekti va jinoyatning sub'ektiv tomonidir.

*Jinoyat ob'ekti* jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan va jinoyat sodir etish natijasida zarar yetkaziladigan yoki yetkazish xavfi ostiga qo'yiladigan ijtimoiy munosabatlardir.

*Jinoyatning ob'ektiv tomoniga* qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ning xususiyatlari va jinoyat sodir etish natijasida kelib chiqqan oqibat va qilmish bilan jinoiy oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish, shuningdek, jinoyat sodir etilgan joy, vaqt, uni sodir etish usuli, vositalari va boshqalar kiradi.

*Jinoyat sub'ekti* faqat qonunda belgilangan yoshga yetgan, aqli raso, ya'ni o'z harakatlari uchun javob bera oladigan va ularni boshqara oladigan jismoniy shaxs (inson) bo'lishi mumkin.

*Jinoyatning sub'ektiv tomoni* shaxsning o'zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmish va jinoiy oqibatga ruhiy munosabati aqli, irodasi va motivlarining uzviy birligidan iboratdir. Sub'ektiv tomon belgilariga ayb, motiv, maqsad va hissiy holat kiradi.

Qasddan sodir etiladigan ijtimoiy xavfli harakatlarning amalga oshish darajasi va xususiyati bilan bir biridan tubdan farq qiladigan, aybdor qasdini amalga oshirishini aks ettiradigan bosqichlar yoki jinoiy faoliyatning rivojlanish davrlari *qasddan jinoyat sodir etish bosqichlari* deb ataladi.

Qasddan jinoyat sodir etish bosqichlarining turlari:

- 1) jinoyatga tayyorgarlik ko'rish (JK 25-modda 1 qism);
- 2) jinoyat sodir etishga suiqasd qilish (JK 25-moddasining 2 qismi);

3) tamomlangan jinoyat (JK Maxsus qismining moddalari).

### **3. Jinoyatda ishtirokchilik**

JKning 27-moddasiga binoan, ikki yoki undan ortiq shaxsning qasddan jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi ishtirokchilik deb topiladi. Ishtirokchilik jinoiy qilmishning alohida shakli sifatida mavjud bo'lishi shart bo'lgan ob'ektiv va sub'ektiv alomatlar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Ob'ektiv tomondan, ishtirokchilik 1) ikki yoki undan ortiq shaxslarning bo'lishi hamda 2) birgachikda ishtirok etish bilan ajralib turadi. Sub'ektiv tomondan, ishtirokchilikka 1) aybning qasdli shakli mavjudligi va 2) o'zaro xabardorlik xos.

O'zbekiston Respublikasi JKning 28-moddasida jinoyat ishtirokchilarining to'rt turi ko'rsatilgan: bajaruvchi, tashkilotchi, dalolatchi va yordamchi.

O'zbekiston Respublikasi JKning 29-moddasida ishtirokchilikning to'rt shakli ajratilgan: 1) oddiy ishtirokchilik; 2) murakkab ishtirokchilik; 3) uyushgan; 4) jinoiy uyushma.

### **4. Bir qancha jinoyat sodir etish**

*Bir qancha jinoyat sodir etish»* bitta shaxsning, sodir etgan qilmishlari uchun ilgari jinoiy javobgarlikka yoki jazoga tortilgan yoxud tortilganligidan qat'i nazar, bir qancha jinoyatlar sodir etishidan iborat ijtimoiy hodisani ifodalovchi umumlashtiruvchi jinoiy huquqiy tushunchadir.

Bir qancha jinoyat sodir etish jinoiy huquqiy hodisa sifatida uni ifodalovchi bir qator yuridik alomatlarga ega. Ularga quyidagilar kiradi: 1) bir shaxsning ikki yoki undan ortiq jinoyatlarni sodir etishi; 2) turli vaqtlarda jinoyatlar sodir etish; 3) sodir etilgan qilmishlarning har biri jinoiy huquqiy oqibatlar keltirib chiqarishi.

Jinoyat qonunida bir qancha jinoyat sodir etishning uchta shakli ajratilgan:

- 1) takroran jinoyat sodir etish (JK 32-moddasi);
- 2) jinoyatlar majmui (JK 33-moddasi);
- 3) retsidiv jinoyat (JK 34-moddasi).

### **5. Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar**

Jinoyat qonunida tashqaridan qaraganda jinoyatga o'xshash ammo sodir etilganligi uchun javobgarlikka tortish mumkin bo'lmagan qilmishlar ham belgilangan. Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlarga quyidagilar kiradi:

- 1) kam ahamiyatli qilmish;
- 2) zaruriy mudofaa;
- 3) oxirgi zarurat;
- 4) ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish;
- 5) buyruqni yoki boshqa vazifani ijro etish;
- 6) kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik.

Ushbu holatlarni qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar deb ta'riflash ularning jamiyat uchun xavfli emasligi, qonunga xilof yoki aybli emasligiga asoslanadi.

## 6. Jinoyat huquqida jazo

*Jazo* — sud hukmi bilan tayinlanadigan davlat majburlov chorasi. Jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan qo'llaniladi hamda mahkumni Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan tartibda huquq va erkinliklari dan mahrum etish yoki ularni cheklashda namoyon bo'ladi.

Jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatini davom ettirishiga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek, boshqa shaxslar tomonidan yangi jinoyat sodir etilishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi. Jazodan jismoniy azob berish yoki inson qadr qimmatini kamsitish maqsadi ko'zlanmaydi.

*Jinoiy jazolar tizimi* sudlar uchun aniq qilib belgilab qo'yilgan va nisbiy og'irligini inobatga olgan holda muayyan tartibda qo'yib chiqilgan hamda jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan tayinlanishi mumkin bo'lgan jazo turlarining ro'yxatidan iborat.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida jazoning quyidagi asosiy turlari belgilangan:

- a) jarima;
- b) muayyan huquqdan mahrum qilish;
- v) axloq tuzatish ishlari;
- g) xizmat bo'yicha cheklash;
- d) qamoq;
- e) intizomiy qismga jo'natish;
- j) ozodlikdan mahrum qilish;

Mahkumlarga, asosiy jazolardan tashqari, harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish qo'shimcha jazosi ham qo'llanilishi mumkin.

Muayyan huquqdan mahrum qilish nafaqat asosiy jazo sifatida, balki qo'shimcha jazo tariqasida ham qo'llanilishi mumkin.

Sud jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasini, qilmishning motivlarini, yetkazilgan zararining xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini, jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni inobatga oladi.

## **9-Mavzu: Xalqaro huquq asoslari. 2 soat.**

### **Reja:**

- 1. Xalqaro huquqning paydo bo'lishi va xalqaro huquq tushunchasi**
- 2. Xalqaro huquq ob'ektlari va funksiyalari**
- 3. Xalqaro huquq va milliy huquq**
- 4. Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq**
- 5. Xalqaro-huquqiy normalarni yaratish va xalqaro huquq tizimi**
- 6. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va diplomatiyasi**

### **1. Xalqaro huquqning paydo bo'lishi va xalqaro huquq tushunchasi**

Xalqaro huquq huquqning boshqa sohalarida kabi o'z o'zidan paydo bo'lgan emas. U muayyan ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida qadimiy ilk jamoalar va qabilalar bir biridan alohida ajralgan holda emas, balki qabilalarning yozilmagan qonunlari bilan birlashgan bo'lgan. Birinchi odat qoidalari davlatchilikning vujudga kelishidan oldin ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq paydo bo'lgan.

Agar xalqaro huquq davlatlararo huquq sifatida tushunilsa, u holda, davlatchilik paydo bo'lib, rivojlanishi bilan vujudga kelganini e'tirof etish lozim.

Xalqaro huquqning kelib chiqishi tabiiy va ob'ektiv jarayondir. Xalqaro huquq paydo bo'lishining umumiy shart sharoiti — davlatlarning xohish irodasi emas, balki insoniyat hayotining sharoiti, uning tarixiy taraqqiyoti, insonning atrofdagi dunyo bilan o'zaro munosabati, ijtimoiy mehnat taqsimoti, davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishidir.

Xalqaro huquq — bizni o'rab turgan dunyoning muhim bir ajralmas qismi. U insonga, xalqlarga, davlatlarga doimiy ravishda ta'sir ko'rsatib keladi.

Xalqaro huquq — muhim huquqiy kategoriya bo'lib, xalqaro munosabatlardan, ularning iqtisodiy, siyosiy, harbiy, madaniy va boshqa xususiyatlaridan o'sib chiqqan.

Shunday qilib, xalqaro huquqning paydo bo'lishi bevosita davlatlarning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog'liq. Davlatlar taraqqiyotining ob'ektiv shart sharoiti ular o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va huquqiy munosabatlarni o'rnatish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Buning natijasida huquqning mustaqil tizimi sifatida xalqaro huquq paydo bo'lgan va rivojlangan.

Xalqaro huquq davlatlar, xalqlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi turli xil munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

«Xalqaro huquq» tushunchasini ta'riflash xalqaro huquq fanining eng muhim vazifalaridan biri. Agar davlat va huquq nazariyasi fani davlatlarning milliy huquqiy tizimiga xos bo'lgan hodisalarni o'rgansa, xalqaro huquq fani davlatlararo yoki, kengroq ma'noda, xalqaro munosabatlarga xos bo'lgan hodisa va jarayonlarning huquqiy xususiyatlarini tadqiq etadi.

Xalqaro huquqiy normalarda milliy davlatlarning o'zaro munosabatlaridagi murakkab jarayonlar o'z aksini topadi. Ularning asosida shakllanayotgan, xalqlarning sub'ektiv xohish irodasiga emas, balki ijtimoiy taraqqiyotning ob'ektiv omillariga mos keladigan huquqiy ong xalqaro huquqda o'z ifodasini topadi.

Hozirgi xalqaro munosabatlarga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar ichida xalqaro huquqning ustunligi to'g'risidagi qoida XXI asrdagi sivilizatsiya va huquqiy ong darajasiga ko'proq mos keladi.

Zamonaviy xalqaro huquq Ikkinchi jahon urushi tugab, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavi qabul qilinganidan so'ng yuzaga kelgan va rivojlangan. Shu bois «hozirgi zamon xalqaro huquqi» tushunchasi xalqaro munosabatlarning umum e'tirof etgan printsiplari va normalari rivojlanishining yangi bosqichini xronologik doirada aks ettiradi. Fikrimizcha, xalqaro huquqni quyidagicha ta'riflash mumkin: xalqaro huquq — tinchlik va hamkorlikni ta'minlash maqsadida davlatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar tizimi.

Xalqaro huquq aynan yuridik qoidalardan tashkil topgan. Ta'kidlab o'tish lozimki, davlatlar o'rtasidagi munosabatlar nafaqat xalqaro huquqiy normalar bilan, balki siyosiy, axloqiy normalar hamda amaliyot va boshqa qoidalar bilan ham tartibga solinadi.

## **2. Xalqaro huquq ob'ektlari va funksiyalari**

Xalqaro huquq ob'ektiga har qanday emas, balki muayyan xalqaro munosabatlar kiradi.

Xalqaro munosabatlar — davlatlar va davlat tizimlari o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy, huquqiy, diplomatik, harbiy va boshqa turdaga aloqalar va munosabatlar majmui. U, shuningdek, dunyo miqyosidagi asosiy siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa tashkilotlar, harakatlar o'rtasidagi faol hamkorlikdan iborat.

Xalqaro munosabatlar o'zining mazmuniga ko'ra biron bir davlatning vakolati va yurisdiksiyasi doirasidan chiqib, davlatlarning birgalikdagi yoki butun jahon hamjamiyati vakolatlari va yurisdiksiyalarining ob'ekti hisoblanadi.

Xalqaro munosabatlarda davlatlararo munosabatlar asosiy o'rin tutadi. Shu bilan birga, nodavlat xususiyatga ega bo'lgan xalqaro munosabatlar, ya'ni turli davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari o'rtasidagi («chet el elementi» yoki «xalqaro element» kabilar), shuningdek, xalqaro nohukumat tashkilotlar va xalqaro xo'jalik birlashmalari ishtirokidagi xalqaro munosabatlar ham mavjud.

Xalqaro huquq ob'ektiga, eng avvalo, suveren davlatlar o'rtasidagi munosabatlar kiradi. Davlatlararo munosabatlar, avvalambor, hokimiyatlararo munosabatlardir. Davlatlar o'rtasidagi mavjud munosabatlar tegishli xalqaro bitimlar bilan tartibga solingandagina xalqaro huquqiy shaklga ega bo'ladi. Davlatlar o'rtasidagi munosabatlar BMT Ustavida mustahkamlab qo'yilgan va barcha e'tirof etgan xalqaro huquq prinsiplari asosida o'rnatiladi.

Xalqaro huquq huquqiy tarmoq sifatida quyidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi:

birinchidan, davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarni (ularning ichida butun xalqaro hamjamiyatni qamrab oladigan munosabatlar alohida ahamiyat kasb etadi);

ikkinchidan, davlatlarning xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi bilan bog'liq davlatlar va hukumatlararo tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarni;

uchinchidan, hukumatlararo tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarni;

to'rtinchidan, davlatlar va nisbiy mustaqil xalqaro mavqega ega bo'lgan davlat ko'rinishidagi tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi (masalan, Vatikan katolik cherkovining markazi sifatida alohida xalqaro huquqiy statusga ega).

Quyidagilar xalqaro huquqiy munosabatlarning ob'ekti sifatida namoyon bo'ladi:

birinchidan, hudud va xalqaro yer kengligi;

ikkinchidan, xatti harakatlar;

uchinchidan, xatti harakatlardan tiyilish.

Hudud xalqaro huquqiy munosabatlar ob'ekti sifatida juda ko'p hujjatlarda namoyon bo'ladi (masalan, tinchlik shartnomalarida).

Xatti harakatlar davlatlar o'rtasidagi turli huquqiy munosabatlar ob'ekti bo'lishi mumkin (masalan, o'zaro yordam ko'rsatish to'g'risidagi hujjatlar, ittifoq shartnomalarida).

Muayyan xatti harakatlardan tiyilish ham xalqaro huquqiy munosabatlar ob'ekti hisoblanadi (masalan, neytralitet to'g'risidagi, urush odatlari va qonunlari to'g'risidagi xalqaro huquqiy hujjatlarda).

Xalqaro huquqning funksiyalarini ko'rib chiqmay turib, uning mohiyatini tushunish mumkin emas.

Xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro huquq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1) *muvofiglashtirish funksiyasi*, davlatlar xalqaro huquq normalari yordamida xalqaro hamkorlikning turli sohalarida umumiy qabul qilingan xulq atvor standartlarini belgilaydi;

2) *tartibga solish funksiyasi*, davlatlarning qat'iy qoidalarini belgilashida namoyon bo'ladi. Bularsiz davlatlarning jahon hamjamiyati bilan munosabatlari va birgalikda mavjudligini tasavvur qilishning imkoni yo'q;

3) *mustahkamlash funksiyasi*, bunda xalqaro huquq shunday normalarni o'zida mustahkamlaydiki, bu davlatlarni ko'p yillik aloqalari jarayonida belgilangan ma'lum xulq atvor qoidalariga rioya qilishga undaydi;

4) *muhofaza qilish funksiyasi*, davlatlar milliy manfaatlari va qonuniy huquqlarini himoya qiladi.

Xalqaro huquqning o'ziga xos xususiyati shundaki, xalqaro munosabatlarda davlatlardan yuqori turuvchi majburlash mexanizmi mavjud emas. Zarur hollarda davlatlarning o'zlari jamoa tarzida xalqaro huquqiy normalarning bajarilishini va xalqaro huquqiy tartibotni ta'minlaydilar.

### **3. Xalqaro huquq va milliy huquq**

Real voqelikda bir biriga bog'liq, lekin mustaqil ikki huquqiy tizim mavjud: bir tomondan, davlatning ichki huquqi (alohida milliy davlat huquqiy normalarining majmui) va, ikkinchi tomondan, huquqiy tartibga solishning o'ziga xos ob'ekti va sub'ektiga ega bo'lgan xalqaro huquq. Agar davlatning ichki huquqida huquqiy tartibga solish ob'ekti bir davlat doirasidagi ijtimoiy munosabatlardan iborat bo'lsa, xalqaro huquqiy munosabatlar ob'ektiga davlatlar va ularning birlashmalari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar kiradi.

Huquq bir biriga bog'liq, mustaqil ikki huquqiy tizim (davlat ichki huquqi va xalqaro huquq) bilan tashkil qilinadi deb tushunilishi xalqaro huquq fanida ham, davlat va huquq nazariyasi

fanida ham tan olingan, e'tirof etilgan. Ushbu muammo xususida huquqshunoslik fanida turli xil nazariyalar olg'a surilgan.

Ba'zi olimlar xalqaro huquqni yagona huquqiy tizim deb hisoblaydilar. Ular davlatlarning ichki munosabatlarini ham xalqaro huquq tartibga soladi, deb ma'lum bir bosqichda davlatlarni ichki huquqiy tartibga solishning rivojlanishini ham inkor qilmaydilar, lekin kelajakda xalqaro huquqning rivojlanishi bilan u yo'q bo'lib ketadi, deb hisoblaydilar.

Boshqa bir mualliflar xalqaro huquq faqat davlatlarning milliy huquqida nazarda tutilgan doiradagana mavjud bo'ladi, ya'ni u muayyan davlatning tashqi huquqi bo'lib xizmat qiladi, deb hisoblaydilar.

Davlatning ichki huquqi va xalqaro huquqning o'zaro aloqadorligi shundaki, xalqaro huquq davlatlarning konstitutsiyaviy tuzumi hamda davlatlar va xalqaro munosabatlarning boshqa sub'ektlari bilan o'zaro munosabatlarda davlat irodasini ifodalashga vakolatli davlat hokimiyati organlari tizimi, shuningdek, har qanday davlatning ichki ishi hisoblanadigan va odatda xalqaro huquqiy munosabatlarni tartibga solish doirasiga kirmaydigan ishlarning mavjudligi bilan ham hisoblashishga majburdir.

Davlatning ichki huquqi davlatning majburiyatlarini mustahkamlovchi, ma'lum hollarda ushbu davlatning milliy huquqida aks ettirilishi lozim bo'lgan xalqaro huquqiy normalarning mavjudligi bilan hisoblashadi.

Xalqaro huquq va davlatning ichki huquqi bir biridan alohida mavjud bo'lmaydi. Xalqaro huquq normalarini ishlab chiqishga milliy huquqiy tizimlar ta'sir ko'rsatadi, u davlatning tashqi siyosati va diplomatiyasida o'z ifodasini topadi.

Xalqaro huquq, o'z navbatida, milliy qonunchilikning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ko'pgina davlatlarning, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining qonunlarida shunday qoida mustahkamlab qo'yilganki, unga ko'ra davlatlarning ichki qonuni bilan xalqaro shartnomalari o'rtasida ziddiyat mavjud bo'lsa, xalqaro shartnomalar ustunlikka ega bo'ladi. Bunday qoida xalqaro huquqning davlatlar ichki huquqi qoidalaridan ustunligi deb ataladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 7-moddasida shunday deyilgan: «Agar xalqaro shartnomalar va bitimlarda fuqarolik qonunchiligidagidan boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lsa, xalqaro shartnomalar va bitimlardagi qoidalar qo'llaniladi».

#### **4. Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq**

Xalqaro munosabatlar davlatlararo munosabatlar bilan cheklanib qolmaydi. Turli davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslari o'rtasida, xalqaro tashkilotlar o'rtasida doimiy ravishda aloqalar bo'lib turadi. Bunday aloqalar tegishli davlatning milliy huquq normalari yoki xalqaro xususiy huquq normalari bilan tartibga solinadi.

Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq o'rtasida yaqin o'zaro aloqadorlik mavjud. Har ikkisi ham keng ma'noda xalqaro munosabatlarni tartibga soladi. Xalqaro xususiy huquq xalqaro tushdagi fuqarolik huquqiy normalar majmui sifatida xalqaro ommaviy huquqning umum etirof etgan prinsiplariga zid bo'lmasligi kerak.

Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni hech kim inkor qilmaydi. Ayni paytda xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquqning nisbati borasida xalqaro huquqqa oid adabiyotda yakdillik yo'q. Ba'zi olimlar xalqaro xususiy huquqni xalqaro huquqning bir turi deb hisoblaydilar. Ikkinchi guruh huquqshunoslar esa xalqaro xususiy huquqqa fuqarolik huquqining bir tarmog'i sifatida qaraydilar. Uchinchi birlari esa xalqaro xususiy huquqni xalqaro huquq bilan aynan bir xil deb hisoblaydilar. To'rtinchilari xalqaro xususiy huquq

ma'lum bir ma'noda fuqarolik huquqining tarmoqlaridan biri hisoblansada, asosan xalqaro ommaviy huquq bilan juda yaqin aloqadordir, deb ta'kidlaydilar.

Xalqaro xususiy huquq xalqaro ommaviy huquq bilan aynan bir xil emas va uning sohalaridan biri hisoblanmaydi. Xalqaro xususiy huquq tartibga soladigan o'zining mustaqil predmetiga ega.

## **5. Xalqaro - huquqiy normalarni yaratish va xalqaro huquq tizimi**

Xalqaro ommaviy huquq davlatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalarning mustaqil tizimidir. Xalqaro huquq tizimi normalarni yaratishning o'ziga xos tomoni shundaki, bu jarayonda sub'ektlarning o'zlari ixtiyoriy ravishda, xohish irodasini bildirish orqali ishtirok etadilar. Binobarin, xalqaro huquq uyg'unlashtiruvchi hamda muvofiqlashtiruvchi xususiyatga ega.

Xalqaro huquqiy tizim sub'ektlarining o'zidan boshqa qandaydir bir tizimga nisbatan «tashqaridan» bo'lgan sub'ektlar normalar yaratish jarayonida ishtirok etmaydi. Shu bois xalqaro huquqiy tizimning hukmronlik va bo'ysunish xususiyati inkor qilinadi. Hech kim xalqaro huquq sub'ektlarining ixtiyoriga qarshi ular uchun xulq atvor qoidalarini, ya'ni normalarni o'rnatishi mumkin emas. Binobarin, xalqaro huquqqa nisbatan «qonunchilik», «xalqaro qonunchilik» tushunchalarini qo'llash ma'lum ma'noda noto'g'ri.

Xalqaro huquq tizimi quyidagi o'zaro bog'liq elementlarning ob'ektiv bir butunligidir:

- 1) xalqaro huquqning umum e'tirof etgan printsiplari, normalari;
- 2) xalqaro tashkilotlarning qarorlari, tavsiyaviy rezolyutsiyalari, xalqaro sud organlarining qarorlari;
- 3) xalqaro huquq institutlari (xalqaro tan olish instituti, shartnomalarga nisbatan huquqiy vorislik instituti, xalqaro javobgarlik instituti va boshqalar).

Tizimning qayd etib o'tilgan barcha elementlari turli birikmalarda xalqaro huquq tarmoqdari (diplomatik huquq, xalqaro shartnomalar huquqi, xalqaro dengiz huquqi va boshqalar)ni tashkil qiladi. Ushbu har bir tarmoq o'zi mustaqil tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bunday tizimlar xalqaro huquqning yaxlit yagona tizimi doirasida shu tizimning bir qismi hisoblanishi mumkin.

## **6. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va diplomatiyasi**

«Tashqi siyosat» tushunchasi davlatning xalqaro munosabatlardagi umumiy yo'nalishini, davlatning boshqa davlatlar, xalqlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlari sohasidagi faoliyatshng maqsaddari va vositalari majmuini qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy printsiplari Konstitutsiyaning 17-moddasida qonuniy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan.

«O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va xalqaro faoliyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari va printsiplariga, «O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi qonuniga, «Mudofaa to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga, O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasiga, boshqa qonunlarga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining hamda Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining printsiplari va maqsadlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ratifikatsiya qilingan O'zbekiston respublikasining xalqaro shartnomalari va bitimlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarga asoslanadi», deyiladi 1996 yildagi «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy printsiplari to'g'risida»gi qonunning 1-moddasida.



Diplomatiya tashqi siyosatning muhim vositasi hisoblanadi. Aynan tashqi siyosat diplomatiyaning maqsad va vazifalarini belgilab beradi. Diplomatiya amaliy tadbirlar, shuningdek, tashqi siyosatni amalga oshirishda foydalaniladigan shakl, vosita va usullar majmuini ifodalaydi. Diplomatiya bilan bir qatorda, davlatning iqtisodiy, madaniy va boshqa muhim aloqalari ham uning tashqi siyosiy vositalari hisoblanadi.

O'zbekiston tashqi siyosatining bosh maqsadi davlat suverenitetini himoya qilish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurish uchun xalqaro zamin yaratish, tinchlikni va siyosiy barqarorlikni ta'minlash, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida barcha davlatlar bilan teng huquqli hamkorlik qilishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi o'z tashqi siyosatini yuritishda quyidagi asosiy omillardan kelib chiqadi:

birinchidan, o'z milliy manfaatlari ustunligini inkor etmasdan, o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish;

ikkinchidan, inson va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlarga ustunlik berib, O'zbekiston xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, mojarolarni tinchlik yo'li bilan hal qilishni yoqlaydi; O'zbekiston yadro qurolidan xoli hudud hisoblanadi, agressiv harbiy bloklar, ittifoqlarga qo'shilmaydi, inson huquqlari to'g'risidagi, hujum qilmaslik to'g'ri sidagi, nizoli masalalarni hal qilishda kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik haqidagi xalqaro hujjatlarni e'tirof etadi va ularga qat'iy rioya qiladi;

uchinchidan, O'zbekistonning tashqi siyosati teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik printsiplari, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, mustaqillik va suverenitetni cheklash mumkin bo'lgan imkoniyatlarni bartaraf qiladigan printsiplar, davlatlararo munosabatlarni mafkuradan xoli qilish printsiplari asosida quriladi;

to'rtinchidan, O'zbekiston tashqi siyosatida ochiq mafkuraviy qarashlardan xolilik printsiplarini amalga oshirish, barcha tinchliksevar davlatlar bilan keng tashqi aloqalar o'rnatishga intiladi;

beshinchidan, O'zbekiston davlatining ichki huquqi oldida xalqaro huquq normalarining ustunligini tan oladi, xalqaro huquqiy standartlarga rioya qiladi;

oltinchidan, O'zbekiston o'zaro ishonch printsiipi bo'yicha ikki tomonlama va ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish, xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlikni rivojlantirishni yoqlaydi.

**10-Mavzu: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish o'quv kursining, maqsad-vazifalari va uslubi. 2 soat.**

**Reja:**

- 1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursining tushunchasi va predmeti.**
- 2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'rganish kursining metodologik asoslari.**
- 3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'rganish kursining manbalari.**
- 4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'rganish kursining vazifasi.**

**1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursining tushunchasi va predmeti.**

Dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlarda hech bir shaxs, hech bir fuqaro o'z ijtimoiy-shaxsiy hayotini, o'zining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni Konstitutsiyasiz tasavvur qila olmaydi. Chunki har bir shaxs kundalik hayotida Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklariga bevosita murojaat qiladi hamda ushbu Asosiy qonunga o'zining huquq va erkinliklarini kafolatlab beruvchi oliy yuridik hujjat sifatida qaraydi. Shuning uchun ham demokratik jamiyatda yashayotgan har bir shaxs Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini chuqur anglab olishi hamda shaxsiy hayotida uchrab turadigan muammolarning yechimini aynan Konstitutsiyadan topa bilishi zarur.

Ma'lumki, demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidagi eng dastlabki va eng muhim qadam Konstitutsiyani o'rganish hamda uni hayotga tatbiq etishdan boshlanadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 4 yanvarda e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi farmoyishi ham demokratiya yo'lida ulkan bir qadam qo'yish uchun katta turtki bo'ldi. Darhaqiqat, ko'p narsa mamlakatda Konstitutsiyani ommaviy ravishda o'rganish hamda uni hayotga tatbiq etishga bog'liq. Mana shu maqsadda davlatimiz rahbari O'zbekiston Konstitutsiyasini bolalar bog'chasidan boshlab o'rgatish, maktablarda darslik tariqasida o'qitish hamda oliy o'quv yurtlarida esa maxsus dars sifatida o'rganishni vazifa qilib qo'ydi.

Shundan kelib chiqib, farmoyish asosida 2001 yil 1 sentabrdan mamlakatimizda uzluksiz huquqiy ta'limning asosi hisoblanmish Konstitutsiyani o'rganish bog'chadan boshlab to oliy ta'limning yuqori bosqichi hisoblanadigan magistraturagacha tashkil etildi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish butun O'zbekiston xalqining yuksak va mas'uliyatli burchidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursining predmeti bu konstitutsiyaviy institutlar haqida tasavvurlar va bilimlar, konstitutsiyaviy normalar va ular orqali tartibga solinadigan munosabatlar tizimidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursi o'ziga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari, ularning kafolatlari va burchlarini, ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishini, saylov tizimini, hokimiyat tizimi va davlat organlari tizimini tashkil etish hamda faoliyatining asosiy prinsiplarini fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish asoslarini mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursi konstitutsiyaviy institutlar va normalarni haqida bilim va tasavvurlar va ularning rivojlanishlarini urganadi.

Demak, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursi o'ziga hos predmetga ega.

Uning predmetini asosan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini o'rganish kursi shaxs, jamiyat va davlat o'rtasida vujudga keladigan va davlat hokimiyatini amalga oshirish jarayonida paydo bo'ladigan, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar tizimi (yig'indisi)dir.

## **2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'rganish kursining metodologik asoslari.**

Ushbu o'quv kursining o'rganishda bilish nazariyasining quyidagi uslublari (metodlari) keng qo'llaniladi.

1. tarixiy uslub- konstitutsiyaviy-huquqiy normalarni nima uchun va qanday vujudga kelganligi, rivojlanganligini tahlil qilib ularni mohiyati va vazifalarini ochib beradi
2. qiyosiy uslub- boshqa huquqiy tizimlarning huquqiy tartibga solish mexanizmini o'rganib huquqiy normalarining samarali modelini yaratishga imkon beradi.
3. tizimli uslub- huquqni yagona tizim sifatida uning normalari, institutlari va boshqa huquqiy hodisalar o'rtasidagi aloqalarini o'rganish orqali huquq sohasini takomillashtiradi
4. sotsiologik uslub- huquqiy normalarni ijtimoiy munosabatlardagi o'rniga nisbatan jamoat munosabatini o'rganish orqali huquqiy normalarni takomillashtirishga imkon yaratdi.
5. statistik uslub- normalarni amalga oshirish natijalari va ko'rsatkichlarini yig'ish va ularni tahlil qilish orqali huquqiy normalar samaradorligini kuzatishga, o'rganishga imkon yaratadi.
6. shakliy yuridik usul- soha, institutlar va normalar ichki tuzilishi normani shakly aniqligini, ularni tizimlashtirishni tahlil qiladi.

## **3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'rganish kursining manbalari.**

Davlat hokimiyati jamiyat ehtiyojlaridan va ijtimoiy munosabatlarning rivojlanish yo'nalishlaridan kelib chiqib huquqiy normalarni qabul qildi. Har qanday konstitutsiyaviy normada davlat hokimiyatining muayyan irodasi o'z ifodasini topadi.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursi manbalaridan biri bu – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat va jamiyat tuzilishi, davlat siyosatining yo'nalishlari, inson va fuqarolarning huquqiy holati, miliy davlat ma'muriy-hududiy tuzilishi, davlat organlarining tashkil topishi va faoliyatining asosiy prinsiplari yuridik asoslar mustahkamlangan. Konstitutsiya yuridik kuchi bo'yicha davlatning hamma huquqiy normalardan yuqori turadi va o'zining ba'zi normalari bilan huquqning boshqa tarmoqlari uchun manba vazifasini bajaradi.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi ham manba hisobladi.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan konstitutsiyaviy va joriy qonunlar ham manba bo'ladi. Konstitutsiyaviy qonunlarda konstitutsiyaviy normalariga aniqlik kiritish, ularni mustahkamlash va rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilish tartibi joriy qonunlarni qabul qilishdan farq qiladi. Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 2/3 qismi ovoz berishi talab etiladi, joriy qonunlarni qabul qilishda esa deputatlarning ovoz berishi yetarli bo'ladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va farmoyishlari kiradi. Farmon faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq va ularning ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilinadi. Davlat qurilishi va jamiyat hayotini isloh qilishda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan muhim farmon , qaror va farmoyishlar qabul qilinmoqda.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlar ham hisoblanadi. Bunday qarorlarda respublika Prezidenti tomonidan belgilangan vazifalar huquqiy asosda batafsil yoritilib beriladi va aniq chora tadbirlar bilan mustahkamlanadi.

6. Mahalliy hokimiyatning ba'zi bir qarorlari ham manba bo'lishi mumkin. Bunday qarorlarga xalq deputatlarining Kengashlari tomonidan tasdiqlangan, Kengashlarning qo'mita va komissiyalari, deputatlar guruhlariga to'g'risidagi nizomlar, ularni ish tartiblari tasdiqlovchi qarorlar misol bo'ladi. Mahalliy vakillik va ijroiya organlarining hujjatlari Konstitutsiya, qonun, farmon, hukumat qarorlari, markaziy davlat boshqaruv organlari aktlariga muvofiq va ularning ijrosini ta'minlash uchun chiqariladi. Ular o'z hududi doirasida konstitutsiyaviy huquq predmetiga kiruvchi masalalarni tartibga soladi.

#### **4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'rganish kursining vazifasi.**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish huquqi" kursini o'qitishdan maqsad talabalarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Asosiy Qonun sifatida jamiyat va davlat hayotida tutgan o'rnini, fuqarolarning huquq va erkinliklari va burchlarini, Konstitutsiyaviy qonunlar va huquq manbalarining xususiyati to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirishdan iborat.

"O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish" kursini vazifalari quyidagilardan iborat: talabalarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatini, fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirishni, davlat mustaqilligining huquqiy asoslarini, fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalalarini, davlat hokimiyati tashkil etish tamoyillarini, oliy va mahalliy davlat organlari faoliyatini va ularning tizimini, demokratik institutlardan biri hisoblangan saylov tizimini va uning mazmunini, davlat hokimiyati va sud-huquq tizimidagi o'zgarishlarni yaqindan tanishtirish.

**11-Mavzu: Konstitutsiya tushunchasi va mohiyati. O'zbekiston Respublikasi  
Konstitutsiyasining qabul qilinishi va uning asosiy prinsiplari. 2 soat.**

**Reja:**

- 1. Konstitutsiya to'g'risidagi ta'limotlar. Konstitutsiyaning mohiyati va belgilari.**
- 2. Konstitutsiyaning funktsiyalari, shakllari va turlari.**
- 3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi.**
- 4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy printsiplari.**

**1. Konstitutsiya to'g'risidagi ta'limotlar. Konstitutsiyaning mohiyati va belgilari.**

Hozirgi zamon ma'nosida "Konstitutsiya" tushunchasi XVIII asr oxirida paydo bo'lgan. Konstitutsiyaga juda ko'p ta'riflar berilgan. "Konstitutsiya"ga berilgan ta'riflardan bir necha misollar keltiramiz.

Birinchi misol: fransuz davlatshunos olim J.Byurdoning Konstitutsiyaga bergan ta'rif: "Konstitutsiya-siyosiy hokimiyatlarni tayinlash, tashkil etish va faoliyat ko'rsatishga oid qoidalar yig'indisidir".

Ikkinchi misolda esa ushbu (yuqoridagi) ta'rifga amerikalik olim K.Berd "Fuqarolar erkinliklari" tushunchasini qo'shadi.

Uchinchi misol sifatida Nigeriyalik konstitutsiyashunos B.Nvabuezening ta'rifini beramiz: "Konstitutsiya – bu qonun kuchiga ega bo'lgan formal hujjat bo'lib, uning yordamida jamiyat o'z-o'zini boshqaradi hamda o'zining turli idoralari bilan, shuningdek, bu idoralarning fuqarolar bilan munosabatlarini o'rnatadi".

Ko'pchilik hollarda konstitutsiyaga u tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlar predmetiga qarab tushuncha beriladi.

Shu ma'noda: Konstitutsiya – davlatning Asosiy Qonuni bo'lib, davlat hokimiyatini tashkil etishni va hokimiyat, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi.

Konstitutsiyaviy huquq fanida Konstitutsiya tushunchasi ikki ma'noga ega deb qaraladi. Shu ma'noda formal va moddiy Konstitutsiya farqlanadi.

Hozirgi zamon konstitutsiyaviy huquq fanida formal konstitutsiya deganda boshqa normativ huquqiy hujjatlarga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan, qabul qilinishi va o'zgartirilishi alohida tartibda amalga oshiriladigan qonun tushuniladi.

Moddiy ma'nodagi Konstitutsiya deganda esa davlat hokimiyatini tashkil etishni tartibga soluvchi normalar yig'indisi tushuniladi. Bunday asosiy narsa tartibga solish predmeti va ijtimoiy munosabatlarni mazmunidir.

Fransuz olimi F.Ardan: "Konstitutsiya – davlat hokimiyatining sinonimidir. Shuning uchun hatto yozma hujjat bo'lmaganda ham davlat o'z Konstitutsiyasiga ham ega bo'ladi. Agar davlat yozma hujjat ega bo'lganda ham Konstitutsiyaning o'zida aks ettirmaydi", - deb yozgan edi.

Zamonaviy konstitutsiyaviy huquq fanida modddiy yoki amaliy Konstitutsiya deganda davlat hokimiyatini hayotdagi amalga oshirilishi tushiniladi.

Moddiy Konstitutsiya – real harakatdagi amaliy Konstitutsiyadir.

Formal yoki yuridik Konstitutsiya – davlatning asosiy qonunidir. Yuridik Konstitutsiya davlat hokimiyatini tashkil etish va shaxsni huquqiy maqomini belgilash asoslarini mustahkamlaydi.

Konstitutsiya tushunchasini ochib berishda uning mohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Turli mamlakatlardan turli huquqiy oqimlar vakillari Konstitutsiya mohiyatini turlicha ta'riflaydilar. Masalan, tabiiy huquq maktabi vakillari Konstitutsiya – xalq (millat) ning umumiy irodasini ifodalovchi o'ziga xos ijtimoiy shartnomadir deyilar. Normativ huquq nazariyasi vakillari esa, Konstitutsiya bu oliy huquqiy normani ifoda bo'lishidir deb tushunadilar. Marksizm-leninizm Konstitutsiyani sinfiy kurashning mahsuli sifatida baholaydi.

**2. Konstitutsiyaning funktsiyalari, shakllari va turlari.**

Konstitutsiya ijtimoiy hayotning barcha sohalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sohalariga qarab Konstitutsiyani turli funktsiyalarini ko'rsatish mumkin.

1. Yuridik funktsiyalari – huquqning asosiy manbai.
2. Siyosiy funktsiyalar – davlat hokimiyatining tashkil etilishining asoslarini o'rnatadi;
3. Mafkuraviy funktsiyalar – jinoyatning eng asosiy ma'naviy-g'oyaviy qadriyatlarini mustahkamlaydi.

Turli mamlakatlardagi konstitutsiyalarni turli mezonlarga (kriteriyalarga) asoslanib har xil guruhlariga (turlarga) bo'lish mumkin.

Birinchidan, Konstitutsiyalarni ularning mohiyatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Yuridik Konstitutsiya (formal) – davlatning Asosiy Qonuni.
2. Ijtimoiy (sotsial) Konstitutsiya (amaliy) – amaldagi real ijtimoiy munosabatlar.
3. Tirik Konstitutsiya – AQSH Oliy Sudi bu Konstitutsiyani o'zgarayotgan ijtimoiy mezonlariga moslab kelmoqda.
4. Fiktiv (soxta) Konstitutsiya – SSSRning 1936 yil Konstitutsiyasi.
5. Moddiy Konstitutsiya – konstitutsiyaviy tuzum va inson huquqlarini tartibga soluvchi qonundir.
6. Formal Konstitutsiya – Asosiy Qonun bo'lib, alohida tartibda qabul qilinadi va oliy yuridik kuchga ega.

Ikkinchidan, Konstitutsiyalarni shakliga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Yozma konstitutsiyalar.
2. Og'zaki (yozilmagan) konstitutsiyalar – Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya, Butan kabi davlatlar Konstitutsiyalari.
3. Yaxlit konstitutsiyalar – Konstitutsiya matni yaxlit bo'lib, bir vaqtda qabul qilinadi. Masalan, O'zbekiston, Rossiya, Braziliya Konstitutsiyalari yaxlit Konstitutsiyalarga misol bo'la oladi.
4. Yaxlit bo'lmagan (noyaxlit) konstitutsiyalar – bunday Konstitutsiyalar turli vaqtda qabul qilingan qonunlardan iborat bo'ladi. Masalan, Shvetsiya, Finlandiya, Isroil konstitutsiyalari.
5. Yumshoq konstitutsiyalar – bunday Konstitutsiyalar oddiy qonunlar kabi o'zgartiriladi. Masalan, Buyuk Britaniya Konstitutsiyasiga 350ga yaqin qonunlar kiradi va oddiy tartibda o'zgartiriladi.
6. Qattiq konstitutsiyalar – alohida murakkab tartibda o'zgartiriladi. Masalan, AQSH, Rossiya, O'zbekiston konstitutsiyalari.
7. Doimiy konstitutsiyalar. Aksariyat konstitutsiyalar doimiydir.
8. Vaqtinchalik (muvaqqat) konstitutsiyalar – Iroqda, 1970 yil Birlashgan Arab Amirligida 1971 yildan beri harakatda bo'lgan konstitutsiyalar.

Uchinchidan, Konstitutsiyalarni ularni ijtimoiy mazmuniga qarab ham bir necha turga bo'lish mumkin. Hozirgi kunda dunyoda 300 dan ortiq Konstitutsiya bor (federativ davlatlar sub'ektlarining Konstitutsiyalari bilan birga). Bu Konstitutsiyalar turli tarixiy davrda qabul qilingan bo'lib, har xil ijtimoiy mazmunga ega.

1. G'arb mamlakatlari Konstitutsiyalari.
2. Rivojlanayotgan mamlakatlar Konstitutsiyalari.
3. O'tish davri mamlakatlari Konstitutsiyalari.
4. Teokratik davlatlar Konstitutsiyalari.

Konstitutsiyalarni quyidagi turlarga ham bo'lish mumkin:

1. Demokratik Konstitutsiyalar.
2. Avtoritar Konstitutsiyalar.
3. Totalitar Konstitutsiyalar.

### **3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi.**

Respublikaning yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqish zurligi to'g'risidagi g'oya XII chaqiriq Oliy Kengashning 1990 yil martida bo'lib o'tgan birinchi sessiyasidayoq yangragan edi. Oliy Kengashning 1990 yil iyunda bo'lib o'tgan ikkinchi sessiyasi respublika Prezidenti

I.A.Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya komissiyasini tashkil etdi. Komissiya tarkibiga viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi vakillari, xo'jaliklar, korxonalarining rahbarlari, davlat va jamoat rahbarlari, olimlar va xalq xo'jaligi mutaxassislari kirdi.

Davlat mustaqilligining O'zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilganligi butun bir davr mazmuniga ega voqealarni o'z ichiga olib, bunda Prezident davlat faoliyatining gultoji hisoblanadi. 1991 yil 12 aprelda I.A.Karimov boshchiligidagi Konstitutsiya komissiyasining birinchi majlisi bo'lib o'tdi. Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishga tayyorgarlik sohasidagi butun ishni markazlashtirib turish maqsadida Konstitutsiya komissiyasi a'zolaridan hamda taniqli olimlar va mutaxassislardan 32 kishidan iborat ishchi guruhi tuzildi. Uning tarkibiga Oliy Kengashning qator qo'mitalarining, vazirliklar, prokuratura, sud organlarining rahbarlari, olimlar, Respublika Prezidenti devoni va Oliy Kengash idorasining mas'ul hodimlari kirdilar.

Konstitutsiya komissiyasining raisi ishchi guruhi oldiga aniq vazifa qo'ydi: jahon tajribasi o'rganilsin, boshqa mamlakatlarning inson huquqlari borasida, demokratiya va qonunchilik sohasida qo'lga kiritgan yutuqlari asosida tushunarli siyosiy va yuridik hujjat yaratilsin.

Konstitutsiya bu mahobatli asar, butun qonunchilikning umurtqa pog'onasi. Qanday bo'lishi lozimligini oldindan bilmay turib, uning Konstitutsiya komissiyasining topshirig'iga binoan, ishchi guruhi, eng avvalo bo'lajak Konstitutsiyaning kontseptsiyasini ishlab chiqishga kirishdi. Uchta kontsepsiya tayyorlandi. Falsafa va huquq institutining kontseptsiyasi (u Fanlar akademiyasi rayosati tomonidan muhokama qilindi va tasdiqlandi). Siyosatshunoslik instituti kontseptsiyasi va Prezident devonining davlat sho'basi tayyorlagan kontsepsiya. Ishchi komissiyasining bir guruh a'zolari bu kontsepsiyalarning g'oyalarini umumlashtirib, ulardan bitta asos ishlab chiqdilar. So'ngra Konstitutsiya komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlangan ana shu kontsepsiya asosida ish boshlab yuborildi.

Loyihaning 158 moddadan iborat dastlabki varianti 1991 yil noyabrgacha tayyorlab berildi. I.A.Karimov bu loyiha bilan tanishib chiqib, kam ish qilinganligi to'g'risida gapirdi va yo'llanma berib, bo'lg'usi loyiha shakl-tamoyillariga oydinlik kiritib berdi.

Loyiha ikkinchi ishchi varianti 149-moddadan iborat bo'ldi. Respublika Prezidenti yana qo'lga qalam olib, matnni yaxshilab ko'rib chiqdi. Shu tariqa Konstitutsiya komissiya raisining nigohidan o'tgach, loyiha lo'nda va ifodali bo'lib bordi.

Uchinchi qilingan variant 137-moddani tashkil qilar edi. Matbuotda e'lon qilinishi oldidan yana bir bor diqqat bilan o'rganilib, 127-moddadan iborat tartibda, mazmundor qilib tuzildi. Konstitutsiya komissiyasining qarori bilan loyiha 1992 yil 26 sentabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasining muhokamasi barcha mehnat jamoalarida, korxonalar, o'quv yurtlarida, idoralar va vazirliklarda, tumanlar, viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi faollarining yig'ilishlarida, matbuotda, televidenie va radioda, xalq demokratik partiyasining Markaziy Kengashlari va mahalliy tashkilotlarda, kasaba uyushmalari hamda xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlarida, ijodiy uyushmalarda, olimlarning birlashmalarida va boshqa tashkilotlarda bo'lib o'tdi.

Konstitutsiya komissiyasiga kelgan fikrlar, taklif va mulohazalarni hisobga olgan holda muhokamani davom ettirish uchun 1992 yil 21 noyabrda yana bir bor matbuotda e'lon qilindi. Respublika fuqarolari loyihaga kiritilgan o'zgartirishlar va aniqliklar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

«Yangi Konstitutsiyamizning ijobiy jihatlari, ya'ni tomonlari, avvalgi Konstitutsiyalardan farqlari nimalardan iborat?» Avvalombor bu Konstitutsiya o'zining tub mohiyati falsafasi, g'oyasiga ko'ra yangi hujjatdir. Unda kommunistik mafkura, sinfiylik, partiyaviylikdan asar ham yo'q. Jamiyki dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'i-inson degan fikrni ilgari surdik va shu asosida «fuqaro-jamiat-davlat» o'rtasidagi o'zaro munosabatlar oqimida huquqiy echimni topishga intildik.

Loyiha inson huquqlari va davlat mustaqilligi g'oyalariga sodoqat, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatni anglash, o'zbek davlatchiligining tajribasiga tayanish, demokratiya va qonuniylikni hurmatlash, xalqaro huquqning jahonda e'tirof etilgan qoidalarini tan olish, O'zbekiston fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlash, insonparvar huquqiy

jamiyat barpo etish va nihoyat, fuqarolar tinchligi va milliy hamjihatlikni kafolatlash kabi olijanob maqsadlarni ko'zlatadi"

Shunday qilib, Konstitutsiya loyihasi matbuotda ikki marta e'lon qilindi va umumxalq muhokamasidan o'tdi. Buning yakunlari bo'yicha komissiya yana bir bor loyihani ko'rib chiqib Oliy Kengash sessiyasida ko'rib chiqishga tavsiya etdi. Loyiha Oliy Kengashning sessiyasida moddama-modda muxokama qilinib uzoq tortishuvlar, xilma-xil fikrlar bildirilgan holda qabul qilindi.

Asosiy qonunimizni baholashda AQSH, Buyuk Britaniya, Frantsiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik Kengashi kabi nufuzli davlat va xalqaro tashkilotlarning olimlari faol qatnashdilar. Lekin hech kim, hattoki, bizni xush ko'rmaydigan kishilar ham uning demokratik mohiyatini inkor eta olmadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi Muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat.

1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilingan Konstitutsiyasi mustaqil O'zbekiston demokratik suveren davlatining birinchi Konstitutsiyasi bo'ldi, mustaqil davlat omillaridan kelib chiqib yaratilganligi bu Konstitutsiyaning o'ziga xos hususiyati deb hisoblash lozim. Dastlabki, moddasidan tortib to oxirgi 128 moddasigacha u mustaqillik g'oyasi bilan sug'orilgan.

#### **4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy printsiplari.**

##### **Davlat suvereniteti tushunchasi va mohiyati.**

"Suverenitet" atamasi ilk bor Frantsiyada (XVI) vujudga kelgan. Bu atama lotincha superareitas (cupra, superiores) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, aslida "eng oliy", "oliy hokimiyat" degan ma'noni anglatadi.

Suverenitet mustaqil davlatning umumiy va ajralmas belgisi bo'lib, uning to'la huquqliligini hamda ichki va tashqi ishlarda boshqa davlatga qaram emasligini anglatadi.

Asosiy Qonunimizning 5-moddasida "O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzlari-bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega deb ko'rsatilgan.

Shunday qilib, suverenitet davlatning ichki va tashqi siyosatida to'liq mustaqilligini bildiradi. O'zbekistonning suvereniteti o'zining ichki va tashqi siyosatini to'liq o'zi belgilab olishi va mustaqil yuritishini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti o'zining hududida ichki siyosatini o'zi olib borishini va xalqaro munosabatlarda to'la mustaqilligini anglatadi.

Davlatning to'liq mustaqilligi xalqning va insonlarning huquqi bilan cheklangan bo'ladi. Ko'pchilik davlatlarning Konstitutsiyalarida shunday yozilgan: Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir.

Davlat suvereniteti xalq suvereniteti bilan cheklanadi xolos. Xalq mamlakatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy tuzumini belgilash huquqiga egadir. Davlat xalqning oliy huquqini hurmat qilishga majburdir.

##### **Xalq hokimiyatchiligi va uni amalaga oshirish shakllari.**

"Xalq hokimiyatchiligi" atamasi yunoncha "demokratiya" ("demokratia") so'zining o'zbek tiliga tarjimasi bo'lib, bu ibora ilk bor yunon shahar-davlatida paydo bo'lgan va keyinchalik butun dunyoga tarqalgan hamda siyosiy lug'atdan mustahkam o'rin olgan.

Demokratiya so'zi "demos" ("demos") xalq va "kratos" ("kratos") hokimiyat so'zlarining birikmasidan tuzilib, "xalq hokimiyatchiligi" deganidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Xalq hokimiyatchiligi" deb nomlangan ikkinchi bobi davlatimizning demokratik tabiatini ifodalaydi va O'zbekistonni suveren demokratik respublika ekanligini tasdiqlaydi. "Xalq hokimiyatchiligi" printsiplari har qanday demokratik davlat konstitutsiyaviy tuzumining asosiy shartlaridan biridir.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 7-moddasida mamlakatimizdagi xalq hokimiyatchiligi



printsipi quyidagicha ochib berilgan:

«Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir.

**O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi.**

### **O'zbekistonda davlat hokimiyatining bo'linishi printsipi va uni amalga oshirilishi.**

O'zbekistonni demokratik davlat sifatida tavsiflovchi belgilaridan biri – bu O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining bo'linganligidir. Ushbu qoida Konstitutsiyamizning 11-moddasida asosiy printsip tariqasida mustahkamlangan: "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi-hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi printsipiga asoslanadi."

Shu tariqa, davlat hokimiyatining bo'linishi printsipi O'zbekistonning konstitutsiyaviy tarixida birinchi marta paydo bo'ldi. O'zbekistonning ilgari 1927, 1937 va 1978 yillardagi Konstitutsiyalarida bunday printsip mavjud emas edi. Chunki ushbu Konstitutsiyalar markscha-lenincha kommunistlar hukmronligi nazariyasiga asoslanib, unda "hokimiyatning bo'linishi" printsiplari rad etilar edi.

"Hokimiyatning bo'linishi" g'oyasi qadimiy bo'lib, qadimgi grek faylasufi va olimi Aristotel tomonidan ham ilgari surilgan. O'rta asrlarda Marsiliy Paduanskiy va boshqalar ham bunday g'oyani yoqlab chiqqan edilar. XVIII asrning o'rtalariga kelib, bu g'oya mustaqil siyosiy-huquqiy ta'limotga aylangan. Mashhur frantsuz ma'rifatparvari, huquqshunos, faylasuf va yozuvchi Sh.Monteske (1689-1755 yillar) o'zining "Qonunlar ruhi" kitobida hokimiyatning bo'linishi printsipini asoslab bergan.

Darhaqiqat, hozirgi zamon jahon mamlakatlarining konstitutsiyaviy tajribasi shuni ko'rsatadiki, hokimiyatlarning bo'linish printsipi, ular ushbu printsip rasman o'rnatilgan yoki o'rnatilmaganligidan qat'i nazar, barcha chet el konstitutsiyalari tomonidan qabul qilingan. Chunonchi, mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasida ham bu printsip rasman 11-moddada o'rnatilgan. Unga ko'ra, O'zbekistonda qonun chiqarish hokimiyati Oliy Majlis, ijroi hokimiyati esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi. Sud hokimiyati Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi tomonidan amalga oshirilib, ular birgalikda O'zbekiston Respublikasining yagona sud tizimini tashkil etadi.

### **O'zbekistonda siyosiy va mafkuraviy xilma-xillik (plyuralizm).**

Ma'lumki, har qanday adolatli, demokratik davlatda fuqarolarning erkin fikrlash huquqi kafolatlangan bo'ladi. Insonning erkin fikrlash, o'z aql-idroki, qobiliyati, olgan bilimlaridan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi davlatda shaxs haqiqiy erkinligining yorqin ifodasidir. Albatta, erkin fikrlash bor joyda fikrlar xilma-xil bo'ladi va turli mafkuralar, siyosiy institutlar, harakatlar paydo bo'lishi mumkin. Aks holda, ya'ni erkin fikrlash cheklangan joyda ko'pincha inson o'z fikrlarini, xohish-istaklarini oshkora bayon qilish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Bunday holatlarda odatda yagona mafkura hukmron bo'ladi. Masalan, sobiq totalitar tuzumning 70 yildan ortiq hukmronligi davrida kommunistik mafkuraning yakkahokimligi o'rnatilgan edi.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas (12-modda).

Demak, bu bilan bitta mafkuraning, bitta dunyoqarashning yakkahokimligidan qat'iyon voz kechildi.

Konstitutsiyamizning aynan shu moddasi jamiyatimizda turli sinf, toifa, millat va elatlarning manfaatlarini ifodalovchi partiyalar, uyushmalar va ularning mafkuralari bo'lishi mumkinligini qonuniy mustahkamlaydi.

### **Demokratiya va inson huquqlari.**

Konstitutsiya O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati, ya'ni xalqning o'zi bevosita boshqaradigan jamiyat va demokratik huquqiy davlat qurishni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Unda jami dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'i "inson" ekanligi yorqin mujassamlashtirilgan. Insonni ulug'lash, uni muhofaza qilish va har tomonlama kamol toptirish Konstitutsiyaning asosiy g'oyasiga aylantirilgan. Konstitutsiyamiz Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro huquqiy me'yorlar asosida ishlab chiqilgan va aytish mumkinki, uni yanada to'ldirgan. Masalan, Konstitutsiyaning 13-moddasi fikrimizga dalil bo'lishi mumkin: "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi."

Demak, inson huquqlari va demokratiya singari umumbashariy qadriyatlar respublikamizning milliy davlatchilik manfaatlariga to'la mos keladi.

### **Ijtimoiy adolat va qonuniylik printsiplari.**

O'zbekistonda adolatli va huquqiy-demokratik davlatga xos printsiplar konstitutsiyaviy yo'l bilan mustahkamlangan. Ana shunday printsiplar sifatida ijtimoiy adolat va qonuniylik printsiplari Konstitutsiyamizda quyidagicha ifodalangan: "Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik printsiplari asosida amalga oshiradi" (14-modda).

O'zbekiston Konstitutsiyasida o'rnatilgan me'yor davlatimiz faoliyatining eng asosiy printsiplarini belgilab beradi. Bu juda muhimdir. Chunki davlat o'z faoliyati bilan inson va jamiyat taqdirini belgilashi mumkin. Ayniqsa, hozirgi vaqtda jamiyat davlatsiz yashay olmasligi hammaga ayon bo'lib qoldi.

Konstitutsiyaning 14-moddasida nazarda tutilgan me'yorning yana bir muhim tomoni shundaki, unga ko'ra davlat o'z faoliyatini qonuniylik printsipli asosida amalga oshiradi. Bu huquqiy demokratik davlatning eng asosiy belgilaridan biridir.

**Qonuniylik printsipli** deganda avvalo qonunlarni va uning asosida qabul qilingan boshqa huquqiy hujjatlarni davlat organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar tomonidan aniq va og'ishmay bajarilishi lozimligi tushuniladi. Bu davlat tuzumidagi demokratizmning ko'rinishlaridan biri bo'lib, hammaning qonun oldida tengligini o'rnatadi. Qonuniylik printsipli qonunlarni yuridik hujjatlar tizimida oliy kuchga egaligini, barcha uchun barobarligini, jamiyat a'zolarining barchasi uchun majburiylikni anglatadi. SHu bilan birga bu printsipl fuqarolarning huquq va erkinliklari og'ishmay ta'minlanishi, fuqarolarga nisbatan davlat organlari va mansabdor shaxslarning qandaydir o'zboshimchaligiga yo'l qo'ymasligi, fuqarolarning jamiyat, davlat oldidagi majburiyatlari qat'iy bajarilishi lozimligini ham nazarda tutadi. Bir so'z bilan aytganda, qonuniylik printsipli o'z maqsad va mohiyati bilan xalq manfaatlariga xizmat qiladi.

### **Konstitutsiya va qonunning ustunligi printsipli.**

Konstitutsiya va qonunlar ustunligining ta'minlanishi huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri bo'lib, u O'zbekistonda davlat-huquqiy qurilishining eng asosiy printsipli hamdir. "Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi printsipli shuni anglatadiki, - deydi Prezidentimiz I.A.Karimov, bunda barcha joriy qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida, unga muvofiq bo'lishi talab etiladi.

**Ulug' bobokalonimiz Amir Temur aytganlariday: "Qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi". O'zbekiston Konstitutsiyasida Konstitutsiya davlatimizning eng Asosiy Qonuni ekanligi, u boshqa barcha qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlardan yuqori turishi quyidagicha belgilangan: "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.**

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar" (15-modda).

Yuqoridagi printsipl jamiyatimizda qonunchilik va huquqiy-tartibot tantanasini anglatadi. Qonunchilik – bu qonunlarning realligidan, jamiyatda chinakam demokratik muhit va haqiqiy huquqiy rejim o'rnatilganligidan dalolat beradi. Qonunchilik bu davlat tomonidan qonunlar tizimini

jamiyat taraqqiyoti talablariga mos ravishda takomillashtirib borish va davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan qonunlarga qat'iy rioya etish va ularni og'ishmay amalga oshirishda namoyon bo'ladigan davlat va jamiyat hayotining printsipidir. Qonunchilik printsipli qonunlarning hamma uchun istisnosiz majburiyligini, hammaning qonun oldida tengligini, qonunlarning hamma yerda bir xilda joriy qilinishini ham anglatadi.

Shunday qilib, Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikkinchi chaqiriq oltinchi sessiyasida ta'kidlaganidek, qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlari muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo'ysunish va hurmat ruhida tarbiyalash – bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vazifasi, eng muhim sharti hisoblanadi.

### **O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konstitutsiyaviy asoslari va printsiplari.**

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy printsiplari Konstitutsiyaning 17-moddasida o'zining qonuniy aksini topgan. Tashqi siyosat tushunchasi davlatning xalqaro ishlardagi umumiy yo'nalishi o'z ichiga oladi. Tashqi siyosat davlatning boshqa davlatlar va xalqlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro aloqalarini o'z ichiga oluvchi maqsad va vositalarini qamrab oladi.

Asosiy Qonunimizning 17-moddasida shunday deyilgan: "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin."

### **O'zbekistonda mudofaa va xavfsizlikning ta'minlanishi.**

O'zbekiston Respublikasi suveren davlat sifatida o'z mudofaa va xavfsizlik organlari tizimiga ega. Konstitutsiyaning 126-moddasida shunday deyilgan: "O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun etarli darajada qurolli kuchlariga ega."

Shuni nazarda tutish lozimki, O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari o'zga davlatlarga hujum qilish yoki bosqinchilik harakatlarini olib borish uchun tuzilmaydi. Uning tuzilishidan maqsad Konstitutsiyaning o'zida aniq ko'rsatib qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya hilish uchun tuziladi.

Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi (125-modda).

**12-Mavzu: O`zbekistonda inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari.**  
**2 soat**

**Reja:**

- 1. O`zbekiston Respublikasida davlat fuqaroligi va uning huquqiy asoslari.**
- 2. O`zbekiston Respublikasida fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari.**
- 3. O`zbekiston Konstitutsiyasida insonning siyosiy huquqlari.**
- 4. Iqtisodiy-ijtimoiy huquqlarning Konstitutsiyaviy kafolatlari.**
- 5. Fuqarolarning Konstitutsiyaviy burchlari.**

**1. O`zbekiston Respublikasida davlat fuqaroligi va uning huquqiy asoslari.**

O`zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishishi bilan fuqarolik instituti mazmunan tubdan yangi ma`no va mustaqil ahamiyat kasb etadi. Endilikda fuqarolik davlatchiligimizni muhim ajralmas belgisidir.

Fuqarolik Asosiy Qonunimizning 21-moddasida, ya`ni: "O`zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o`rnatildi.

O`zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo`lganliklaridan qat`iy nazar, hamma uchun tengdir.

Qoraqalpog`iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O`zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

Fuqarolikka ega bo`lish va uni yo`qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi" deb mustahkamlab quyilgan.

Fuqarolik - bu shaxs bilan davlat o`rtasidagi barqaror va doimiy siyosiy huquqiy aloqa bo`lib, bunda ularning o`zaro huquq, burch va majburiyatlari o`z ifodasini topadi. Bir so`z bilan aytganda, fuqarolik bu shaxsning muayyan davlatga huquqiy jihatdan mansubligidir.

O`zbekiston Respublikasi fuqarosi deganda, faqatgina uning hududida yashashi yoki uning hokimiyatga bo`ysunish, huquq va burchlar bilan ta`minlanishigina emas, balki shaxs bilan O`zbekiston Respublikasi o`rtasida o`rnatilgan alohida siyosiy huquqiy aloqalar va munosabatlar tushuniladi. Fuqarolik – bu shaxsning huquqiy holatidir.

O`zbekiston Respublikasida har bir kishi fuqaro bo`lish huquqiga egadir. Hech kim fuqarolikdan yoki fuqarolikni o`zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas.

Konstitutsiya O`zbekiston Respublikasida, ya`ni uning butun hududida yagona fuqarolikni joriy etgan. Uning ma`nosi:

1. Davlatning yagonaligi, mustaqilligi va yaxlitligidir
2. Barcha fuqarolar, shu jumladan, Qoraqalpog`iston Respublikasi birdan siyosiy, huquqiy maqomga ega, qonunoldida teng va davlat huquqiy munosabatlarining to`laqonli sub`ekti hisoblanadilar;
3. Respublikaning butun hududida fuqarolariga ularning konstitutsiyaviy va boshqa huquq va qonuniy manfaatlarining davlat-huquqiy muhofazasi ta`minlanadi va himoya qilinadi.

Hozirda O`zbekiston Respublikasining 1992 yil 2 iyulda qabul qilingan "Fuqarolik to`g`risida"gi qonuni fuqarolikka qabul qilish, unga ega bo`lish va fuqarolikni yo`qotish tartibini belgilaydi.

- Kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy holatidan, irqi va millatidan, jinsi, ma`lumoti, tili, siyosiy qarashlari, diniy e`tiqodi, mashg`ulotining turidan qat`iy nazar, ushbu qonun kuchga kirgan vaqtda (1992 yil 7 iyulda) O`zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan, boshqa davlatlarning fuqarolari bo`lmagan hamda O`zbekiston Respublikasining fuqarosi bo`lish istagini bildirgan shaxslar;

- Davlat yo`llanmasi bilan O`zbekiston Respublikasidan tashqari ishlayotgan, harbiy xizmatni o`tayotgan yoki o`qiyotgan shaxslar, agar ular, O`zbekiston Respublikasining hududida tug`ilgan bo`lsalar yoki doimiy yashaganliklarini isbot qilgan bo`lsalar, boshqa davlatlarning fuqarolari bo`lmasalar va ushbu qonun kuchga kirgandan keyin kechi bilan bir yil ichida O`zbekiston Respublikasining fuqarosi bo`lish istagini bildirgan bo`lsalar;

- Ushbu qonunga muvofik O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini olgan shaxslar.

Ota-onasidan biri bola tug'ilgan paytdan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, boshqasi esa fuqaroligi yo'q shaxs bo'lgan, yoxud noma'lum bo'lgan taqdirda, bola qayerda tug'ilgan bo'lishidan qat'iy nazar, u O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Fuqaroligi bo'lmagan, O'zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat joyga ega bo'lgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududida tug'ilgan bolasi O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi.

Ota-onasi noma'lum bo'lgan va O'zbekiston hududida yashayotgan bola O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Qonun O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lishning quyidagi asoslarini belgilab bergan:

1. Tug'ilganda;
2. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi natijasida;
3. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha;
4. Ushbu qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'z iltimosnomalariga ko'ra kelib chiqishdan, irqi va millatidan, jinsi, ma'lumoti, tilidan, dinga munosabatidan, siyosiy va boshqa e'tiqodlaridan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi mumkin, lekin shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga kirish uchun qonun tomonidan ayrim shartlar qo'yilgan bo'lib ular;

1. Chet el fuqaroligidan voz kechishidan;
2. So'nggi 5 yil davomida O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaganligini;
3. Qonuniy tirikchilik manbalarining mavjudligi;
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tan olishi va bajarishi shartdir.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi quyidagi asoslarga ko'ra to'xtatiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi chiqish oqibatida;
2. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotish oqibatida;
3. O'zbekiston Respublikasining shartnomalarida nazarda tutilgan asoslarga binoan;
4. Ushbu qonunda ko'zda tutilgan boshqa asoslarga binoan.

Fuqarolik to'g'risidagi qonunda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotish asoslari ham belgilab berilgan. Bunga quyidagilar sabab bo'ladi.

1. Shaxs chet davlatda harbiy xizmatga, xavfsizlik xizmati va boshqaruvining boshqa idoralariga ishga kirganligi aniqlansa.
2. Agar chet elda doimiy yashovchi shaxs 5 yil davomida uzrli sabablarsiz konsullik hisobida turmagan bo'lsa.
3. Agar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi yolg'onligi shak-shubhasiz ma'lumotlar yoki soxta hujjatlarni taqdim etish natijasida olingan bo'lsa.

Shu sabablarga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi yo'qotiladi. Fuqarolik to'g'risidagi qonunda ota-onalarning fuqaroligi o'zgarganda bolalarning fuqaroligi masalalari ham keng yoritilgan.

### **O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari.**

Shaxsni himoya qilish shuningdek uning hayotini ijtimoiy xavfli tajovuzlardan muhofaza qilish davlatning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari tizimida eng muhimi yashash huquqi hisoblanadi.

"Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir"- deb, Konstitutsiyaning 24-moddasida mustahkamlab qo'yilgan.

Mazkur modda xalqaro huquqiy hujjatlarga, aniqrog'i, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga; Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Pakt va fuqarolik siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktga to'la mos keladi va mana shu hujjatlardan kelib chiqadi.

Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi konstitutsiyaviy huquq bo'lib, inson tug'ilishi bilan unga ega bo'ladi.

Aybsizlik prezumtsiyasi (aybini isbot qilgunicha shaxsni aybsiz deb faraz qilish) Konstitutsiyaning 26-moddasida mustahkamlangan bo'lib, u jinoyat huquqida qonuniylik

tamoyilining asosi hamda odil sudlovning asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. Bu tamoyil jinoyat Kodeksining 4-moddasida yanada rivojlantiriladi. Unga binoan, hech kim sudning hukmini bilmay turib jinoyat sodir qilishda aybli deb topilishi va qonunga xilof ravishda jazoga tortilishi mumkin emasligini aniq ko'rsatilgan. O'zbekiston Konstitutsiyasining 27-moddasida, - "Har kim o'z sha'ni va obro'sini qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalash va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazish yoki uni ko'zdan kechirish, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilish mumkin emas", deb mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 28-moddasi respublika hududida fuqarolarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi, kelish va undan chiqish huquqini mustahkamlaydi. Bu huquqqa muvofiq shaxs o'z xohishi bilan O'zbekiston Respublikasi hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi, undan chiqib ketishi va qayta kelishi mumkin. Qonunda belgilangan cheklash hollari bundan mustasnodir.

Konstitutsiyaning 29-moddasida har bir insonga fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi, istagan axborotini izlash, olish va uni tarqatish huquqini beradi, lekin bunday erkinlik amaldagi Konstitutsiyaviy tuzumiga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlarga qat'iy rioya etilgan holda amalga oshirilishi kerak.

Insonlarning sudda o'ziga nisbatan har qanday ish ko'rilayotganda o'z huquq va manfaatlariga ta'sir qiladigan hujjatlar qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishish huquqi amalga oshiriladi.

Konstitutsiyaviy sud esa fuqarolarga hujjatlar va materiallar bilan tanishish imkoniyatini berish huquqiga ega.

Bu huquqlar Konstitutsiyaning 30-moddasida mustahkamlab qo'yilgan.

Konstitutsiyada fuqarolarning eng muhim shaxsiy huquqlardan biri bu - vijdon erkinligidir.

Vijdon erkinligi - bu insonning dinga bo'lgan munosabatidir.

Respublika Konstitutsiyasining 32-moddasi respublika xalqining hammasi uchun vijdon erkinligini kafolatlaydi. Buning ma'nosi shundaki, O'zbekistonda yashaydigan har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqini beradi.

Diniy tashkilotlar siyosiy partiyalar faoliyatida qatnashmaydilar va siyosiy partiyalarga moliyaviy madad ko'rsatmaydi.

### **O'zbekiston Konstitutsiyasida insonning siyosiy huquqlari.**

**Siyosiy huquqlar** - O'zbekistonda xalq hokimiyatining amalga oshirilishi har bir O'zbekiston fuqarosiga mamlakatning ijtimoiy, siyosiy hayotida faol amaliy va huquqiy ishtirok etish imkonini beradi.

Siyosiy huquqlar to'g'risida gap ketayotgan ekan, bu huquqlar asosan O'zbekiston fuqarolariga tegishli ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Chunki faqat O'zbekiston Respublikasi fuqarolarigina Konstitutsiyada ko'rsatilganidek, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etishi (32-modda); o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish (33-modda); kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalariga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish (34-modda) huquqlaridan foydalanishlari mumkin.

O'zbekiston Konstitutsiyasining fuqarolariga berilgan siyosiy sohadagi huquqlardan biri shu "jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish"dir (32-modda). Bunday ishtirok etish huquqi ikki yo'l bilan amalga oshiriladi:

**Birinchidan:** bevosita ishtirok etish. Bu referendum o'tkazishda, davlat organlarini saylovlar yo'li bilan tashkil etishda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatida ishtirok etishi bilan amalga oshiriladi.

**Ikkinchidan:** fuqarolar o'zlari saylab qo'ygan vakillari, davlat organlari Respublika Prezidenti orqali jamiyat va davlat shularni amalga oshirishda qatnashadilar.

Konstitutsiyaga binoan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari vakillik organlariga saylash huquqiga egadirlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga hamda davlat hokimiyatining vakillik

organlariga saylovlar umumiy, teng, yashirin ovoz berish va bevosita saylov huquqi asosida erkin amalga oshiriladi. 18 yoshga yetgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari saylash huquqiga egadirlar.

Fuqarolarning yana bir passiv saylov huquqi bo'lib, bu vakillik organlariga saylanish huquqidir. Saylov kuniga qadar 25 yoshga etgan har bir fuqaro Oliy Vakillik organi - Oliy Majlisga deputat etib saylanishi mumkin. Shuningdek, 35 yoshga etgan, davlat tilida erkin so'zlasha oladigan, bevosita saylovga 10 yildan kam bo'lmagan vaqtda respublikamiz hududida muqim yashagan fuqaro O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bo'lib saylanishi mumkin.

Demokratiyaning asosiy shakllaridan biri - bu davlat va jamiyat hayotining muhim muammolarini umumxalq muhokamasida o'z yechimini topishi referendum hisoblanadi.

Fuqarolarning yana bir konstitutsiyaviy huquqi – bu ularning ijtimoiy faolliklarini mitinglar, yig'ilishlar namoyishlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshirish huquqidir (33-modda).

**Miting** - bu siyosiy masalalarning muhokamasi uchun yig'ilgan jamoa yig'ilishidir.

**Yig'ilish** - bu yopiq imoratda yoki biror xonada o'tkaziladigan, ma'lum yig'ilgan shaxslarning majlisidir.

**Namoyish** - bu ijtimoiy siyosiy noroziliklarni ochiq ko'rinishi bo'lib, namoyishchilarning u yoki bu masalaga nisbatan ommaviy tarzda ochiq munosabatidir.

Fuqarolarning siyosiy huquqlari tizimiga kiradigan huquqlardan yana biri fuqarolarning kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoa birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqidir. Bu huquq Konstitutsiyaning 34-moddasida o'z aksini topgan.

### **Iqtisodiy-ijtimoiy huquqlarning Konstitutsiyaviy kafolatlari.**

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, ijtimoiy davlat qurilishidagi asosiy yutuqlaridan biri – fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi konstitutsiyaviy huquqlaridir.

Fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi huquqlari Konstitutsiyaning IX bobida ko'rsatilgan bo'lib, ular: shaxslarning mulkdor bo'lish huquqi (36-modda); mehnat qilish, erkin kasb tanlash huquqi: adolatli mehnat sharoitlarida ishlash, ishsizlikdan himoyalaniish huquqi (37-modda); dam olish huquqi (38-modda); qariganida, mehnat layoqatini yo'qotganda ijtimoiy ta'minot olish huquqi (39-modda); malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi (40 modda); bilim olish huquqi (41-modda); ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish (42-modda) o'z aksini topgan.

O'zbekistonda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy vazifasi davlat mulkini xususiylashtirish orqali monopoliyaga chek qo'yish; ko'p ukldli iqtisodiyotni barpo etish, mulkni haqiqiy egasiga topshirish, mulkning barcha shakllari rivojlanishiga bir xil shart-sharoit yaratib berishdan iborat. Bu vazifani bajarish birinchi navbatda, mulk huquqini amalga oshirish mexanizmining huquqiy asosini yaratish ayniqsa, uning muhim elementi bo'lgan har kimning o'z mulkiga erkin egalik qilish tamoyilini mustahkamlash edi.

Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "**Mulkchilik to'g'risida**"gi, "**Tadbirkorlik to'g'risida**"gi, "**Xususiylashtirish to'g'risida**"gi qonunlarni qabul qilindi.

Bank omonatining sir tutilishi iqtisodiy huquqlar sirasiga kiradi. Bank tomonidan omonot sirlarini saqlashga oid munosabatlar O'zbekiston Respublikasining "**Bank va bank faoliyati to'g'risida**"gi qonuni bilan tartibga solinadi.

Har bir ishchi mehnat muhofazasi huquqiga ega.

**Mehnatni muhofaza qilish**, deganda - bu amaldagi qonunchilik va boshqa me'yoriy hujjatlarda mustahkamlangan insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiena, davolash-profilaktika tadbirlari hamda vositalari tizimi tushuniladi.

Mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga hamma joyda rioya etilishi ustidan davlat nazoratini jamoat nazorati va mehnatni muhofaza qilish uchun tashkil etilgan kasaba uyushmasi tashkilotlari amalga oshiradi.

1992 yil 13 yanvarda "**Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida**"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. 1993 yil 7 mayda esa o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Ish vaqti deb ma'lum bir grafik asosida tashkil etilgan, mehnat shartnomasi bilan belgilangan mehnat majburiyatlari bajariladigan vaqtga aytiladi.

Respublika Konstitutsiyasi har bir shaxsga bilim olish huquqini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgustdagi IX-sessiyasida O'zbekistonda ta'lim tuzilishi isloh qilish masalasi ko'rildi va Ta'lim to'g'risida yangi qonun qabul qilindi. Shu qonunning 4-moddasiga muvofiq bilim olish, shaxsning kelib chiqishi, jinsi, tili, yoshi, irqi, qaysi millatga mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy axvoli, yashash joyi, respublika hududida qanchadan beri yashayotganidan qat'iy nazar, har kim uchun tengdir.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 42-moddasi shaxslarning ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqini birinchi marta konstitutsiyaviy maqom darajasiga ko'tardi.

### **5. Fuqarolarning Konstitutsiyaviy burchlari.**

O'zbekiston Respublikasida shaxslarga nisbatan hurmat, ishonch bo'lishi, ularning tashabbusini, ijodkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash bilan bir vaqtda, ulardan davlat va jamiyat oldidagi ma'lum bir burchlarini ham bajarish talab qilinadi.

Bular konstitutsiyaning **47-52 moddalarida** o'z ifodasini topgan.

Fuqarolarning imtiyozini mustahkamlash, davlat o'rnatgan tartib va qoidalarga rioya qilish jamiyatimiz rivojini ta'minlash shartlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan konstitutsiyaviy tuzum fuqarolarga keng huquq va erkinliklar berish, ularning amalga oshirishni kafolatlash bilan birga fuqarolar zimmasiga ma'lum burchlarni bajarishni yuklaydi. Bu konstitutsiyaning **47-moddasida**, - **"Barcha fuqarolar konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarni bajaradilar"**, - deb mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining burchlarini konstitutsiya normalarida o'z aksini topib, ma'lum tizimni tashkil qiladi. Bu tizimga: Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmatini hurmat qilish **(48-modda)**; O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosni avaylab asrash **(49-modda)**; atrof-tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish **(50-modda)**; qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lash **(51-modda)**; O'zbekiston Respublikasini himoya qilish, qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tash **(52-modda)**; ota-onalarning o'z farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqish va tarbiyalash **(64-modda)**; voyaga etgan, layoqatli farzandlarning o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilish **(66-modda)** kiradi. Bu normalarni to'g'ri amalga oshirilishi respublikada osoyishtalikni, bozor iqtisodiyotiga tinch o'tishni, demokratik printsiplar, fuqarolarning huquq va erkinliklarini to'la amalga oshirilishini ta'minlaydi.



### **13-Mavzu: O'zbekistonda jamiyat va shaxs munosabatlarining Konstitutsiyaviy asoslari. 2 soat.**

#### **Reja:**

- 1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining iqtisodiy negizlari.**
- 2. Mulk shakllari.**
- 3. Jamoat birlashmalari tushunchasi, tashkil etilish tamoyillari va tizimi.**
- 4. Oila va jamiyat. O'zbekiston Respublikasida oilaning muhofaza qilinishi.**
- 5. Ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi roli va konstitutsiyaviy maqomi.**

#### **1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining iqtisodiy negizlari.**

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, mulkchilik shakllari o'zgarishi bilan, insonning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari sohasida butunlay tub o'zgarishlar yasaldi.

Mamlakatimizda barpo etilayogan fuqarolik jamiyatida inson huquq va erkinliklari alohida e'tirof etilgan bo'lib, Konstitutsiyaning 36-39 moddalarida uning iqtisodiy huquqlari belgilanib, ular davlat tomonidan kafolatlanadi. Jumladan Konstitutsiyaning 36-moddasida "har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli" ekanligi, ya'ni har bir inson dunyoga kelishi bilan, ba'zi hollarda ona qornidaligidayoq ma'lum miqdorda mulk huquqiga ega bo'lishi va vafot etgunga qadar bu huquq uning mutloq huquqi ekanligi konstitutsiyaviy norma tarzida mustahkamlangan.

Insonning iqtisodiy huquqlari qonun hujjatlarida mustahkamlanib, mulkchilik munosabatlariga alohida e'tibor berildi. Shuning uchun mulkka bo'lgan huquq nafaqat Konstitutsiyaning 36, 53, 54-moddasida, balki Fuqarolik Kodeksida, "Mulkchilik to'g'risida"gi, "Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyalashtirish to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyatining erkinligi to'g'risida"gi qonunlar va boshqa qonun hujjatlarida ham o'z aksini topgan.

O'zbekiston Konstitutsiyasining "Jamiyatning iqtisodiy negizlari"ga bag'ishlangan XII bobining 53-moddasida mamlakat iqtisodiy asosini tashkil etuvchi "bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllaridagi mulk tashkil etishi, davlat iste'molchilarning huquqiy ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishi" kafolatlanishi to'g'risidagi konstitutsiyaviy norma belgilanib, u o'z o'rnida mamlakat iqtisodiy munosabatlarini tartibga soluvchi konstitutsiyaviy printsip hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli, ya'ni u biror bir nomoddiy, moddiy ne'matga egalik qilishi, undan foydalanishi va tasarruf qilishga haqli.

Ushbu qoida Asosiy qonunda belgilangan bo'lib, inson huquq va erkinliklarining uchinchi guruhi bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarga mansub qoidalarda ham o'z aksini topdi. "Eng asosiy ijtimoiy institut bo'lgan mulkka (asosan, xususiy mulkka) munosabatning o'zgarishi - deb ta'kidlaydi I.Karimov, butun jamiyatni va xususan, iqtisodiy hayotni demokratiyalashning bosh bo'g'ini bo'ldi. Jamiyatni siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yangilash asosan yangi mulkchilik munosabatlari orqali o'tadi".

O'zbekiston Respublikasida har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalash huquqiga ega. Har bir inson o'zi xohlagan ishda mehnat qiladi. Biror ishni qilishga hech kim majburlamaydi. Majburiy ishga jalb qilishga faqat qonunda ko'rsatilgan hollardagina yo'l qo'yiladi..

O'zbekiston Respublikasi va unda istiqomat qiluvchi barcha xalqlar bilan birgalikdagi umumiy manfaatlari mos keluvchi jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy islohotlarni amalga oshirish zarur edi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy nuqtalaridan biri bozor iqtisodiyotining huquqiy negizlarini yaratishdan iboratdir. Avvalboshdanoq biz o'zimiz uchun muhim saboq chiqarib, zarur huquqiy omilni shakllantirgan holda, tegishli qonunlar va me'yoriy hujjatlarni qabul qilib, islohatlarni amalga oshirishning ishonchli kafolati, islohatlar ortga chekinmasligining kafolati amalda ta'minlandi. Chunki "bizning bosh strategik maqsadimiz qat'iy va o'zgarmas bo'lib, bozor

iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat" dir.

Bozor iqtisodiyotini qaror toptirish yo`lida huquqiy jihatdan ko`p ishlar qilindi. Bozor munosabatlarini rivojlantirishga imkon beradigan Konstitutsiya normalari asosida yangi qonun hujjatlari majmui yaratilmoqda. Hozirgi vaqtda iqtisodiyot sohasiga tegishli bo`lgan, iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishning huquqiy negizini barpo etadigan asosiy qonun hujjatlari qabul qilinib, islohotlarning huquqiy negizini yaratish bir qancha muhim yo`nalishlar bo`yicha amalga oshirildi.

O`zbekistonning davlat mustaqilligi, iqtisodiy mustaqilligining huquqiy negizlarini yaratish, davlatni boshqarish qoidalarini tartibga soluvchi qonunlar qabul qilindi. Ana shu yo`nalish doirasida "O`zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining asoslari to`g`risida"gi Qonun, "Yer osti boyliklari to`g`risida"gi, "O`zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to`g`risida"gi, "Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida"gi, "Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida"gi va boshqa tarixiy ahamiyatga ega bo`lgan qonunlar qabul qilindi. Mazkur qonun hujjatlarining qabul qilinishi natijasida er, er osti boyliklari, tabiiy va mineral resurslar, yaratilgan ishlab chiqarish quvvati O`zbekiston xalqining ajralmas mulki ekanligi tan olindi. O`zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining moddiy asosi uning mulkidir.

1991 yil 19 noyabrda ijtimoiy yo`nalishga ega bo`lgan bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi davlat mulkini o`zgartirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilab beruvchi O`zbekiston Respublikasining "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to`g`risida"gi Qonuni qabul qilindi. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish orqali ikki muhim vazifani hal etish maqsad qilib olingan edi.

## **2. Mulk shakllari.**

Jamiyatning iqtisodiy mustaqilligini ta`minlash mamlakatimizda bozor munosabatlarini shakllantirish bilan chambarchas bog`liq edi. Zero, hech qaysi bir jamiyatni mulkchilik munosabatlarsiz tasavvur qilib bo`lmaydi.

Sobiq Ittifoq davrida mulk shakllarining asosiy va ko`p qismi faqat davlat qo`lida to`planib qolganligi respublikamizning iqtisodiy taraqqiyotiga to`sinqilik qilayotganligi aniq sezildi. Shu sababli mulkni davlat tassarrufidan chiqarish va xususiylashtirish yuzaga kelib, u asosiy muammolardan biriga aylanib qoldi.

Bozor iqtisodiyoti ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning eng murakkab va jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti uchun o`ta muhim omildir.

Jamiyat iqtisodiy tarraqqiyotining asosini tashkil etuvchi mulk - tabiat boyliklarini, ishlab chiqarish vositalarini hamda ishlab chiqarish faoliyati natijalarini muayyan shaxslar yoki ularning jamoalari tomonidan ijtimoiy o`zlashtirishga asoslangan shaxslar o`rtasidagi munosabatlar natijasi bo`lib, bunda biror mol-mulkning kimga tegishliligi aniq belgilab qo`yiladi. Biz yashayotgan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi ham mana shu mulk asosida, unga nisbatan mulk huquqining kimga tegishli ekanligi bilan belgilanadi.

Mamlakatimizda mulkiy munosabatlarni rivojlantirish mulkdorlar toifasini shakllantirish bo`yicha bir necha bosqichda islohotlar olib borildi. Chunki Sobiq Ittifoqda ma`muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti davlatning o`ta markazlashgan totalitar, byurokratik mulkka asoslangan, shaxslarda esa mulkka nisbatan xo`jasizlik, e`tiborsizlik hollari ko`payib, moddiy manfaat ko`rish omili cheklangan edi.

Endilikda esa ijtimoiy-siyosiy tuzum davlat boshqaruvi demokratik printsiplar va xalqaro huquqning umum e`tirof etilgan normalariga asoslanganligi tufayli mulkka bo`lgan e`tibor o`zgardi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasiga muvofiq "Har bir shaxs mulkdor bo`lishga haqli" bo`lib, unda xalqaro huquqning umum e`tirof etilgan normalardan biri hisoblangan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 17-moddasida belgilangan qoida o`z ifodasini topgan. Barcha shakldagi mulkning daxlsizligi va tengligi alohida e`tirof etildi.

Mamlakatimizda mulkchilikning hamma shakllari bab-baravar himoya qilinishi qonun bilan kafolatlanadi va ularning teng rivojlanishiga sharoit yaratib berilgan. Mulkning daxlsizligi shuni anglatadiki, mulkdorning mulkiy huquqlari qonun bilan kafolatlanadi va mulkdor bu huquqlardan faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda o`z mulkidan mahrum etilishi mumkin. Mulk

huquqi muddatsizdir. Ya'ni mulk egasi o'ziga tegishli bo'lgan mulkdan abadiy foydalanishi, o'zining mulk huquqini hohlagan vaqtda tasarruf qilishi mumkin. Chunki, mulk huquqi faqat mulkdorga tegishli bo'ladi.

Biroq, mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar etkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart. Shuning uchun har bir shaxs yaxshi anglab olishi kerakki, mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish insonga berilgan huquq sifatida qaralsa-da, o'z o'rnida mulk huquqi, mulkdorlik tuyg'usi ma'lum darajada mas'uliyatni ham yuklaydi. Ya'ni mulk bu nafaqat huquq, balki mas'uliyat hamdir.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, faoliyat ko'rsataetgan yuridik shaxslar hamda davlat mulk huquqining sub'ektlari bo'lishi mumkin.

Mulk huquqining ob'ektlari: yer, yer osti boyliklari, suvlar, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot do'nyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, ashyolar, shu jumladan binolar, kvartiralar, inshootlar, asbob uskunalar, xom ashyo va mahsulot, pul, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulk, shuningdek intellektual mulk ob'ektlari bo'ladi.

Davlat mulk shakllarini rivojlantirish uchun zarur huquqlarning tengligini ta'minlaydi va uning himoya qilinishini kafolatlaydi. Mulk shakllarini bunday turkumlashtirish uchun mulk sub'ekti maqomi va mol-mulk rejimini uzviy birligi muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasida xususiy va ommaviy mulk mustahkamlangan.

Xususiy mulk: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mulkchilikka bag'ishlangan normalar dastlabki yo'nalish beruvchi printsiplari bo'lganligi uchun mulkchilik to'g'risidagi bir butun kompleks qoidalar Fuqarolik kodeksi va "Mulkchilik to'g'risida"gi qonunida mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida "Xususiy mulk haqida ko'rsatilib, u boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida ekanligi hamda mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkdan mahrum etilishi mumkin" deb belgilangan. Xususiy mulkning Asosiy qonunda mustahkamlanishi, uning bozor munosabatlarida huquqiy tartibga solinishini belgilaydi, hamda uni boshqa mulk shakllari bilan teng sharoitlarda himoya qilinishini kafolatlaydi.

Ommaviy mulk: Ommaviy mulk tarkibiga quydagilar kiradi: O'zbekiston mulki; ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulki.

O'zbekiston Respublikasida mavjud bo'lgan mulk shakllarining asosiy turlaridan biri O'zbekiston Respublikasi davlat mulkidir.

O'zbekiston Respublikasi halqi davlat mulkining sub'ektidir. Mulkiy huquqni xalq nomidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va ular vakolat bergan davlat boshqaruvi organlari amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining mutloq mulkiga: yer (qonun hujatlarida nazarda tutilgan hollarda, tartibda va shartlarda mulk qilib berilgan yerlardan tashqari) yer osti boyliklari, ichki suvlar, jumhuriyat hududi doirasidagi havo havzasi, o'simlik va hayvonot dunyosidan iborat. O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va idora organlarining mol-mulki: respublika xalqlarining madaniy va tarixiy boyliklari: respublika budjetining mablag'lari, respublika va davlat ahamiyatidagi banklar, sug'urta zahira fondlari va boshqa davlat fondlari: davlat ahamiyatiga molik korxonalar, davlat oliy o'quv yurtlari, ijtimoiy-madaniy soha ob'ektlari hamda davlatning respublika istiqlolini va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlovchi boshqa mol-mulklar kiradi.

Shirkat (jamoat) mulki: Bunday mulk shakllari umumiylik xususiyatiga ega bo'lib, egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlariga ko'ra mol-mulk mulkdorlardan har birining mulk huquqidagi ulushi aniqlab qo'yilgan (ulushli mulk) yoki bunday ulushlar aniqlab qo'yilmagan (birgalikdagi mulk) holda umumiy mulk bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Mulkchilik to'g'risidagi qonunning 8-moddasida shirkat (jamoat) mulkining sub'ektlari va ob'ektlari ko'rsatilgan. Shirkat (jamoat) mulki oilaviy mulkni, mahalla mulkini, shuningdek, kooperativlarning, ijara, jamoat korxonalarining mulkini, jamoat tashkilotlari va diniy tashkilotlarning, turli xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining, assotsiatsiyalar va yuridik shaxs hisoblangan boshqa birlashmalarning mulkini o'z ichiga oladi. Kollektiv mulkning hosil bo'lishi va ko'payib borishi davlat korxonalarini ijaraga berish, davlat korxonalarini xo'jalik jamiyatlariga

aylantirish, fuqarolarning va yuridik shaxslarning mol-mulkini kooperativlar va boshqa xo'jalik jamiyatlari hamda shirkatlarni tuzish uchun ixtiyoriy birlashtirish bilan ta'minlanadi.

Shirkat mulkiga oilaviy mulk kiradi. Oila a'zolarining mulki oilaviy mulkdir. Bu mulk oila a'zolarining ehtiyojlarini qondirish, uy-ro'zg'or va yordamchi xo'jalikni yuritish uchun hamda daromad olish maqsadida qonunda ruxsat berilgan faoliyat uchun kerakli ishlab chiqarish vositalarini, is'temol buyumlarini, yaratilgan mahsulotlarni o'z ichiga oladi. Oilaviy mulk huquqi er-xotin va oiladagi boshqa a'zolarining birgalikdagi umumiy mulk huquqidan, shuningdek, ularning har biriga tegishli bo'lgan xususiy mulkdan iborat bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida mulkning yana bir shakli bu aralash mulk sanaladi. Mulkchilik to'g'risidagi qonunning 27-moddasiga muvofiq, "Mulkning aralash shakllari mulkdorlarning moddiy va pul mablag'larini birlashtirish yo'li bilan hosil qilinadi. Aralash mol-mulkka egalik qilish hissa qo'shib ishtirok etish printsipli asosida ham, shuningdek, o'z mablag'larini birlashtirgan mulkdorlar o'rtasida daromadlarni bir tekis taqsimlash va tomonlarning kelishuvi bilan ham amalga oshirilishi mumkin".

Undan tashqari, aralash mulkka qo'shma korxonalarining ham mulki kirishi mumkin. Mulkchilik to'g'risidagi qonunning 28-moddasiga muvofiq, "O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning yuridik hamda jismoniy shaxslari ishtirokidagi qo'shma korxonalar O'zbekiston Respublikasi hududida ho'jalik jamiyatlari va shirkatlari shaklida barpo etilib, ular ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish uchun zarur mol-mulkka egalik qilishlari mumkin".

O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning sub'ekti sifatida o'z hududida davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar yuridik va jismoniy shaxslarning mulki ham vujudga kelishiga yo'l qo'yadi va ularning teng muhofaza etilishini kafolatlaydi.

### **3. Jamoat birlashmalari tushunchasi, tashkil etilish tamoyillari va tizimi.**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobi "Jamoat birlashmalari" faoliyatining asosiy printsiplariga bag'ishlangan.

Siyosatda, iqtisodda, ijtimoiy rivojlanishda, fanda, madaniyatda, tabiatni muxofaza qilishda va boshqa jabhalarda ularning erkinligi va qiziqishlari qonunda himoya qilinadi. Jamoat birlashmalari madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy huquqlarda, fuqarolarning oldiga qo'ygan maqsadlarini himoya qilish uchun tashkil topadi hamda davlatni boshqaruvda qatnashish uchun, konstitutsiyaviy erkinliklarni rivojlantirish uchun davlat va jamiyat ishlarida o'z manfaatlarini himoya qilish uchun tuziladi.

O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan jamoat birlashmalari to'g'risidagi qonunning 18-moddasida jamoat birlashmalari mulki aniqlab berilgan.

Jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati ixtiyoriy, ular a'zolarining teng huquqliligi, qonuniylik va oshkoralik asosida tashkil topadi.

Jamoat birlashmalarining faoliyat ko'rsatishi quyidagi holatlarda yo'l qo'yilmaydi: axloq-odob qoidalarini buzilishiga olib kelsa, noqonuniy maqsadi bilan konstitutsiyaviy tuzumni o'zgartirishga; respublika hududi va birligini bo'lib tashlashga; Qoraqapog'iston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi aloqalarni buzish uchun tashviqot olib borsa; zo'rlik, vahshiylik, ijtimoiy kelishmovchilikni tashkillashtirish uchun tashviqotlar olib borishsa; turli, millatlar o'rtasida bir millatni yuqori qo'yish evaziga kelishmovchilik keltirib chiqarsa va jamiyatni bo'lib tashlash uchun dinga qarshi tashviqot olib borsa; xarbiylashtirilgan birlashmalarni tashkil qilish hamda, diniy partiya xarakterida bo'lgan boshqa davlat tuzilmasidagi diniy partiya filiallarini tuzish qonunchilikda qat'iyan man qilinadi. Shuningdek, jamoat birlashmalari demokratiyaga qarshi, davlat hokimiyati va boshqaruvida o'z vakillarini qonuniy qo'yish yo'li bilan hokimiyat vakolatiga ega bo'lib qonunlarni ma'naviy kuch bilan qabul qildirish va davlatning demokratik yo'lidan foydalanib, davlat hokimiyati va boshqaruvida o'z organlarini tashkil qilish qat'iyan man qilinadi.

Jamoat birlashmalarining tashkil topish faoliyat tamoyillari Konstitutsiyaning XIII bobi bo'limida mukammal yoritilgan.

O'z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat,

ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarni birgalikda ro`yyobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasidir.

Jamoat birlashmalari tizimiga quyidagilar kiradi:

- 1) *siyosiy partiyalar;*
- 2) *ommaviy harakatlar;*
- 3) *kasaba uyushmalari;*
- 4) *xotin-qizlar jamiyatlari;*
- 5) *yoshlar va bolalar tashkilotlari;*
- 6) *fahriylar va nogironlar tashkilotlari;*
- 7) *ilmiy-texnikaviy;*
- 8) *madaniy-ma'rifiy;*
- 9) *fizkultura-sport;*
- 10) *ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalari;*
- 11) *yurtdoshlar uyushmalari;*
- 12) *jamg'armalar, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari, jamoat birlashmalari.*

O'zbekistonda jamoat birlashmalarining quyidagi turlari mavjud:

- 1) xalqaro jamoat birlashmalari;
- 2) respublika jamoat birlashmalari;
- 3) mahalliy jamoat birlashmalari;
- 4) viloyat;
- 5) Toshkent shahar;
- 6) tuman;
- 7) shaharcha, qishloq;
- 8) viloyatlararo va tumanlararo jamoat birlashmalari.

Agar O'zbekiston Respublikasida tuzilgan jamoat birlashmasining faoliyati, nizomiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida va bitta yoki undan ortiq xorijiy davlatlar hududida amal qilsa, u xalqaro jamoat birlashmasi deb e'tirof etiladi.

#### **4. Oila va jamiyat. O'zbekiston Respublikasida oilaning muhofaza qilinishi.**

O'zbekistonda oila haqida g'amxo'rlik konstitutsiyaviy yo'l bilan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining uchinchi bo'lim XIV bobi "Oila" deb nomlanib, unga to'rt modda – 63-66-moddalar bag'ishlangan.

"Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega.

**Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi", deyiladi Konstitutsiyaning 63-moddasida.**

**O'zbekistonda 25 milliondan ortiq aholi yashaydi. Ayni paytda 4 million 800 mingga yaqin oila bo'lib, aholining 98 foizini ana shu oilalarning oila a'zolari tashkil etadi. Har yili 540-550 ming bola tug'ilmoqda.**

Aholini o'rta yoshi 70. Ayollar 72 yosh, erkaklar 68 yosh.

Mamlakatimizda 5 milliondan ortiq tug'ish yoshidagi ayollar mavjud. Yiliga o'rta hisobda 170 ming yosh oila vujudga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasida oilaga jamiyat va davlat g'amxo'rligi kun sayin oshib bormoqda. Chunki katta-kichik jilg'alar va irmoqlardan ulkan daryo hosil bo'lgani kabi, oilalar majmuidan jamiyat paydo bo'ladi. Muayyan jamiyatning hayot tizimi, ong yuksakligi mana shu oilalar majmuining darajasiga bog'liq. Shunday ekan, jamiyatni rivojlantirish uchun barcha diqqat-e'tibor, eng avvalo, oilaga qaratilmog'i lozim. Har bir oila a'zosining jamiyatni tushunishi, hayot, mehnat, qonun va huquqni qay darajada anglashi va unga rioya qilishi jamiyat ravnaqini belgilovchi muhim omildir.

Oilaning jamiyat tomonidan muhofaza qilinishi unga nisbatan g'amxo'rlikning yangi shakli

hisoblanib, bunga alohida e'tibor berish kerak.

Davlatning oila to'g'risidagi g'amxo'rlik katta hajmda uy-joy qurilishi, bolalar muassasalarining keng shahobchalarini barpo etish va rivojlantirish, maishiy xizmat, bola tug'ilganda nafaqa to'lash, ko'p bolali oilalarga nafaqalar va imtiyozlar berish, shuningdek, oilaga nafaqa va yordam berishning boshqa turlarini rivojlantirish orqali namoyon bo'lmoqda.

Davlat tomonidan oilaga kun sayin g'amxo'rlik qilish unga har taraflama moddiy yordam berish insonparvar demokratik huquqiy davlatning muhim vazifalaridan biridir. Respublikamiz Prezidentining "Ko'p bolali oilalarga nafaqa miqdorini ko'paytirish to'g'risida"gi 1990 yil birinchi farmoni oilaning davlat muhofazasida ekanligidan dalolatdir.

Unda ko'p bolali oilalarning moddiy ahvolini, yosh avlodning o'sish sharoitlarini yaxshilash maqsadida onalarga to'lanadigan oylik nafaqa ikki martaga ko'paytirildi. Mazkur farmon o'zbek xalqining bolajonlik tabiatini ko'rsatadi.

Keyingi yillarda ham Respublika Prezidentining oilaga aloqador bir qator farmonlari qabul qilindi.

Mustaqillik yillarida 2,5 million oila birinchi marta yer uchastkalari oldilar va o'z yer uchastkalarini kengaytirdilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 63-moddasining ikkinchi qismida "Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi" deyilgan. Zero, nikoh oila poydevoridir. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Oila kodeksi 1998 yil 39 aprel kuni birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n birinchi sessiyasida qabul qilindi va 1 sentabrda e'tiboran amalga kiritildi. Ushbu kodeks 8 bo'lim, 30 bob, 238 moddadan iborat.

Qonunlarimizda davlatimizning bolalar va farzandlar to'g'risidagi g'amxo'rlik siyosati aks etar ekan, o'z navbatida farzandlarning teng huquqli ekanligi ham o'rnatilgan.

Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Ota-onalarning fuqarolik holati qanday bo'lishidan qat'i nazar farzandlar qonun oldida tengdirlar. O'zbekistonda onalik va bolalikni himoya qilishga juda katta e'tibor berilmoqda. Onalik ayol kishining eng zo'r his-tuyg'ularidan biri va uning hayotidagi zo'r baxt, juda buyuk shodlik hisoblanadi. Davlat ko'p bolali, serfarzand oilalarga va bolali yolg'iz onalarga katta moddiy yordam bermoqda.

Bizda bolalarning huquq va manfaatlarini himoyalashga juda katta e'tibor berilib, bu yo'lda bir qancha tadbir va choralarda amalga oshirib kelinmoqda.

Ayni paytda Konstitutsiyada farzandlari voyaga etganlaridan so'ng ota-onalari oldida ma'lum majburiyatlarga ega ekanligi mustahkamlangan.

Voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

Voyaga etgan farzandlar o'z ota-onalari to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari lozim. Ular o'z ota-onalariga ma'naviy yordam berishga hamda ko'maklashishga majburdirlar. Ota-onalar turmushidan xabardor bo'lib, sihat-salomatligiga katta e'tibor berishlari kerak.

Bolalarning ota-onalari to'g'risida g'amxo'rlik qilish majburiyatlari ilgari ularning ahloqiy majburiyati bo'lib hisoblanadi. Mustaqil respublikamiz yangi Konstitutsiyasini qabul qilish bilan bolalarning bu majburiyati qonuniy konstitutsiyaviy majburiyatga aylanadi. Farzandlar ota-onalarini mehnatga layoqatsiz bo'lib qolganlarida, ayniqsa betob bo'lib qolganlarida ularga har xil yordam berishlari, ular nimaga muhtoj bo'lsalar, shularni muhayyo qilib turishlari lozim.

## **5. Ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi roli va konstitutsiyaviy maqomi.**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XV bobi, ommaviy axborot vositalariga bag'ishlangan. Bu bobda faqatgina bitta modda tushunchasida, bir-butun hokimiyatning to'rtinchi tizimida o'rin olishga intilayotgan, sohaning huquqiy maqomiga, qisqa, aniq barcha talablarga to'liq javob beradigan qoida mustahkamlangan: "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga

muvofig ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi".

Respublikamiz tarixida birinchi marta ommaviy axborot vositalarining erkinligi printsipli mustahkamlandi. O'zbekiston tarixida qabul qilingan birorta Konstitutsiyada ommaviy axborot vositalari to'g'risida, qoida belgilanmagan, chunki bu tabiiy bo'lib, sovet davlatchiligi davrida, oshkoralik va demokratiyani amalga oshirish xalqqa tegishli deb ko'rsatildi. Bu ko'zbo'yamachilik orasida ko'p millatli xalqlarni yagona markazga tobe qilib boyliklarni o'zlashtirish va o'zlarini "manqurtlarga" aylantirish maqsad qilib qo'yilgan edi: Misol uchun 1977 yil, 7 oktabrda SSSR Oliy Soveti tomonidan qabul qilingan SSSR Konstitutsiyasida, oshkoralik va demokratiya printsiplari haqida shunday deyiladi; "KPSS sotsialistik demokratiyani butun choralar bilan avj oldirish haqidagi lenincha g'oyalarni rivojlantira va boyita borib, davlat, xo'jalik va sotsial-madaniy qurilishda sovetlarning rolini oshirishga, ularning omma bilan kundalik aloqasini mustahkamlashga alohida e'tibor berilmoqda".

O'zbekiston ilk mustaqillik g'oyalari, bahor shabbodasi kabi esa boshlagan kunlardan, oshkoralik, demokratiya tamoyillarini, davlat va jamiyat hayotidan, kishilar ongida rivojlantirishda, davlat mexanizmi ya'ni davlat boshqaruvining bir bo'g'ini sifatida qabul qildi. Bu esa ommaviy axborot vositalari faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish uchun alohida qayd etish zarurki u vaqtda O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinmagan, mustaqillik to'g'risidagi qonun e'lon qilinmagan edi.

1991 yilda "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi maxsus qonun qabul qilindi.

Ushbu qonun asosida ommaviy axborot xodimlarining huquqlari birinchi marta, keng berilgan bo'lib, ular faoliyati 1989 yil 21 oktabrda qabul qilingan "Davlat tili haqida"gi qonun asosida tashkil etilishi quyidagicha belgilandi; "O'zbekiston SSRda chiqadigan kitoblar, gazeta va jurnallar, davriy xabarnomalar asosan davlat tilida nashr qilinadi. Shuningdek ehtiyojni hisobga olgan holda rus tili va boshqa tillarda ham nashr etiladi.

Televideniya ko'rsatuvlari va radio eshittirishlari asosan respublika davlat tilida olib boriladi". Bu qoidani O'zbekiston hududida o'rnatilishi, uning tarixida buyuk voqea bo'lib hisoblanadi. O'sha davrda bunday qonunlarni qabul qilinishi, O'zbekiston uchun yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin edi. Lekin shunga qaramasdan davlat va jamiyat rahbarlari O'zbekiston uchun, uning rivoji uchun eng muhim bo'lgan oshkoralik qoidalarini yaratib berdilar. Bu esa, o'z navbatida Respublikamizning mustaqilligi uchun kurash quroli sifatida o'z hissasini qo'shdi. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan kunlardan boshlab, oshkoralik va demokratiya tamoyillarini o'zining Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilab mustahkamlay boshladi.

1993 yil 3-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi, har yili 27 iyun kunini, O'zbekiston Respublikasi Matbuot va Ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni deb Qaror qabul qildi.

1996 yil 30 avgust kuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

Ushbu qonun asosida ommaviy axborot vositalari xodimlari va adabiyot-san'at ahlining o'z mehnatlariga bo'lgan huquqlari, xalqaro huquq normalari asosida "Mualliflik huquqi"ning har qanday shakllarida faoliyati davlat tomonidan tartibga solinib kafolatlanishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 24 aprel kuni; "Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun jurnalistning jurnalistik faoliyati bilan bog'liq holda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi, uning huquq va majburiyatlarini belgilaydi, unga huquqiy va ijtimoiy kafolatlar beradi, jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik choralarini belgilaydi. Shuningdek jurnalistdan xabarlar va materiallarni oldindan kelishib olishni, yoxud ularni butunlay nashrdan yo efirdan olib qolishni talab qilishga hech kimning haqi yo'qligi mustahkamlandi. Bu esa Konstitutsiyaviy qoidani jurnalistlar faoliyatiga tsenzuraga yo'l qo'yilmasligini ta'minlaydi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi jurnalistlarining, respublika hududida va uning tashqarisida faoliyat ko'rsatishlarini barcha tartib-qoidalari belgilab berildi. Faqat 1991 yil 14 iyunda O'zbekiston SSR davrida qabul qilingan, ularning asosiy qonuni endi talabga javob bermay qoldi.

## 14-Mavzu. Davlat tuzilishi va ma'muriy-hududiy bo'linish. 2 soat.

### Reja:

1. Ma'muriy-hududiy tuzilish tushunchasi va uning tamoyillari.
2. O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishining huquqiy asoslari.
3. O'zbekiston Respublikasi tarkibida suveren Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy holati.

### 1. Ma'muriy-hududiy tuzilish tushunchasi va uning tamoyillari.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasiga muvofiq u suveren demokratik respublika bo'lib, mustaqil davlat hisoblanadi. "Mustaqillik" esa Prezidentimiz I.A.Karimov iborasi bilan aytganda, avvalam bor "huquq" demakdir. Chunki davlatimizning hozirgi ma'muriy-hududiy chegarasida birinchi bor O'zbekiston xalqi o'z moddiy va ma'naviy boyliklaridan o'z hoxishicha, ya'ni o'zining Konstitutsiyasi va uning asosida qabul qilingan qonun hujjatlariga muvofiq ravishda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish imkoniyati – "huquqi" yuzaga keldi. Endilikda, biz va bizning xalqimiz hom ashyo etkazib beradigan chekka o'lkada emas, balki mustaqil ravishda o'z huquqimizni amalda tatbiq qila oladigan milliy suveren davlatda yashayotganimizni alohida takidlash joizdir.

Mustaqil milliy davlatchiligimiz, avvalambor daxlsiz yer kengliklariga ega bo'lishimiz, so'ngra, davlat tili sifatida – o'zbek tilini qabul qilishimiz, Prezidentlik institutini ta'sis etishimiz, ma'muriy-hududiy qismlarni o'z tariximizga suyangan holda – viloyat va tuman deb atashimiz hamda ularda hokimlik lavozimini o'rnatishimiz, xalqaro hamjamiyat tomonidan suveren davlat sifatida tan olinishimiz va albatta, o'z Konstitutsiyamizga ega bo'lishimizdadir.

Har bir mustaqil davlatning umumiy e'tirof etilgan asosiy belgilaridan biri – o'z chegarasi doirasidagi yagona ma'muriy hududiga ega bo'lishidir.

1991 yil 31 avgustda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq, navbatdan tashqari 6–sessiyasida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonunining 4 va 17-moddalariga binoan Respublikamiz davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasdir. Uning xalqi o'z xohish-irodasini erkin bildirmasdan turib, davlat chegarasi va hududining o'zgartirilishi mumkin emas. O'zbekiston tarkibida bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasining hududiy butunligi va mustaqilligi e'tirof etiladi. Ushbu huquqiy holat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomiga va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining 1991 yil 21 dekabrda imzolangan xalqaro shartnomasiga to'la ravishda mos tushadi.

*Davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi – har bir davlatni hududiy tashkillashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy tarkibiy qismi bo'lib, u davlat qurilishining umumiy masalalarini to'laqonli amalga oshirish uchun tashkiliy jihatdan ajratilgan davlat hududining qismlaridir.*

Davlatni hududiy jihatdan tashkilashtirish o'z maqsadi va vazifalariga ko'ra nafaqat ma'muriy-hududiy, balki:

*iqtisodiy-hududiy* (masalan, erkin savdo qiluvchi zonalar);

*harbiy-hududiy* (masalan, O'zbekistonda tashkil etilgan Toshkent, Markaziy, Shimoliy, Janubiy, Farbiy, Sharqiy harbiy okruglar);

*siyosiy-hududiy* (masalan, barqarorlikni saqlash va etnik masalalarni hal qilish uchun ajratiladigan mintaqalar);

*ekologik-hududiy* (masalan, Orol va Orol bo'yi ekologik inqiroz holatidagi alohida muhofozaga muhtoj bo'lgan er kengligining quruqlik qismi va suv akvatoriyasi) shakllarda namoyon bo'lishi mumkin.

Davlatning ma'muriy jihatdan ajratilgan ma'muriy-hududiy tuzilishi davlat bilan uning tarkibiy qismlari o'rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni hamda ushbu qismlarning har birini huquqiy holatiga doir masalalarni qamrab oladi. Shuning uchun ham rivojlanishning qanday bosqichida turmasin yoki davlat tuzilishining qanday shakllaridan iborat bo'lmasin har bir suveren



davlatning er kengliklarini ma'muriy-hududiy jihatdan ma'lum bir qismlarga ajratib olish juda katta siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hamda huquqiy ahamiyat kasb etadi.

Har bir davlatning maydoni, aholisining soni, milliy-etnik tarkibi, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi kabi omillarga ko'ra uning yer kengliklari ma'lum bir qismlarga ajratiladi. Bunday ma'muriy-hududiy qismlarga ajratish aksariyat hollarda davlatning markazdan turib ijtimoiy munosabatlarni samarali tartibga solish imkoni bo'lmagan tarzda amalga oshiriladi. Ajratilgan qismlar mexanik tarzda emas, balki biron bir maqsadni ko'zlab va ma'lum bir printsiplarga asoslangan holda bo'linadi. Shuning uchun ham Konstitutsiyamizning 4-bo'lim XVI bobi O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy "bo'linishi" emas, balki "tuzilishi" deb nomlandi.

Davlatning ma'muriy-hududiy bo'linishi davlat boshqaruvini osonlashtirish uchun, uning yer kengliklarini siyosiy nuqtai nazardan ma'lum bir qismlarga ajratib olish deb tushunish mumkin. Ma'muriy-hududiy tuzilish esa davlatning yer kengliklarini huquqiy davlat sub'ektlari, ya'ni mustaqil ijtimoiy-siyosiy qismlar tariqasida tashkillashtirilishidir.

"Tuzilish" degan yuridik atama "Bo'linish" degan atamaga nisbatan kengroq, huquqiy jihatdan esa mustaqilroq qismlarga ajratish desa bo'ladi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVI bobi "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi" deb nomlanib, u 1927, 1937, 1978 yillarda qabul qilingan O'zbekiston SSR Konstitutsiyalarida belgilangan huquqiy me'yorlardan tubdan farq qiladi. Masalan, yangi qomusimizda mahalliy boshqaruv organlari – viloyat, tuman va shahar hokimiyatlariga o'zlarining ma'muriy-hududiy bo'linmalarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni turli jihatlarini har tomonlama tartibga solishda katta vakolatlar berilgan.

Konstitutsiyaviy huquq nuqtai nazaridan qaraganda kelajakda ma'muriy-hududiy tuzilmalarda, yuqorida sanab o'tilgan vazifalarni amalga oshirish uchun qonun kuchiga ega bo'lgan huquqiy-me'yoriy hujjatlarni qabul qilish va albatta, ularni amalga oshirishning ta'sirchan mexanizmini yaratish talab qilinadi. Binobarin, ma'muriy-hududiy tuzilmalarda konstitutsiyaviy tamoyillarga asoslangan huquqiy boshqaruv funktsiyalarini tadbiq qilish uchun ular yetarli moliyaviy resurslarga ega bo'lishlari kerak. Buning uchun esa ularning moliyaviy jamg'armalarini shakllantiruvchi huquqiy manbalarini muntazam kengaytirib borishimiz zarurdir. Mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish idoralari Soliq kodeksi va unga asosan ishlab chiqilgan yoki ishlab chiqilayotgan normativ hujjatlarda barcha mahalliy soliqlardan tushadigan pul mablag'larining ma'lum bir qisminigina emas, balki umumdavlat soliqlarining ham anchagina qismini mahalliy budjetlarga yo'naltirilishi kerak bo'ladi. Natijada, davlat budjeti barcha daromadlarining 60 foizdan ko'proq qismini ma'muriy-hududiy tuzilmalarning budjetiga tushishini ta'minlash davlat siyosatida ham ko'zda tutilgan. Budjet harajatlarining ham xuddi shuncha qismini ushbu ma'muriy-hududiy tuzilmalarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasining viloyat, tuman, shahar, qishloq va ovullarida amalga oshiriladigan huquq doirasidagi vakolatlarni kengaytirilishi aholining kasbiy va ijtimoiy tarkibi manfaatlarini yanada chuqurroq ifodalash va atroflicha himoya qilishda nodavlat va jamoat tuzilmalarining mavqelarini oshirishga qaratilishi nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingach, sho'rolar davrida ommaviy tus olgan va sho'rolar tuzimini madh etuvchi joy nomlari bekor qilinib, aholi yashaydigan joylarning tarixiy nomlari tiklanmoqda yoki ularga yangi, o'z millatimizning urf-odatlarini va an'analarga xos bo'lgan nomlar berilmoqda.

## **2. O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishining huquqiy asoslari.**

O'zbekiston Konstitutsiyasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat (Konstitutsiyaning 68-moddasi).

Har bir davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishini ilmiy asosda tashkil qilmaslik uning xavfsizligiga, barqarorligiga va albatta, taraqqiyotiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Shuning uchun ham Prezidentimiz I.A.Karimov 1999-2000 yillarda bo'lib o'tgan viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi saylovchilari bilan uchrashuvlarida ma'muriy-hududiy tuzilishni to'g'ri tashkil etish, joylardagi vakillik va ijroiya hokimiyati organlarining huquqiy vakolatlarni

oshirish Konstitutsiyamizda belgilangan imperativ shartlarni amaliy tadbiq qilishga olib kelishini bir necha bor uqtirib o'tganlar. Konstitutsiyamiz me'yorlariga asoslangan holda O'zbekiston Respublikasi yer kengligini ma'muriy-hududiy qismlarga bo'linishi aholini davlat bilan yaqinlashuvida, fuqarolarni davlat va jamiyat qurilishidagi faolligini oshirishda, bozor iqtisodiyotini rivojlantirishda, aholining milliy-etnik huquqlarini tenglashtirishda va ularning xohish-irodalarini inobatga olishda xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilish tizimi hokimiyat va boshqaruv organlarining huquqiy holatiga, ularning huquq va majburiyatlarini ifoda etilishiga ko'ra tashkil etilgandir. Unda har bir ma'muriy-hududiy birlik xo'jalik yurgazishning o'ziga xos tomonlari, aholisining milliy va etnik tarkibi, soni, madaniyati, azaliy urf-odatlar va an'analari, ishlab chiqarish salohiyati va ijtimoiy qudratiga qarab ham ajratilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat. Respublika Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi tomonidan chop etilgan "O'zbekiston Respublikasi aholisi – 2000" nomli statistik to'plamga muvofiq 2000 yil 1 yanvarga kelib respublikamiz 1826 ta ma'muriy-hududiy qismlardan iborat. Ulardan 12 tasi viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasi, 182 tasi qishloq va shahar tumanlari, 55 tasi respublika va viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar, 120 tasi shaharchalar hamda 1456 tasi qishloq va ovullar fuqarolar yig'inidan iborat bo'lgan.

Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 30 sentabr "Shahar va tuman hokimliklari apparati tuzilishini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 26 ta viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar tuman bo'ysunuviga o'tkazildi va ularning soni 28 taga tushib qoldi. Tuman bo'ysunuvidagi shaharlarda shahar hokimligi lavozimlari qisqartirilib, ular tuman hokimligi qoshida faoliyat yurgazadigan bo'ldilar.

**Viloyat bo'ysunuvidagi shaharlarning huquqiy maqomidagi ushbu o'zgartirishlar davlat siyosatidan kelib chiqqan holda, mahalliy hokimiyatlarning ko'pgina vakolatlarini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralariga, xususan mahallalarga topshirish oqibatida yuz berdi.**

**O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponomik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risidagi qonunning 10-moddasiga ko'ra "... viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar turkumiga, qoida tariqasida, kamida 30 ming aholisi bo'lgan, muhim ma'muriy ahamiyat kasb etadigan, istiqbolli iqtisodiy va madaniy markazlar deb hisoblangan shaharlar kiritilishi mumkin". Shunisi e'tiborliki, qonunda shaharlarning huquqiy maqomini ko'tarish haqida huquqiy me'yorlar mavjud, ammo ularning maqomini tushirish haqida hech qanday me'yorlar berilmagan.**

**Yuqorida qayd etilgan Qonunning IV bobiga muvofiq "aholi punktlarini ma'lum bir turkumdan ikkinchi bir turkumga o'tkazish tegishli viloyat hokimlarining iltimosiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi". Ushbu holat haqidagi qarorlar, albatta, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasida e'lon qilinishi shart" (30-modda).**

**Davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi davlat qurilishining umumiy masalalarini to'laqonli amalga oshirish nuqtai nazaridan hududiy tashkillashtirish ekan, ularda davlat boshqaruvi markaziy davlat organlari → mahalliy hokimiyatlar → o'zini o'zi boshqarish organlari orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 68-moddasiga muvofiq ravishda ma'muriy-hududiy tuzilishga qishloq va ovullarning soni emas, ulardagi balki o'zini-o'zi boshqaruvchi qishloq va ovullarning fuqarolar yig'ini sonining keltirilishi to'g'ri bo'ladi. Chunki 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunning 5-moddasiga binoan ma'muriy-hududiy boshqarish vakolati qishloq va ovullarga emas, balki ulardagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining hududiy birliklariga topshirilgandir.**

**O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy qismlarini, ularning huquqiy maqomiga ko'ra 3 toifaga ajratib guruhlashtirish mumkin:**

1. *Yuqori toifadagi qismlar* – Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri;
2. *Oʻrta toifadagi qismlar* – qishloq va shahar tumanlari, viloyat boʻysunuvidagi shaharlar;
3. *Quyi toifadagi qismlar* – tuman boʻysunuvidagi shaharlar, shaharchalar, qishloq va ovullarning fuqarolar yigʻini.

*Yuqori toifadagi qismlar.* Davlat qurilishi shakliga koʻra Oʻzbekiston Respublikasi unitar davlatdir. Shuning uchun ham oʻziga xos alohida huquqiy maqomga ega boʻlgan Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri darajasidagi maqomga tenglashtirilgandir. Davlatning maʼmuriy-hududiy qismlari ijtimoiy hayotning hamma jabhalarini oʻz ichiga oladi. Milliy-etnik, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va siyosiy ahamiyatiga koʻra yuqori toifadagi qismlar bir-biriga yaqin turadi.

*Viloyatlar* eng yirik maʼmuriy-hududiy qismlardan boʻlib, Oʻzbekistonda ularning soni 12 ta. "Viloyat" atamasi "oblast" soʻzining sinonimi boʻlib, oblastdan koʻra maʼmuriy-hududiy tuzilishning aynan maʼnosini beradi. Chunki "oblast" nafaqat maʼmuriy birlikka nisbatan, balki tabiiy, iqtisodiy, harbiy birliklarga nisbatan ham qoʻllaniladi. "Viloyat" esa maʼlum bir hududga nisbatan qoʻllanilib, milliy qadriyatlarimizni hamda tariximizni toʻliq aks ettiruvchi atamadir. Mamlakatimiz viloyatlari ishlab chiqarish kuchlarining ahvoli, ularning joylanish xarakteri, transport va aloqa kommunikatsiyalarining rivojlanishi, joylardagi boshqaruvning tashkiliy tuzilishini aks ettiradi.

Oʻrta va quyi toifadagi maʼmuriy – hududiy qismlar viloyatlar tarkibiga kirib, muhim tashkiliy vazifalarni bajaradi. Ular davlat vakillik organlari va boshqaruv idoralari bilan aloqa bogʻlovchi yagona tizim hisoblanadi va mahalliy hokimiyatlarga rahbarlik qilishning hamda ularni vatanimiz manfaatlaridan kelib chiqqan holda birlashtirishni amalga oshiradi.

*Toshkent shahri.* Aholisining soni 2,3 million kishidan iborat boʻlib, unda 100 dan ziyod millat va elatlar yashaydi. Iqtisodiy salohiyati (mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 16%, sanoat mahsulotining 20%), fan va madaniyat oʻchogʻi (6 ta universitet va 23 ta institut), markaziy davlat boshqaruv idoralarining deyarli barchasi joylashganligi uchun ham poytaxt shahar huquqiy maqomiga koʻra viloyat darajasidadir. Uning tarkibida 11 ta shahar tumani va 445 ta oʻzini oʻzi boshqaradigan fuqarolar yigʻini – mahallalar mavjud.

*Oʻrta toifadagi qismlardagi* maʼmuriy-hududiy birliklarning boshqaruvida ham mahalliy hokimiyatlar oʻz tuzilmasiga ega boʻlib, ularning tarkibida oʻzini oʻzi boshqaruv idoralari faoliyat yurgizadilar. 2001 yil 1 martga kelib Oʻzbekistonda 164 qishloq va 19 ta shahar tumanlari mavjud boʻlgan.

*Tuman* – temuriylar davrida qoʻllanilgan turkiy ibora boʻlib, 10 ming va undan ortiq askar etkazib berish imkoniyatiga ega boʻlgan maʼmuriy-hududiy qismlar tushiniladi. Tumanlar joylardagi ijtimoiy, iqtisodiy, xoʻjalik va madaniy masalalarni hal qilishga bevosita rahbarlik qiladigan boʻgʻinlardir. Mamlakatimizda maʼmuriy-hududiy oʻzgarishlar avvalom bor qishloq tumanlari chegarasining oʻzgarishi bilan amalga oshiriladi.

*Viloyatlar boʻysinuvidagi shaharlar.* Umuman shaharlar aholi manzilgohlari boʻlib, u boshqa maʼmuriy – hududiy boʻlinmalarga nisbatan yaxlitligi, sanoat va xizmat koʻrsatish sohasining agrar sohaga nisbatan ustun turishi bilan ajralib turadi. Qonun boʻyicha 30 ming kishidan koʻp aholisi boʻlgan bunday ijtimoiy-iqtisodiy shaharlar oʻz huquqiy maqomiga koʻra ikki guruhga ajratiladi: 1) viloyat markazlari hisoblangan shaharlar; 2) viloyat boʻysinuvidagi shaharlar. Ulardagi boshqaruv idoralarining tuzilishi va tarkibi bir-biridan farq qiladi.

*Quyi toifadagi qismlarga* oʻz mahalliy hokimiyatlariga ega boʻlmagan va asosan, mahalliy oʻzini oʻzi boshqaruv idoralari orqali ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan maʼmuriy-hududiy boʻlinmalar kiradi.

*Tuman boʻysinuvidagi shaharlarga* sanoat korxonalari, kommunal xoʻjalik, uy-joy jamgʻarmasi, ijtimoiy va madaniy muassasalari, savdo va maishiy xizmat koʻrsatish

korxonalari mavjud bo'lgan, aholisi 7 ming kishidan kam bo'lmagan va ularning aksariyati noqishloq xo'jaligi tarmoqlarida band bo'lgan aholi punktlari kiradi. Ushbu huquqiy maqomga ega bo'lish uchun aholi punkti ma'muriy ahamiyat kasb etishi va istiqbolli yo'nalishlari ham bo'lishi talab etiladi. Ularning soni 2001 yilga kelib 91 taga etgan.

*Shaharchalar.* Aholisining soni 2 000 kishidan kam bo'lmagan sanoat korxonalari, qurilishlar, temir yo'l stantsiyalari va boshqa muhim ob'ektlar yaqinida joylashgan aholi punktlari kiradi. Ularning soni birmuncha kamayib Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 30 sentabrda 459-sonli qaroriga muvofiq 113 tadan 108 taga tushib qolgan.

*Qishloq va ovullarning* shaharchalardan farqi ular yashovchi aholi sonining eng kam miqdori belgilanmaganligi va mehnatga qobiliyatli kishilarning aksariyat qismi qishloq xo'jaligi bilan band bo'lganligidadir. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyati aholi punktlarining aksariyati "ovul" deb nomlansa, qolgan viloyatlarda "qishloq" deb yuritiladi. O'zbekistonda 11,8 mingdan ortiq qishloq va ovullar 1451 o'zini o'zi boshqaruvi fuqarolar yig'inlariga birlashtirilgan.

#### **4. O'zbekiston Respublikasi tarkibida suveren Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy holati.**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVII bobi "Qoraqalpog'iston Respublikasi" deb nomlangan. Mazkur bob 6 moddadan iborat bo'lib, "Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi va Qoraqalpog'iston Respublikasining suvereniteti O'zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi" deyiladi. Asosiy qonunning 70-moddasi 1992 yil 9 yanvarda Qoraqalpog'iston Respublikasi tashkil topganligini va 1993 yil 9 aprelda qabul qilingan Asosiy Qonuni bilan uning O'zbekiston Respublikasi tarkibida suverenligini tasdiqlaydi. Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun xalq bayrami deb e'lon qilindi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining I bobi "Davlat suvereniteti" deb nomlanib, uning 1-moddasida Qoraqalpog'iston - O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi suveren demokratik respublikadir, deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 71-moddasida, Qoraqalpog'iston Respublikasining o'z Konstitutsiyasiga ega bo'lishligi, uning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid bo'lmasligi ko'rsatilgan. Shuni ta'kidlash joizki Sobiq Ittifoq davrida Avtonom Respublikalarning Konstitutsiyalari ular qaysi Respublikalar tarkibiga kiritilgan bo'lsa o'sha davlat hokimiyatining oliy organlari tomonidan tasdiqlanishi shart edi. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritib bu adolatsizlikka chek qo'ydi. Qoraqalpog'iston suveren Respublikasi bilan mustaqil O'zbekiston Respublikasining bir-butun yaxlitligi mustahkamlangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 70-moddasining 15-bandida "O'zbekiston Respublikasining Oliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hujjatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaga muvofiqligi haqida O'zbekiston Konstitutsiyaviy sudiga taklif kiritish" huquqi belgilangan. 81-moddasida esa Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisining vakolatlari jumlasiga, "O'zbekiston Respublikasi qonunlarini va Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va boshqa hujjatlarini turmushga tatbiq etishni tashkil qiladi" deyilgan.

Ushbu konstitutsiyaviy normalardan xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga zid kelsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari amalda bo'ladi. Qoraqalpog'iston Respublikasida O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyalari va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. O'zbekiston fuqarolari uchun majburiy bo'lgan qonunlar uning tarkibiga kiruvchi Qoraqalpog'iston hududida ham majburiydir.

Qoraqalpog'iston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishini uning o'zi ko'rib chiqadi, davlat hokimiyati organlari va boshqaruv tizimini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatiga mos holda o'z siyosatini yurgizadi. Qoraqalpog'iston Respublikasining hududi bo'linmas

va daxlsizdir.

Qoraqalpog'istonda davlat tili - qoraqalpoq va o'zbek tillardir. Ayni vaqtda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida iste'qomat qiluvchi barcha millat va ellatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishi ta'minlanadi ularning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratib beriladi va suveren Respublikaning davlat ramzlari hurmat qilinadi, va davlatning xalq irodasini ifoda etishi, xalq manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida javobgar ekanligi qayd etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 74-moddasi g'oyat muhim siyosiy mazmun kasb etadi. Unda O'zbekiston tarkibidagi Qoraqalpog'istonning chinakam suverenligini tasdiqlovchi qoida mustahkamlangan: "Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqining umumiy referendum asosida ajralib chiqish huquqiga ega". Bu konstitutsiyaviy norma Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 9-moddasida: "Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga, ya'ni referendumga qo'yiladi. Referendum o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi" deb mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 75-moddasida va Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasining 2-bandida mustahkamlangan bo'lib, unda jumladan shunday deyiladi: O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida va ular o'rtasida tuzilgan shartnomalar va bitimlar orqali" tartibga solinadi. SHuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat huquqi O'zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlanishi har ikkala suveren davlatlarni Konstitutsiyalarida belgilangan.

Hozirgi kunda dolzarb bo'lib turgan masalalardan biri- O'zbekiston bilan Qoraqalpog'iston Respublikalari o'rtasidagi turli sohalarida ayniqsa iqtisodiy masalalarda o'zaro munosabatlarni keng tarmoqli rivojlantirishga erishishdir.

O'zbek xalqi bilan qoraqalpoq xalqi azaldan do'st, birodar, qon-qarindosh va muruvatlidir. Ularning ma'naviyat birligi va xo'jalik yuritish usul va shakllarining yakdilligi, har ikki xalq o'rtasida qardoshlik rishtalarini yanada mustahkamladi va bu holat o'zining konstitutsiyaviy ifodasini topdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 21-moddasining 3-bandida Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi, 68-moddasida esa Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasining ma'muriy, hududiy birliklari qatoriga kiritilishi, bu ikki xalq deb hisoblangan bir millat ekanligini mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aniq belgilab qo'yilgan: "Qoraqalpog'iston suveren Respublika." - O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'lgan unitar davlatdir. SHu bilan birga yana ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasining tuzilishida federalizmga xos belgilar mavjud bo'lib, ular Qoraqalpog'iston Respublikasi suverenitetga ega ekanligida ko'rinadi.

Ularga quyidagilar kiradi:

a) O'zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasining o'z hududi va aholisiga ega bo'lgan alohida davlat huquqiy tizim sifatida konstitutsiyaviy mustahkamlanishi;

b) O'zbekiston qonunchilik tizimida Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunchilik aktlarining mustaqil tizimi, shu jumladan alohida normativ akt bo'lgan Qoraqalpog'iston Konstitutsiyasining mavjudligi;

v) Qoraqalpog'iston mustaqil faoliyat ko'rsatadigan davlatning huquqiy institutlari tuzilmasi; Juqorg'i Kenges, ministrlar soveti, Oliy sud, Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi, Xo'jalik sudi va boshqalarning ish olib borishi;

g) Qoraqalpog'iston Respublikasi chegaralari va hududi daxlsizligi;

d) Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zining ma'muriy-hududiy qurilishi masalalarini mustaqil hal qilish huquqi, mahalliy soliqlar va yig'imglar miqdori belgilashi, respublika budjetini mustaqil qabul qilish huquqi;

e) Qoraqalpog'istonning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan referendum asosida chiqib ketish huquqi;

j) O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlarini

shartnoma va bitimlar yordamida tartibga solib turish;

z) Qoraqalpog'iston Respublikasining o'z davlat ramzlari; bayroq, madxiya, gerbiga ega ekanligi;

Oxirgi ikki suverenlik belgisi odatda mustaqil davlatlarga xosdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi suvereniteti O'zbekiston Respublikasi tomonidan ta'minlanadi degan holat O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalari Konstitutsiyalarining moddalariga binoan izohlanishi lozim. Fuqarolarning huquq va erkinliklariga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston suverenitetini O'zbekiston Respublikasi tomonidan himoya qilish omillari quyidagilarni tashkil etadi:

- 1) Qoraqalpog'iston Respublikasining mustaqil huquq va vakolatlarini O'zbekiston Konstitutsiyasida qayd etilishi;
- 2) O'zbekiston Davlat hokimiyatining oliy organlari: Oliy Majlisda, Vazirlar Mahkamasida, Konstitutsiyaviy, Oliy va Oliy xo'jalik sudlarida Qoraqalpog'iston vakilligining mavjudligi;
- 3) Hududiy ustivorlik tamoyili, unga binoan Qoraqalpog'iston hududiy tuzilishining roziligisiz o'zgartirilishi mumkin emasligi;
- 4) Qoraqalpog'istonning O'zbekiston tarkibidan chiqish masalasi bo'yicha referendum o'tkazish huquqi;
- 5) Qoraqalpog'iston tiliga davlat tili maqomini berilganligi;
- 6) Qoraqalpog'iston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tashqi, iqtisodiy, madaniy, ilmiy va boshqa aloqalar o'rnatish huquqi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan konstitutsiyaviy normalar Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasining tarkibiga o'z xohishi bilan kiruvchi va muhofaza qilinuvchi suveren davlat ekanligi mustahkamlangan.

## **15-mavzu: Saylov tizimi va saylov huquqi tushunchasi**

### **Reja:**

- 1. Saylov huquqi – fuqarolarning siyosiy huquqi sifatida**
- 2. Saylov huquqininng konstitutsiyaviy asoslari**
- 3. Saylov huquqi tamoyillari**
- 4. Saylov tizimi**
- 5. Saylov jarayoni va saylov organlari**

### **1. Saylov huquqi - fuqarolarning siyosiy huquqi sifatida**

Davlat hokimiyati organlarini shakllanishida birlamchi omil hisoblangan saylov usuli orqali, hokimiyat tizimini vujudga keltirish va rivojlantirish qonuniyatlari, ularning tadrijiy o'zgarishi va tashkiliy-huquqiy asoslarini o'rganish olimlarning asosiy diqqat markazida bo'lib kelgan. Yangicha jamiyatni shakllantirish yangicha tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Yaxshi bilamizki, demokratiya, demokratik jamiyatning bosh talabi –bu odamlarning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etish, saylash va saylanish huquqini ta'minlashdan iborat. Eng muhimi, saylovlar xalqimizni parokanda va bir-biriga qarshi qilishga emas, balki elu yurt manfaati yo'lida yanada birlashtirishga xizmat qilishi zarur"

Har qanday jamiyatda demokratik saylovlar taraqqiyotga yangi kuch beruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda yangicha saylovlarni o'tkazilishi o'ziga xos bo'lgan davrga to'g'ri kelmoqda. Ya'ni, bu – tubdan yangicha, mustaqil o'zbek davlatchiligi paydo bo'lgan va rivojlanayotgan, asosiy e'tibor xalq farovonligi, osoyishtaligini ta'minlashga qaratilgan, erkin fuqarolik jamiyati yaratilayotgan davrdir. Shunisi diqqatga sazovorki, bu davr O'zbekistonda o'ziga xos sharq va g'arb demokratiyasi tajribalari uyg'unlashgan demokratik jarayon shakllangani bilan ajralib turadi. Bunda sharq demokratiyasidagi insonni ulug'vor bilish, real shart-sharoitdan kelib chiqib harakat qilish, mas'uliyat his etish va fidoiylilik ko'rsatish kabi qadriyatlar, g'arb demokratiyasining oshkoralik, o'z-o'zini tanqid qilish, tadbirkorlik singari jixatlari ko'zga tashlanadi.

Saylov huquqi haqida gap ketganda odatda uni aspektlarini ikkiga ajratishadi: ya'ni bular obyektiv saylov huquqi va subyektiv saylov huquqi. Bulardan birinchisi - saylov huquqi normalari tizimi ya'ni asosini tashkil qiluvchi prinsiplari, tizimlari, tartibi, jaryoni va saylovni tashkil qilish va boshqalarni o'z ichiga qamrab oladi. Ikkinchisi - davlat tomonidan ma'lum bir shaxsni saylovda qatnashishini (passiv saylov huquqi yoki aktiv saylov huquqi) ta'minlanishini kafolatlanishidir.

Saylov huquqi eng muhim siyosiy huquqlardan biri bo'lib, u fuqarolarga nafaqat vakillik organlarini tashkil etish, balki bunday organlarga o'z vakillarini yuborish imkoniyatini ham beradi. Fuqarolar tomonidan ularning saylov huquqlarining hech qanday to'siqsiz amalga oshirilishi ularning davlat boshqaruvida ishtirokining eng muhim shakllaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bu huquq fuqarolarning referendumlarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida va hokimiyatning vakillik organlari saylovida qatnashishi orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasining 33-moddasida shunday deyiladi: “Fuqarolar oʻz ijtimoiy faolliklarini Oʻzbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yigʻilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridagina bunday tadbirlar oʻtkazilishini toʻxtatish yoki taqiqlash huquqiga ega”.

Demak, fuqarolar oʻz siyosiy huquqlarini amalga oshirar ekanlar albatta qonunlarga soʻzsiz rioya etishlari, shu asosda oʻz huquqlarini joylarda amalga oshirishlari mumkin. Fuqarolarning siyosiy huquqlarini davlat tomonidan cheklanishi, faqatgina qonunlar doirasidan chetga chiqish holatlari kuzatilgan vaqtda amalga oshiriladi.

Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas. Bu tamoyil Konstitutsiyamizning 34-moddasida oʻz aksini topgan. Bundan shu narsa koʻrinib turibdiki, har bir fuqaro hohlagan jamoat birlashmalariga aʼzo boʻlishligi va undan xohlagan vaqtda chiqib ketishlari mumkin.

## **2. Saylov huquqining konstitutsiyaviy asoslari**

Demokratik davlatning hokimiyat idoralarini shakllantirishda saylov muhim ahamiyatga ega. “Saylov” oʻz mazmuniga koʻra biron-bir organni (davlat, jamoatchilik, halqaro va hokazolar) ovoz berish yoʻli bilan shakllantirish demakdir. Saylov oʻzining mohiyatiga koʻra shunday demokratik jarayonki, unda xalq hamda uning vakillari qonunda belgilangan tartibda hokimiyatni boshqarishga kimni qoʻyish yoki chetlatish masalasini oʻzi mustaqil hal etadi. Albatta, nodemokratik davlatlarda ham saylovlar oʻtkaziladi, lekin odatda formal xarakterga ega boʻladi. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 2-moddasiga koʻra “davlatning asosiy hokimiyati bu halqning irodasidir.”

Saylov huquqi fuqarolarning oʻz siyosiy huquqlarini amalga oshirishda yaqindan yordam beruvchi siyosiy holatdir. Saylov jarayonlarida yuzaga keladigan turli xil munosabatlarni tartibga solishda saylov huquqidan foydalanamiz. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasida: “Oʻzbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar” deb koʻrsatib oʻtilgan.

Aktiv saylov huquqi, yaʼni saylash huquqi bevosita demokratiyaning bir koʻrinishi boʻlib, u har bir fuqaroning davlatni boshqarishda oʻz vakillarini saylash bilan ishtirok etishini koʻzda tutadi. Bu huquqqa qonunda belgilangan maʼlum yoshga yetgan, muomalaga layoqatli mamlakat fuqarolari ega boʻladilar. Oʻzbekistonda saylash huquqiga Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasi 2-bandiga binoan 18 yoshga yetgan barcha Oʻzbekiston fuqarolari egadirlar.

Yosh chegarasi turli mamlakatlarda turlicha belgilanishi mumkin. Masalan, Malayziya, Marokash, Boliviya fuqarolar 21 yoshga toʻlganidan keyingina saylash huquqiga ega boʻlishadi. Rossiyada 2002 yil 20 dekabrda qabul qilingan Qonunga koʻra saylov kunigacha 18 yoshga toʻlgan Rossiya fuqarosi saylash huquqiga ega. Fransiyada ham saylov huquqiga ega boʻlish uchun belgilangan yosh 1974 yil 5 iyuldagi qonun bilan 18 yosh qilib belgilangan.

Fuqarolik senzi barcha davlatlarda odatiy shartga aylangan boʻlsa-da, baʼzi hollarda bunday senzning yoʻqolib ketishini ham kuzatish mumkin. Masalan, oʻziga xos tuzilma boʻlgan Yevropa Ittifoqining Parlamentiga saylovlar paytida Fransiyada boʻlgan Germaniya fuqarosi Fransiyaning Yevropa Ittifoqi Parlamentiga vakili uchun ovoz berish huquqiga ega. Bu qoida Yevropa Ittifoqiga asos solgan 1992 yilgi Maastricht Shartnomasida koʻzda tutilgan.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganlar, ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotganlar saylash huquqidan foydalana olmaydilar yaʼni, ozodlikdan mahrum qilish



joylarida saqlanayotganlarning saylash huquqi vaqtincha to'xtatiladi.

Passiv saylov huquqi, ya'ni saylanish huquqiga ham ma'lum yoshga yetgan, muomalaga layoqatli fuqarolar ega bo'ladilar. Turli davlatlarda ma'lum davlat organlariga saylanish uchun belgilangan yosh chegarasi turlicha bo'lishi mumkin.

Aktiv saylov, ya'ni saylash huquqidagi yosh senzi ma'lum davlatlarda aholining barcha qatlami uchun bir xil belgilansa, passiv saylov huquqida yosh senzi nomzodning qaysi organga saylanayotganligiga qarab turlicha belgilanishi mumkin. O'zbekistonda fuqarolar Mahalliy Kengash deputatligiga saylanish huquqiga ega bo'lish uchun 21 yoshga, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligi va Senatiga saylanish uchun 25 yoshga, Respublika Prezidentligiga saylanish uchun esa 35 yoshga yetgan bo'lishi kerak.

Saylanish huquqiga ega bo'lish uchun yana boshqa shartlar ham qo'yilishi mumkin. Masalan, Yevropa Parlamentiga nomzodi qo'yilgan fransuz fuqarosidan 1500 yevro garov summasi talab qilinadi. O'zbekiston Respublikasida Prezident bo'lib saylanish uchun nomzod O'zbekistonda kamida oxirgi 10 yil ichida doimiy yashagan bo'lishi va davlat tilini yaxshi bilishi kerak. Oliy Majlisning quyi va yuqori palatalariga deputatlikka saylanish uchun nomzod kamida so'nggi besh yilda O'zbekistonda doimiy yashagan, qasddan sodir etgan jinoyatlari uchun avval sudlanmagan bo'lishi kerak.

Ko'pchilik mamlakatlarda saylovlar to'g'ri va egri ko'rinishlarga bo'linadi.

To'g'ridan-to'g'ri ovoz berish nomzodlarga ovoz berishning eng ko'p tarqalgan saylov turi hisoblanadi. To'g'ri saylovlarda saylovchi va nomzod o'rtasida hech qanday oraliq instansiya mavjud bo'lmay, saylovchining hohish irodasi bevosita ifodalanadi. Bu holatda saylov huquqiga ega bo'lgan fuqaro saylanish asosida ega bo'linadigan lavozimga qo'yilgan nomzodga bevosita ovoz beradi. To'g'ri, saylovlar jahonning ko'pchilik mamlakatlari parlamentining quyi palatalariga va barcha mamlakatlar prezidentligiga bo'ladigan saylovlarda qo'llaniladi.

To'g'ri saylovlar mamlakatimizda Prezidentlikka, Oliy Majlisning quyi palatasi – Qonunchilik palatasi deputatligiga va halq deputatlari viloyat, tuman hamda shahar kengashlari deputatligiga bo'ladigan saylovlarda qo'llanilib, bunda fuqarolar va nomzodlar o'rtasida hech qanday oraliq instansiya mavjud emas.

Egri saylovlar, odatda ko'p bosqichli bo'lib, bunda saylov huquqiga ega bo'lgan fuqaroning xohish irodasi maxsus shaxslar – "Saylovchilar" yoki maxsus organlar vositasida ifodalanadi. Egri saylovlarda fuqarolar nomzodga emas, balki maxsus shaxslar yoki organlarga ovoz beradilar, ular esa o'z navbatida muayyan lavozimga qo'yilgan nomzodni saylaydilar. Bu saylov usuli qator mamlakatlar parlamentining yuqori palatasiga bo'lgan saylovlarda ham qo'llaniladi (Fransiya, Xindiston, Malayziya va boshqalar). Egri saylovlar AQSH va Argentina prezidentligiga bo'ladigan saylovlarda qo'llanilib, prezidentlik saylovida bu usulni qo'llanilishining xarakterli jihati shundaki, saylovchi va nomzod o'rtasidagi oraliq instansiya – maxsus shaxslarning shaxsiy sifatleri emas, balki partiyaviy mansubligi juda katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida Oliy Majlisning yuqori palatasi – Senat a'ziligiga nomzodlar o'z lavozimlariga egri saylovlar orqali erishadilar, ya'ni Senat a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda - olti kishidan saylanadi. Senatga saylov Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi.

Saylovlarni o'tkazish jarayonida xorijiy hamda milliy kuzatuvchilarning hozir bo'lishi saylov o'tkaziladigan davlat uchun saylov jarayonining obro'sini oshiradi. Bunday kuzatuvchilar saylov jarayoniga aralashmagan holda ma'lum davlatda fuqarolar saylov huquqlarining amalga oshirishlari uchun qay darajada sharoit yaratilganligiga va shuning natijasi o'laroq mamlakatdagi

demokratik jarayonning qanday kechayotganligiga baho beradilar.

Yurtimizda bu boradagi islohotlarning qay darajada borayotganligini 2002 yil 27 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi referendumida ishtirok etib, referendum jarayonini bevosita kuzatgan xalqaro kuzatuvchilar Referendum kelgusida O'zbekistonning xalqaro aloqalarini kuchaytirishda hamda qonunchilikni mustahkamlashda muhim omil bo'ladi degan mulohazalaridan ham bilib olish mumkin.

### **3. Saylov huquqi tamoyillari**

Saylov huquqi tamoyillari – bu saylov qonunchiligining shakllanish jarayoni, rivojlanishi va harakatlanishining rahbariy g'oyasi, yetakchi mezonidir.

Respublikamizda saylov huquqining asosiy tamoyillari bo'lib bevosita konstitutsiyada belgilangan umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri va yashirin ovoz berish hisoblanadi. Mazkur tamoyillar qonunchiligimizda o'z aksini topgan bo'lib, ularning amalga oshirilishini huquqiy mexanizmlari mamlakatimizda fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita va o'z vakillari orqali ishtirok etish imkoniyatini yaratishga qaratilganidir.

Umumiy saylov huquqi tamoyilida ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqei, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabatidan qat'iy-nazar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bevosita 18 yoshga to'lganda saylash huquqiga egadirlar. Ayrim fuqarolar sud tomonidan muomolaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas. Chunki bunday shaxslar o'z xatti-harakatlari to'g'risida o'zlariga hisob bera olmaydilar va saylovlarda qatnashish huquqidan ongli ravishda foydalana olmaydilar. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va O'zbekiston hududida yashovchi ajnabiy fuqarolar saylovlarda qatnashish va vakillik organlariga saylanish huquqiga ega emaslar.

Teng saylov huquqi tamoyilida har bir fuqaro-saylovchi bir ovozga ega bo'lishi tushuniladi. Saylovda hamma teng asoslarda qatnashadi. Har bir saylovchi ovoz berish uchun faqat bitta ro'yxatga kiritiladi. Saylovda har bir mandat uchun saylovchilar soni teng asosda bo'linadi. Chunki, har bir okrugdan bitta deputat saylanadi. Saylovda barcha saylovchilarning teng asosda qatnashuvi saylov okruglarining ularda yashovchi fuqarolar soniga teng qilib tashkil etilishi bilan ham ta'minlanadi. Siyosiy partiya va tashabbuskor guruhlariga saylov oldi tashviqot yuritishi teng asosda tashkil etiladi.

To'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi tamoyili bevosita saylovchilar tomonidan saylanadigan nomzodga ovoz berish tushuniladi, bunda saylovchi va nomzod o'rtasida hech qanday vositachilikka yo'l qo'yilmaydi. Fuqarolar o'z erki-irodasini bevosita o'zlari ifodalashlari qonunchiligimiz bilan kafolatlanadi. Saylovchilar o'z nomzodlariga saylov vaqtida bevosita yoki qarshi ovoz berishlari mumkin. To'g'ridan-to'g'ri saylov huquqining ijobiy taraflaridan biri, saylov tartibida davlat hokimiyatining hamma saylanadigan organlari bevosita xalq tomonidan tashkil etilgan vakillik organlarini hisoblanadi. Yashirin ovoz berish tamoyili - saylovchining o'z hohish irodasini bildirish ustidan nazorat qilishga yo'l qo'yilmaydi. Saylov bulleteni ovoz beruvchi tomonidan yashirin ovoz berish xonasida to'ldiriladi. Saylov bulletinini to'ldirish vaqtida ovoz beruvchidan boshqa barcha shaxslarni hozir bo'lishi taqiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senat a'zolari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar saylanganidan so'ng bir oy ichida ular orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadilar.

Har qanday mamlakatda mavjud saylov tizimi bir-biriga zid bo'lmagan tamoyillar va aniq talablar asosida qurilishi lozim. Saylov tizimi tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Saylov tizimining konstitutsiyaga muvofiqligi;
- Davlat hokimiyatining qonuniyligi;

- Saylov tizimi talabalari va vazifalarining huquqiy ta'minlanganligi;
- Demokratizm;
- Saylov tizimining barqarorligi;
- Saylov tizimining xalqchilligi;
- Saylov tizimining uyushganligi;
- Saylov tizimining tejamli bo'lishli;
- Ovoz berishning va saylanishning ziddiyatsiz, uning natijalarini olish uchun huquqiy kafolat yaratilganligi;

#### **4. Saylov tizimi**

Saylov tizimi - bu saylov o'tkazishga taalluqli barcha huquqiy hujjatlar, saylov tizimi tamoyillari, fuqarolarning saylov huquqlarini o'z ichiga olgan saylov o'tkazish tartiblari hamda ularni o'rnatuvchi huquqiy normalarning yig'indisi tushuniladi.

Saylov tizimi tor ma'noda saylov natijalariga ko'ra nomzodlar o'rtasida mandatlarni taqsimlash uslubi hisoblanadi. Bunda uslublar bir qancha bo'lib, ularning qo'llanilish yakuniga ko'ra, saylovlar natijasi turli davlatlarda turlicha bo'lishi mumkin.

Saylov tizimlari turli tuman bo'lib, bir davlatda amalda bo'lgan saylov tizimlari ikkinchi davlatda o'zini oqlamasligi mumkin. Bir saylov tizimini amalga kiritishdan oldin mamlakatdagi siyosiy kuchlar va etnik guruhlarining muvozanati yaxshilab o'rganilishi lozim. Hozirgi paytda dunyo mamlakatlari tajribasida saylov tizimlarining uch katta guruhi mavjud. Bu majoritar, proporsional va aralash saylov tizimlaridir.

Eng keng tarqalgan saylov tizimlaridan biri bu majoritar saylov tizimi bo'lib, saylov natijalarini aniqlashda ko'pchilik ovoz tamoyiliga asoslanadi.

Majoritar saylov tizimi fransuzcha "majorite" (ko'pchilik) degan so'zdan olingan bo'lib, bunda saylovda ovozlarning ko'pchiligini olgan nomzodlar saylangan hisoblanadi.

Bu tizim qoidalariga binoan, tegishli saylov okrugida belgilangan ko'pchilik ovozni olgan nomzod yoki nomzodlar ro'yxatigina saylovda g'olib chiqqan hisoblanadi. Majoritar saylov tizimi o'z navbatida mutloq, malakali va nisbatan ko'pchilik ovozga asoslangan turlarga bo'linadi.

Mutlaq ko'pchilik saylov tizimi talabi shundan iboratki, nomzod saylangan deb hisoblash uchun u saylovchilarning yarmidan ko'pining qo'llab-quvvatlashiga, ya'ni 50%+1 saylovchilar ovozini olishi lozim. Masalan, saylov okrugida saylanish uchun 3 ta nomzod qo'yilgan deylik (A,B,V). Berilgan 10.000 ovoz quyidagicha taqsimlandi: A- 3000, B- 1990, V -5010. Bunda 5010 ovoz olgan V mutlaq ko'pchilik ovozini olgan hisoblanib, saylovda g'olib chiqadi.

Ushbu tizim amalda bo'lgan mamlakatlarda, odatda saylovlar bo'lib o'tganligini tasdiqlash uchun asos bo'ladigan saylovda saylovchilarning qatnashganligining quyi foizi belgilangan bo'ladi. Agar qonun yoki boshqa normativ xujjatlarda belgilangan miqdordagi ovoz beruvchilarni saylovlarda qatnashmasa, saylovlar bo'lib o'tmagan hisoblanadi yoki natijalari yuridik kuchga ega bo'lmaydi.

Malakali ko'pchilik saylov tizimi amalda bo'lgan mamlakatlarda nomzod yoki nomzodlar muayyan okrugdan malakali ko'pchilik (2/3 qism yoki 65 %) ovoz to'plaganlarida saylangan hisoblanadi. Bunday saylov tizimi juda ham kam uchraydi, chunki mazkur tizim o'z xususiyatiga ko'ra juda ham kam natija beradi, ya'ni nomzodlar doim ham belgilangan miqdordagi saylovchilarni ovozlarni to'play olmaydilar, buning natijasida saylov ko'plab turlar asosida o'tkazilishiga olib keladi. Xozirda Chili Parlamentining quyi palatasiga saylovlarda mazkur tizimdan (2/3qism) foydalaniladi, shuningdek, bir muddat oldin Italiyada ham bir mandatli saylov okruglaridan saylanuvchi senatorlar ham saylovchilarning 65 foizini qo'llab quvvatlashiga erishishi talab qilinardi.

Tarixdan ma'lumki, dastlabki saylov tizimi sifatida majoritar saylov tizimi vujudga kelgan. Ushbu tizimga ko'ra nomzod belgilangan me'yordan ko'proq ovoz olganda saylangan hisoblanadi.

Nisbiy ko'pchilik saylov tizimi boshqa saylov tizimlariga nisbatan ancha sodda hisoblanib, bunday tizim amalda bo'lgan mamlakatlarda, saylovda qatnashayotgan nomzodlardan qaysi biri raqiblariga nisbatan ko'proq ovoz olsa u saylangan hisoblanadi. Ushbu tizim o'zining xususiyatiga ko'ra faqat bir turda natija berishligi bilan samaralidir. Nisbiy ko'pchilik saylov tizimida faqat bir holatda ikki yoki undan ortiq nomzodning bir xil ovoz olganlaridagina g'olib aniqlanmay qolishi mumkin, lekin bunday holat juda ham kam uchraydi. Ushbu tizim jahonning 150 mamlakatida qo'llanib, odatda saylov bo'lib o'tganligi uchun asos sifatidagi saylovchilarning qatnashish me'yori belgilanmaydi: agar saylovda birgina saylovchi qatnashgan bo'lsa ham saylovlar bo'lib o'tgan hisoblanadi.

Proporsional saylov tizimi saylovlarda keng omma vakillarini ishtirokini ta'minlash maqsadida kiritilgan saylov tizimi bo'lib, Yevropa, Lotin Amerikasi davlatlarining ko'pchiligida, Afrika davlatlarining uchdan bir qismida uchraydi.

Bu tizimning asosiy maqsadi saylovlarda olingan ovozlar bilan amalda parlamentda egallangan mandatlar mutanosibligini ta'minlashdir. Ya'ni, masalan, bir partiya saylovda 30% ovoz olgan bo'lsa, parlamentda 30% mandatga ega bo'lishi kerak.

Proporsional saylov tizimlarining ko'pchilik ovoz tamoyiliga asoslangan majoritar saylov tizimlaridan assosiy farqi ham shunda.

Proporsional saylov tizimlarida katta-katta saylov okruglari tuzilib, har bir saylov okrugidan bir nechta deputatlar saylanadi. Saylov okruglari qancha katta bo'lsa, olingan ovozlar va egallangan mandatlar shunga mutanosib bo'ladi.

Bu tizimda har bir partiya o'z nomzodlari ro'yxatini tuzadi va saylovchilar alohida olingan nomzodga emas, balki ma'lum partiya ro'yxatiga ovoz beradi. Ba'zi hollarda saylovchilarga nomzodlarga nisbatan o'z munosabatlarini bildirishga ham imkoniyat berilishi mumkin.

Saylovlar natijasini aniqlashda har bir deputatlik mandatini olish uchun zarur bo'lgan ovozlar miqdori belgilanadi. Bu miqdor har bir saylov okrugi uchun alohida qilib belgilanishi yoki butun davlat hududi uchun bir xil bo'lishi ham mumkin. Proporsional tizimning asosiy vazifasi ovozlar va mandatlar mutanosibligini ta'minlash yo'li bilan ozchilikning ham manfaatlarini ta'minlash hisoblanadi.

Proporsional saylov tizimida partiya ro'yxatlari bo'yicha ovoz berishni ro'yxatlarning xarakteriga qarab qat'iy, qat'iy bo'lmagan va o'zgaruvchan ro'yxatlar bo'yicha turlarga bo'lish mumkin. Qat'iy ro'yxatlar asosida ovoz berish proporsional saylov tizimini qo'llaydigan davlatlarda eng ko'p tarqalgan bo'lib, bunda saylovchilar muayyan partiya tomonidan taqdim etilgan ro'yxatda ko'rsatilgan nomzodlar o'rnini o'zgartirishga, ya'ni o'zlari afzal ko'rgan nomzodni birinchi o'ringa qo'yishga haqli bo'lmaydilar.

Ba'zida saylov bulletiniga deputatlikka nomzodlar familiyalari kiritilmay, faqatgina partiya rahbarining familiyasi va partiya ramzi kiritilishi mumkin. Bu usulda ovoz berishga Janubiy Afrika Respublikasida 1994 yilda o'tkazilgan saylovlar misol bo'la oladi. Bunday ovoz berishda saylovchilar o'zlari tanlagan partiya ro'yxatiga ovoz berish bilan cheklanadilar. Bu usulda ovoz berish boshqacha tarzda saylanishi qiyin bo'lgan ozchilikning hamda ayollarning saylovda g'olib chiqishiga imkon tug'dirsada, deputatlikka loyiq bo'lmagan nomzodlarning saylanib qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

Partiya ro'yxatlari bo'yicha ovoz berishning ikkinchi turi bu qat'iy bo'lmagan ro'yxat asosida ovoz berishdir. Bunda saylovchilar o'zlari tanlagan partiya ro'yxatini yoqlab ovoz berishdan tashqari bu ro'yxatdagi nomzodlar o'rnini almashtirish imkoniyatiga ham egalar. Saylovchilarga nomzodlarni tanlash imkoniyatining borligi bu usulning afzalligi bo'lsada, bu partiya ichida kelishmovchilikning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Aralash saylov tizimi. Aralash saylov tizimlari majoritar va proporsional saylov tizimlarini

birlashtirish tamoyiliga asoslangan saylov tizimidir.

Har bir partiya o'z nomzodlari ro'yxatini tuzadi va bu ro'yxatga kirgan nomzod bir mandatli saylov okrugida o'tkaziladigan saylovda ham qatnashishi mumkin.

Aralash tizimning qo'llanilishi qat'iy proporsional tizimda mavjud bo'lgan mayda partiyalarning ko'payib ketishini oldini oladi. Undan tashqari mavjud kichik partiyalar bir mandatli majoritar tizimli saylovlarda yutqazsalarida, proporsional saylovlar bilan buning o'rnini to'ldirib olishlari mumkin. Lekin, Rossiyada mavjud bo'lgan 5% li to'siqning bo'lishi buning amalga oshishiga ancha to'sqinlik qiladi.

Aralash tizimning qo'llanilishi ikki turdagi deputatlarning saylanishiga olib keladi. Birinchisi saylov okrugidagi saylovchilar bilan ancha bog'liq bo'lgan deputat bo'lib o'z saylovchilari oldida o'z ma'suliyatini sezadi. Ikkinchisi partiya ro'yxati vositasida saylangan deputat bo'lib, u ma'lum okrug saylovchilariga uncha tanish bo'lmasligi mumkin, chunki saylovchi ovoz berganda alohida nomzod uchun emas, balki partiya ro'yxati uchun ovoz beradi. Natijada saylangan deputat o'zini muayyan saylov okrugi saylovchilari oldida emas, balki uni ro'yxatga kiritgan partiya rahbarlari oldida hisobdor sezadi.

Saylovning bu shaklida saylov okrugida bir necha mandat bo'lsada, har bir saylovchi faqat bir ovozga ega bo'ladi. Saylovchi partiya ro'yxatiga kiritilgan o'ziga ma'qul bo'lgan nomzodni yoqlab ovoz berishi mumkin. Bunday ovoz berish ko'p mandatli saylov okruglarida mandatlar bo'linishining olingan ovozlariga mutanosibligini ancha ta'minlasada, saylovchi-deputat munosabatlarini susaytiradi. Chunki saylovchining faqatgina bir ovozga ega bo'lishi, partiyalarning saylovchilar e'tiborini qozonishga unchalik harakat qilmasalarida, osongina mandatlariga erishishini ta'minlaydi.

## **5. Saylov jarayoni va saylov organlari**

Har bir yuridik jarayon singari saylov jarayoni ham o'zida huquqiy normalar tizimini mujassamlashtirgan faoliyatdir. Davlat hokimiyati, o'zini-o'zi boshqarish organlariga bo'ladigan saylovlarni o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatni saylov jarayoni deb tushunamiz. Xamda ushbu faoliyat qat'iy belgilangan tartibda, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va bu quyidagilardan iboratdir.

1. Saylovlarni belgilash. Saylov jarayonining bu bosqichi muayyan organga yoki mansabga saylov kunini belgilashda ifodalanadi. Agar gap navbatdagi saylovlar haqida boradigan bo'lsa unda Konstitutsiyalar qonunlar va hududiy birliklarning statutlari bu masalada muayyan qoidalarni o'zida mujassamlashtiradi. Yuqorida AQSH misolida saylov kunining qonun bilan belgilanganligini ko'rib o'tdik, biroq ko'pchilik xolatlarda bunday sana aniq belgilanmaydi va bu jarayon har bir xolatda maxsus akt bilan shunday sanani belgilashni talab qiladi. Agar sanani belgilash qonun yoki Konstitutsiya bilan aniq o'rnatilmagan bo'lsa, unda qonun ushbu sanani belgilashga vakolatli organi ko'rsatishi lozim.

**2002 yil 4 apreldagi O'zbekiston Respublikasining "Referendum yakunlari davlat hokimiyatini tashkil etishning asosiy prinsiplari" to'g'risilagi konstitutsiyaviy qonuniga ko'ra O'zbekiston Respublikasida Prezidenti saylovi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda - dekabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi hamda davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov

muddatlari bir paytgga to'g'ri kelib qolgan taqdirda davlat hokimiyati vakillik organlarining vakolat muddati bir yilga uzaytiriladi, deb ko'rsatilgan.

Saylov okruglari. Saylov okruglari davlatning va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish vakillik organlariga deputatlarni saylovchi fuqarolarni o'zida birlashtirgan hududiy birliklardir. Ular maxsus ravishda shakllantirilgan bo'lishi mumkin, lekin ko'pchilik holatlarda federatsiya subyektlari, ma'muriy xududiy birliklar (viloyatlar, provinsiyalar, shaharlar va boshqalar) muayyan saylov okrugi sifatida amal qilishi ham mumkin. Saylov okruglari tuzilmagan taqdirda, butun mamlakat yagona bir saylov okrugi sifatida namoyon bo'ladi. Bu holatga misol sifatida prezidentlikka saylovlardagi amaliyotni ko'rsatishimiz mumkin.

Saylov okruglari saylov amaliyotida eng ko'p uchraydigan saylov birliklaridir. Xududiy bo'lmagan vakillik organlarini shakllantirishda saylov birliklari sifatida muayyan saylovchilar guruxlari ham amal qilishlar mumkin.

Hududlarni saylov okruglariga bo'lish katta siyosiy ahamiyat kasb etadi, chunki bu holat saylov natijalariga bevosita ta'sir etishi mumkin. Shuning uchun odatda, saylov okruglarini tashkil qilish qonunlar bilan belgilangan bo'ladi. Qonunlar saylov okruglarini soni va chegaralarini aniq belgilashi lozim, chunki bu holat saylov jarayonlarida saylovchilarni tengligini ta'minlaydi.

Qoida tariqasida saylov okruglari yuqorida aytib o'tilganidek saylovchilarni teng miqdorini hisobga olgan holda tashkil qilinishi lozim, chunki bu holat tenglik prinsipini talabidir. Bu shuni anglatadiki, mamlakatdagi barcha bir mandatli saylov okruglari teng miqdordagi aholi soni bo'lgani holda tashkil etiladi. Biroq aholi soni miqdorini aniqlash yuzasidan kelishmovchiliklar kelib chiqqanda (aholi orasida saylov huquqiga ega bo'lmagan shaxslar ham mavjud bo'lgan hollarda), teng huquqli saylov jarayonini tashkil qilish maqsadida saylov okruglarini aholi soniga qarab emas, balki saylovchilar soniga qarab tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mamlakatimiz Oliy vakillik organi – Oliy Majlisning quyi palatasiga (Qonunchilik Palatasi), Respublika Prezidentligiga va viloyat, tuman va shahar halq deputatlari Kengashlariga saylovlarda saylov okruglari hududiylik asosida tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylov bo'yicha saylov okruglarini Markaziy Saylov komissiyasi viloyatlar, Toshkent shaxri va Qoraqalpog'iston Respublikasi chegaralari doirasida tuziladi. Ularning chegaralari, saylovchilarning soni hamda okrug saylov komissiyasi qayerda joylashgani ko'rsatilgan saylov okruglari ro'yxatlarini saylov tayinlangandan keyin kechi bilan 10 kun o'tgach Markaziy saylov komissiyasi tomonidan e'lon qilinadi.

Saylov okruglari, qoida tariqasida, O'zbekiston Respublikasining butun hududida saylovchilar soni teng holda tuziladi va har bir saylov uchun saylov okrugiga to'g'ri keladigan saylovchilar normasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari kengashlariga saylov o'tkazish uchun, viloyatlar va Toshkent shahrida – 60 tadan, tuman va shahar Kengashlariga saylovlarda esa 30 tadan ko'p bo'lmagan saylov okruglari tuziladi. Har bir saylov okrugidan tegishli halq deputatlari Kengashlariga bittadan deputat saylanadi.

Saylov uchastkalari. Saylov uchastkalari ovoz berishda o'zida muayyan joydagi saylovchilarni birlashtiradigan hududiy birliklardir. Bu birliklar faqat texnik ahamiyatga ega, ya'ni saylov uchastkalari saylov jarayonlarini o'tkazishda samarali natijaga erishishni ta'minlovchi institutlardir. Ularni tartibga solish odatda, qonun bilan emas, balki qonun osti aktlari – ko'pincha ichki ishlar vazirligi instruksiyalari bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasida Respublika Prezidentligiga, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga va Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlarda saylovchilarga mumkin qadar ko'proq qulayliklar yaratish maqsadida tumanlar, shaharlar va shaharlardagi tumanlarning chegaralarini inobatga olgan holda saylov uchastkalari tuziladi, ularning chegaralari

tegishli saylov okruglari doirasidan chiqib ketmasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalari huzurida, sanatoriylar va dam olish uylarida, kasalxonalar va boshqa statsionar davolash muassasalarida, olin va borish qiyin yerlardagi fuqarolar turgan joylarda alohida saylov uchastkalari tuzilishi mumkin. Ularni qaysi saylov okrugiga birlashtirish to'g'risidagi masala Markaziy saylov komissiyasi tomonidan hal etiladi.

Saylov uchastkalari tuman, shahar hokimliklarining, xarbiy qismlarda qismlar yoki harbiy qo'shilmalar komandirlarining, xorijiy mamlakatlarda Respublika Tashqi Ishlar Vazirligining taqdimnomasiga binoan okrug saylov komissiyasi tomonidan kamida 20 nafar va ko'pi bilan 3 ming nafar saylovchidan iborat tarkibda tashkil etiladi. Ovoz berishni tashkil etish uchun har bir saylov uchastkasiga tegishli hokimlik tomonidan bino ajratiladi.

Saylov organlari. Ushbu organlarga (komissiya, byuro, prezidium va boshqalar) saylov jarayoni ustidan tashkiliy rahbarlik vazifasi yuklatilgan bo'ladi. Saylov organlari turlicha bo'lishi mumkin:

- hududiy, jumladan markaziy. Ularning tizimi mamlakatning siyosiy-hududiy tuzilish tizimidan kelib chiqadi;

- okrug saylov organlari. Bu organ saylov okrug siyosiy-hududiy birlik bilan muvofiq kelmaganda amal qiladi;

- saylov uchastkalarida amal qiluvchi organlar.

Saylov uchastkalari organlari odatda, saylovchilarni ro'yxatga oladi yoki ularni ro'yxatga olishdagi xatoliklarni bartaraf qiladi, ovoz berishni tashkillashtiradi va saylov uchastkasi yuzasidan saylov natijasini aniqlaydi. Okrug saylov organlari ilgari surilayotgan nomzodlarni ro'yhatga oladi, saylov oldi kompaniyasini normal kechishini ta'minlaydi va okrug yuzasidan saylov natijalarini aniqlaydi. Hududiy saylov organlari saylov okruglari mavjud bo'lgan taqdirda saylov natijalarini umumlashtiradi va o'sha hudud ommaviy axborot vositalarida chop etadi, agar saylov okruglari bo'lmasa, saylov okruglari vazifasini bajaradi. Umumxalq saylovlarida tashkil etiladigan okrug saylov organlari uchastka saylov organlari faoliyatini nazorat qiladi, ba'zi hollarda o'zining hududida uchastka saylov organining vazifasini bajaradi ( maslan, Avstraliya).

**16-Mavzu: O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimiyatning amalga oshirilishi va Konstitutsiyaviy asoslari. 2 soat.**

**Reja:**

- 1. Davlat hokimiyati tushunchasi va hokimiyatlarning bo'linish prinsipi.**
- 2. O'zbekistonda davlat hokimiyatining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis – davlat hokimiyatining oliy vakillik organi.**
- 3. Qonunchilik palatasi tuzilishi tartibi va vakolatlari.**
- 4. O'zbekiston Respublikasi Senati tuzilishi tartibi va vakolatlari.**

**1. Davlat hokimiyati tushunchasi va hokimiyatlarning bo'linish prinsipi.**

O'zbekiston XXI asrda taraqqiyotining o'zi tanlab olgan milliy davlatni rivojlantirish yo'lidan sobitqadamlik bilan bormoqda. Mustaqillikning o'tgan yillari sarmazmun voqealarga boy bo'lib, bu davr mobaynida milliy davlatchiligimizning huquqiy poydevorini shakllantirish bilan bog'liq bir qator ishlar amalga oshirildi.

Davlat boshqaruvi tizimidagi insonparvarlik demokratik o'zgarishlar hokimiyatining taqsimlanishi asosan faoliyat ko'rsatuvchi Oliy vakillik organi Oliy Majlis vujudga kelishiga asos bo'ldi.

Oliy Majlis hokimiyatining Oliy organi sifatida qonun qabul qilish bilan birgalikda, mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi.

Oliy Majlis dastlab bir palatali parlament sifatida tashkil etildi. O'z faoliyati davomida Oliy Majlis ijtimoiy muammolarni echish sohalarida salmoqli tajribaga ega bo'ldi. Shu bilan birga, Respublikada o'z yechimini kutayotgan masalalarni umumxalq muhokamasiga qo'yish masalasi vujudga keldi.

2002 yil 27 yanvar kuni ikki palatali parlamentni tuzish masalasi bo'yicha referendumda xalqimiz qo'llab-quvvatlashdi.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy majlis tomonidan 2002 yil 4 aprelda qabul qilingan «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun mamlakatimizda ikki palatali parlament tuzish uchun asos bo'ldi. Unga asosan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi oliy vakillik organi bo'lib, ikki palatadan - Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi (Quyi palata)dan hamda Oliy Majlisning Senati (yuqori palata)dan iborat bo'ladi.

Hozirgi paytda jahon parlamentlarining yuqori palatasi aksariyat hollarda senat deb nomlanib, bu nom yuqori palatalarning yuridik atamasi bo'lib hisoblanadi.

Oliy Majlisning palatalari - Qonunchilik vakolati va Senat alohida-alohida va bir-biridan mustaqil tarzda faoliyat olib boradi.

**Qonunchilik palatasi tuzilishi tartibi va vakolatlari.**

Oliy Majlis Quyi palatasining Qonunchilik palatasi deb nomlanishining asosiy ma'nosi quyi palataning qonunchilik sohasida mutlaq vakolatga ega ekanligidan dalolat beradi. O'zbekiston Oliy Majlisining quyi palatasining Qonunchilik palatasi deb nomlanishida uning qonun ijodkorligi sohasida ustuvor ahamiyatga ega ekanligi doimiy ravishda faoliyat ko'rsatishi hamda professional mutaxassislaridan iborat tarkibida bo'lishligi kabi omillar ham xizmat qilgan.

Parlamentlarning quyi palatalari turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi. Masalan: Frantsiyada Milliy Majlis, Germaniyada Bundestag, AQSHda Vakillar palatasi, Rossiyada Duma, Polshada Seyt nomlari bilan yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 77-moddasining birinchi bandiga asosan, Qonunchilik palatasiga saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida 120 deputat saylanadi. Qonunchilik palatasini tashkil qilishda va shakllantirishda bevosita saylov muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunchilik palatasiga saylovlar saylov yilining dekabr oyining uchinchi o'n kunligining



birinchi yakshanbasida o'tkaziladi. Qonunchilik palatasi bevosita O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Qonunchilik palatasining vakolat muddati – 5 yil. Vakolat muddati tugagach, Qonunchilik palatasi yangi chaqiriq Qonunchilik palatasi ish boshlangunga qadar o'z faoliyatini davom ettirib turadi.

Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Qonunchilik palatasining deputati bo'lishi mumkin. Ayni bir shaxs bir paytning o'zida Qonunchilik palatasi deputati va Senat a'zosi bo'lishi mumkin emas.

Qonunchilik palatasi deputatining maqomi qonun bilan belgilanadi. Qonunchilik palatasi o'zining vakolatlariga mos masalalar yuzasidan, shuningdek, palataning ichki faoliyatini tashkil etish masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Qonunchilik palatasi umumsiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa masalalar yuzasidan bayonotlar va murojaatlar bilan chiqishi mumkin, ular palataning qarori bilan rasmiylashtiriladi.

Qonunchilik palatasi qarorlari, ushbu qonunda nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Konstitutsiyaning 78-moddasiga asosan Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunlarni hamda qonunlarning qabul qilish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

- O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish;

- O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga hokimiyat tarmoqlari tizimini hamda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlarining vakolatlarini belgilash;

- O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi chiqishgi qarorlarni tasdiqlash;

- Boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining davlat byudjetini qabul qilish, hamda uning ijrosini nazorat qilish;

- Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish;

- O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, chegaralarni o'zgartirish;

- Tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarni o'zgartirish;

- Davlat mukofotlari va unvonlarini ta'sis etish;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa davlat boshqaruv organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi farmonlarni tasdiqlash;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining tuzish;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini, ko'rib chiqish va tasdiqlash;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha vakili va uning o'rinbosarini saylash;

- O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish to'g'risidagi farmonni tasdiqlash;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilinishini uzaytirish yoki tugatish to'g'risidan farmonlarni tasdiqlash;

O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarning ratifikatsiya va denonsatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilish;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar qoida tariqasida, avval qonunchilik palatasida, so'ngra Senat ko'rib chiqiladi.

Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari jumlasiga:

Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o'rinbosarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash;

O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining taqdimiga binoan Qonunchilik palatasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish;

Reglamentni hamda o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan boshqa qarorlarni qabul qilish;

Siyosiy-ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan Qonunchilik palatasining qarorlarini qabul qilish kiradi;

Qonunchilik palatasi faoliyatining tashkiliy shakli uning Qonunchilik palatasi sessiyalari davrida o'tkaziladigan majlislardir.

Qonunchilik palatasining birinchi majlisining O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining Raisi ochadi va Qonunchilik palatasi Spikeri saylangunga qadar unda raislik qiladi.

Qonunchilik Palatasi va uning organlari majlislarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Senat raisi, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a'zolari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudlari, Bosh prokuror ishtirok etishlari mumkin.

Qonunchilik palatasi majlislarining tashkil qilish va o'tkazish tartibi Qonunchilik palatasi Reglamentida belgilanadi.

Qonunchilik palatasi va Qonunchilik palatasi deputati davlat hokimiyati davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish talabi bilan parlament so'rovi yulashga haqli.

Parlament so'roviga javobni davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari Qonunchilik palatasi reglamentida belgilangan muddatlarda Qonunchilik palatasi majlislarida beradilar.

Qonunchilik palatasi Spikeri saylovdan keyingi birinchi majlisda Qonunchilik palatasining deputatlari orasida yashirin ovoz berish orqali deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Qonunchilik palatasining Spikeri saylanadi. Qonunchilik palatasi Spikeriga nomzod ko'rsatish va saylash tartibi Qonunchilik palatasi Reglamentida belgilanadi.

Qonunchilik palatasi Spikeri o'z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan farmoyishlar chiqaradi. Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarlari Qonunchilik palatasi deputatlar orasidan yashirin ovoz berish orqali deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Qonunchilik palatasi vakolati muddatiga saylanadi.

Qonunchilik palatasi Kengashi, Qonunchilik palatasi faoliyatini samarali tashkil etish, palata qo'mitalari ishini muvofiqlashtirib borish, qonun loyihalarini tayyorlash ishini rejalashtirish masalasini dastlabki tarzda ko'rib chiqishni tashkil etish maqsadida Qonunchilik palatasi Kengashi tuziladi.

Qonunchilik palatasi kengashi o'z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qarorlar qabul qiladi.

Qonunchilik palatasi qo'mitalarini saylash, qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda palata tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun Qonunchilik palatasining vakolatlari muddatiga Qonunchilik palatasining vakolatlari muddatiga Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan rais, uning o'rinbosari va a'zoldan iborat tarkibidan qo'mitalar saylanadi.

Qonunchilik palatasi qo'mitalari Qonunchilik palatasi oldida ma'sul va unga hisobdordir.

Qonunchilik palatasi qo'mitalarining majlislari ochiq o'tkaziladi. Zarurat bulganida

Qonunchilik palatasi qo'mitalari yopiq majlis o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

Qonunchilik palatasi qo'mitalarining davlat organlariga yuborilayotgan qarorlari ular tomonidan ko'rib chiqilishi shart, natijalari to'g'risida agar qarorda boshqacha qoida boshlangan bo'lsa, uzoq'i bilan bir oydan kechiktirmay xabar qilinishi kerak.

Qonunchilik palatasi muayyan vazifalarni bajarish uchun komissiyalar tuzishi mumkin. Komissiyalar Qonunchilik palatasi majlisida qonunchilik deputatlari orasida tuziladi. Ayni paytda komissiyani tuzishdan ko'zlangan maqsad va uning vakolatlari belgilanadi. Komissiyalarni tashkil etish va ularning faoliyati tartibi Qonunchilik palatasi reglamentida belgilanadi.

Qonunchilik palatasi qonun loyihasini, qoida tariqasida, bir necha o'qishda ko'rib chiqadi. Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan palata deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovoz berish ochiq yoki yashirin bo'lishi mumkin. Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonun qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay Senatga yuboriladi. Senat qonunni ma'qullash yoki uni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Senat tomonidan rad etilgan qonun Qonunchilik palatasiga qaytariladi. Bunda Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzishi mumkin.

Kelishuv komissiyasi ishining natijalari yuzasidan kelishmovchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflarni o'z ichiga olgan xulosa qabul qilinadi. Kelishuv komissiyasini tuzish tartibi, komissiyaning tartibi va ishi reglamentda belgilanadi. Qonunchilik palatasi kelishuv komissiyalarining xulosasi taqdim etilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida uning takliflarni ko'rib chiqishi va qaror qabul qilishi kerak. Qonunchilik palatasi kelishuv komissiyasining takliflari yuzasidan deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qaror qabul qiladi.

Senat tomonidan ma'qullangan qonun imzolanish va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga o'n kun ichida yuboriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonun o'ttiz kun ichida imzolanadi va e'lon qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunni o'z e'tirozlari bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli.

Qonunchilik palatasi devoni tuzilmasi, shtatlari, xodimlarning mehnat haqi miqdori va moddiy texnika ta'minotining, shuningdek, ularning ishlashi uchun zarur xarajatlar Qonunchilik palatasi Spikeri tomonidan tasdiqlanadi. Qonunchilik palatasi devonining tashkil etilishi va faoliyati tartibi Qonunchilik palatasi Spikeri tomonidan tasdiqlanadigan nizomda belgilanadi. Qonunchilik palatasi faoliyatini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining mablag'lari hisoblanadi. Qonunchilik palatasi uz matbuot organlariga ega bo'ladi.

### **O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati.**

O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisining yuqori palatasi Senat deb nomlanadi. «Senat» termini yuridik atama sifatida ko'pchilikka tanish siyosiy, iqtisodiy va huquqiy adabiyotlarda parlamentning yuqori palatasi Senat deb nomlanadi. Senat atamasi «SENAT» lotincha so'zdan olingan bo'lib, qadimgi Rimda ilk davlatchilik vujudga kelgan zamonlardan beri davlat hokimiyati Oliy organining nomi sifatida ishlatilib kelingan. Uning lug'aviy mazmuni oqsoqollar kengashi yoki maslahat organi degan ma'nolarni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati (Yuqori palatasi) hududiy vakillik palatasidir. Senat a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlari, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarning tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasida yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – olti kishidan saylanadi.

Senatning o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Senatda hududiy mansublikka ko'ra hamda siyosiy boshqa asosda guruhlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi. Senatning vakolat muddati besh yil. Vakolat muddati tugagach Senat yangi chaqiriq Senatni ish boshlagunga qadar o'z faoliyatini davom ettirib turadi. Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Senat a'zosi bo'lishi mumkin.

Ayni bir shaxs bir paytning uzida Senat aʼzosi va qonunchilik palatasi deputati boʻlishi mumkin emas.

Senat aʼzosi daxlsizlik huquqidan foydalanadi. U Senatning rozilgisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan maʼmuriy jazoga tortilishi mumkin emas. Senat aʼzosiga uning senatorlik faoliyati bilan bogʻliq xarajatlar belgilangan tartibda qoplanadi. Senat aʼzosining vakolatlari qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda muddatidan ilgari tugatilishi mumkin.

Senat aʼzolari Senatda doimiy asosda ishlashlari mumkin. Senatda doimiy asosda ishlovchi senatorlarning soni senatlar umumiy sonining toʻrtidan birigacha boʻlgan miqdorda belgilanadi. Ular senatorlik vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyatidan tashqari haq toʻlanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shugʻullanishlari mumkin emas. Senat aʼzosining maqomi qonun bilan belgilanadi. Senat oʻzining vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan, shuningdek, palataning ichki faoliyatini tashkil etish masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Senat umumsiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa masalalar yuzasidan bayonotlar va murojaatlar bilan chiqishi mumkin, ular palataning qarori bilan rasmiylashtiriladi. Senat qarorlari, Senat aʼzolari umumiy sonining koʻpchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Konstitutsiyaning 80-moddasiga asosan Senatning mutlaq vakolatlari:

1. Senat Raisining va uning oʻrinbosarlarini, qoʻmitalarning raislarini va ularning oʻrinbosarlarini saylash;
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini saylash;
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudini saylash;
4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Xoʻjalik sudini saylash;
5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Oʻzbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qoʻmitasining raisi tayinlash hamda uni lavozimdan ozod etish;
6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning oʻrinbosarlarini tayinlash hamda ularni lavozimdan ozod etish toʻgʻrisidagi farmonlarni tasdiqlash;
7. Oʻzbekiston respublikasi Prezidentining Oʻzbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik raisini tayinlash va uni lavozimdan ozod etish toʻgʻrisidagi farmonlarini tasdiqlash;
8. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Oʻzbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash hamda ularni lavozimdan ozod etish;
9. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisini tayinlash va lavozimidan ozod etish;
10. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya toʻgʻrisidagi hujjatlarni qabul qilish;
11. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Senat aʼzosini daxlsizlik huquqidan mahrum etish toʻgʻrisidagi masalalarni hal etish;
12. Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, Oʻzbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qoʻmitasi raisining, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish;
13. Reglamentni hamda oʻz faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bogʻliq masalalar yuzasidan boshqa qarorlarni qabul qilish;
14. Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan Senat qarorlarini qabul qilish kiradi.

Senat faoliyatining tashkiliy shakli uning majlisidir.

Senat majlislari zaruratga karab, lekin yiliga kamida uch marta oʻtkaziladi. Senatning birinchi majlisi Senat tarkib topganidan keyin bir oydan kechiktirmay Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan chaqiriladi.

Senat birinchi majlisini Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining raisi

ochadi va Senat raisi saylangunga qadar unga raislik qiladi.

Senatning navbatdan tashqari majlisi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Senat Raisi taklifiga binoan yoki Senat a'zolari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi taklifiga binoan chaqirilishi mumkin.

Faqat Senat majlislarida O'zbekiston Respublikasi qonunlari ma'qullanadi hamda Senat hujjatlari qabul qilinadi. Senat va uning organlari majlislarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qonunchilik palatasi Spikeri, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi raislari, Bosh prokuror ishtirok etishlari mumkin.

Senat majlislariga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarning, ilmiy muassasalarining vakillari, mutaxassislar va olimlar, matbuot organlarining, televidenie, radio va boshqa ommaviy axborot vositalarining vakillari taklif qilinishi mumkin.

Senat majlislari ochiq va oshkora o'tkaziladi. Zarurat bo'lganda, Senat yopiq majlis o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Senat majlislarining tashkil qilish va o'tkazish tartibi Senat Reglamentida belgilanadi.

Senat va qonunchilik palatasining qo'shma majlislari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qilganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining muhim masalalari yuzasidan nutq so'zlaganda, chet davlatlarining rahbarlari nutq so'zlaganda o'tkaziladi. Palatalarning kelishuviga muvofiq qo'shma majlislar boshqa masalalar yuzasidan ham o'tkazilishi mumkin. Palataning qo'shma majlisi ochiq va oshkora o'tkaziladi. Palatalarning qo'shma majlisi, agar unga tegishli Senat a'zolari va qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

Palatalarning qo'shma majlislarida, agar qo'shma majlisda boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, qonunchilik palatasi Spikeri va Senat Raisi navbatma navbat raislik qiladi.

Palatalrning qo'shma majlisida eshitilgan masalalar muhokamasi natijalari asosida palatalarning qo'shma qarori qabul qilinishi mumkin. Bunda ovoz berish, qoida tariqasida, alohida-alohida o'tkaziladi.

Senat va Senat a'zolari davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslarga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarni bayon qilish talabi bilan parlament so'rovi yo'llashga haqli. Parlament so'roviga javobni davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini mansabdor shaxslari Senat Reglamentida belgilanganda muddatlarda Senat majlislarida beradilar.

Senat Raisi Senat tarkib topganidan keyingi birinchi majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Senat a'zolari orasida yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan senat vakolati muddatiga saylanadi. Senat Raisligiga nomzod ko'rsatish va saylash tartibi Senat Reglamentida belgilanadi. Senat raisi o'z vazifasini bajarish davrida siyosiy partiya va harakatlarga a'zolikni to'xtatib turadi.

Senat Raisi Senat qo'mitalarining tarkibiga saylanishi mumkin emas. Senat Raisi yashirin ovoz berish orqali senatorlarning uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan qabul qilingan Senat qaroriga binoan muddatiddan ilgari chaqirib olinishi mumkin.

Senat Raisi o'z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan farmoyishlar chiqaradi.

Senat Raisi:

- Senat va uning Kengashi majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi;
- Senat muhokamasiga kiritiladigan masalalarning tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi;
- Senat ma'qullagan qonunlarni imzolash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuboradi;
- Senat qo'mitalari va komissiyalarning faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;
- O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va Senat qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi;
- Senat raisining o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;
- Parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog'liq Senat guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi;
- Senat matbuot organlarining ustavlarini va tahrir hay'atlari tarkibini hamda ularning ishlashi uchun zarur hujjatlar smetalarini tasdiqlagan;
- Kengash bilan kelishilgan xolda Senat matbuot organlarining bosh muharrirligini tayinlaydi va

ularni lavozimdan ozod qiladi;

- Senat matbuot organlarining faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi;
- Qonunchilik palatasi, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va boshqa tashkilotlar bilan munosabatlarda Senat nomidan ish ko`radi;
- Senat va uning Kengashi qarorlarini imzolaydi;
- Senat devoni faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi, senatorlar va Senat devoni ishlash uchun zarur xarajatlar smetalarni tasdiqlaydi;
- O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ushbu qonun va Senat Reglamentida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Senat Raisi o`zining vakolatiga taalluqli masalalarni Kengash muhokamasiga kiritishga haqli.

Senat Raisining o`rinbosarlari Senat a`zolari orasidan yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining ko`pchilik ovozi bilan Senat vakolati muddatiga saylanadi. Senat raisining o`rinbosarlariga nomzodlar ko`rsatish va saylash tartibi Senat Reglamentida belgilanadi. Senat raisining o`rinbosarlari o`z vazifalarini bajarish davrida siyosiy partiyalar va harakatlarga a`zolikni to`xtatib turadi. Senat raisining o`rinbosarlari Senat qo`mitalarining tarkibiga saylanishi mumkin emas.

Senat raisining o`rinbosarlari Senat Raisining topshirig`iga binoan uning ayrim vazifalarini bajaradi va Senat Raisi yo`qligida yoki o`z vazifalarini amalga oshirish mumkin bo`lmagan hollarda uning vazifasini bajarib turadi.

Senat Raisining o`rinbosarlaridan biri Qoraqalpog`iston Respublikasining vakili bo`ladi. Senat faoliyatining samarali tashkil etish, palata qo`mitalari ishini muvofiqlashtirib borish, kun tartibi yuzasidan takliflar tayyorlash, qonunlarni dastlabki tarzda ko`rib chiqishni tashkil etish maqsadida Senat Kengashi tuziladi.

Senat Kengashi palata majlislari oraligida zaruratga qarab to`planadi. Senat Kengashi tarkibiga Senat raisi, uning o`rinbosarlari va qo`mitalarning raislari kiradi. Senat o`z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan a`zolari umumiy sonining ko`pchilik ovozi bilan qaror qabul qiladi.

Senat faoliyatini moliyalashtirish O`zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining mablag`lari hisobidan amalga oshiriladi. Senat o`z matbuot organlariga ega bo`ladi.

**17-Mavzu: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy  
maqomi. 2 soat.**

**Reja:**

- 1. O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik institutining ta'sis etilishi**
- 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy-huquqiy holati**
- 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylovlar o'tkazish tartibi va asosiy tamoyillari**
- 4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari**
- 5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qabul qiladigan normativ-huquqiy hujjatlar**

**1. O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik institutining ta'sis etilishi**

Prezidentlik boshqaruvi davlat hokimiyatining taqsimlanish prinsipi asosida tashkil qilingan mamlakatlarda boshqaruvning eng maqbul shakllaridan biri hisoblanadi. Davlat boshqaruvining prezidentlik shaklida Prezident umumxalq saylovlarida saylanadi va davlat boshlig'i hisoblanadi, ayni vaqtda u ijro hokimiyatni ham boshqaradi. Davlat organlari tizimida markaziy o'rinni egallaydi. Prezident bevosita ijro hokimiyatiga boshqarishi mamlakatdagi barcha kuchlarni bir maqsad yo'lida birlashtirishga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga mamlakatda barqarorlik o'rnatishga asosiy kafolat bo'ladi. Prezidentlik lavozimining ta'sis etilishi O'zbekiston Respublikasining mustaqillik sari qo'ygan dastlabki qadam edi.

O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik lavozimini joriy etishida qo'yidagi sabablar bo'ldi:

Birinchidan, davlat mustaqilligiga intilish, respublikada boshqaruv jarayonlarini demokratlashtirish aynan prezidentlik instituti joriy etilishini taqozo etar edi. Chunki parlament uzoq bahs va munozaralarga berilib ketib, kun tartibida turgan dolzarb qarorlar qabul qilish va uni amalga oshirish imkoniyatiga ega emas edi. Shuning uchun ham mamlakatni bir kishi tomonidan boshqarish ehtiyoji paydo bo'ldi.

Ikkinchidan, Prezidentlik lavozimini joriy etish sabablaridan yana biri, hokimiyatlarning bo'linishi prinsipini rivojlantirishdan kelib chiqadi. Prezidentlik lavozimi davlat hokimiyati organlarining tizimini tashkil etishda demokratik prinsiplarni amalga oshirishga yordam berishga qaratilgan edi. Qonunchilik, ijro va sud hokimiyati faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirish ehtiyoji paydo bo'ldi.

Uchinchidan, Prezident o'z zimmasiga hukumatni shakllantirish va uning ishiga rahbarlik qilishdek ulkan mas'uliyatni olishi uchun obyektiv zarurat tug'ildi.

To'rtinchidan, vaziyatni barqarorlashtirish, tinchlikni ta'minlash va murakkab muammolarni paysalga solmasdan zudlik bilan hal etish ehtiyoji paydo bo'ldi. O'sha paytlarda mavjud bo'lgan davlat strukturasi bu masalalarni hal etishga qodir emas edi.

Jahon mamlakatlari tajribasidan kelib chiqiladigan bo'lsa, prezidentlik institutiga quyidagacha tavsif berilishi kuzatiladi.

Birinchidan, Prezident muayyan davlatning boshlig'i va xalq birligining ramzi hisoblanadi.

Ikkinchidan, Prezident o'z mamlakati xalqi nomidan ish tutadi va uning milliy manfaatlarini himoya qiladi. U partiyaviy, ijtimoiy, mahalliy va boshqa manfaatlardan, ayniqsa, har qanday g'oyaviy kelishmovchiliklardan yuqori turadi, jamiyatni o'zaro muvofiqlashtiradi, ijtimoiy-siyosiy hayotni mustahkamlaydi.

Uchinchidan, Prezident mamlakatning umumiy holati uchun mas'ul bo'lib, siyosiy barqarorlikni ta'minlaydi, huquqiy tartibotni va xavfsizlikni ta'minlash hamda mamlakataing boshqa davlatlar oldidagi majburiyatini bajarish borasida qarorlar qabul qiladi, tezkor chora-tadbirlar ko'radi.

To'rtinchidan, Prezident ijro etuvchi hokimiyatni boshqaradi va uning faoliyatini yo'naltiradi.

Beshinchidan, Prezident mamlakat Qurolli kuchlarining Oliy bosh qo'mondoni hisoblanadi, davlat mudofasi va fuqarolarning harbiy xizmatni o'tashi uchun rahbarlik qiladi.

Oltinchidan, Prezident ijro hokimiyati tizimida yuqori lavozimga tayinlash vakolatini amalga oshiradi, fuqarolik masalalarini hal qiladi, fuqarolarni davlat nishonlari bilan mukofotlaydi va aybidan o'tadi, inson huquq va erkinliklarini ta'minlanishining, shuningdek, mamlakatda konstitutsiya va qonunlarning kafolati hisoblanadi.

Birinchidan, Respublikada mustaqillikka intilish davlat hokimiyati tizimini yana demokratlashtirish, qonunlarni qabul qilish jarayonidagi murakabliklar, davlat va jamiyat hayotini uchun zudlik bilan ijtimoiy munosabat tartibga soluvchi qarorlar

"Prezident" tushunchasi konstitutsiyaviy - huquqiy ma'noda davlat boshlig'ini anglatadi. Aynan shuning uchun bu institut jahon davlat – huquqiy amaliyotida yaratilgan edi. Uning bunday roli Prezidenti bo'lgan har qanday zamonaviy demokratik respublikaga xosdir. Prezident davlatni jipslashtirishi, davlat hokimiyati mexanizmining barqarorligi va harakatchanligini ta'minlashi lozim.

Sobiq Ittifoq respublikalari orasida O'zbekiston birinchi bo'lib, davlat boshqaruvning prezidentlik shaklini joriy qildi. Prezidentlik instituti O'zbekistonda 1990 yil 24-martida "O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish va O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni) ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun bilan ta'sis etildi. Oliy Sovet 12-chaqiriq birinchi sessiyasida O'zbekiston Prezidenti etib Islom Abdug'aniyevich Karimov saylandi. 1991 yil 29 dekabr va 2000 yil 9 yanvarda to'g'ridan-to'g'ri umumhalq Prezidenti saylovlari o'tkazildi. Saylovlar muqobillik asosida o'tkazilib, I.A.Karimov Prezident etib saylandi.

## **2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy-huquqiy holati**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-bobi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti deb nomlanadi. Bu bob 9 ta moddadan iborat bo'lib, ularda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy maqomi belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir. Prezident huquqiy holati konstitutsiyaviy normalar bilan mustahkamlagan. Konstitutsiyada hokimiyatlarni o'zaro muvozanatini ta'minlashda Prezidentning o'rni beqiyos. Prezident davlat hokimiyati organlari tizimida alohida o'ringa ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 91 moddasida “ Prezident o'z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo'lishi, tadbirkorlik faoliyati bilash shug'ullanishi mumkin emas.

Prezidentning shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi”deb ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti qasamyod qabul qilgan paytdan boshlab, o'z lavozimini bajarishga kirishadi. Qasamyod – tantanali va'da, Konstitutsiya va xalqqa xizmat qilish yuzasidan Prezident o'z lavozimiga kirishganda beradigan qasamyoddur. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyodining matni Konstitutsiyaning 92-moddasida berilgan:

"O'zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, Respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya etishga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman."

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti daxlsizlik huquqiga ega. Prezidentning daxlsizligi mutlaq bo'lib, u bajaradigan majburiyatlardan kelib chiqib, Prezidentning qonunlar bilan alohida muhofaza etilishini anglatadi. Prezident shaxsining daxlsizligi uning butun vakolatlari davomida alohida kafolatlarni ta'minlanishi bilan bog'liq.

Prezident shaxsining daxlsizligi unga qarshi jinoyat ishi qo'zg'atilishi mumkin emasligini bildiradi. Prezident majburiy ravishda, masalan, guvoh sifatida sudga chaqirilishi, ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Prezident hibsga olinishi, tintuv etilishi va shaxsiy ko'zdan kechirilishi mumkin emas. Shu ma'noda Prezidentning shaxsi daxlsizdir.

## **3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylovlar o'tkazish tartibi va asosiy tamoyillari**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan yetti yil muddatga



saylanadi. Prezidentni saylash tartibi O'zbekiston Respublikasining "Prezident saylovi to'g'risida"gi Qonuni bilan belgilangan<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga asosan Prezident lavozimiga nomzodlarga quyidagi talablar qo'yiladi:

birinchidan, 35 yoshdan kichik bo'lmagan, faqat O'zbekiston Respublikasining fuqarosi Prezident etib saylanishi mumkin;

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bo'lib, O'zbekiston Respublikasining fuqarosigina saylanishi mumkin;

uchinchidan, Prezidentlikka nomzodga O'zbekiston Respublikasi hududida kamida 10 yil yashagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Bu muddat - Prezidentlikka nomzod faqat bilimlar va amaliy tajribaga ega bo'libgina qolmay, balki O'zbekistondagi hayotning o'ziga xos sharoitlarini tushunish uchun ham zarur va yetarlidir;

to'rtinchidan, Davlat tilini yaxshi biladigan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi Prezidentlikka saylanishi mumkin. Tillardan foydalanishni tartibga solish – O'zbekistonda konstitutsiyaviy ahamiyatga ega. U yoki bu tilning davlat tili sifatidagi maqomi Konstitutsiya bilan belgilanadi. Masalan, Konstitutsiyaning 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir" – deb belgilab qo'yilgan. Davlat hokimiyati organlari, rasmiy ish yuritish, sud ishlarini olib borish majburiy ravishda davlat tilida olib boriladi, normativ-huquqiy hujjatlar va rasmiy nashrlar e'lon qilinadi.

beshinchidan, O'zbekistonda bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Prezident bo'lib saylanishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 90-moddasining 2-qismida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining saylanish prinsiplari aniq belgilab qo'yilgan. Prezidentlik Respublikalarida Prezident mamlakatning barcha saylovchilari tomonidan umumxalq saylovlari yo'li bilan saylanadi.

Prezident saylovlarini o'tkazish tartibi 1991 yil 18 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlari to'g'risida"gi Qonun bilan belgilab qo'yilgan. Bu qonunga 2004 yil 3 dekabrdagi Qonunini bilan o'zgartirish kiritilgan..

O'zbekistonda prezidentlik saylov huquqining konstitutsiyaviy me'yori ko'ppartiyaviylik bo'lib, u fuqarolarning davlat va jamiyatdagi siyosiy huquqlari, qonuniylikni, barqarorlikni, demokratiyaviylikni kafolatlashga qaratilgandir.

Konstitutsiyaning 10-moddasida siyosiy partiyalar xalq nomidan ish olib borishga xaqli emasligi alohida ko'rsatilgan. Umuman, konstitutsiyaning 10 ta moddasida ko'ppartiyaviylik bilan bog'liq bo'lgan me'yorlar bor. 34-moddada fuqarolarning siyosiy partiyalarga uyushishi huquqi alohida belgilab qo'yilgan. Chunonchi, 60-moddada «Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar», deb konstitutsiyaviy qoida mustahkamlab qo'yilgan.

Teng saylov huquqi shundan iboratki, har bir saylovchi bir ovozga ega bo'ladi va barcha fuqarolar saylovlarda teng sharoitlarda ishtirok etadilar.

To'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi shundan iboratki, saylovchilar Prezidentni saylashda bevosita ishtirok etadilar.

Yashirin ovoz berish esa saylovchining o'z irodasini bildirish ustidan nazorat qilishga yo'l qo'ymaslikni nazarda tutadi. Bu konstitutsiyaviy prinsip fuqarolarning o'z irodasini erkin bildirishini ta'minlashning huquqiy kafolatlanishi bo'lib, demokratik jamiyatning asosiy belgilaridan biridir.

Fuqarolarning Prezidentni saylash huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi. Albatta, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan ba'zi bir alohida hollar bundan mustasnodir.

O'zbekiston Respublikasining saylovlar kuniga qadar 18 yoshga to'lgan har bir fuqarosi Prezidentni saylash huquqiga egadir. Prezidentlik saylovlarini tashkil etish belgilangan ba'zi bir alohida hollar bundan mustasnodir. Prezidentlik saylovini o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan tuziladigan Markaziy saylov komissiyasi zimmasiga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasining II-chaqiriq, sakkizinchi sessiyasida qabul qilingan: "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari

to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunning qabul qilinishi, 2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan referendumda mamlakatimiz Oliy Majlisini ikki palatali qilib belgilash va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddatini besh yildan yetti yillik qilib o'zgartirish to'g'risidagi muhim masala bo'yicha qabul qilingan Oliy Majlis qarori hayotga tatbiq etish borasidagi tarixiy jarayonlardan hisoblanadi. Ushbu Konstitutsiyaviy Qonun asosida: "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesiga viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolati tugaydigan yilda – dekabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi hamda davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov muddatlari bir paytga to'g'ri kelib qolgan taqdirda, davlat hokimiyati vakillik organlarining vakolat muddati bir yilga uzaytiriladi."

#### **4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari**

Prezident konstitutsiyaviy vakolatlarining ko'lamini uning davlat va ijroiya hokimiyatining boshlig'i ekanligidan kelib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga uning davlat hokimiyati organlari tizimidagi ko'plab vakolatlarni beradi. Prezident faqat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o'rnatilgan vakolat doiralardagina faoliyat ko'rsatadi. Prezidentning konstitutsiyaviy vakolatlari davlat va jamiyat hayoti faoliyatining eng muhim sohalarini qamrab oladi.

Ko'pgina xorijiy mamlakatlar tajribasida davlat boshlig'ining konstitutsiyaviy vakolatlari tarixiy rivojlanish bosqichlarining, shu davlatda istiqomat qilayotgan xalqlarning milliy kelib chiqish xususiyatlari va jug'rofiy joylashuvining ta'sirida turli xil belgilangan bo'ladi. Asosan, davlat boshlig'ining konstitutsiyaviy vakolat muddatlari diqqatga sazovordir. Masalan: AQSH, Rossiyada – 4 yil, Fransiya, Ukraina, Germaniya, Braziliyada – 5 yil, Meksika, Misrda – 6 yil, Italiya, Isroilda – 7 yil. Prezident vakolat muddatlarining bunday tartibda belgilanganligi yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, har bir millat va elatlarning tarixiy rivojlanish bosqichlari bilan bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasida o'tkazilgan 2002 yil 27 yanvardagi referendum, mustaqillikdan keyingi davrning eng muhim O'zbekiston tarixida munosib o'rin egallaydigan davlat boshqaruvining takomillashtirish rejalarini belgilab berdi.

Prezidentning asosiy vazifasi – davlatning birligini mamlakat ichida va tashqarisida namoyon qilishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining quyidagi yo'nalishlarida uning konstitutsiyaviy vakolatlari yaqqol namoyon bo'ladi.

1. Avvalambor, O'zbekiston Prezidenti fuqarolar huquq va erkinliklarining kafilidir. Bu shuni bildiradiki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti inson huquqlarini himoya qilish mexanizmining uzluksiz ishlashi uchun shaxsan javobgar, biror sabab bilan ushbu huquq va erkinliklar amalga oshirilishi buzilgan hollarda tegishli choralar ko'rishga majbur. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning ta'sirchan mexanizmini yaratish, xalqaro huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat organlari xodimlari va butun aholining inson huquqlari masalalari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsadida, BMTning demokratiyalash, inson huquqlari va boshqaruv tizimini qo'llab-quvvatlash borasidagi tavsiyalariga muvofiq, O'zbekiston Prezidenti 1996 yilning 31 oktabridagi farmoni bilan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazini tashkil qildi.

2. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir. Prezident o'z vakolatlarini amalga oshira borib, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarining o'z konstitutsiyaviy majburiyatlarni zarur darajada bajarishlarini ta'minlaydi. U xatti-harakatlari Konstitutsiya talablariga javob bermayotgan organlar va shaxslarga bevosita murojaat qilish orqali ham, shu sohadagi vakolatli organlar, xususan sudlar vositasida ham bunga erishadi.

3. Prezident davlat boshlig'i sifatida xalqaro munosabatlar sohasida muhim vakolatlarga ega. Bunda u muhim vakillik funksiyasini bajaradi. Bu funktsiyani u yakka o'zi shaxsan amalga oshiradi.

4. Konstitutsiyada belgilab qo'yilganidek, Prezident mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotning, ichki va tashqi siyosatining eng muhim maasalari yuzasidan Oliy Majlis palatalariga har yili ma'lumotnoma taqdim etadi. Uning ma'lumotnomasi normativ hujjat hisoblanmaydi. Bu axborot siyosiy tusga ega bo'lib, mamlakatni rivojlantirishning dasturiy prinsiplari va strategik vazifalarini o'z ichiga oladi.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ijroiya hokimiyatini tuzish bilan bog'liq vakolatlari ancha keng bayon qilingan. Bunday vakolatlarning ko'pchiligiga quyidagi ikkita sabab bor:

birinchidan, Prezident bo'lib saylangan shaxsning dasturi umumxalq saylovlari orqali qo'llab - quvvatlangani uchun u ijro hokimiyat organlarini tuzishda ma'lum vakolatlarga ega bo'lishi kerak. Chunki uning dasturini bajarish asosan, ijro hokimiyati organlari zimmasiga tushadi, ularni tuzishda Prezidentning vakolatlari juda muhim o'rin tutadi;

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asoslaridan biri bo'lmish hokimiyatlarning bo'linishi prinsipi davlat hokimiyatining biror organi faqat bir hokimiyat tarmog'i tomonidan tuzilishini istisno qiladi. Shuning uchun davlat hokimiyatining markaziy organlarini tuzishga ham Prezident, ham Oliy Majlis jalb qilingan.

6. Sud hokimiyati organlariga kelganda, shuni aytish mumkinki, Prezident Oliy Majlis Senatiga Konstitutsiyaviy sud raisi va sudyalari, Oliy sud raisi va sudyalari, Oliy xo'jalik sud raisi va sudlari nomzodlarini taqdim etadi.. Shuningdek, Prezident viloyat, tuman, tumanlararo shahar, harbiy va xo'jalik sudi sudyalari tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi. Prezidentning taqdimiga binoan, Oliy Majlis Senati Markaziy Bank boshqaruvi raisi, Tabiatni muhofaza qilish davlat ko'mitasining raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi.

7. Prezidentning respublika davlat va boshqaruv oliy organlarining o'zaro hamkorligini ta'minlashdagi vakolatlari ham bor. Buning uchun u Konstitutsiyada o'rnatilgan, Oliy Majlisga ta'sir o'tkazish (XVIII-bob), Vazirlar Mahkamasiga ta'sir o'tkazish (XX-bob) dastaklaridan foydalanishi, ba'zi hollarda sudga murojaat qilishi, masalani Konstitutsiyaviy sud ko'rib chiqishi uchun taqdim etishi mumkin

Prezident O'zbekiston Respublikasi vazirliklarini, davlat qo'mitalarini hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, buni Oliy Majlis palatalarining tasdig'iga kiritadi.

8. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qonunlarni imzolaydi. Prezidentning imzosi bo'lmasa, qonun kuchga kirmaydi. Bu davlat boshlig'ining an'anaviy funksiyasi bo'lib, qonunga majburiy kuch beradi va qonun chiqaruvchilik jarayonini yakunlaydi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati ma'qullagan qonun imzolanishi va e'lon qilinishi uchun Prezidentga o'n kun ichida yuboriladi. Prezident esa o'ttiz kun ichida qonunni imzolaydi hamda matbuotda e'lon qilindi.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holat masalasidagi vakolatlari Konstitutsiya 93-moddasining 19-bandida aniq ifodalangan. Faqat Prezidentgina butun respublika hududida favqulodda holat joriy etishga haqli. U qabul qilgan qarorini uch kun mobaynida Oliy Majlisning palatalari tasdig'iga kiritadi. Lekin Prezident bunday qarorni qabul qilishda erkin emas, chunki favqulodda holat faqat qonunda belgilangan hollarda va tartibdagina joriy etiladi.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining harbiy sohadagi vakolatlari ancha keng. U respublika Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning Oliy ko'mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, Xavfsizlik kengashini tuzadi va unga rahbarlik qiladi, oliy harbiy unvonlarni beradi.

Prezidentning Oliy Bosh qo'mondon ekanligi Mudofaa vazirligiga har qanday buyruqlar berishiga imkon tug'diradi. Mudofaa vaziri amalda bevosita Prezident rahbarligida ishlaydi. Urush yoki agressiya holatida Prezident har qanday vaqtda Qurolli kuchlarga boshchilik qilishni o'z qo'lga olishi mumkin.

11. Davlat boshlig'i sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari jumlasiga fuqarolik, siyosiy boshpana berish, O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari bilan taqdirlash, amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni Oliy Majlis Senatiga taqdimnoma kiritish kabi masalalarni hal qilish kiritilgan

12. Davlat mukofotlari va faxriy unvonlar – davlatning iqtisod, fan, madaniyat, san'at,

Vatanni himoya qilish va ijtimoiy hayotning boshqa sohalaridagi yuksak xizmatlari uchun fuqarolarni rag'batlantirishning oliy shaklidir.

13. Amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida Oliy Majlisning Senatiga taqdimnoma kiritadi. Amnistiya – jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan to'la yoxud qisman ozod qilish yoki ilgari sud tayinlagan jazoni o'tagan shaxslarning sudlanganligini olib tashlashdir. Amnistiya e'lon qilinishi bilan jazoni o'tayotgan shaxslar uni o'tashdan ozod qilinadilar yoki jazo muddati qisqartiriladi. Agar ayblanuvchi ishning amnistiya bo'yicha to'xtatilishiga e'tiroz bildirsa, ushbu ish tergov va sud yurituvida davom etadi. Sud ayblanuvchini aybdor deb topsa, shu amnistiya aktida ko'rsatilgan asoslarga ko'ra to'xtatiladi.

14. Konstitutsiyaning 95-moddasi ko'p mamlakatlarda mavjud bo'lgan davlat boshlig'ining parlamentni tarqatib yuborish institutiga bag'ishlangan. Parlamentni tarqatib yuborish - uning vakolatlari tugaguncha, yangi saylovlar belgilanguncha parlament faoliyatining to'xtatilishidir. Parlamentni tarqatib yuborish hokimiyatlarning bo'linishi prinsipini amalga oshiradigan muvozanatlar va ziddiyatlar tizimining muhim elementidir.

Parlamentni tarqatib yuborish, qoida tarikasida, Konstitutsiya amalga oshirish mumkin yoki qonunlar asosida ko'rsatilgan.

## **5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qabul qiladigan normativ-huquqiy hujjatlar**

Konstitutsiyaning 94-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan mamlakatning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti o'z vazifalari va konstitutsiyaviy vakolatlarining amalga oshirish maqsadida ko'pqirrali huquq ijodkorligi faoliyatini yuritadi.

Prezident butun O'zbekiston hududida bevosita amal qiladigan, majburiy kuchga ega bo'lgan uch xil normativ-huquqiy hujjat:

- 1) farmonlar;
- 2) qarorlar;
- 3) farmoyishlar chiqaradi.

Farmon – aniq bo'lmagan jismoniy va yuridik shaxslarga taalluqli bo'lib, uzoq muddatga amal qiladi. Farmon – normativ-huquqiy hujjat. U huquqni ko'llash xususiyatiga ham ega bo'lishi mumkin va demakki, normativ mazmunga ega bo'lmasligi ham mumkin. Normativ mazmundagi farmonlar nashr etiladi, masalan u yoki bu shaxsni biror lavozimga tayinlash to'g'risida.

Farmoyish – individual tashkiliy xususiyatdagi hujjatdir.

Prezident chiqaradigan hujjatlar uning o'zi tomonidan mustaqil chiqariladi. Prezident chiqaradigan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar Konstitutsiya va qonunlarga zid bo'lmasligi shart. Chunki ular Konstitutsiya va qonunlar asosida, ularni bajarish maqsadida chiqariladi. Prezident chiqargan normativ hujjatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risidagi masala, zaruriyat tug'ilganda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi tomonidan hal qilinadi (Konstitutsiyaning 109-moddasi). Ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Konstitutsiyaviy sud butun hujjat yoki uning ayrim qoidalari konstitutsiyaviy yohud g'ayri konstitutsiyaviy ekanligi haqida qaror qabul qilishi mumkin. Shu tariqa Prezident aktlarining konstitutsiyaviy bo'lishi kafolati ta'minlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari qonun osti hujjatlari deb atalmaydi. Lekin ular Konstitutsiya va mamlakat qonunlariga zid bo'lmasligi shart (16-modda). Lekin "Konstitutsiya va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan" deyilgan konstitutsiyaviy bayon qilish, shuningdek, faqat qonun tomonidan tartibga solinadigan masalalar ro'yxatining Konstitutsiyada mavjud emasligi – Prezidentning huquq ijodkorligi faoliyatini keng talqin qilishga imkon beradi. Biror masalani qonun bilan tartibga solish mavjud bo'lmagan hollarda, Prezident oldindan ushbu masala yuzasidan normativ farmon chiqarishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining normativ-huquqiy hujjatlari "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xabarnomasi" va shuningdek respublika gazetalarida rasman e'lon qilinadi.

**18-Mavzu: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining huquqiy maqomi. 2 soat.**

**Reja:**

- 1. Davlat hokimiyati oliy organlari tizimida Vazirlar Mahkamasining o'ri va roli**
- 2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shakllanish tartibi**
- 3. O'zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat organlarining tashkil etilishi va tizimi.**
- 4. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tushunchasi, shakllanish tartibi va vakolatlari.**

**1. Davlat hokimiyati oliy organlari tizimida Vazirlar Mahkamasining o'ri va roli**

Hukumat bu – davlat boshqaruvida markaziy organ hisoblanib, Konstitutsiya va qonunlar asosida mamlakatning ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi. Hukumat shu bilan birga, jamoat tartibi va xavfsizlikni ta'minlanishini nazorat qiluvchi, shuningdek davlat boshqaruvining boshqa idoralariga umumiy rahbarlik qiladi.

Turli mamlakatlarda hukumat turli nomlar bilan atalishi mumkin. Masalan Ministrlar Kengashi (Hindiston), Kabinet(Yaponiya), Ministrlar Kabineti, Davlat kengashi (Shvetsiya, Norvegiya, Finlyandiya), Fedaral kengash (Shveysariya), Federal Hukumat (Germaniya), Hukumat(Chexiya, Kolumbiya) va hokazo.

Bizda, ya'ni O'zbekiston Respublikasida hukumat «Vazirlar Mahkamasi» deb nomlangan bo'lib, «O'zbekiston Respublikaci Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonunga binoan, u O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir.

Shuni qayd etish kerakki, har qanday demokratik davlatda parlament va davlat boshlig'i tomonidan qabul qilinadigan huquqiy aktlarning hayotdagi ijrosi bevosita hukumat faoliyatiga bog'liq.

Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga rahbarlik qiladi, ularning hamjihatlik bilan ishlashini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida kollegiallik, demokratiya va qonuniylik, O'zbekiston Respublikasida yashovchi barcha millat va elatlarning manfaatini hisobga olish prinsiplariga tayangan holda, o'z faoliyatini bevosita amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi qonun bilan belgilab qo'yilgan o'z tarkibiga ega. Unga ko'ra, Vazirlar Mahkamasi tarkibiga Bosh vazir, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislari, davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlarining rahbarlari kiradilar.

Davlat hokimiyati organlarining ishini zamon talablariga muvofiq ravishda tubdan yaxshilamay turib islohatlarni yanada chuqurlashtirish, jamiyat turmushining barcha sohalarini erkinlashtirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etib bo'lmaydi. Xalq tomonidan qo'llab quvvatlanayotgan kuchli va adolatli hokimiyat, demokratik fuqarolik jamiyatini, kelajagi buyuk davlatni barpo etishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Referendum qarorlarini hayotga tatbiq etish uchun, eng avvalo umumxalq ovoz berishi natijalarini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonun hujjatlarida aks ettirish lozim bo'ldi. Referendum yakunlari fuqarolik jamiyati institutlari to'g'risidagi, davlat hokimiyatini tashkil etish tizimini, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va uning palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari va sud hokimiyatining konstitutsiyaviy maqokimini tartibga soluvchi yangi qonunlarni ishlab chiqish va amaldagi qonunlarini takomillashtirishni taqozo etdi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda 2003 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasining

«O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonuni qabul qilindi.

2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendum natijalariga ko'ra hamda uning asosida 2003 yil 24 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan. Mazkur o'zgartish va qo'shimchalarga binoan Konstitutsiyaning 89-moddasining «O'zbekiston Respublikasining Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi» degan so'zlardan iborat bo'lgan ikkinchi xatboshisi olib tashlandi.

Konstitutsiyaning 98-moddasi hamda yangi tahrirdagi qonunning 15-moddasiga ko'ra, Bosh vazir Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi.

Qonunchilik palatasi tomonidan 2011-yil 4-martda qabul qilingan va Senat tomonidan 2011 yil 25-martda tasdiqlangan qonun asosida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga) o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi.

Bundan ko'zlangan maqsad davlat boshlig'i Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o'rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta'minlash, shuningdek sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishda, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning roli hamda ta'sirini kuchaytirish nazarda tutilgan.

## **2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shakllanish tartibi va tarkibi**

Vazirlar Mahkamasining tarkibi O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. Ya'ni O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Bosh vazir nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga taqdim etadi. Bosh vazir nomzodini ko'rib chiqish Senat va Qonunchilik palatasining birgalikdagi vakolatlari kiritilgan bo'lib, qoida tariqasida, ushbu masala avval Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatda ko'rib chiqiladi. Bosh vazirni o'z lavozimidan ozod qilish masalasini esa Prezidentning shaxsan o'zi hal qiladi. Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi hamda vazifasidan ozod qilinadi, ya'ni Vazirlar Mahkamasi a'zolarining nomzodi Bosh vazir tomonidan ko'satiladi.

Vazirlar Mahkamasining doimiy organlari sifatida Bosh vazir va uning o'rinbosarlaridan iborat tarkibdagi Vazirlar Mahkamasining Rayosati faoliyat ko'rsatadi. Vazirlar Mahkamasi Raisining qaroriga binoan Vazirlar Mahkamasi Rayosatining tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Hukumatining boshqa a'zolari ham kiritilishi mumkin.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi yuqori organlarining qarorlarini hayotga tadbiq etishga ko'maklashish, Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlarning qanday bajarilayotganligini nazorat qilish hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari faoliyatini muvofiqlashtirib borish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan uning doimiy komissiyalari tuzilishi mumkin. «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonunning 19-moddasiga binoan Vazirlar Mahkamasi o'zining doimiy komissiyalarining vazifalarini, funksiyalarini hamda faoliyat tartibini belgilaydi.

Bundan tashqari davlat va xo'jalik boshqaruvining alohida masalalari bo'yicha takliflar tayyorlash, Vazirlar Mahkamasi hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish uchun, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining alohida topshiriqlarini bajarish uchun Vazirlar Mahkamasining vaqtinchalik komissiyalari va ishchi organlari tuzilishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasining doimiy, vaqtinchalik komissiyalarining hamda ishchi organlarining hujjatlari majlis bayonlari bilan rasmiylashtiriladi hamda tegishli ijrochilarga yetkaziladi. Ko'rsatib o'tilgan komissiyalar va ishchi organlarning majlis bayonlari ularga boshchilik qilayotgan rahbarlar tomonidan imzolaniadi.

Doimiy komissiyalar tomonidan ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan materiallarni tayyorlash hamda komissiyalar qarorlarining bajarilishini nazorat qilish Bosh vazir o'rinbosarlarining kotibiyatlari, departamentlar va bo'limlar oldiga qo'yiladi. Zarurat bo'lganda bu materiallarni tayyorlashga vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, boshqa manfaatdor tashkilotlarning mutaxassisleri jalb qilinadi.

Doimiy va vaqtinchalik komissiyalarning majlislari Vazirlar Mahkamasining Rayosati tomonidan tasdiqlanadigan yilning har choragidagi rejalari asosida o'tkaziladi. Doimiy va vaqtinchalik komissiyalarning rejadani tashqiri majlislari Vazirlar Mahkamasi Rayosatining roziligi bilan o'tkaziladi.

Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etish maqsadida maxsus apparat (devon) tashkil etiladi. Qonunning 21-moddasiga ko'ra, Vazirlar Mahkamasining Apparati Vazirlar Mahkamasi va uning Rayosati majlislarini, tegishli qarorlar loyihalarini, tashkiliy, axborot va boshqa materiallarni tayyorlash, Vazirlar Mahkamasi qarorlarining bajarilishini muntazam ravishda tekshirib borilishini tashkil etadi. Vazirlar Mahkamasining Apparati va uning bo'linmalari to'g'risidagi nizom Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 20-maydagi 248-sonli «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Apparati tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida» gi qarorida Vazirlar Mahkamasi Apparati to'rt qancha bo'g'inlarini qisqartirish, boshqarishning tarmoq tizimidan funksional tizimga o'tishni ta'minlash va shu asosda hokimiyatning ijro etuvchi organlari faoliyati samaradorligini oshirish ko'zda tutilgan.

Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi tuzilmasi 2004 yil 12 sentyabrdagi 475-sonli Qaroriga muvofiq quyidagicha tuzilgan Vazirlar Mahkamasi qonun asosida o'z faoliyatini qaytadan tashkil qila boshlagandan keyin esa Apparatning (devon) asosiy tarkibiy bo'linmalari rahbarlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Bosh vazir tomonidan lavozimga tayinlanadi.

Vazirlar Mahkamasining devoni o'z ish faoliyatini mavjud konstitutsiyaviy asoslar, qonunlar, Prezident farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining Reglamenti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 22 dekabrda "Xo'jalik boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi farmonida 16 ta turli sohada xo'jalik boshqaruv organlari takomillashtirildi.

### **3. O'zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat organlarining tashkil etilishi va tizimi.**

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonidagi eng muhim vazifalardan biri davlat hokimiyatining vakillik va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini yangi sharoitlarga mos keladigan tizimini yaratish edi.

O'zbekiston respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Yangi uyni qurmay turib, eskisini buzmay" degan ko'rsatmalarga amal qilib, vakillik organlarining viloyat, tuman va shahar bo'g'inlari saqlab qolindi.

Hozirgi davrda joylarda mahalliy davlat hokimiyatining ikki organi tashkil etiladi: vakillik organi va ijroiya organi, ya'ni joylarda o'z faoliyatini yakkaboshlik asosida olib boruvchi hokimlik institutlari.

Konstitutsiyaga muvofiq, viloyatlarda, tumanlarda, shaharlarda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari tashkil qilinadi, tumanlarga bo'ysunadigan shaharlarda va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarda davlat hokimiyati vakillik organlari tashkil qilinmaydi.

Respublikamizda bozor munosabatlari chuqurlashib, huquqiy demokratik institutlari rivojlangan sari, mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyati ham takomillashib bormoqda. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini tashkil etishda hokimiyatning taqsimlanish printsipi asos kilib olganligi mahalliy ijro va vakillik organlari o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning Konstitutsiyaviy holati aniqlanadi. Hokimiyatning vakillik va ijroiya organlari joylarda ularga berilgan vakolat doirasida mustaqil faoliyat yuritadi. Ular o'zaro munosabatlarda hamkorlik asosida o'z faoliyatlarini tashkil etadilar. Mahalliy xalq deputatlari Kengashlariga hokimlarning rahbarligi uning Kengash oldidagi ma'suliyatini oshiradi.

Hokimlar xalq deputatlari Kengashlari sessiyasiga tayyorgarlik ishlariga rahbarlik qiladi, sessiyani chaqiradi, sessiya chiqish deputatlarini va aholini xabardor qiladi, sessiya ishiga rahbarlik qiladi, hamda sessiyada qabul qilingan qarorlarni imzolaydi. Hokimlik lavozimi 1992 yil qabul qilingan "Mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida"gi qonun asosida ta'sis etildi.

Hokimlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan miqdorda birinchi o'rinbosar va o'rinbosarlarga ega bo'ladi. Shuningdek, hokim apparati kotibiyatdan, boshqarmalar, bo'limlar va boshqa bulinmalaridan iborat bo'lib, ularning tashkil etilish tartibi va

faoliyat yuritishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan tegishli Nizomlar asosida belgilanadi.

Xalq deputatlari kengashlari va hokimlarning vakolat muddati, Asosiy Qonunimizning 101-moddasiga asosan besh yil hisoblanadi. Hokimlarning o'zlarining amaliy faoliyatlarida O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, yuqori turuvchi idoralarning qarorlari va farmoyishlari, tegishli xalq deputatlari kengashlari qarorlarini amalga oshirish ishini ta'minlaydilar.

Hududni ijtimoiy-iktisodiy rivojlantirishning eng muhim muammolarini muhokama qilish uchun hokim huzurida Maslahat Kengashi tuziladi, uning tarkibiga Hokimning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, kotibiyat boshlig'i kiradi.

Hokimning qaroriga muvofiq Maslahat Kengashi tarkibiga xalq deputatlari va boshqa tashkilotlardan bo'lgan vakillar ham kirishi mumkin. Maslahat Kengashi majlislari zarurat bo'lib qolganda hokim tomonidan chaqirtiriladi va uning rahbarligida o'tkaziladi. Majlis kun tartibini hokim tasdiqlaydi, Kengash majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni ko'rib chiqish uchun tuman va shahar hokimlari, xalq deputatlari Kengashining doimiy komissiyalarining raislari, bo'limlar, bosh boshqarmalar rahbarlari, jamoatchilik va xo'jalik tashkilotlarining, ommaviy axborot vositalarining vakillari qatnashadi. Majlislarni tayyorlash va o'tkazish hokim tomonidan uning vakolatini hamma muddatiga tasdiqlanadigan reglamentga muvofiq amalga oshiriladi. Majlisning borishi haqida bayonnoma yozib boriladi.

Muhokama qilingan masalalar bo'yicha hokim tomonidan qaror yoki farmoyishlar qabul qilinadi va imzolanadi. O'zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimi 1996 yil 30 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy monopoliya ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida"gi qonunda O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'laklari Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyat, tuman, shahar, shahardagi tuman, qishloq, ovul va shahar qo'rg'onidan iboratdir, - deyilgan.

O'zbekiston Respublikasining xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari faoliyatining tashkil etilishi O'zbekiston fuqarolari tomonidan umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish orqali oshkoralik yo'li bilan amalga oshiriladi.

Xalq deputatlari Kengashlariga deputatlar saylovi, 1994 yil 5 mayda qabul qilingan "Xalq deputatlari viloyat, tuman (shahar) deputatlari saylovi to'g'risida"gi qonun bilan amalga oshiriladi, xalq deputatlari Kengashlariga deputatlarni saylash huquqi 18 yosh, saylanish huquqi esa 21 yoshdan deb belgilangan. Saylovlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ularning vakolat muddatidan ularning vakolat muddatining tugashiga kamida 3 oy qolganida tayinlanadi.

Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga deputatlar saylashda 60 tadan ko'p bo'lmagan, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga deputatlar saylashda 30 tadan ko'p bo'lmagan hududiy saylov okruglari tuziladi. Saylov komissiyalari tuziladi, saylov kunidan 3 oy oldin deputatlikka nomzod ko'rsatish boshlanadi. Viloyat va Toshkent shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlarni siyosiy partiyalar xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari hamda fuqarolarning tashabbuskor guruhlarini ko'rsatadi.

Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish huquqiga siyosiy partiyalar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va fuqarolarning tashabbuskori guruhlarini egadirlar. Siyosiy partiyalar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan qonunda belgilangan tartibda saylov kunidan kamida 6 oy oldin ro'yxatdan o'tkazgan bo'lishi lozim. Saylov o'tgandan so'ng saylangan xalq deputatlari Kengashlarining birinchi sessiyasi kechi bilan uch haftalik muddat ichida chaqirtiriladi va u eng keksa deputatlardan biri tomonidan ochiladi, rais saylanguncha sessiyani olib boradi. Sessiyada Mandat komissiyasi tuziladi, so'ng doimiy komissiya a'zolari belgilab olinadi. Doimiy komissiya o'z faoliyatini "O'zbekiston Respublikasining Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonun va komissiya faoliyati chiqish nizom asosida yuritadi. Bundan tashqari hokimliklar huzurida hududning ijtimoiy-iktisodiy rivojlanishiga qarab komissiyalar tizimi turli xil bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 100-moddasida: mahalliy hokimiyat organlari konstitutsiyaviy vazifalari belgilangan. Ular quyidagilar:

- qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;



- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;
- mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig`imlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg`armalarni hosil qilish;
- mahalliy kommunal xo`jalikka rahbarlik qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- fuqarolar holati aktlarini qayd etishni ta`minlash;
- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O`zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Mahalliy hokimiyat organlari o`z hududida fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta`minlaydi, fuqarolik holati aktlarini qayd qiluvchi organlarning faoliyatiga rahbarlik qiladi. Agar tuman va kichik shaharlarda bu ishlarni bevosita mahalliy hokimiyat organlari amalga oshirsalar, viloyatlarda va Toshkent shaharlarida bu vazifa shu joyda adliya organlari orqali yo`lga qo`yiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati o`z vakolatlariga taalluqli turli masalalarni tegishli hududda ijro qilinishi majburiy bulgan hujjatlar qabul qilish bilan hal qiladilar. Ularning qabul qilayotgan qarorlarining samaradorligi ularning sinchkovlik bilan tayyorlashga va qonunchilikda ko`rsatilgan ma`lum talablarning bajarilishiga ko`p jihatdan bog`liq.

Birinchidan, xalq deputatlari Kengashi va hokimining har bir qarori aniq ma`lumotlarga asoslangan bo`lishi lozim.

Ikkinchidan, Kengash yoki hokim qabul qiladigan har bir qaror keng ma`noda tejamkor bo`lishi shart.

Qaror va boshqa hujjatlar ishlab chiqilishi va tayyorlanishida aniq maqsadning ifodalanishini ta`minlab beradi.

Hokimlarning ijro va vakillik organlari tizimiga boshchilik qilish joylarda davlat hokimiyatining amalga oshirilishida ma`sul shaxsni belgilaydi.

Konstitutsiyaning 102-moddasiga ko`ra: viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va vazifasidan ozod etiladi, tegishli viloyat va Toshkent shahar xalq deputatlari sessiyasida tasdiqlanadi. Bu holat viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli hududidagi vakili ekanligini bildiradi. Hokimlarning bu tartibda shakllanishi markaziy va mahalliy hokimiyat o`rtasida ichki bir bog`lanishni yuzaga keltiradi va ularning mustahkamligini ta`minlaydi.

Viloyat tarkibidagi tuman va viloyatga bo`ysunuvchi shaharlar hokimlari viloyat hokimi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi, tegishli hudud xalq deputatlari Kengashi sessiyasi tomonidan tasdiqlanadilar

Shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar va tumanga bo`ysunuvchi shaharlar hokimlari shahar hokimi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari shahar kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

O`zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida»gi qonunda xalq deputatlari Kengashi va hokimning faoliyatida qonuniylikning kafolatlari belgilangan. Ushbu qonunning 26-moddasiga muvofiq, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining qarorlari Konstitutsiya va qonunlarga, Respublika Prezidentining farmonlari qarorlari va farmoyishlariga zid bo`lmasligi kerak. Aks holda ular O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan bekor qilinadi.

Qonunchilikda davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning ariza va xatlarini ko`rib chiqishning ma`lum tartibi belgilangan. O`zbekiston Respublikasida «Fuqarolarning murojaatlari to`g`risida»gi qonunga binoan, hokimlar ariza va xatlar bo`yicha qilingan ishlarining hisobini olib boradi va hokimlarning zimmasiga ularni to`g`ri va o`z vaqtida ko`rib chiqilishini nazorat qilish yuklatilgan.

Hokimlarning vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- mamlakatimizda va xorijiy mamlakatlarda viloyat, tuman va shaharning rasmiy vakili sifatida ishlarni amalga oshirish;
- boshqa hududlar bilan shartnoma va bitimlar tuzish;
- O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonun va boshqa huquqiy hujjatlarini, Vazirlar Mahkamasi va o`z hududidagi xalq deputatlari Kengashi qarorlarining bajarilishi ta`minlash;
- investitsiya, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dasturlarini, valyuta jamg`armasi loyihalarining bajarilishini, madaniy-tarixiy yodgorliklarni asrashni, tabiiy va kommunal xo`jaligi resurslaridan

kengrok foydalanishi, atrof-muhit himoyasini, inson huquqlari va shaxs erkinligini, fuqarolar sog'lig'ini himoyalashni va o'z hududidagi boshqa vazifalarni hal qilishni ta'minlash;

- tegishli hududda amaldagi qonun va qarorlarga zid bo'lgan barcha harakatlar korxona, tashkilot va jamiyatlar, birlashma, assotsiatsiya, shuningdek, quyi organlar tomonidan qabul qilingan hujjatlarni bekor qilish;
- tegishli hududda o'z vakolati doirasidan kelib chiqib, barcha yuridik va jismoniy shaxslar bajarishi shart bo'lgan qarorlar qabul qilish;
- ma'muriy hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish, ularni tegishli xalq deputatlari Kengashi tasdig'iga taqdim etish;
- mahalliy byudjet kirim va chiqimlari ko'rsatkichlariga aniqlik kiritish, shuningdek byudjetning bajarilishi yuzasidan hisobot tayyorlab Kengash sessiyasi tasdig'iga taqdim etish;
- o'z muavinlarini, tizim bo'limlari rahbarlarini tayinlash va lavozimidan ozod qilish, o'z devoni tizimini tuzib, ularga rahbarlar tayinlash.

#### **4. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tushunchasi, shakllanish tartibi va vakolatlari.**

Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir yilligidagi yig'ilishida «posyolka va ovullar, mahallalar o'zini-o'zi boshqarish asosida ish yuritadi», deb ta'kidlagan edi.

«Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonun yangi tahrirda 1999 yil 14 aprelda qabul qilindi. Ushbu qonunga ko'ra o'zini-o'zi boshqarish organlarini ikki bosqichda: oldin yangi qishloq, shahar va ovullar tuzib, undan keyin shahardagi mahallalarda oldingi mahalla qo'mitalari o'rnida tuzilishi belgilandi.

O'zini-o'zi boshqarish organlarining saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun va o'zini-o'zi boshqarish organlari saylov to'g'risidagi Oliy Majlis qarori bilan belgilanadi.

O'zini-o'zi boshqarish har qanday demokratik tuzumning asosini tashkil etadi. O'zini-o'zi boshqarish organlari amaliy ish olib borishi uchun yig'in raisi (oqsoqol)ni va uning maslahatchilarni saylaydi. Bu saylov har 2,5 yilda bo'ladi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari fuqarolarga jamoat va davlat boshqaruv ishlarida qatnashish huquqini yo'lga qo'yishda yordam beradi, o'z hududida ijtimoiy va xo'jalik masalalarni echadi, ommaviy va madaniy tadbirlar uyushtiradi, davlat hokimiyat organlari ishlarida va O'zbekiston Respublikasi qarorlariga amal qilishda, Prezident Farmonlari Respublika hukumati, xalq deputatlari Kengashi va hokimiyatlar qarorlarini bajarishda fuqarolarni birlashtiradi.

1999 yil noyabr oyida Respublika Oqsoqollar Kengashi tuzildi va tarkibi belgilandi. O'zbekiston «Oqsoqollar Kengashi» va Respublika «Mahalla» jamg'armasi fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada to'g'ri yulga qo'yishda moddiy va ma'rifiy jihatdan ko'maklashmoqda.

O'zini-o'zi boshqarish organlari moliyaviy resurslari xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tomonidan ajratiladigan byudjet mablag'laridan, fuqarolar va mehnat jamoalarining ixtiyoriy xayr-ehsonlaridan, xayriya jamg'armalari va mahalliy hokimiyat tomonidan ajratib beriladigan mablag'lardan tashkil topadi.

O'zini-o'zi boshqarish organlarining moliyaviy mablag'lari bankdagi mustaqil hisob raqamlarida saqlanadi, ular tomonidan mustaqil tasarruf etiladi va olib qo'yilishi mumkin emas.

Qonunga muvofiq o'zini-o'zi boshqarish organlarining moliyaviy qarorlari, shuningdek rais (oqsoqol)ning xatti-harakatlari ustidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

## **19-Mavzu. Sud hokimiyatining tashkil etilishi va O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi. 2 soat.**

### **Reja:**

- 1. O'zbekiston Respublikasida sud tizimining konstitutsiyaviy asoslari va sud hokimiyati tizimi.**
- 2. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining tashkil etilishi va odil sudlovning Konstitutsiyaviy tamoyillari.**
- 3. Prokuratura organlarining tushunchasi va tizimi.**
- 4. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining vakolatlari va faoliyat tartibi.**

### **1. O'zbekiston Respublikasida sud tizimining konstitutsiyaviy asoslari**

Huquqiy demokratik davlat - erkin fuqarolik jamiyatida sud hokimiyatining mavqei yuksak sanaladi, binobarin, adolatni ta'minlovchi mahkama sifatida aynan sud e'tirof etiladi.

Sud hokimiyati bu sudlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari ustuvorligi prinsipiga so'zsiz rioya qilish asosida jinoiy, fuqarolik, xo'jalik ishlarini va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rish bo'yicha vakolatli organdir.

Sud hokimiyati davlat hokimiyatining alohida mustaqil shahobchalaridan biri bo'lib, jamiyat hayotida odil sudlovni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradi. Odil sudlov o'z mohiyatiga ko'ra, davlat faoliyati hisoblanadi, bunda vakolatli sud muassasasi huquq normalari talablarini buzish oqibatida kelib chiquvchi nizomi holatlarini muhokama etib, hal etadi.

Mamlakatimizda sud hokimiyatining konstitutsiyaviy huquqiy maqomi, tuzilishi va faoliyat yuritishning qonuniy asosi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi (yangi tahrirdagi 2000 yil 14 dekabr) qonuni bilan belgilanadi.

Konstitutsiyada mustahkamlanishicha, «O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati tizimi quyidagi sudlardan tashkil topgan:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi.
  2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi.
  3. O'zbekiston Respublikasining Oliy xo'jalik sudi.
  4. Qoraqalpog'iston Respublikasining Fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari.
  5. Harbiy sudlar.
  6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jalik sudi, viloyat va Toshkent shahar xo'jalik sudlari.
- O'zbekiston Respublikasida ishlarning toifalariga qarab sudlarning ixtisoslashuvi amalga oshirilishi mumkin.

Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «Sudlar tug'risida»gi qonuniga muvofiq sodiqlik, mustaqillik, kollegiallik, oshkoralik va sudyalarning huquqlarining tengligi sud tizimi faoliyatining asosiy prinsiplaridir.

Sud ishlari ichida eng asosiy vazifa odil sudlovni amalga oshirish hisoblanadi. Shuningdek, sud hokimiyatining ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi vakolatlari ham mavjud:

- 1) konstitutsiyaviy nazorat;
- 2) davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatlari hamda ular tomonidan qabul

qilingan qarorlarining qonuniyligini tekshirish;

3) sud hukmi va qarorlarining ijrosini ta'minlash;

4) sudlarga tegishli ma'muriy huquqbuzarlik holatlarini ko'rib, tekshirib chiqish;

5) sud amaliyotidan kelib chiqib, amaldagi qonunchilik masalalari bo'yicha tushuntirish vakolati;

6) sudyalarning tarkibining shakllanishida ishtirok etish va uning organlariga yordam berish vakolati.

Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgan.

Sud hokimiyati faoliyatining konstitutsiyaviy qoidalari O'zbekiston Respublikasining "Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida", "Sudlar to'g'risida", "Harbiy sudlarining faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi Nizom", Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi, Fuqarolik-protsessual kodeksi, Xo'jalik-protsessual, Ma'muriy javobgarlik kodeksi, Mehnat kodeksi, Jinoyat ijroiya kodeksi va boshqalarga tayanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 108-109-moddalarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudning huquqiy holati mustahkamlangan. Unga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radi.

Konstitutsiyaviy sud siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan – Konstitutsiyaviy sud raisi, rais o'rinbosarlari va sudyalardan, shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi vakilidan iborat tarkibida saylanadi.

Konstitutsiyaviy sudning raisi va a'zolari deputat bo'la olmaydilar. Konstitutsiyaviy sudning raisi va a'zolari, siyosiy partiyalari va harakatlarning a'zosi bo'lishlari va boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashlari mumkin emas.

Konstitutsiyaviy sud sudyalari daxlsizlik huquqidan foydalanadilar. Konstitutsiyaviy sud sudyalari o'z faoliyatlarida mustaqildirlar va faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bo'ysunadilar (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 108 – moddasi).

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi:

1) Qonunlarning va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilgan boshqa hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Prezidenti farmonlarining, hukumat qarorlarining, davlat hokimiyati mahalliy organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomalarning va boshqa majburiyatlarning O'zbekiston Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi;

2) Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

3) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining normalariga sharh beradi.

4) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlarni ham ko'rib chiqadi.

Konstitutsiyaviy sudning qarorlari matbuotda e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Ularga qat'iy va ular ustidan shikoyat qilish mumkin emas. Konstitutsiyaviy sudni tashkil etish va uning faoliyatini ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi esa "Sudlar to'g'risida"gi qonun asosida faoliyat olib boradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha sudlari, viloyat, shahar, tumanlararo, tuman sudlari va harbiy sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib boradi va ularning ishlarini umumlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida va nazorat tartibida ko'radi. U o'zi birinchi instansiya sifatida ko'rgan ishlarni apellatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat berish (protest bildirish) huquqiga ega bo'lgan shaxslarning xohishiga ko'ra apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rishi mumkin. Apellatsiya tartibida ko'rilgan ish kassatsiya tartibida ko'rilmaligi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, sudlov hay'atlari raislari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalardan iborat bo'lib, quyidagi tarkibda

ish olib boradi:

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati;

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati;

Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati;

Harbiy hay'at.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi eng yuqori sudlov instansiyasi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudlarining raislaridan iborat tarkibda ish olib boradi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi rais va sudyalardan iborat bo'ladi. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi rais, sudyalar va xalq maslahatchilaridan iborat bo'ladi. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi tarkibida ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalar ham faoliyat olib boradi.

Harbiy sudlar tizimi «Sudlar to'g'rsida»gi qonunda belgilab berilgan va qonunning 39-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudlari tizimi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Harbiy hay'ati, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, okrug va hududiy harbiy sudlardan iborat.

Harbiy sudlar tizimida asosiy bo'g'in okrug va hududiy Harbiy sudlar hisoblanadi, ular faqat birgina funksiyada, birinchi instansiya bo'yicha o'z vakolat doirasida ishlarni ko'rib chiqish huquqiga egadir. Viloyat sudi maqomiga tenglashtirilgan O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi harbiy sudlar tizimida o'rta bo'g'in hisoblanadi.

Harbiy sud tizimida eng yuqori sud instansiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi bo'lib, uning tarkibiga harbiy hay'at kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi xo'jalik sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudining, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida, kassatsiya tartibida va nazorat tartibida ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining tushuntirishlari xo'jalik sudlari tomonidan bajarilishini nazorat qiladi, quyi xo'jalik sudlari faoliyatini tekshiradi, xo'jalik sudlarining ishini tashkil etish ijobiy tajribasini o'rganadi, umumlashtiradi va ommalashtiradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi rais, uning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari, sudlov hay'atlarining raislari, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi sudylaridan iborat bo'lib, quyidagi tarkibda ish olib boradi:

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Rayosati;

Fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni hal etish bo'yicha sudlov hay'ati;

Ma'muriy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etish bo'yicha sudlov hay'ati.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumi O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik

sudi sudyalari va Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi raisidan iborat tarkibda ish olib boradi.

## **2. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining tashkil etilishi va odil sudlovning Konstitutsiyaviy tamoyillari.**

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" asarida: "...Sud tizimini isloh qilish, avvalo, hukm chiqaruvchi sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlashga qaratilishi kerak. Faqat shunday qilganda, hozir sudni jazolovchi organ deb biladigan odam sudga o'z huquqlari va erkinliklarini, manfaatlarini himoya qilish lozim bo'lgan organ sifatida murojaat qiladigan bo'ladi. Ana shundagina sud hokimiyatning haqiqiy mustaqil tarmog'iga aylanadi", deb ta'kidlash bejiz emas.

Sud hokimiyati boshqa hokimiyat tarmoqlaridan holi ravishda faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga amal qilish va bir qator prinsiplariga rioya etish zarur bo'ladi.

Qonuniylik odil sudlovning asosiy tamoyillaridan biridir "Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar".

Qonuniylik deganda barcha davlat va nodavlat organlari hamda tashkilotlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlar va ularga muvofiq keladigan boshqa me'yoriy hujjatlar talablariga og'ishmay amal qilish va ijro etish tushuniladi.

Bunday tamoyil odil sudlov uchun davlat faoliyatining ushbu turi, yuqorida uni ta'riflashda qayd qilinganidek, qonun talablariga rioya etgan holda va unda belgilangan fuqarolik va jinoyat ishlarini ko'rib chiqish tarkibiga og'ishmay amala qilish bilan chambarchas bog'liqligi sababli alohida ahamiyat kasb etadi. Qonunga rioya qilinmaydigan joyda odil sudlov haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Bu ko'proq zo'ravonlik bo'ladi, bunday «odil sudlov» o'zining ijtimoiy funksiyasini bajarishga qodir emas.

Sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasida berilgan bo'lib, unga ko'ra «Sudyalarning mustaqildirlar, faqat qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi». Shu bilan birga "Har bir kishi o'zining huquqlari va burchlarini hamda unga qo'yilgan jinoiy aybning asosligini belgilash uchun to'liq teng huquqlilik asosida o'z ishining mustaqil va holis sud tomonidan oshkora tarzda va adolatlilikning hamma talablariga rioya qilgani hamda ko'rib chiqilishi huquqiga egadir. Sudlar mustaqilligi tamoyilining mohiyati sudning tashqaridan aralashuvisiz, qandaydir tazyiqsiz yoki boshqacha ta'sir ko'rsatishsiz, qonun talablariga qat'iy rioya qilgan holda mas'ul qarorlar qabul qilish uchun real imkoniyat beradigan sharoitlarni ta'minlashga intilishdan iborat.

Sudning mustaqilligi asosan ikkita asosiy element yig'indisidan tashkil topadi: bu sud hokimiyati va sudyalarning o'zlarining tashkiliy (institutsional) va funksional mustaqillikdir.

Sud hokimiyati tashkiliy mustaqilligining mohiyati sudlar hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tarmoqlariga bo'ysunmasligi va xolis hamda mustaqil bo'lish lozimligi haqidagi g'oyadan iborat. Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari hokimiyatning vakolatlariga kiradigan qarorlarni qabul qilish mumkin emas. Bundan tashqari, sudlar faoliyatining moliyalashtirishi faqat qonun chiqaruvchi hokimiyat tasdiqlaydigan davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan markazlashtirilgan tartibda amalga oshiriladi. Ularning moddiy – texnika ta'minoti va faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan vositalarga doir ishlarning tashkil etilishi "Sudlar to'g'risida"gi qonunning 11-moddasiga muvofiq, maxsus vakolatli organ tomonidan bajariladi.

Sudlarning funksional mustaqilligi sudyalarning ishlarni hal etishda faqat Konstitutsiyaga va qonunga bo'ysinishini nazarda tutadi. Odil sudlovni amalga oshirishning protsessual kodekslarga binoan belgilanadigan qoidalari sudyalarning ishlarini kimlarningdir fikrlari, talablaridan holi bo'lgan holda ko'rib chiqish va hal etishi, shu jumladan sudyalarning maslahatida o'zining ishiga doir fikr mulohazalarni bayon qilishni ta'minlashi lozim. Jumladan, sud faqat ushbu ishga daxldor sud

tarkibiga kiradigan sudyalar ishtirokida maslahat xonasida ish yuzasidan qaror chiqaradi. Boshqa shaxslarning qatnashishiga esa yo'l qo'yilmaydi.

Sudyalar ham, shuningdek, maslahat paytida bildirilgan mulohazalarni oshkor qilishlari mumkin emas.

Qonun oldida tenglik – bu qonunlarda mustahkamlangan qoidalarining hamma fuqarolarga nisbatan bir xildagi qo'llanilishidir. Bunda nafaqat huquqlarning berilishi balki, ularni amalga oshirilishini tartibga soladigan qonunlarga muvofiq javobgarlik qo'llanilishi ham nazarda tutiladi. Huquqlardan foydalanish imkoniyati real bo'lishi uchun qonun har xil sabablarga ko'ra o'z huquqlari va manfaatlarini himoya qila olmaydigan shaxslarga qo'shimcha kafolatlar belgilaydi (voyaga yetmaganlar, jismoniy nuqsoni yoki ruhiy kasallar va h.k.).

Fuqarolarning sud himoyasida bo'lish huquqining ta'minlanishi tamoyili O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasida o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra "Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy hatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi".

Sud himoyasida bo'lish huquqi yuridik yordam olish huquqi bilan chambarchas bog'liqdir, chunki qonunlarni, ularni qo'llash amaliyotini, sudlarda ishlarni yuritish tajribasini bilmasdan turib, sud himoyasida bo'lish imkoniyatlarini samarali amalga oshirish mumkin emas. Yuridik kasblarni egallagan kishilar bunday xususiyatlarga ega bo'ladi. Shuning uchun ham, ular sudda o'zini himoya qilishga muhtoj kishilarga yordam berishi kerak.

Aybsizlik prezumtsiyasi tamoyili. "Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda oshkora ko'rib chiqib, uning aybi aniqlamaguncha, u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi". "Jinoyat sodir etishda ayblanayotgan har bir kishi uning aybdorligi unga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadigan sudda oshkora ko'rib chiqish yo'li bilan qonuniy tartibda belgilanmagunigacha aybdor emas deb hisoblanishi huquqiga ega" dir.

Ushbu tamoyil faqat ishlarni jinoyat sudida ko'rib chiqish asosida amal qiladi, aybsizlik prezumtsiyasi inson huquqlari sohasidagi nufuzli xalqaro hujjatlar: inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (11-modda). Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (14-modda). Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa Konvensiyasi (6-modda 2-qism) qoidalariga muvofiq keladi. Odil sudlovni amalga oshirishning ushbu Konstitutsiyaviy tamoyili ayblanuvchining nafaqat jinoyat protsessidagi shu bilan birga, u subyekt sifatida qatnashadigan barcha ijtimoiy munosabatlaridagi huquqiy maqomini belgilaydi. Hatto, ayblanuvchi hibsdan saqlanayotgan bo'lsa, sud hukmi qonuniy kuchga kirgunga qadar uning mehnatga oid, ommaviy va boshqa huquqlari hamda erkinliklari saqlanib qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 113-moddasiga ko'ra, barcha sudlarda ishlar ochiq ko'riladi. Ishlarni ochiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo'l qo'yiladi. "Har bir kishi har qanday jinoiy ayblovi, unga qo'yilayotgan jinoiy ayblovi ko'rib chiqishda yoki qandaydir fuqarolik jarayonida uning huquqlari va majburiyatlarini belgilashda ishning qonun asosida tashkil etilgan vakolatli, mustaqil va holisi sud tomonidan adolatli va oshkora tartibda ko'rib chiqish huquqiga ega" dir.

"Sudlar to'g'risida"gi qonunning 7-moddasi sudlov ishlarini yuritishning oshkoralik tamoyilini nazarda tutadi. Ushbu modda mazmunida shunday xulosa kelib chiqadiki, «oshkoralik» tamoyili «sudda ishlarning ochiq ko'rishi» atamasining sinonimi sifatida ishlatiladi. Bu tamoyil, shuningdek FPKning 10-moddasi, XPKning 8-moddasi va JPKning 19-moddasi bilan ham tartibga solinadi.

Uning mohiyati shundan iboratki, u yoki bu sud ishi bo'yicha protsess ishtirokchisi bo'lmagan fuqarolarning ham ishining ko'rib chiqishida, sud muhokamasi paytida ishtirok etish imkoniyati ta'minlanadi. Bu sud faoliyatining yaxshilanishiga ko'maklashadi, uni vujudga keltiradigan masalalarning hal etilishiga ko'proq ma'suliyat bilan yondashishga majbur qiladi, fuqarolarni qonuniylikni mustahkamlash ruhida tarbiyalashga ta'sir ko'rsatadi, tevarak atrofdagilar uchun profilaktik ahamiyat kasb etadi va shu tariqa, jamoatchilikning odil sudlov ustidan nazorat yuritishning o'ziga xos shakli hisoblanadi.

Sud ishlarini yuritish tili tamoyili. 1966 yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi

xalqaro paktning 14-moddasi 3-qismiga ko`ra, “Har bir kishi unga qo`yilgan har qanday jinoiy ayblovning ko`rib chiqilishida, agar u sud jarayonida qo`llanilayotgan tilni tushunmasa yoki bu tilda so`zlamasa, bepul tarjimon xizmatidan foydalanish huquqiga egadir”.

“O`zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o`zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joyidagi ko`pchilik aholi so`zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlarini olib borayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to`la tanishishi va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so`zlash huquqi ta`minlanadi”.

Huquqiy muhofaza qilish organlarining mansabdor shaxslari protsess ishtirokchilariga ularning huquqlarini va jumladan, tarjimon xizmatlaridan foydalanish o`zining ona tilida so`zlash, bayon etish huquqi borligini tushuntirishlari shart. Tergov va sud hujjatlari ham bunday shaxslarga ular tushunadigan tilga tarjima qilingan holda topshiriladi. Bundan tashqari sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxsga dastlabki tergovda va ishning sudda ko`rib chiqilishida majburiy tartibda himoyachining ishtirok etishi ta`minlanadi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining himoyalani sh huquqi bilan ta`minlanishi tamoyili: “Ayblanuvchi himoyalani sh huquqi bilan ta`minlanadi. Tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Fuqarolarga, korxona, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun advokatura faoliyat ko`rsatadi. Advokaturani tashkil etish va uning ish tartibi qonun bilan belgilanadi”.

Har bir kishi unga qo`yilayotgan har qanday jinoiy ayblovni ko`rib chiqishda o`zi tanlagan himoyachi ishtirokida sudlanish va o`zini shaxsan yoki o`zi tanlagan himoyachi orqali himoya qilish, mabodo u himoyachiga ega bo`lmasa, u bunday huquqqa ega ekanligi haqida xabardor qilinishi va odil sudlov manfaatlari talab qilgan hollarda uning uchun himoyachi xizmatlariga pul to`lash imkoniyati bo`lmaganida har qanday holda bepul tartibda tayinlangan himoyachiga ega bo`lish huquqiga egadir.

Bu tamoyil Konstitutsiyaning 116-moddasidan tashqari «Sudlar to`g`risida»gi qonunning 10-moddasi va JPKning 20-moddasida ham mustahkamlab qo`yilgan. Ushbu me`yorlar jinoiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarda himoyalani sh huquqi borligini nafaqat e`lon qiladi, balki ayni bir vaqtda, bu huquqning kafolatlanganligini ham alohida ta`kidlaydi. O`zbekiston Respublikasida Sudlar ushbu tamoyillarga asoslangan holda ish yuritib qonunga itoatkorlik ruhida faoliyat ko`rsatadilar.

### **3. Prokuratura organlarining tushunchasi va tizimi.**

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov “qonunning ustuvorligi huquqiy davlatning asosiy prinsipidir. U hayotning barcha sohalarida qonunning qat`iyan hukumronligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hech bir xo`jalik yurituvchi va ijtimoiy siyosiy tashkilot, hech bir mansabdor shaxs, hech bir kishi qonunga bo`ysunish majburiyatidan xolos bo`lishi mumkin emas, qonun oldida hamma barobardir” deb ta`kidlagan edi. Jamiyatni demokratik rivojlantirishni strategik maqsad va vazifalariga mos keluvchi huquqni muhofaza etuvchi idoralardan biri prokuratura zimmasiga yuklatilgan.

Prokuratura konstitutsiyaviy huquqning muhim instituti bo`lib, u faoliyatini qonunning ustunligini har tomonlama qaror toptirishga, huquq tartibotni mustahkamlashga, O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi bilan mustahkamlangan, oliy qadriyat darajasida ko`tarilgan inson va fuqarolarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy shaxsiy huquqlari hamda erkinliklarini, shuningdek davlat mustaqilligini, ijtimoiy davlat tuzumini, siyosiy va iqtisodiy tizimlarni, milliy guruhlar va hududiy tuzilmalarning huquqlarini g`ayriqonuniy tajovuzlardan muhofaza qilishni ta`minlashga qaratilgandir.

“Prokuratura” so`zi lotin tilidan olingan bo`lib, “yordamlashaman”, “ko`maklashaman” ma`nosini bildiradi.

Prokuratura tushunchasi va mohiyatiga aniqlik kiritishda prokuratura faoliyati xususiyati,



prokuratura tizimining davlat mexanizimlarida tutgan o`rni, shuningdek vazifalaridan kelib chiqish kerak. Prokuratura o`z vakolati doirasida davlat funksiyalarini amalga oshirishda, davlat amaliyotining mustaqil tarmog`ini tashkil etuvchi qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi va qonunchilik va huquq tartibotni ta'minlashda ishtirok etadigan huquqni muhofaza etadigan organdir.

O`zbekiston Respublikasining prokuratura organlarining konstitutsiyaviy huquqning muhim instituti sifatida shunda ko`rishimiz mumkinki, uni konstitutsion norma bilan alohida mustahkamlanganligidir. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXIV bobi prokuraturaga ajratilgan bo`lib, bu bob o`z ichiga 118, 119, 120, 121- moddalarni qamrab oladi.

Konstitutsiyaning 118- moddasida “O`zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan O`zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo`ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi” deyilgan. Bu konstitutsion normaga ko`ra, O`zbekiston Respublikasi prokuraturasi, Bosh prokuror rahbarlik qiladigan prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimiga egadir. Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi prokuratura organlari o`z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo`ysunib amalga oshiradilar. Prokurorlar o`z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga va siyosiy maqsadlarni ko`zlovchi boshqa jamoat birlashmalariga a'zolikni to`xtatib turadilar.

Prokuratura tizimi O`zbekiston Respublikasi miqiyosida Bosh prokurorga bo`ysinuvchi prokuratura organlari yig`indisidan iborat bo`lib, bu fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish, qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishining nazoratini ta'minlash bilan umumiy funksiyani amalga oshiradi.

O`zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining tizimi quyidagicha belgilangan:

1. O`zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi.
2. Qoraqalpog`iston Respublikasi prokuraturasi.
3. Viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari.
4. Tumanlar va shaharlar prokuraturalari.
5. Viloyat prokuraturasiga tenglashtirilgan O`zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi.
6. Viloyat prokuraturasiga tenglashtirilgan O`zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi.
7. Tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan harbiy okruglar, hududiy okruglar, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar.
8. O`zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish Departamenti va uning joylardagi bo`linmalari.

#### **4. O`zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining vakolatlari va faoliyat tartibi.**

**O`zbekiston** Prokuratura organlarining asosiy vazifalari bo`lib quyidagilar hisoblanadi: O`zbekiston Respublikasi xududida qonun ustunligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo`riqlanadigan manfaatlarini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iboratdir.

Prokuratura organlari faoliyatining huquqiy asoslari bo`lib, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O`zbekiston Respublikasi «Prokuratura to`g`risida»gi qonuni, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Xukumat qarorlari, O`zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining amaldagi buyruqlari, ko`rsatmalari, nizom va yo`riqnomalari va boshqa qonun va

qonun osti hujjatlari bilan belgilangan.

Prokuratura davlat torganlari tizimida muhim o`rin tutadi. Konstitutsiyaning 83-moddasiga muvofiq, Respublika Bosh prokurori qonunchilik tashabbusiga ega. Shuningdek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati majlislarida ishtirok etish huquqiga ega.

Prokuratura organlarini moliyalashtirish va moddiy-texnika ta'minoti respublika budjeti mablag`lari hisobidan markazlashtirilgan tartibda amalga oshiriladi.

Prokuratura organlari xodimlari «Prokuratura to`g`risida»gi qonunga ko`ra daxlsizlik huquqidan foydalanadilar.

Prokuratura organlari o`z faoliyatini qonunchilikda belgilangan quyidagi asosiy yo`nalish bo`yicha amalga oshiradi:

- vazirliklar, davlat qo`mitalari, idoralar, fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;
- fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish;
- O`zbekiston Respublikasi qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo`mitalari va idoralarning harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;
- tezkor qidiruv faoliyatini, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarni ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;
- jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish.
- sudlarda jinoiy ishlar ko`rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to`g`risidagi ishlarini hamda xo`jalik nizolarini ko`rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo`lgan sud hujjatlariga protest keltirish;
- soliq intizomini mustaxkamlashga, soliq, valuta soxasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashishga, shuningdek davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;
- ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-xuquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog`ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;
- qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish.

Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo`nalishlaridan biri bo`lib quyidagi hisoblanadi. Vazirliklar, davlat qo`mitalari, idoralar, fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat qilish.

Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo`nalishlaridan biri bo`lib quyidagi hisoblanadi. O`zbekiston Respublikasi qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo`mitalari va idoralarning harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish. Bu yo`nalish bo`yicha prokuratura organlarida «qurolli kuchlar, milliy xavfsizlik xizmati va bojxona organlarida qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish» boshqarmasi va bo`limlari faoliyat ko`rsatadi.

Tezkor qidiruv faoliyatini, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarni bajarilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish yo`nalishi bo`yicha prokuratura, O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshira borib, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini himoyalash

choralarini ko`radi. Quyi prokuraturalarda soha bo`yicha ishlarni tegishli viloyat va ularga tenglashtirilgan prokurorlar bilan birgalikda tashkil qilinadi. Ichki ishlar vazirligi organlarining jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, tergov, tezkor qidiruv faoliyatini nazorat qiladi va muvofiqlashtiradi. Jinoyatchilik va huquqbuzarlik hamda profilaktik tadbirlar ahvolini muntazam tahlil qilib boradi. Tergovoldi tekshiruvlari, surishtiruv, tergov, tezkor qidiruv va ma'muriy huquqbuzarliklarga oid qonunlarga rioya qilinishini nazorat qiladi.

Fuqarolarni ushlash, qamoqqa olish va boshqa protsessual majburlov choralarini qo`llashda ularning konstitutsiyaviy va protsessual huquqlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Sudlarda jinoiy ishlar ko`rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to`g`risidagi ishlarini hamda xo`jalik nizolarini ko`rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo`lgan sud hujjatlariga protest keltirish; prokuratura to`g`risidagi qonunga muvofiq «sudlarda jinoyat ishlari ko`rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to`g`risidagi ishlarni hamda xo`jalik ishlarini ko`rilishida ishtirok etish, qonunlarga zid bo`lgan sud hujjatlariga protest keltirish» prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo`nalishlaridan biri hisoblanadi.

“Prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari: birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralikdir”.

**“Huquqshunoslik, O`zbekiston Konstitutsiyasi” fani bo`yicha xorijiy manbalar:**

1. Лазарев В.В., Липен С.В. Теория государства и права: Учебник. Под ред. акад. Абдурахманова К.Х. –М.: Рос. экон. акад., 2008. -620 с.
2. Алексеев С.С. Теория государства и права: Учебник. –М. 1998.
3. Василенково Р.Т. Административное право.-М.: 1990
4. А.К.Безина. Вопросы теории трудового права и судебная практика. Издательство Казанского университета, 1979.
5. Комментарии к гражданскому кодексу Российской Федерации. –М., Юринформцентр, 1997.
6. Брагинский М.И., Витрянский В.В. Договорное право. –М.: 1997.
8. Гражданский Кодекс Республики Казахстан. –Алматы: Жети жарғи, 2000
9. Международная Организация Труда Конвенции и рекомендации (1957-1990). Том 1-2, Международное Бюро Труда, Женева, 1991.
10. В.К.Колосов. Материальная ответственность рабочих и служащих, М., «Экономика», 1998.

